O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO‘LIMI
XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI

XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI

Axborotnoma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo‘jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2026-2/4
Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi
2006 yildan boshlab chop qilinadi

Xiva-2026

Bosh muharrir:
Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.
Bosh muharrir o‘rinbosari:
Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.

Tahrir hayati:

Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d.,prof.	*Mirzayeva Gulnara Saidarifovna, b.f.d.*
Abdullayeva Muborak Maxmusovna, b.f.d., prof.	*Najmeddinov Axmad Raxmatovich PhD, dotsent*
Abduhalimov Bahrom Abduraximovich, t.f.d.,prof.	*Pazilov Abduvayeit, b.f.d., prof.*
Agzamova Gulchexra Azizovna, t.f.d.,prof.	*Razzaqova Surayyo Razzoqovna, k.f.f.d., dos.*
Aimbetov Nagmet Kalliyevich, i.f.d., akad.	*Ramatov Bakmat Zaripovich, q/x.f.n., dos.*
Ametov Yakub Idrisovich, b.f.d., prof.	*Raximov Raxim Atajanovich, t.f.d., prof.*
Babadjanov Xushnut, f.f.n., prof.	*Raximov Matnazar Shomurotovich, b.f.d., prof.*
Bahodirova Feruza Bahodir qizi, PhD, dots,	*Raximova Go‘zal Yuldashovna, f.f.f.d., dos.*
Bobojonova Sayyora Xushnudovna, b.f.n., dos.	*Ro‘zmetov Baxtiyar, i.f.d., prof.*
Bekchanov Davron Jumanazarovich, k.f.d.	*Ro‘zmetov Dilshod Ro‘zimboyevich, g.f.n., k.i.x.*
Buriyev Xasan Chutbayevich, b.f.d., prof.	*Ruzmetov Davron Ibrogimovich, PhD, dots.*
Gandjayeva Lola Atanazarovna, b.f.d., k.i.x.	*Salayev San’atbek Komilovich, i.f.d., prof.*
Davletov Sanjar Rajabovich, tar.f.d.	*Saparbayeva Gulandam Masharipovna, f.f.f.d.*
Durdiyeva Gavhar Salayevna, arx.f.d.	*Saparov Kalandar Abdullayevich, b.f.d., prof.*
Ibragimov Baxtiyor To‘laganovich, k.f.d., akad.	*Safarov Alisher Karimdjanovich, b.f.d., dos.*
Izzatullayev Zuvayd, b.f.d., prof.	*Sirojov Oybek Ochilovich, s.f.d., prof.*
Ismailov Is’haqjon Otabayevich, f.f.d., dots.	*Sobitov O‘lmasboy Tojaxmedovich, b.f.f.d., k.i.x.*
Jumaniyozov Otaboy, f.f.d., prof.	*Sotipov Goyipnazar, q/x.f.d., prof.*
Jumaniyozov Zoxid Otaboyevich, f.f.n., dos.	*Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, b.f.d., akad.*
Jumanov Murat Arepbayevich, b.f.d., prof.	*Xolliyev Askar Ergashevich, b.f.d., prof.*
Kadirova Shaxnoza Abduxalilovna, k.f.d., prof.	*Xolmatov Baxtiyor Rustamovich, b.f.d.*
Qalandarov Nazimxon Nazirovich, b.f.f.d., k.i.x.	*Cho‘ponov Otanazar Otojonovich, f.f.d., dos.*
Karabayev Ikramjan Turayevich, q/x.f.d., prof.	*Shakarboyev Erkin Berdikulovich, b.f.d., prof.*
Karimov Ulug‘bek Temirbayevich, DSc	*Ermatova Jamila Ismailovna, f.f.n., dos.*
Kurbanbayev Ilhom Jumanazarovich, b.f.d., prof.	*Eshchanov Ruzumboy Abdullayevich, b.f.d., prof.*
Kurbanova Saida Bekchanovna, f.f.n., dos.	*O‘razboyev G‘ayrat O‘razaliyevich, f-m.f.d.*
Qutliyev Uchqun Otoboyevich, f-m.f.d., prof.	*O‘rozboyev Abdulla Durdiyevich, f.f.d.*
Lamers Jon, q/x.f.d., prof.	*Hajiyeva Maqsuda Sultonovna, fal.f.d.*
Maykl S. Enjel, b.f.d., prof.	*Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.*
Maxmudov Raufjon Baxodirovich, f.f.d., k.i.x.	*Xudayberganova Durdona Sidiqovna, f.f.d.*
Mirzayev Sirojiddin Zayniyevich, f-m.f.d., prof.	*Yuldashev Xamza Kamalovich, PhD*
Matniyozova Hilola Xudoyberganovna, b.f.d., prof.	*Zaripova Ranojon Zaripovna, PhD, dotsent*
Masharipova Feruza Jumanazarovna, PhD	

Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-№2/4 (135), Xorazm Ma’mun akademiyasi, 2026 y. – 225 b. – Bosma nashrning elektron varianti - https://www.mamun.uz/bulletin

ISSN 2091-573 X
Muassis: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi mintaqaviy bo‘limi – Xorazm Ma’mun akademiyasi

© Xorazm Ma’mun akademiyasi noshirlik bo‘limi, 2026

MUNDARIJA

Abdiyev S.A. Anthropocentric and pragmatic interpretation of somatic paremiological units in English and Uzbek linguoculture 5
Abdiyeva Z.O., Norkulova Sh.T. Hissiyot tushunchasining psixolingvistik va semantik mohiyati 8
Abdumalikova D. “Andisha va g'urur” hamda “Fotima va Zuhra” romanlarida badiiy psixologizm va personaj nutqi 10
Abdumusayeva Z.O. Polisemantik frazeologizmlarning lisoniy xususiyatlari 13
Abduraimova D.B., Abdullayeva N.R. O‘zbek tilshunosligida fitonim nomlari bilan bog‘liq maqollarning o‘rganilishi 15
Abdurahimova M. Investigation of uzbek native words and foreign loanwords 18
Abduvaliyeva F. Speech acts and their functions in communication 21
Abduvaxobov G‘.G‘. Omonimlar lug‘atining ma’lumotlar bazasini loyihalash 23
Adizova N.I. Turizmga oid matnlarda pretsedent nomlarning milliy-madaniy birlik sifatida aks etishi va tasnifiy xoslanishi 26
Akmuratova M.Sh., Ismailov M.I. O‘zbek xalq maqollarining leksik-semantik xususiyatlari 29
Alaudinova D.R., Egamberdieva M.B. Semantic, structural and stylistic features of phrasal verbs in english 33
Aliyeva N.X., Azizova S.V. Politeness strategies in linguocultural communication 35
Aliyeva N.X., Tursunaliyev J.Q. Patterns of metaphor use in english and uzbek 38
Aliyeva N.X., Tursunaliyev J.Q. Semantic similarities and differences of metaphors in english and uzbek 40
Aliyeva Z.A. Mirativlik kategoriyasining tarkibiy asoslari 42
Allayorova F.G‘. Slenglarning leksik-semantik xususiyati 45
Arolov O‘. Shomon chorlovlarida mifologik homiylar obrazi 48
Aslanova H.A. Alisher Navoiy ijodida - maktubot 50
Asqarova M.B. “Temurnoma”da qo‘llangan etnografik realiyalar xususida 53
Axmedova S.H., Ibodova M.B. Ingliz va o’zbek tillarida antroponimlarning semantik va lingvomadaniy jihatlari 57
Axrorova Z.A. Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” asarida vaqt munosabatini ifodalovchi yordamchi so‘zlar 59
Axtamova F.U. Xrestomatik asarlarning ingliz va o‘zbek adabiyotidagi o‘rni 61
Azimova S.X., Ubaydullayeva N.X. The role of cultural norms and values in the formation and interpretation of requests and offers in english and uzbek discourse 64
Azizova P.A. Koreys tilida sinonimiya masalasi va uning leksik-semantik xususiyatlari 67
Baxadirov J.A. Ingliz va rus tillaridagi insonlarni qattiq iztirobga soluvchi shok reklamalar 69
Begimov O‘.X. Deskriptivizm va preskriptivizm tilshunoslikdagi ikki asosiy yondashuv sifatida 72
Bekmirzayeva D.O. Jefri Choser hikoyalarida hazil va istehzo 74
Boboqulova G.Sh. Madaniy realiyalarni ifodalovchi birliklarning tarjimada berilishi 77
Botirova Sh. O‘zbek adabiyotida mif tushunchasi tarixiy tadriji 80
Burkhonova Y.B., Jurayev I.M. The theoretical foundations of phraseology. The general characteristics of phraseology and its significance in the language system 84
Burkhonova Y.B., Jurayev I.M. Key researchers of phraseology and main theoretical approaches 86
Choriyeva S.M., Turayeva U.Sh. The study of female image in the literature 89
Djumaeva N., Abdukholikova A. Language, mind, and emotion: psycholinguistic interpretation of mental-state lexemes 91
Egamberdiyeva G.E. She’riyatda ayol tuyg‘ularining ifodalanishi 94
Elmanova M.T., Ro’ziyeva S. Character development in William Faulkner’s novels 97
Eltazarov J.D., Isroilova M.A. Sinonim va antonimlarning o‘rganilish tarixi 100
Ergasheva G.A. The peculiarities of using prepositional phrases in the predicate position in spoken language 102
Ergeshova S.B., Maksutova B.B., Tazhibaeva G.T., Sotvoldiyev M.A. Representation of antonyms in proverbs forming the concept of "space" in the paroemical picture of the world 105
Ernazarova Sh.E. Ranglarga oid metaforalarning milliy ongda lingvistik ifodalanishi 108
Esonova M.D., Maxmudova N.R. A comparative semantic analysis of proverbs containing zoonyms in uzbek and english 112
Esonov U.Dj. The role of borrowings in modern russian 114

Faxriyeva D.T. Chingiz Aytmatov ijodida ayol obrazining badiiy konsepsiyasi 116
G'aniyeva D.A., G'ofurova N.M. Stylistic loss and compensation in uzbek and english translation 119
Gulboyeva Z.R., Yadigarova S.B. Ingliz va o'zbek tillaridagi bosh kiyim nomlarining leksik-semantik jihatlari 121
G'ulomov D.D., Xoshimov D.D. Kundalik janri va uning adabiyotshunoslikdagi nazariy-ma'rifiy ahamiyati 124
Hamroeva Z.Sh. Comparative analysis of original and translated texts (short texts) 126
Haydarova Z.A. Vasiliy Shukshin va Xayriddin Sulton asarlarida krossover usuli hamda ijodkor konsepsiyasi 129
Hazratova Z.J. Abdulla Qodiriy hayoti va adabiy merosi 131
Imomova I.S. Frazeologizmlarning ma'no va ifoda xususiyatlari "Abulfayzxon" dramasi misolida 134
Iskandarova M.M. Ingliz va o'zbek tillarida modallik kategoriyasining funksional asoslari 136
Islomova O.O. Concepts of Equivalence and Adequacy in the Translation of Political Texts 139
Ismailov I.O., Sapayeva G.U. "Firdavsu-l-iqbol" muqaddimasida baroati istehlol poetikasi va lingvofalsafiy talqin 142
Ismailova S.T. Meditsinaga oid matnlarda terminologik leksikaning o'rni 147
Isroilova O'.I. Bardoshlilik konseptining lingvistik, madaniy va diskurs tahlili 150
Jumaeva N.K. Globallashuv jarayonida turk hikoyachiligida inson ichki olami va ijtimoiy o'zgarishlar uyg'unligi 152
Jumanazarova R.O'. Hozirgi zamon ingliz tili qo'shma gaplarining o'zbek tilida tarjimasi va ular sintaktik semantik moslashuvi 154
Jumayev O.K. Olamni lisoniy anglashda antroponimlarning ahamiyati 157
Jurayev I., Akbarova S. The significance of learning many languages as a young child 159
Kakharova M.Yu. The style and skill of Abdulla Qahhor in writing his literary works 162
Karimova X.Sh. O'zbek tili ta'limiy korpusida jasorat semali leksemalar berilishi 164
Karimquliyeva G.H. Semantic analysis of english polysemous words in everyday communication 167
Kaxxarova Sh.Sh. Ketrin Mensfild hikoyalarining tarjimasida lingvokulturologik xususiyatlar 170
Khamrayeva G.M. The categories of direct and indirect evidentiality in the english and uzbek fiction context 172
Kulatova G.Dz. The linguistic nature of lacuna in intercultural communication 175
Luxmonova M.Sh., Abbasova N.K. Translation of cultural references: problems of conveying jokes and idiomatic expressions from english into russian practical research, experiments, and translation recommendations 178
Mahmudjonova N.U., Jurayev I.M. Badiiy adabiyotda devona obrazining g'oyaviy-falsafiy funksiyalari 180
Masodikova Z.H., Eshonqulova M.T. O'zbek va nemis tillaridagi tarjima jarayonining lingvistik muammolari 182
Matkarimova N.M. Xitoy tilshunoslarining asarlarida xitoy tili ritorik savollari haqida 185
Mirzatillayeva Z.R., Aliyeva N.X. Ingliz va o'zbek tillarida "dasturxon" ga oid frazeologik birliklar 187
Mirzayeva D.I., Shodmonova Sh. Stylistic and linguistic features of similes in uzbek and english languages 190
Mirzayeva D.Sh. Pragmatic Functions of Imperative Constructions in English and Uzbek 192
Nabiyeva A. Ingliz va o'zbek hikoyalarida bolalik olamining yoritilishi 195
Nashirova Sh.B., Omonova M.X. Cultural values and worldview reflected in english wisdom literature 197
Nazarov S.Sh. Adaptation and Standardization Issues in the Translation of Medical Terminology 200
Nekboyeva R.Z. Fitonim komponentli maqollarning tipologik xususiyatlari 203
Nematilloyeva F. Ingliz va o'zbek tillarida qo'shma gaplarning funksional-semantik xususiyatlari 205
Nortoyeva O'. M. Asar mohiyatini ochib berishda milliy-axloqiy munosabatlarni ifodalovchi lisoniy birliklar tarjimasining o'rni va ahamiyati 208
Nuraliyeva O.N. Nutq etiketi va pragmalingvistik jihatlari 212
Nurjonova A. Tarixiy romanlarda ayol timsoli va milliy ma'naviyat ifodasi 215
Obloyorova Sh., Usmonova Sh. Theoretical principles of word formation and sociolinguistics 218
Ochilova V. Til ko'nikmalari tizimi va ularning shakllanish nazariyasi 220
Olimova X.V. Atoqli otlarning konnotativ o'zgarishlari va diskursdagi funksiyasi 223

UDC 81'27:811.111:811.512.191

ANTHROPOCENTRIC AND PRAGMATIC INTERPRETATION OF SOMATIC PAREMIOLOGICAL UNITS IN ENGLISH AND UZBEK LINGUOCULTURE

S.A.Abdiyev, mustaqil tadqiqotchi, Samarqand davlat chet tillar institute, Samarqand

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz va o'zbek lingvomadaniyatida somatik paremiologik birliklarning antropotsentrik va pragmatik talqini tahlil qilinadi. Inson tanasi a'zolarini ifodalovchi somatik komponentlarga ega maqol va matallar inson markazli ma'nolarni — tashqi qiyofa, ichki olam, his-tuyg'u, axloqiy fazilatlar va ijtimoiy xulq-atvorni — ifodalovchi lingvistik vosita sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot antropotsentrik paradigma doirasida somatik birliklarning didaktik, baholovchi va ekspressiv pragmatik funksiyalarini yoritadi. Qiyosiy tahlil natijalari ingliz va o'zbek paremiologiyasida umumiy kognitiv asoslar mavjud bo'lishiga qaramay, ularning pragmatik yo'nalishi va madaniy urg'ularida milliy o'ziga xosliklar mavjudligini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *antropotsentrizm; pragmatika; somatik paremiologik birliklar; lingvomadaniyat; ingliz va o'zbek tillari; paremiologik diskurs*

Аннотация. *В статье рассматривается антропоцентрическая и прагматическая интерпретация соматических паремиологических единиц в английской и узбекской лингвокультуре. Паремии с соматическими компонентами, обозначающими части человеческого тела, анализируются как средства репрезентации человекоцентричных значений, связанных с внешностью, внутренним миром, эмоциями, нравственными качествами и социальным поведением. Исследование проводится в рамках антропоцентрической парадигмы с акцентом на прагматические функции соматических единиц, включая дидактическое воздействие, оценочность и экспрессивность. Сопоставительный анализ выявляет сочетание универсальных когнитивных механизмов и национально-культурной специфики в английской и узбекской паремиологии.*

Ключевые слова: *антропоцентризм; прагматика; соматические паремиологические единицы; лингвокультура; английский и узбекский языки; паремиологический дискурс*

Abstract. *This article explores the anthropocentric and pragmatic interpretation of somatic paremiological units in English and Uzbek linguoculture. Somatic proverbs containing body-related lexical components are analyzed as linguistic means of representing human-centered meanings, including physical appearance, inner world, emotions, moral values, and social behavior. The study focuses on the role of somatic units within the anthropocentric paradigm, emphasizing their pragmatic functions such as didactic influence, evaluation, and expressive impact in discourse. A comparative analysis reveals that while English and Uzbek somatic paremiological units share universal cognitive foundations based on embodied experience, they differ in pragmatic orientation and cultural emphasis. The findings highlight national-cultural specificity in the interpretation and use of somatic proverbs and contribute to the development of linguoculturology, pragmatics, and comparative paremiological studies.*

Keywords: *anthropocentrism; pragmatics; somatic paremiological units; linguoculture; English and Uzbek languages; proverb discourse*

Modern linguistic research increasingly focuses on the anthropocentric paradigm, according to which language is viewed as a reflection of human cognition, experience, and cultural values. Within this framework, paremiological units occupy a special place, as they encapsulate collective knowledge, ethical norms, and pragmatic intentions formed through centuries of social interaction. Proverbs do not merely describe reality; they evaluate, instruct, and influence behavior. Somatic paremiological units—proverbs containing lexical elements denoting parts of the human body—are particularly significant in anthropocentric studies. Body-related lexemes serve as cognitive anchors that connect abstract meanings to human physical experience. In English and Uzbek linguocultures, somatic components such as *head/bosh*, *heart/yurak*, *eye/ko'z*, and *hand/qo'l* function as culturally

loaded symbols through which human character, emotions, and social behavior are conceptualized. The aim of this article is to analyze the anthropocentric and pragmatic interpretation of somatic paremiological units in English and Uzbek linguoculture, highlighting their role in representing human-centered meanings and communicative intentions.

Anthropocentrism in linguistics presupposes that language is organized around the human being as the central subject of cognition and communication. According to this approach, linguistic units reflect how people perceive themselves, others, and the surrounding world [Stepanov, 2001 – p. 45]. Paremiological units are inherently anthropocentric, as their semantic core is usually connected with human behavior, moral qualities, emotions, and social relations. Somatic elements reinforce this anthropocentrism by grounding abstract evaluations in bodily experience. For instance, intelligence, honesty, courage, and perception are metaphorically expressed through references to the head, heart, and eyes. In both English and Uzbek paremiology, somatic units function as linguistic tools for modeling the human personality and social identity, which confirms their relevance for anthropocentric analysis.

Somatic paremiological units often describe human external appearance as a marker of social evaluation. In English, proverbs such as *"Don't judge a book by its cover"* implicitly refer to physical appearance, warning against superficial judgment. Uzbek proverbs, for example *"Ko'zga ko'ringan hamma narsa oltin emas"*, similarly emphasize the deceptive nature of outward looks. Although these proverbs do not always explicitly name body parts, when somatic elements such as *eye/ko'z* appear, they highlight the role of visual perception in social interaction. The anthropocentric nature here lies in the human tendency to assess others based on visible features.

The inner world of a human being—emotions, moral values, intentions—is predominantly conceptualized through somatic components. The *heart/yurak* metaphor occupies a central position in both linguocultures. English proverbs like *"A kind heart is better than a sharp mind"* associate the heart with kindness and morality, whereas Uzbek proverbs such as *"Yuragi pok odam yomon bo'lmaydi"* strongly emphasize spiritual purity and ethical integrity. This difference reflects cultural priorities: English paremiology balances emotion and rationality, while Uzbek paremiology foregrounds moral and spiritual values [Maslova, 2001 – p. 92].

Pragmatics studies language in use, focusing on communicative intentions and contextual meanings. Somatic paremiological units perform several pragmatic functions in discourse.

One of the primary pragmatic functions of proverbs is didacticism, which allows collective experience to be transmitted in a condensed and authoritative form. Somatic paremiological units convey moral lessons and social norms in an indirect yet highly persuasive manner, avoiding explicit instruction while guiding behavior through metaphorical embodiment. For example, the English proverb *"Use your head before you speak"* and its Uzbek counterpart *"Avval boshing bilan o'yla, keyin gapir"* pragmatically function as advisory statements promoting rationality, foresight, and self-control in communication. The presence of somatic elements significantly enhances the evaluative force of such proverbs. By referring to bodily organs associated with cognition, these expressions activate embodied schemas that are universally accessible to speakers. As a result, the moral message becomes more intuitive, memorable, and resistant to direct refutation. In this sense, somatic paremiological units operate as implicit normative regulators, embedding evaluation within culturally sanctioned metaphors rather than explicit moral judgment, which explains their enduring pragmatic effectiveness [Kövecses, 2010 – p. 67].

In addition to their didactic role, somatic paremiological units perform a strong expressive and emotive function. References to body parts such as the *heart*, *eyes*, or *hands* intensify emotional evaluation and enable speakers to articulate complex affective states, including approval, disapproval, empathy, irony, or emotional distance. These somatic references serve as affective amplifiers that translate abstract emotional attitudes into concrete, bodily imagery. For instance, the English proverb *"Out of sight, out of mind"* employs the somatic concept of sight to express emotional detachment and the weakening of interpersonal bonds over distance. The Uzbek proverb *"Ko'zdan yiroq, ko'ngildan yiroq"* conveys a comparable pragmatic meaning; however, the inclusion of *ko'ngil* (heart/soul) adds a deeper emotional dimension, emphasizing inner feeling rather than cognitive

absence alone. This difference illustrates how similar somatic metaphors may produce varying degrees of emotional intensity depending on cultural conventions of emotional expression.

Although somatic metaphors are largely universal due to shared bodily experience, their pragmatic interpretation is shaped by national-cultural factors. English paremiology frequently reflects individualistic values, such as personal responsibility, autonomy, and rational self-management. Proverbs containing *head* often stress logical thinking, self-discipline, and independent decision-making, reinforcing the cultural ideal of the self-reliant individual.

In contrast, Uzbek paremiology demonstrates a predominantly collectivist worldview, where somatic units are closely linked to social ethics, communal harmony, and moral duty. The frequent use of *yurak* in ethical and evaluative contexts points to the cultural importance of sincerity, compassion, and trust within interpersonal relations. Here, the body is not merely an individual cognitive instrument but a moral mediator within the community. Thus, anthropocentric interpretation of somatic paremiological units reveals how universal embodied experience is culturally reframed through value systems, social norms, and ethical priorities specific to each linguoculture.

From a comparative pragmatic perspective, both English and Uzbek somatic paremiological units rely on similar cognitive mechanisms—namely, metaphorical mapping from body to abstract meaning—yet differ significantly in pragmatic orientation and communicative purpose. English proverbs tend to function primarily as tools of personal guidance, focusing on individual efficiency, self-improvement, and practical reasoning. By contrast, Uzbek proverbs often serve to regulate social behavior and maintain interpersonal balance. This distinction is particularly evident in proverbs involving the somatic component *hand/qo'l*. English expressions such as *"Many hands make light work"* emphasize cooperation as a means of increasing productivity and efficiency. Uzbek equivalents like *"Qo'l qo'lni yuvadi"*, however, foreground reciprocity, mutual obligation, and ethical interdependence. The proverb implies not merely cooperation but a moral expectation of support within social networks.

Consequently, comparative pragmatic analysis demonstrates that somatic paremiological units operate as culturally embedded communicative strategies. While grounded in universal bodily experience, they reflect distinct models of social interaction, revealing how language encodes not only cognition but also culturally specific patterns of behavior and value judgment.

The study demonstrates that somatic paremiological units in English and Uzbek linguoculture are deeply anthropocentric and pragmatically multifunctional. By linking bodily experience with abstract meanings, these units serve as effective tools for modeling human behavior, emotions, and moral values.

Anthropocentric analysis reveals that somatic components function as symbolic representations of both the external and inner world of a person, while pragmatic analysis shows their role in persuasion, evaluation, and social regulation. Despite universal cognitive foundations, the pragmatic realization of somatic paremiological units reflects distinct national-cultural priorities.

The results of this research contribute to the fields of linguoculturology, comparative paremiology, and pragmatic linguistics, offering new insights into the interaction between language, culture, and human cognition.

REFERENCES:

1. Kövecses, Z. *Metaphor: A Practical Introduction*. Oxford: Oxford University Press, 2010.
2. Maslova, V. A. *Linguoculturology*. Moscow: Academia, 2001.
3. Mieder, W. *Proverbs: A Handbook*. Westport: Greenwood Press, 2004.
4. Stepanov, Yu. S. *Constants: Dictionary of Russian Culture*. Moscow: Akademicheskiy Proekt, 2001.
5. Norrick, N. *Proverbial Discourse*. Berlin: Mouton de Gruyter, 1985.

UO’K 81’23:159.942

HISSIYOT TUSHUNCHASINING PSIXOLINGVISTIK VA SEMANTIK MOHIYATI

Z.O. Abdiyeva, magistrant, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Termiz
Sh.T. Norkulova, dots., PhD, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Termiz

Annotatsiya. *Ushbu maqolada “hissiyot” tushunchasining psixolingvistik va semantik mohiyati tahlil qilinadi. Muallif hissiyotning psixologik asoslari, uning til tizimidagi ifodalanish shakllari hamda emotsional leksikaning semantik xususiyatlarini yoritadi. Maqolada psixolingvistik, semantik va lingvokulturologik yondashuvlar asosida hissiyotlarning nutqdagi o‘rni, ularning kognitiv va pragmatik funksiyalari izohlangan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, hissiyot tildagi baholovchi va konnotativ ma’nolarning manbai, shuningdek, shaxsning nutqiy faoliyatida motivatsion omil sifatida namoyon bo‘lishi aniqlangan.*

Kalit so‘zlar: *hissiyot, psixolingvistika, semantika, emotsional leksika, kognitiv tahlil, pragmatika, til va tafakkur, lingvokulturologiya.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается психолингвистическая и семантическая сущность понятия «эмоция». Автор анализирует психологические основы эмоций, их проявление в языковой системе и семантические особенности эмоциональной лексики. На основе психолингвистического, семантического и лингвокультурологического подходов раскрывается роль эмоций в речи, а также их когнитивные и прагматические функции. Результаты исследования показывают, что эмоция является источником оценочных и коннотативных значений в языке и выступает мотивационным фактором в речевой деятельности человека.*

Ключевые слова: *эмоция, психолингвистика, семантика, эмоциональная лексика, когнитивный анализ, прагматика, язык и мышление, лингвокультурология.*

Abstract. *This article analyzes the psycholinguistic and semantic essence of the concept of “emotion.” The author examines the psychological foundations of emotions, their representation in the language system, and the semantic features of emotional vocabulary. Based on psycholinguistic, semantic, and linguocultural approaches, the study discusses the role of emotions in speech, as well as their cognitive and pragmatic functions. The results show that emotion serves as both a source of evaluative and connotative meanings in language and as a motivational factor in human verbal activity.*

Keywords: *emotion, psycholinguistics, semantics, emotional vocabulary, cognitive analysis, pragmatics, language and thought, linguoculture.*

His-tuyg‘ular insonning ma’naviy hayotida markaziy o‘rinni egallaydigan, nutq va fikrlash jarayonlariga bevosita ta’sir qiluvchi ruhiy holatdir. Til va his-tuyg‘ular bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, insonning ichki kechinmalari, hissiy munosabatlari va psixologik holati ko‘pincha tashqi tomondan nutq orqali ifodalanadi. Shuning uchun his-tuyg‘ularning mazmuniy mohiyatini, ularning kodlanishini va til orqali idrok etilishini o‘rganish zamonaviy tilshunoslikning, xususan, psixolingvistika va semantikaning eng muhim sohalaridan biridir [1].

Psixolingvistika nutq paytida his-tuyg‘ularni idrok etish va ifodalashning shakllanishi, qayta tiklanishi va mexanizmlarini o‘rganadi. Bu jarayonda nafaqat so‘zlar va ularning leksik ma’nolari, balki intonatsiya, urg‘u, pauzalar va ovoz tembri kabi prosodik vositalarning ham roli juda muhimdir. Tilning bu ko‘p qatlamli tabiatini tushunish bizga hissiy ma’no qanday shakllanishini, uning nutqda qanday ifodalanishini va kommunikativ jarayonga qanday ta’sir qilishini aniqlash imkonini beradi [2].

Semantika esa his-tuyg‘ularning semantik tuzilishini, konseptual asoslarini va til birliklarida aks etish tamoyillarini o‘rganadi. So‘zlar, frazeologik birliklar, metaforalar va hissiyotlar bilan bog‘liq boshqa lingvistik birliklar inson dunyoqarashini, madaniy qadriyatlarni va psixologik tajribani o‘zida mujassam etadi. Shuning uchun hissiyotlarning semantik talqini nafaqat tilshunoslik, balki psixologiya, madaniyatshunoslik va kognitiv fan uchun ham katta ilmiy ahamiyatga ega.

Zamonaviy tilshunoslik inson omilini markazga qo‘ygan holda, til va tafakkur, til va madaniyat, til va hissiyot o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni chuqur o‘rganishni talab etmoqda. Inson nutqining tabiiy, jonli va ta’sirchan bo‘lishida hissiyotlarning o‘rni beqiyosdir. Hissiyotlar shaxsning ichki dunyosini, kechinmalarini, baho va munosabatlarini ifodalovchi psixik jarayon sifatida nafaqat psixologik, balki lingvistik nuqtayi nazardan ham muhim o‘ringa ega.

Psixolingvistika hissiyotlarni nutq faoliyatining tarkibiy qismi sifatida o‘rganar ekan, semantika esa ularning tildagi ma’no tizimidagi o‘rnini aniqlaydi. Shu bois, “hissiyot” tushunchasining psixolingvistik va semantik mohiyatini tahlil qilish bugungi tilshunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biri sanaladi. Ushbu maqolada hissiyotning psixologik asoslari, uning tilda ifodalanish mexanizmlari, emotsional leksika va semantik tarmoqdagi o‘rni tahlil qilinadi [3].

Psixologik nuqtayi nazardan hissiyot – bu insonning voqelikdagi hodisalar, predmetlar va munosabatlarga nisbatan ichki kechinmalari asosida bildiriladigan subyektiv bahosidir. A.N. Leontev fikricha, hissiyot faoliyatning ichki energiyasidir, u insonni harakatga undaydi va faoliyatni motivatsiya bilan bog‘laydi [1].

Hissiyotlar inson hayotidagi barcha faoliyat turlarida ishtirok etadi: idrok, xotira, tafakkur va nutq jarayonlarida hissiyotlar kognitiv mexanizmni faollashtiradi. Shu bois hissiyot tildagi har qanday ifoda vositasining “ruhiy” komponenti sifatida qaraladi. S.L.Rubinshteyn ham hissiyotlarni shaxs va dunyo o‘rtasidagi munosabatni ifoda etuvchi muhim psixik shakl sifatida ta’riflaydi [2].

Psixolingvistika inson nutq faoliyatida kechadigan psixik jarayonlarni tadqiq etuvchi fan bo‘lib, hissiyotlarning til orqali ifodalanish mexanizmlarini o‘rganadi. Inson nutqi tabiatan emotsional jarayonlar bilan uyg‘un holda namoyon bo‘ladi. Hissiyotning til vositasida ifodalanishida faqat so‘zning lug‘aviy ma’nosi emas, balki intonatsiya, pauza, urg‘u, ovoz tembri kabi prosodik unsurlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois psixolingvistika nutqning mazmuniy, emotsional va prosodik qatlamlarini kompleks tahlil qilib, insonning ruhiy kechinmalari nutq jarayonida qanday shakllanishi va aks etishini ilmiy asosda o‘rganadi. Masalan, “*Men sizni kutdim*” degan oddiy gapning talaffuzi turlicha emotsional holatlarni ifodalashi mumkin: intizorlik, g‘azab, xafa bo‘lish yoki quvonch. Demak, hissiyot tildagi semantik tizimdan tashqari, fonetik va sintaktik qatlamlarda ham aks etadi.

P.V.Simonovning “emotsiyalar nazariyasi”ga ko‘ra, hissiyotlar informatsion ehtiyoj va uni qondirish darajasi o‘rtasidagi nomuvofiqlik natijasida vujudga keladi [6]. Shu bois, emotsional nutq insonning ichki kognitiv jarayonlari bilan chambarchas bog‘langan.

Til tizimidagi hissiyotga oid so‘zlar (emotsional leksika) o‘zining keng semantik strukturasiga ega. “Quvonch”, “g‘azab”, “nafrat”, “muhabbat”, “sog‘inch” kabi so‘zlar nafaqat hissiy holatni bildiradi, balki baholovchi va ekspressiv ma’no yuklamalarini ham o‘z ichiga oladi. Semantik maydon nazariyasi nuqtayi nazaridan, hissiyotga oid so‘zlar o‘zaro bog‘langan semantik tarmoqlar hosil qiladi. Masalan, “quvonch” maydoni “shodlik”, “baxt”, “qoniqish” bilan; “g‘azab” esa “achchiqlanish”, “jahllanish”, “nafrat” bilan semantik jihatdan chambarchas aloqadadir. Shuningdek, har bir emotsional so‘zning denotativ, konnotativ va assotsiativ qatlamlari mavjud. “Muhabbat” so‘zining denotativ ma’nosi – insonning kimdandir yoki narsadan ruhiy zavq olishi, konnotativ jihatdan esa fidoyilik, sadoqat, samimiyat kabi ijobiy qadriyatlarni bildiradi [7].

Har bir xalq madaniyati hissiyotlarni o‘ziga xos tarzda talqin qiladi. O‘zbek xalqining mentalitetida “uyat”, “or”, “vijdon”, “sadoqat” kabi tushunchalar muhim axloqiy-emotsional qadriyatlar sifatida til tizimida mustahkam o‘rnashgan. Ingliz tilidagi pride (“g‘urur”) so‘zi ayrim hollarda salbiy (“manmanlik”) ma’noda ishlatilishi mumkin, holbuki o‘zbek tilida “g‘urur” so‘zi ijobiy – shaxsiy qadriyatni himoya qilish ma’nosida qo‘llaniladi [4]. Bu esa hissiyotga oid so‘zlarning semantik maydonida milliy-madaniy xususiyatlar muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi.

Tilshunos G.Sodiqova o‘z tadqiqotlarida o‘zbek tilida emotsional leksika semantik jihatdan baholovchi, ekspressiv va stilistik qatlamlarga ajralishini ta’kidlaydi [7]. Shu bois, hissiyotlarning semantik tahlili nafaqat lingvistik, balki madaniyatshunoslik yo‘nalishida ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Nutqdagi hissiyotlar so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi kommunikativ maqsadni amalga oshirishga xizmat qiladi. Pragmatik nuqtayi nazardan, hissiy nutq – bu ijtimoiy ta’sir vositasi

hisoblanadi. So‘zlovchi o‘z hissiy holatini nutq orqali ifodalash orqali tinglovchida ma’lum reaksiyani uyg‘otadi. Masalan, “*Qani, tezroq!*” gapining intonatsiyasi g‘azab yoki shoshilishni bildiradi. “*Voy, qanday go‘zal!*” degan ifoda esa hayrat va quvonch hissini ifoda etadi. Bu kabi misollar hissiyotlarning pragmatik funksiyasini yaqqol ko‘rsatadi. Demak, hissiyotning psixolingvistik mexanizmi nafaqat so‘z tanlash, balki kontekst, ohang, mimika va jest kabi ekstralingvistik vositalarni ham o‘z ichiga oladi.

Kognitiv lingvistika hissiyotlarni inson ongidagi konseptual tuzilmalar sifatida o‘rganadi. “Hissiyot” bu ma’noda nafaqat til birligi, balki madaniy konsept sifatida talqin etiladi. Masalan, “muhabbat”, “ona mehri”, “sadoqat” kabi konseptlar o‘zbek madaniyatida chuqur semantik qatlamlarga ega. Kognitiv-semantik tahlil shuni ko‘rsatadiki, hissiyot tushunchasi insonning tajribasi, madaniy qadriyati va ijtimoiy xulqini shakllantiruvchi konseptual birlik sifatida tilda mustahkam o‘rnashgan [8].

Hissiyot tushunchasi insonning psixik hayotini, tafakkurini va nutq faoliyatini birlashtiruvchi ko‘p qirrali hodisadir. Psixolingvistik nuqtayi nazardan hissiyotlar nutqning ichki motivatsion mexanizmini tashkil etsa, semantik nuqtayi nazardan ular tildagi baholovchi, konnotativ va ekspressiv ma’nolarning asosiy manbai hisoblanadi. Til orqali hissiyotlarni ifodalash insonning ichki holatini tashqi kommunikativ shaklga o‘tkazadi. Shu bois, hissiyotning psixolingvistik va semantik mohiyatini o‘rganish zamonaviy tilshunoslikning muhim ilmiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. G‘ulomov A., Madrahimov N. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012.
2. Karimov N. Til va tafakkur munosabati. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2019.
3. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.
4. Leontev A.N. Faoliyat. Ong. Shaxs. – Moskva: Smysl, 1977.
5. Rubinshteyn S.L. Inson va dunyo: Psixologik tadqiqotlar. – Moskva. 1989.
6. Simonov P.V. Emotsiyalar nazariyasi asoslari. – Moskva: Nauka, 1981.
7. Sodiqova G. O‘zbek tilida emotsional leksika va uning semantik tahlili. – Toshkent: Fan, 2020.

UO’K 821.512.133.09-3:82.091

“ANDISHA VA G'URUR” HAMDA “FOTIMA VA ZUHRA” ROMANLARIDA BADIIY PSIXOLOGIZM VA PERSONAJ NUTQI

D.Abdumalikova, mustaqil tadqiqodchi, Farg‘ona Davlat Universiteti, Farg‘ona

Annotatsiya. *Ushbu maqolada opa-singillar obrazi aks etgan asarda badiiy psixologizmdan foydlanish, badiiy psixologizmning qahramonlar ruhiy holatini ochib berishdagi o'rni, obrazlarning o'zaro munosabatlarini ko'rsatishdagi xizmati, shuningdek qahramonlarining asardagi badiiy-estetik funksiyasini oshirishga xizmat qiluvchi yana bir vosita bo'lgan personaj nutqi hamda uning turlari haqida umumiy ma'lumotlar berilgan. Badiiy psixologizm va personaj nutqi aks etgan o'rinlardan asarlar orqali misol keltirilib, tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *obraz, personaj, funksiya, ruhiy tasvir, ong oqimi, personaj nutqi, monolog, diolog, syujet, “Andisha va g'urur”, “Fotima va Zuhra”.*

Аннотация. *В данной статье представлена общая информация об использовании художественного психологизма в литературном произведении, отражающем образ сестер, о роли художественного психологизма в раскрытии психологического состояния персонажей, его функции в показе взаимосвязей между образами, а также об одном средстве, служащем для усиления художественно-эстетической функции персонажей в произведении – речи персонажа и ее типах. Приведены и проанализированы примеры мест, где отражены художественный психологизм и речь персонажа, из литературных произведений.*

Ключевые слова: *образ, персонаж, функция, психологическое описание, поток сознания, речь персонажа, монолог, диалог, сюжет, «Разум и чувства», «Фатима и Зухра».*

Abstract. *This article provides general information on the use of artistic psychologism in a literary work that reflects the image of sisters, the role of artistic psychologism in revealing the psychological state of the characters, its function in showing the relationships between the images, as well as another device that serves to enhance the artistic-aesthetic function of the characters in*

the work – the speech of the персонаж (character) and its types. Examples of places where artistic psychologism and character speech are reflected are cited from literary works and analyzed.

Keywords: *image, character, function, psychological description, stream of consciousness, character speech, monologue, dialogue, plot, "Sense and Sensibility", "Fatima and Zuhra".*

Kirish. "Badiiy asarda to'laqonli inson obrazini yaratishdagi muhim unsurlardan biri *badiiy psixologizm* sanaladi. Badiiy psixologizm deyilganda personaj ruhiyatining ochib berilishi, uning xatti-harakatlari, gap-so'zlarining psixologik jihatdan asoslanishi tushuniladi va u mazkur vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiluvchi qator usul, vositalarni o'z ichiga oladi. Yozuvchi personaj ruhiyatini bevosita yoki bilvosita tasvirlab berishi mumkin. Personaj o'y-kechinmalari, his-tuyg'ularining "ichki monolog", "ong oqimi" tarzida yoki muallif tilidan (o'ziniki bo'lmagan avtor gapi) bayon qilinishi psixologik tasvirning bevosita shakli hisoblanadi. Asarda personaj ruhiyatining uning xatti-harakatlari, gap-so'zlari, yuz-ko'z ifodalari(mimikasi), undagi fiziologik o'zgarishlarni ko'rsatish orqali ochib berilishi bilvosita psixologik tasvirdir." [2]

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Psixologik tasvirdan badiiy asarlarda juda ko'plab o'rinlarda va turli vaziyatlarda foydalaniladi. Masalan, opa-singillar obrazi jonlantirilgan qator romanlarda badiiy psixologizmda foydalanish asarni to'liq tushunishimiz uchun asaosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, Jeyn Ostinning "Andisha va g'urur" romanida opasi Jeynning shamollab qolganini eshitgan Elizabet opasining oldiga borish uchun uch mil yo'lni yolg'iz o'zi, piyoda bosib o'tishi qizning tabiatini va opa-singillarning bir-biriga qanchalik mehribon va g'amxor ekanliklarini badiiy psixologizm orqali ko'rsatib berishga xizmat qilgan. "Chindan-da havotirlanayotgan Elizabet opasini ko'rgani borishga qaror qildi. Ekipaj topishning iloji yo'qligi, uning otda yura olmasligi sabab, Nezerfildga yayov ketishga to'g'ri keldi" [3]. Onasining va boshqa singillarining bu yomg'irli havoda, qolaversa yayov ketishiga qarshilik ko'rsatishlariga qaramasdan Elizabet Nezerfildga yetib keladi.

"Singillari zobitlardan birining xotinlari oldiga ketishdi, Elizabet esa bir daladan ikkinchisiga o'tib, Nezerfildga yetib kelganda u juda charchagan, kiyimlari loy bo'lib, yuzlari tez yurganidan qip-qizarib ketgan edi. Uni Jeyndan boshqa barcha yig'ilgan nonushta qilinadigan xonaga olib kirishdi. Elizabetning kelishidan hamma xayratga tushgan edi: mister Binglining singillari uchun uning shunday vaqtli, shunday havoda va yana uch milni yolg'iz bosib kelishi ishonib bo'lmaydigan voqea edi". [3]

Natijalar. Yuqorida keltirib o'tgan parchamiz opa-singillarning o'zaro munosabatlaridagi ahillikni, qondoshlik rishtasi sirdoshlik aloqalari bilan tutashib ketganini yaqqol ko'rsatib turibdi. Shu bilan birgalikda, faqat bu parchadan emas, butun boshli romanda ham Jeyn va Elizabetning mubosabatlaridagi samimiylik, dugonalik aloqalari va mehr-oqibat rishtalari juda ko'p o'rinlarda ko'zga tashlanadi.

Bundan tashqari qahramonlarining asardagi badiiy-estetik funksiyasini oshirishga xizmat qiluvchi yana bir vosita bu —"*personaj nutqidir*". [3] Personaj nutqi asarda ikki xil holatda kelishi mumkin, *monolog* va *dialog* holatida.

Monolog personajning ichki kechinmalarini, o'z-o'zi bilan ruhiy kurashini ochib berishda katta o'rin tutadi. Shu bois ham monolog ikki turli bo'ladi. Biri ichki monolog, ikkinchisi tashqi monolog. Tashqi monolog ikkilanish, bir qarorga kelolmaslik, g'azablanish kabi holatda kelsa, ichki monolog ruhiy ziddiyatlarni aks ettirishda juda o'rinlidir.

Monolog opa va singil personajlar tuyg'ularini ko'rsatib berishga juda ko'p o'rinlarga xizmat qilgan asar sifatida O'lmas Umarbekovning "Fotima va Zuhra" romanidan parcha keltirib o'tamiz: "Qanisiz, tonggi orzular? Sizni o'ylagan yarim kun burun o'zini baxtli hisoblagan qizni ko'zi yomon ekan. O'z ko'zi o'ziga tegdi. Endi siz yo'qsiz: osmonda, falakda charaqlagan yulduzlardek charaqlab, yurakni yoritib, to'lqinlantirib turgan edingiz. Endi so'ndingiz, orzular. Endi siz yo'qsiz. Sizni o'ylagan qiz ham endi yo'q. Jasadigina hammadan qochib, hammadan uyalib uyi tomon ketyapti. Yaxshi ko'rgan odamlari – otasini ham, Zuhrani ham ko'rgisi yo'q. Kim edi, kim bo'ldi,endi? Nima yomonlik qiluvdi u odamlarga? Nima gunohlari uchun uni bunday xo'rlashdi? Kimlar uni xo'rlaganlar? Nahotki, hayvonsifat bu mahluqlarni yer ko'tarib yursa? Yer! Sen yaxshini ham

yomonni ham bag‘ringga olasan. Nega? Nega yomonni yutib, yaxshini kaftingda olib yurmaysan? Nega hammaga baravar saxiylik qilasan? Yo‘q, yaxshiga saxiyliging kam. Baravar bo‘lganida uni zo‘rlashayotganida hammani, Fotimani ham yutib yuborarding. Yutmading, sho‘rlik qizni azobga qo‘yding.” [5]

Muhokama. Shu bilan bir qatorda, dialogga to‘xtaladigan bo‘lsak, bu orqali personajlarning ichki holati tasviri, xarakter xususiyatlari kabi belgilar namoyon bo‘ladi. Shuningdek, dialog badiiy asar voqealari kechayotgan zamon va makon haqida ham xabar beruvchi omillardan biri hisoblanadi: “Elizabet karetadan sakrab tushib, bolalarni birma bir o‘pdi-da, yugurib ichkariga kirdi. Ichkarida onasining xonasidan tushib kelayotgan Jeynni uchratdi. Ikkalasining ko‘zlari to‘la yosh edi. Quchoqlashib ko‘rishishdi va Elizabet qochoqlardan birorta yangilik bor-yo‘qligini so‘radi.

- Hali yo‘q,- javob berdi Jeyn. – Lekin mana tog‘amiz keldi, endi hammasi joyida bo‘ladi, deb umid qilaman.

- Otam Londondami?

- Ha, senga yozgandim, seshanba kuni ketgan.

- Undan xat kelidimi?

- Bittagina keldi. Chorshanba kuni. Eson-omon yetib kelganini, men undan so‘ragan ishlarni qilganini yozib yuboribdi.

- Onam-chi? U qalay? O‘zinglar qandaysizlar?

- Onam menimcha biroz o‘ziga kelib qoldi. Asablari yomon qaqshagan. Hozir tepada, o‘z xonasida, sizlarni ko‘rib rosa xursand bo‘ladi. Hozircha o‘z xonasidan chiqmayapti. Meri bilan Kitti esa, xudoga shukr, yaxshi yurishibdi.” [3]

Yuqorida keltirib o‘tganimiz personaj nutqida opa-singillarni o‘zaro iliq munosabatini, qolaversa, asar voqealarining ayni qaysi pallaga yetib kelganini bilib olishimiz qiyin emas. Shuningdek, o‘zbek adabiyotidan o‘rin olgan “Fotima va Zuhra” romanida ham opa-singillar o‘rtasidagi diologga qator misollar mavjud:

“- Peshindan keyin kim men bilan bozorga boradi? - so‘radi bitta tuxumni lagancha zihiga urib chaqarkan.

- Men-da, ada, - dedi Zuhra. Tushdan keyin maktabda mening qiladigan ishim yo‘q. Nima olamiz bozordan?

- Bugun bir sizlarni ziyofat qilmoqchiman. Xohlasalaring, uch-to‘rtta o‘rtoqlaringni ham olib kelishlaring mumkin. Oshni devziradan qilib beraman.

- O‘zimiz o‘tiramiz, a, Zuhra?- dedi Fotima. U otasini ayadi. Bitta mehmon ham mehmon, o‘ntasi ham. Buning ustiga, o‘rtoqlaridan hech kim mehmonga chaqirayotgani yo‘q.

- O‘zimiz o‘tiramiz, - unga qo‘shildi Zuhra. San, Rahimalarnikidan uch-to‘rtta plastinka olib kel. O‘yin tushadiganidan. Ada, qizingizni qandoq o‘yanshini ko‘rsangiz? Bunaqasi yo‘q maktabda!

- Qo‘y, ensani qotirma! – zarda qilgandek bo‘ldi Fotima. – Rahimalarnikiga o‘tishim kerak. Kitoblarim bor. Plastinka ham olib kelaman.” [5]

Egizaklar fikrlari bir biridan butkul farqlanishini aks ettirgan yana bir diologni Abdulla Qahhorning “Nurli cho ‘qqilar” hikoyasida uchratamiz:

“– Ering ota-onasidan kechsinmi? – dedi.

– Kechmasa ham... yoshlar yashashi kerak!

– Bularni to‘rqovoqqa solib shipga osib qo‘yish kerakmi? Shu talabni ering qo‘ysa, sen nima der eding?

Zuhra «bunaqa gaplarni sen tushunmaysan» degan ma’noda boshqa gapga o‘tdi:

– Maktabni durustroq bitirdingmi? Sening toleyingga ayam bunaqa bo‘lib qoldilar... Yanagi yil qaysi institutga kirarsan?

Fotima hayron bo‘lib so‘radi:

– Dadamni yolg‘iz tashlab qayoqqa boraman?

– To‘g‘ri, lekin dadam dunyodan o‘tib borayotipti, sen dunyoga endi qadam qo‘yayotibsan!

Fotima esnab:

– Ishga kirdim, fermada sigir sog‘ayotipman...– dedi.

Zuhra birdan boshini ko‘tardi.

– Nima? O‘n yil o‘qib sigir bilan tappidan boshqa narsaga aqling yetmadimi?” [4]

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, badiiy psixologizm asarda qahramonning ichki kechinmalarini ochib beruvchi asaosiy estetik vosita bo'lib, u qahramonning tashqi ko'rinishidan ko'ra ichki olamini ochib berish uchun katta hissa qo'shadi, personaj nutqi esa, asar qahramonining o'ziga xos xarakteri, dunyoqarashi va ruhiy holatini bevosita nutq orqali ifoda etuvchi muhim badiiy element sanaladi. Badiiy psixologizm va personaj nutqining uyg'un qo'llanilishi asarning badiiy-estetik ta'sirchanligini kuchaytirib, o'quvchini qahramon ruhiy holati bilan bevosita muloqotga kirishishiga katta yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Адабий тур ва жанрлар. 1-том – Тошкент, Фан н-ш., 1991.
2.Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent, “Akademnashr”., 2018
3. Jeyn Ostin.Andisha va g‘urur.Toshkent, Yangi asr avlodi., 2021.
4. Абдулла Қаххор. Нурли чўққилар. Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти., 1967.
5. Ўлмас Умарбеков. Toshkent, Янги аср авлоди.., 2005.
6. Ziyo.net

UO’K 811.512.1:81’373.72

POLISEMANTIK FRAZEOLOGIZMLARNING LISONIY XUSUSIYATLARI

Z.O.Abdumusayeva, magistrant, Toshkent amaliy fanlar universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Maqolada frazeologizm va polisemantiklik tushunchasi, polisemantik frazeologizmlarning yuzaga kelish sabablari, frazeologik polisemiyaning o‘zbek tilshunosligida o‘rganilishi, polisemantik frazeologizmlarning lisoniy xususiyatlari, polisemantik frazeologizmlarning boshqa birliklardan farqi kabi masalalar tadqiqi haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *frazeologiya, frazeologik polisemiya, frazeologik omonimiya, idioma, erkin birikma, antroposentrik tilshunoslik, antroposenrtik yondashuv.*

Аннотация. *В статье рассматриваются понятия фразеологии и полисемантичности, причины возникновения полисемантической фразеологии, исследование фразеологической полисемии в узбекской лингвистике, лингвистические характеристики полисемантической фразеологии, отличие полисемантической фразеологии от других единиц.*

Ключевые слова: *фразеология, фразеологическая полисемия, фразеологическая омонимия, идиома, свободное сочетание, антропоцентрическая лингвистика, антропоцентрический подход.*

Abstract. *The article discusses the concept of phraseology and polysemanticity, the reasons for the emergence of polysemantic phraseology, the study of phraseological polysemy in Uzbek linguistics, the linguistic characteristics of polysemantic phraseology, the difference of polysemantic phraseology from other units.*

Keywords: *phraseology, phraseological polysemy, phraseological homonymy, idiom, free combination, anthropocentric linguistics, anthropocentric approach.*

Frazeologiya (gr. phrasis – ifoda va logos – ta’limot) atamasi ikki ma’noda ishlatiladi:

1) til frazeologik tarkibini o‘rganuvchi tilshunoslik sohasi;

2) shu tilning frazeologizmi majmui. Frazeologizm til hodisasi sifatida lison va nutqqa daxldor birlikdir. Frazeologizm ibora, frazeologik birlik, turg‘un birikma, barqaror birikma, frazeologik birikma atamalari bilan ham yuritiladi. Frazeologiya leksikologiya bo‘limining tarkibiy qismidir. Frazeologizm tashkil etuvchisiga ko‘ra qo‘shma leksema, so‘z birikmasi va gapga o‘xshaydi. Biroq ular ko‘proq qo‘shma leksema kabi til jamiyati ongida tayyor va barqaror holda yashaydi. Frazeologik sinonimiya. Sinonimiya - ma’no asosida belgilanadigan hodisa. O‘TILda sinonimiya quyidagicha ta’riflanadi: “til birliklarining ma’no jihatidan yaqinlik, ma’nodoshlik hodisasi”. Ma’nodoshlik hodisasi frazeologizmlarda ham mavjud. Frazeologizmning ma’nodoshlik paradigmasida birliklar ifoda semalari darajasiga ko‘ra farqlanadi: (yaxshi ko‘rmoq) – (ko‘ngil bermoq), (yer bilan yakson qilmoq) – (kulini ko‘kka sovurmoq) , (ipidan ignasigacha) - (miridan sirigacha) , (qilidan quyrug‘igacha) kabi iboralarda “butun tafsiloti bilan” atash semasi umumiy. Ammo ular uslubiy xoslanganlik va bo‘yoqdorlik darajasini ifodalovchi semalari bilan farqlanadi. Frazeologik

sinonimiya masalasining o‘zbek tilshunosligida o‘rganilishi tarixi prof. SH. Rahmatullayevning “O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari” nomli monorgrafiyasida ham qisman o‘z aksini topgan. Prof. SH. Rahmatullayev ta’kidlashicha: “frazeologik sinonimiya uchun umumiy va eng muhim mezon – bu semantik mezondir. Har bir sinonimik uyadagi frazeologik birliklar ob’yektiv borliqdagi bir xil tushunchalarni anglatishi kerak va shu bilan birgalikda, bir xil ma’noni anglatishi shart” Akademik N.M.Shanskiy frazeologik sinonimiya hodisasini quyidagicha ta’riflaydi: “ob’yektiv borliqdagi aynan bir xil predmetni anglatuvchi turli iboralar sinonimik frazeologizmlar deb ataladi”. I.A.Fedosofning fikricha, “yagona umumiy ma’noga ega bo‘lib, bir-birinidan semantik yoki uslubiy ottenkalariga ko‘ra farqlanuvchi iboralarga frazeologik sinonimlar deyiladi”. Frazeologik sinonimlar bilan variantlar o‘rtasida kam bo‘lmagan umumiy tomonlar bor, shu sababdan ko‘pincha ular chalkashtirilib yuboriladi.

Hozirgi tilshunoslikda frazeologik birliklar semantik tuzilishi, funksional imkoniyatlari hamda nutqdagi qo‘llanish xususiyatlari jihatidan alohida ilmiy ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, frazeologizmlarning ko‘pma’nolilik hodisasi — polisemantik frazeologizmlar til tizimining murakkab va kam tadqiq etilgan qatlamlaridan biri hisoblanadi. Ushbu birliklar tilning obrazlilik, ekspressivlik va semantik chuqurlik kabi muhim jihatlarini namoyon etadi.

Polisemantik frazeologizmlar nutq jarayonida kontekstga bog‘liq holda turli ma’nolarni ifodalab, tilning semantik moslashuvchanligini ta’minlaydi. Ularning ma’no ko‘chishi metaforik va metonimik asosda shakllanib, tarixiy, ijtimoiy va madaniy omillar bilan uzviy bog‘liqdir. Shu bois frazeologik polisemiyani o‘rganish nafaqat lingvistik, balki kognitiv va lingvomadaniy nuqtayi nazardan ham dolzarb masala sanaladi.

Bugungi globallashuv sharoitida milliy tillarning o‘ziga xos frazeologik boyligini saqlash va ilmiy asosda tahlil qilish zarurati tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, o‘zbek tilidagi polisemantik frazeologizmlarning lisoniy xususiyatlarini aniqlash, ularning semantik tuzilishi, kontekstual qo‘llanishi va stilistik funksiyalarini tadqiq etish tilshunoslik fanining muhim vazifalaridan biridir.

Frazeologizm — tilda tayyor holda qo‘llanadigan, tarkibiy qismlari alohida ma’noda emas, balki butun holda ko‘chma va barqaror ma’no ifodalovchi birlikdir. Masalan: *ko‘ngli tog‘dek ko‘tarilmoq, tilini tishlamoq*.

Polisemantiklik esa bir til birligining ikki yoki undan ortiq o‘zaro bog‘liq ma’nolarni ifodalash xususiyatidir. Polisemantik frazeologizmlar quyidagi omillar asosida shakllanadi:

a) Metaforik va metonimik ko‘chish

Birlamchi obrazli ma’no vaqt o‘tishi bilan yangi semantik qatlamlar hosil qiladi. Masalan: “Qo‘l ko‘tarmoq”, kimnidir urmoq, taslim bo‘lmoq, ovoz bermoq. Bu yerda *harakat* markaziy semantik yadroni tashkil etadi.

b) Nutqiy kontekst ta’siri

Frazeologizmning ma’nosi nutq vaziyati va kontekst orqali aniqlanadi.

U bahsda qo‘l ko‘tardi → taslim bo‘ldi. *Majlisda qo‘l ko‘tardi* → ovoz berdi

c) Ijtimoiy-tarixiy omillar

Jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy institutlar rivoji natijasida frazeologizm yangi ma’no kasb etadi.

Polisemantik frazeologizmlarning asosiy lisoniy xususiyatlari:

— tarkiban bo‘linmaydi – leksik komponentlar ma’nosi mustaqil emas; barcha ma’nolar bir obrazga tayanadi: *Ko‘zi ochilmoq* – haqiqiy ma’no: uyg‘onmoq, ko‘chma ma’no: anglamoq, tushunmoq.

— Semantik yadroning mavjudligi – Barcha ma’nolarni birlashtiruvchi asosiy sema (yadro) bo‘ladi. Masalan, *ochilish* → jismoniy → aqliy → ijtimoiy anglash

— Kontekstga kuchli bog‘liqlik –Polisemantik frazeologizmlarning aniq ma’nosi faqat kontekstda namoyon bo‘ladi. Bu ularni monosemantik frazeologizmlardan ajratadi.

— Ekspressivlik va baholovchanlik –Ko‘p ma’nolilik ko‘pincha: emotsional, stilistik, baholovchi ma’no bilan uyg‘unlashadi: *Burni osmonga chiqmoq*-kibrlanmoq, haddan ortiq quvonmoq (ba’zan ijobiy kontekstda).

Polisemantik frazeologizmlarning boshqa birliklardan farqi

Mezoni	Polisemantik so‘z	Polisemantik frazeologizm
Tarkibi	bitta so‘z	kamida ikki komponent
Ma’no ko‘chishi	leksik	obrazli, kompleks
Barqarorlik	nisbatan erkin	yuqori darajada

Frazeologik polisemiyaning til tizimidagi o‘rni:

- tilning ifodaviy imkoniyatlarini kengaytiradi
- nutqni obrazli va ta’sirchan qiladi
- milliy mentalitet va madaniyatni aks ettiradi
- badiiy, publitsistik va og‘zaki nutqda faol ishlatiladi.

Zamonaviy tilshunoslikda til hodisalarini inson omili bilan bog‘liq holda o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Antropotsentrik paradigma tilni faqat aloqa vositasi sifatida emas, balki inson tafakkuri, madaniyati va ruhiyati mahsuli sifatida talqin etadi. Ayniqsa, frazeologizmlar insonning dunyoni idrok etish usulini yorqin aks ettiruvchi til birliklaridan biri hisoblanadi.

Antropotsentrik yondashuv til birliklarini “inson – til – tafakkur” uchligi asosida o‘rganishni nazarda tutadi. Bu yondashuvga ko‘ra, til markazida inson turadi va barcha til hodisalari inson ehtiyojlari, hissiyoti hamda kommunikativ maqsadlariga xizmat qiladi.

O‘zbek tilidagi frazeologizmlarning muhim qismi polisemantik xarakterga ega bo‘lib, ularning ma’no kengayishi va ko‘p qirraliligi bevosita inson tajribasi va ijtimoiy faoliyati bilan bog‘liqdir. Polisemantik frazeologizmlar bir nechta ma’noni ifodalaydi va bu ma’nolar turli nutqiy vaziyatlarda yuzaga chiqadi. Masalan: “Ko‘zi ochildi” frazeologizmi: Savodli bo‘ldi, bilim oldi; Hayotiy haqiqatni anglab yetdi; Ogohlikka erishdi. Ushbu ma’nolarning barchasi insonning bilish jarayoni va ruhiy o‘sishi bilan bog‘liq bo‘lib, antropotsentrik mazmunni namoyon etadi. “Yuragi tor” frazeologizmi: Baxil, hasadgo‘y; Ruhiy jihatdan siqiq holatda bo‘lish Bu yerda yurak a’zosi biologik tushuncha sifatida emas, balki insonning ichki dunyosini ifodalovchi ramziy markaz sifatida talqin qilinadi.

O‘zbek frazeologizmlarida polisemantik mazmun ko‘pincha milliy mentalitet bilan chambarchas bog‘liq. Masalan, mehnatsevarlik, sabr-toqat, andisha, or-nomus kabi tushunchalar inson markazli semantik qatlamni tashkil etadi. Bu esa frazeologizmlarning faqat lingvistik emas, balki madaniy fenomen ekanini ko‘rsatadi. O‘zbek tilidagi polisemantik frazeologizmlarni antropotsentrik yondashuv asosida o‘rganish ularning semantik imkoniyatlarini chuqurroq anglashga yordam beradi. Bunday frazeologik birliklar insonning tafakkuri, hissiyoti va ijtimoiy tajribasini aks ettiruvchi muhim til vositalari hisoblanadi. Antropotsentrik yondashuv frazeologizmlarning ko‘p ma’noliligini izohlashda samarali nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. R.Sayfullayeva, B.Mingliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbonova, Z.Yunusova, M.Abuzalova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma. –T “Fan va texnologiya” 2009.

2. Nurmuhammedov Yusuf . Frazeologiyaning dolzarb masalalari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Samarqand “SamDCHTI” nashryoti 2022.

3. SH. Rahmatullayev, N. Mahmudov , Z.Xolmonova , I.O‘razova, K.Rixsiyeva . O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – T G‘afur G‘ulom nomidagi nashiriyot- matbaa ijodiy uyi 2022.

4. Teliya V.N. Russkaya frazeologiya: semanticheskiy, pragmaticheskiy lingvokultrologicheskiy aspekti. - M.: Shkola "Yaziki russkoy kulturi", 1196-bb.222.

5. Mamontov A.S. Language and culture: a comparative aspect of the study. M.,2000.

UO’K 811.512.191’373.6

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA FITONIM NOMLARI BILAN BOG‘LIQ MAQOLLARNING O‘RGANILISHI

D.B.Abduraimova, magistrant, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Termiz
N.R.Abdullayeva, PhD, dots., Termiz davlat universiteti, Termiz

Annotatsiya. *Ushbu maqola o‘zbek tilshunosligida fitonim nomlari biloan bog‘liq maqollarning o‘rganilishiga bag‘ishlanadi. Fitonim tushunchasiga ta’rif berish muammosi tilshunoslarning bir necha avlodlari e’tiborida bo‘lgan. Shuningdek, ushbu maqolada ayni shu muammo ustida ish olib borgan o‘zbek olimlari va ularning fitonim nomlari bilan bog‘liq maqollar*

haqida yozgan asarlari keltirildi. Bu asarlari orqali tadqiqotchilar nafaqat paremiologiya sohasiga, balki tilshunoslik sohasiga ham qo'shgan sezilarli hissalari haqida ta'kidlab o'tildi.

Kalit so'zlar: *paremiologiya, fitonim, madaniy semantika, qiyosiy lingvokulturologiya, qiyosiy tahlil, chog'ishtirma tahlil.*

Аннотация. *Данная статья посвящена изучению пословиц, связанных с фитонимическими именами в узбекской лингвистике. Проблема определения понятия фитонимии находится в центре внимания нескольких поколений лингвистов. Также в статье представлены работы узбекских ученых, работавших над этой проблемой, и их исследования пословиц, связанных с фитонимическими именами. На основе этих работ подчеркивается, что исследователи внесли значительный вклад не только в область паремиологии, но и в область лингвистики.*

Ключевые слова: *паремиология, фитонимия, культурная семантика, сравнительная лингвокультурология, сравнительный анализ, сравнительный анализ.*

Abstract. *This article is devoted to the study of proverbs related to phytonymic names in Uzbek linguistics. The problem of defining the concept of phytonymic has been in the attention of several generations of linguists. Also, this article presents the works of Uzbek scientists who worked on this problem and their works on proverbs related to phytonymic names. Through these works, it is emphasized that the researchers made a significant contribution not only to the field of paremiology, but also to the field of linguistics.*

Key words: *paremiology, phytonymic, cultural semantics, comparative linguoculturology, comparative analysis, comparative analysis.*

O'zbek tilidagi fitonimlar leksik tizimning muhim qismini tashkil etadi va ular xalq madaniyati, tabiat haqidagi bilimlari, urf-odatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Fitonimlar nafaqat nomlash vositasi, balki madaniy semantikani ifodalovchi belgilar tizimidir. Tilshunoslikda fitonimlar leksik-semantik, etnolingvistik, onimshunoslik va frazeologik nuqtai nazarlardan o'rganilgan. Ayniqsa, maqollar tarkibida fitonimlarning semantik va obrazli ma'nosi alohida ilmiy qiziqish uyg'otadi.

O'zbek tilshunosligida fitonimlar ishtirokidagi maqollar XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab alohida ilmiy yo'nalish sifatida o'rganila boshlandi. Bu borada N. M. Shukurov, D. Hudoyberganova, S. Sodiqova, O. Jo'rayev, Sh. Qayumova, N. Abdullayeva kabi olimlarning ishlarini qayd etish mumkin. Ularning tadqiqotlarida fitonimlar:

- leksik-semantik tizimdagi o'rni;
- frazeologik birlik sifatidagi vazifasi;
- xalq dunyoqarashi bilan aloqasi;
- boshqa tillardagi o'xshashliklari bilan qiyosiy tahlil etilgan.

Ayrim magistrlik dissertatsiyalarida esa o'zbek, ingliz va rus tillaridagi fitonimlar ishtirokidagi maqollar madaniy semantika va qiyosiy lingvokulturologiya nuqtai nazaridan tahlil qilingan.

Termiz davlat universiteti tilshunos olimi N. Abdullayeva aynan fitonimlar ishtirokidagi maqollarning chog'ishtirma tahlili ustida tadqiqot olib borgan.

Tadqiqot ishida taqqoslangan tillardagi "o'simliklar" – fitonimlar (daraxt, gullar, o'simliklar nomlari) tushunchasidagi maqol va matallar tahlil qilinadi. Ularni o'rganish tilni yaxshiroq bilishga va odamlarning tafakkuri va xarakterini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Tahlil jarayonida qiyosiy tillardagi maqollarda tilga olingan barcha komponentlar – fitonimlar o'simlik turlariga ko'ra shartli ravishda uchta kichik guruhga bo'lingan: 1) o'rmonlar va daraxtlar; 2) o'simliklar, gullar, boshoqli o'simliklar; 3) mevalar, rezavorlar, sabzavotlar va misollar keltiriladi, ularning tarkibiy qismlarining ekvivalentligi va farqlari ko'rsatiladi, ularning semantik bog'liqligi taqqoslanadi.

O'rganilgan til materiali shuni ko'rsatdiki, bu soha terminlari o'z tuzilishi jihatidan solishtirilayotgan tillar til tizimining umumiy qonuniyatlariga bo'ysunadi, sodda, hosila va murakkab turlarga bo'linadi. Shuningdek, so'z bir emas, balki ikkita va hatto uchta, masalan, ingliz tilida bo'lishi mumkin: cherry – черешня – gilos – гелос, cherry – вишня – olcha – олуча; allspice - гвоздика пряная – qalampirmunchoq - гули мехак; woundwort - чистец, буквица лекарственная, полын – toq quddusi - хасбех; in Uzbek: navro'zgul - primrose - первоцвет весенний - наврўзгул;

qalampirmunchoq - allspice - гвоздика пряная - гули мехак; otquloq - sorrel – щавель – туршак, шилха; in Tajik: : мағнунбед - willow – ива - bobil toli, majnuntol; обсабзҳои баҳрӣ - nori - морские водоросли - dengiz o‘simligi; ҷуворимакка - maize – кукуруза - makkajo‘xori, va boshqalar.

Ko‘rib chiqilayotgan lug‘at qatlamining barcha ilmiy tushunchalari, shuningdek, boshqa so‘zlar, so‘z yasashning odatiy usullari yordamida shakllanadi va bu jihatdan “o‘simliklar” tushunchasining grammatik tarkibi bundan mustasno emas. Va bu tushunchaga ega bo‘lgan bunday shakllanishlar guruhi juda ko‘p sonli so‘zlar bilan ifodalanadi. Oddiy hosila bo‘lmagan so‘zlarning shakli nol burilishga ega, o‘zak bilan mos keladi, shuningdek, ular hosila va murakkab so‘zlarga qaraganda ko‘proq leksik ma’noga ega bo‘lib, ulardan turli gap bo‘laklari, ya’ni konversiya yo‘li bilan yasalishi mumkin: a plant – to plant (растение – посадить; o'simlik – ekish; растанӣ - шиондан), a grow – to grow (рост — расти; o‘sish - o‘sish; нашъунамо— нашъунамо кардан), a care - to take care (забота - заботиться; g‘amxo‘rlik - g‘amxo‘rlik qilmoq - нигоҳубин - нигоҳубин кардан), va boshqalar.

Bundan tashqari, yana bir tilshunos Komila Sayfiyeva ham fitonim komponentli maqollarning tadqiqi ustida o‘zining ilmiy ishini olib borgan. Ushbu asarida u quyidagilarni bayon etadi:

O‘zbek fitonim maqollari bilan qiyosiy tahlil ingliz va o‘zbek maqollarida hikmat, odob-axloq, dehqonchilik an’analari kabi mavzular mushtarak bo‘lsa-da, ularning madaniy talqini turlicha. Masalan: o‘zbek tilida: “Barg bilan bog‘ ko‘rkam.” (A garden is beautiful with its leaves.) Bu birlik va hamjihatlikning muhimligini aks ettiradi, bu shaxslar jamiyat go‘zalligiga qanday hissa qo‘shishini ramziy qiladi. Inglizcha: “A tree is known by its fruit.” Bu odamlarning so‘zlari bilan emas, balki ularning harakatlari bilan baholanishi g‘oyasini ta’kidlaydi. Ikkala maqol ham tashqi go‘zallik va ichki fazilatlarni ta’kidlaydi, lekin tabiat va axloqqa turli xil madaniy qarashlarni aks ettiradi. Fitonimli maqollar o‘tgan avlodni hozirgi zamon bilan bog‘lovchi til va madaniy ko‘prik bo‘lib xizmat qiladi. Ular millatning donoligi, an'analari va e'tiqodlarini kodlab, madaniy o'ziga xoslikni tushunish uchun qimmatli manbalarga aylantiradi. Ingliz tilidagi fitonimik maqollarni o‘rganish til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligi, odamlarning dunyoni idrok etishi va talqin qilish usullarini shakllantirish haqida tushuncha beradi. Ushbu maqollarni tahlil qilish orqali biz xalqlar orasida mavjud bo'lgan til va madaniy xilma-xillikni chuqurroq anglay olamiz. Dunyo o‘zaro bog‘langan bo‘lsa, ushbu madaniy nuanslarni tan olish madaniyatlararo tushunish va muloqotni yaxshilashga yordam beradi.

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti tadqiqotchisi Samarabonu Barnoeva ham maqollardagi o‘simlik nomlarining lingvokulturologik tadqiqi mavzusida tadqiqot ishi olib bordi. Ushbu asarda tadqiqotchi quyidagilarni keltirgan.

Tilning semantik makonida o‘simliklar dunyosi kam o‘rganilgan sohalardan biri hisoblanadi. Ammo shuni e’tirof etish kerakki, so‘nggi o‘n yilliklar davomida o‘simlik nomlari (fitonimlar) tobora mustaqil tadqiqot obyektiga aylanib bormoqda. Fitonim lingvistika, psixolingvistika, etnobotanika, etnolingvistika, madaniyatshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, adabiyotshunoslikda unumli tahlil obyektiga aylandi. Ko‘rib turganimizdek, zamonaviy fanda floristik leksikaning tasnifiga yondashuvlarda o‘xshashlik yo‘q. Turli olimlar turli xil mezonlarga amal qiladilar, ular, shubhasiz, ularning ilmiy qiziqishlari vektorlariga yuqori darajada mos keladi. U yoki bu o‘simliklar nomlarining ahamiyati ularning frazeologik jihatdan bog‘liq bo‘lgan ma’nolarga ega bo‘lgan, frazeologik birikmalar, frazeologik birliklar, frazeologik chatishmalar hosil qiladigan birikmalarni frazeologiyazatsiyalashda ishtirok etish qobiliyati bilan belgilanadi, deb ishonish asossiz emas. Aynan shu ma’nolar batafsil va har tomonlama tahlil qilishni talab qiladi, chunki ma’noning madaniy komponentini idrok etish eng qiyin masala hisoblanadi. Bundan tashqari, kontekstdan olingan ko‘plab turdosh ma’nolar izohli lug‘atlarda o‘z aksini topmaydi. Bir-biriga yaqin bo‘lmagan va mutlaqo aloqador bo‘lmagan tillar uchun o‘qitish va tarjima qilishda mosliklarni izlash nazariy va amaliy darajada hal qilinishi kerak bo‘lgan jiddiy muammoga aylanadi. Ushbu muhim lingvistik muammoni hal qilish uchun u ilgari amalga oshirilmagan lingvistik voqelikning tegishli fragmentlarini taqqoslashda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan zamonaviy ilm-fan tomonidan to‘plangan bilim va tajribani tushunish va umumlashtirish zarur bo‘lib, bu, birinchi navbatda, biz ko‘rib

chiqayotgan frazeologik birliklarni tartibga solish va tizimlashtirish, ularni tasniflashning eng ishonchli asoslarini topishga tegishli bo‘ladi.

O‘zbek xalq maqollarida fitonimlar xalq tafakkurining tabiiy-madaniy qatlamini aks ettiruvchi boy leksik birliklardir. Ular orqali xalq:

- tabiat va inson o‘rtasidagi uyg‘unlikni,
- mehnatsevarlik va barakani,
- sabr-toqat, axloq va hayot falsafasini ifodalaydi.

Fitonimlar ko‘plab tadqiqotchilarning e’tiborini jalb qilishda davom etmoqda va hozirda ularni o‘rganish keng tarqalgan. Ular nutqning turli turlarida (adabiy, she’riy, ilmiy va siyosiy) ko‘rib chiqiladi; materialga asoslanadi faqat bitta tilda va tillar o‘rtasidagi taqqoslashda. Turli xillar tomonidan qo‘llaniladigan yondashuvlarning xilma-xilligiga qaramasdan mualliflarning fikriga ko‘ra, ular flora universaldir, bu esa modellashtirishning eng qadimgi usullaridan birini ko‘rib chiqishga imkon beradi.

Shu bois fitonim maqollarini o‘rganish o‘zbek tilshunosligi, etnolingvistika va paremiologiya fanlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yo‘nalishda tadqiqotlarni davom ettirish xalq tili va tafakkurining boy qatlamlarini ochishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Abdullayeva, N. & Kholmurodova, N. (2024). Proverbs and sayings with phytonyms and their analysis in compared languages. European Scholar Journal (ESJ). Vol. 5 No. 2, pp. 49-50. Retrieved from: https://www.scholarzest.com

2. Komila Sayfiyeva Kamoliddinovna. (2025). Linguocultural importance of English phytonym proverbs. International Journal Of Literature And Languages, 5(03), 90–91. https://doi.org/10.37547/ijll/Volume05Issue03-23.

3. S. Barnoyeva. Maqollardagi o‘simlik nomlarining lingvokulturologik tasnifi: asoslari va tamoyillari. Theoritical aspects in the formation of pedagogical sciences, 2025. – P. 67-68.

4. Solihov, Sh. R., Xudoyberganov, M. X. O‘zbek tilining etimologik lug'ati. — Toshkent: O‘zbekistan Milliy Ensiklopediyasi, 1999. — B. 210–212.

5. Yusupov, S. M. O'zbek tilining semantika va sintaksisi. — Toshkent: Fan, 1987. — B. 65–70.

6. O‘razov, M. B. O‘zbek tilining semantikasi. — Toshkent: O‘qituvchi, 1992. — B. 112–115.

UDC 808.3

INVESTIGATION OF UZBEK NATIVE WORDS AND FOREIGN LOANWORDS (ON THE EXAMPLES OF NEWSPAPER ARTICLES)

M.Abdurahimova, master’s student, Samarkand campus of the University of Economics and Pedagogy, Samarkand

Annotatsiya. *Mazkur maqolada gazeta maqolalari materiallari asosida o‘zbek tilidagi tub so‘zlar va o‘zlashma birliklarning qo‘llanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda ularning funksional-semantik jihatlari, stilistik vazifalari hamda ommaviy axborot vositalari tilidagi o‘rni yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *tub so‘zlar, o‘zlashma so‘zlar, gazeta tili, publitsistik uslub, leksik qatlam, funksional-semantik tahlil, stilistik xususiyatlar, ommaviy axborot vositalari tili.*

Аннотация. *В данной статье на материале газетных публикаций анализируются особенности употребления исконно узбекских слов и заимствованных лексических единиц. Рассматриваются их функционально-семантические характеристики, стилистические функции и роль в языке средств массовой информации.*

Ключевые слова: *исконная лексика, заимствованные слова, язык газет, публицистический стиль, лексический слой, функционально-семантический анализ, стилистические особенности, язык СМИ.*

Abstract. *This article analyzes the use of Uzbek native words and foreign loanwords based on the material of newspaper articles. The study focuses on their functional-semantic features, stylistic functions, and their role in the language of mass media.*

Key words: *native words, loanwords, newspaper language, journalistic style, lexical layer, functional-semantic analysis, stylistic features, mass media language.*

In modern linguistics, the study of the lexical structure of a language and the interaction between native and borrowed elements has become one of the most актуal issues, especially in the context of globalization and the rapid development of mass media. The language of newspapers, as a dynamic and socially oriented sphere of communication, reflects ongoing linguistic changes more clearly than other functional styles. It not only serves as a means of delivering information but also plays a significant role in shaping public opinion, preserving national identity, and introducing new lexical units into active usage. Therefore, the analysis of Uzbek native words and foreign loanwords in newspaper articles is of particular theoretical and practical importance.

The Uzbek language, like many other languages, has been enriched over centuries through internal development and external contacts. Native lexical units represent the historical, cultural, and spiritual heritage of the nation, while loanwords reflect socio-political, economic, scientific, and cultural relations with other peoples. In the language of modern newspapers, these two lexical layers function simultaneously and interact in complex ways. On the one hand, native words ensure the preservation of national linguistic norms and cultural identity; on the other hand, loanwords contribute to the expression of new concepts, international terminology, and modern realities. This creates a specific lexical balance that requires comprehensive linguistic analysis.

The relevance of this research is determined by the increasing influence of globalization, the expansion of international communication, and the growing role of mass media in the development of language. Newspaper texts actively incorporate new lexical units, including borrowings from English and other languages, which affects the stylistic, semantic, and communicative features of the Uzbek language. Studying these processes makes it possible to identify the functional potential of native and borrowed words, their frequency, contextual usage, and stylistic value in journalistic discourse.

From a theoretical perspective, this study contributes to the development of lexicology, sociolinguistics, media linguistics, and contact linguistics. From a practical point of view, it helps to determine the norms of appropriate word usage in the language of mass media, to preserve the purity and richness of the Uzbek language, and to improve the quality of journalistic texts.

The aim of this article is to investigate the use of Uzbek native words and foreign loanwords in newspaper articles, to analyze their functional and semantic features, and to reveal their role in modern journalistic style. The research is based on comparative, descriptive, and contextual methods, which allow for a comprehensive analysis of the lexical material.

In modern Uzbek linguistics, the study of the correlation between native lexical units and foreign loanwords has become particularly relevant due to globalization, the rapid development of information technologies, and the expansion of international communication. Newspaper language, as one of the most dynamic and socially oriented functional styles, clearly reflects ongoing lexical changes and demonstrates how different lexical layers interact within a real communicative environment.

Native words represent the historical and cultural foundation of the Uzbek language. They preserve national identity, traditional worldview, and cultural continuity. According to E. Begmatov and A. Hojiyev, the native lexical layer performs not only a nominative function but also an important stylistic and expressive role, especially in publicistic texts where emotional influence on the reader is significant.

Loanwords, on the other hand, enter the language as a result of socio-political, scientific, technological, and cultural contacts. Sh. Rahmatullayev notes that borrowed lexical units are particularly active in the language of mass media because newspapers are closely connected with modern realities and new concepts that often do not yet have native equivalents. In Uzbek newspaper discourse, loanwords are mainly borrowed from English and Russian and are widely used in the fields of economics, politics, technology, and culture.

Functional and semantic features of native and borrowed words

The analysis of newspaper articles shows that native and borrowed lexical units differ in their functional load.

Native words are frequently used in:

- socially significant topics,
- moral and educational contexts,
- cultural and national themes,
- emotionally expressive passages.

They help create closeness to the reader and ensure clarity and accessibility of the text.

Loanwords are actively used in:

- political and economic terminology,
- scientific and technological news,
- international relations,
- modern media discourse.

They perform a nominative function by expressing new concepts and ensuring precision and conciseness.

From a semantic perspective, loanwords often undergo:

- semantic adaptation,
- phonetic and grammatical assimilation,
- stylistic neutralization.

Some borrowings gradually become fully integrated into the Uzbek lexical system and begin to function alongside native words.

Stylistic significance in journalistic texts

The stylistic analysis of newspaper materials shows that the choice between native and borrowed words depends on the communicative purpose of the text.

As noted by V. G. Kostomarov, the language of mass media is characterized by a balance between standardization and expressiveness. Native lexical units are used to:

- increase emotional impact,
- reflect national mentality,
- create stylistic color.

Loanwords, in contrast, contribute to:

- intellectualization of the text,
- internationalization of the vocabulary,
- formation of modern media language.

In many cases, native and borrowed words function together, creating a specific lexical harmony. This interaction reflects the openness of the Uzbek language to external influences while preserving its national character.

Sociolinguistic factors influencing lexical choice

The use of native and borrowed words in newspaper discourse is also determined by sociolinguistic factors such as:

- the target audience,
- the topic of the article,
- the type of newspaper,
- the level of formality,
- the author's individual style.

In analytical and political articles, loanwords are more frequent, while in social and cultural texts native words dominate. This demonstrates that lexical choice is pragmatically motivated.

In Uzbek newspaper language, loanwords:

- expand terminological systems,
- introduce new concepts,
- increase communicative efficiency.

However, excessive and unjustified borrowing may weaken the national lexical base, which raises the issue of maintaining a balance between native and borrowed elements. Thus, the study of native and borrowed lexical units in newspaper discourse makes it possible to reveal not only linguistic but also cultural and sociolinguistic processes occurring in modern Uzbek society.

REFERENCES:

1. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 384 б.

2. Крысин Л. П. Иноязычные слова в современном русском языке. – Москва: Наука, 1968. – 208 с.
3. Костомаров В. Г. Язык и стиль средств массовой информации. – Москва: Издательство МГУ, 1999. – 256 с.

UDC 808.3

SPEECH ACTS AND THEIR FUNCTIONS IN COMMUNICATION

F. Abduvaliyeva, master student, Fergana State University, Fergana

Annotatsiya. *Nutq aktlari pragmatikaning bir bo'limi bo'lib, unda so'zlovchining so'zlari yoki iboralari uning maqsadlarining faqat bir jihatini tashkil etadi. Nutq aktlari — bu nutqiy ifodalar orqali amalga oshiriladigan harakatlardir. Gapirish orqali insonlar muayyan harakatni bajaradilar. So'zlovchi faqat til vositalaridan foydalangan holda jismoniy harakatni so'z va iboralar orqali ifodalashi mumkin. Aytilayotgan so'zlar bajarilayotgan harakatlar uchun muhim ahamiyatga ega.Ingliz tilini xorijiy til sifatida o'rganishda nutq jarayonida e'tiborga olinishi lozim bo'lgan bir qator omillar mavjud. Bayonotlar ona tilida aytilganda, so'zlovchi yoki tinglovchi ularning mo'ljallangan ma'nosini osonlik bilan anglaydi.*

Kalit so'zlar: *nutq aktlari, pragmatika, kommunikativ niyat, illokutiv kuch, nutqiy ifoda, til orqali harakat.*

Аннотация. *Речевые акты являются подразделом прагматики, в котором слова или фразы говорящего представляют собой лишь один аспект его коммуникативных целей. Речевые акты — это действия, осуществляемые посредством производства высказываний. Посредством речи люди могут выполнять определённые действия. Говорящий может использовать исключительно языковые средства для передачи физического действия с помощью слов и выражений. Произносимые слова играют ключевую роль в совершаемых действиях. При использовании английского языка как иностранного необходимо учитывать ряд факторов. Когда высказывания делаются на родном языке, говорящим или слушающим легко определить их предполагаемое значение.*

Ключевые слова: *речевые акты, прагматика, коммуникативное намерение, иллокутивная сила, высказывание, языковое действие.*

Abstract. *Speech acts are a subfield of pragmatics in which a speaker's words or phrases are only one aspect of their goals. Speech acts are actions that involve the production of utterances. By speaking, people can carry out an action. The speaker can just use linguistic acts to portray physical action through phrases and words. The words that are communicated are crucial to the actions taken. There are factors to take into account when speaking English as a foreign language. When statements are made in the mother tongue, it is simple for speakers or listeners to ascertain their intended meaning.*

Keywords*: speech acts, pragmatics, communicative intention, illocutionary force, utterance, linguistic action.*

Introduction. Human life has always required communication. Through Human life, communication has always been essential. People can exchange ideas with one another through communication, which immediately improves the standard of living. The capacity to recognize speech in the course of action can be determined by communication. Both verbal and nonverbal communication can be used to convey information. Verbal and nonverbal communication are the two categories of communication, according to Buck (2002). Verbal communication is the process of conveying ideas via the use of words. The process of conveying messages by gestures, eye contact, facial expressions, or outward appearances is known as nonverbal communication. The study of pragmatics holds that communication is more important than words. The meaning of the words or phrases themselves is not as profound as the utterances that speakers make throughout conversation. According to Yule (1996:3), pragmatics is therefore more concerned with analyzing what people mean by their statements than with determining what the words or phrases in such statements might signify on their own. It is crucial for speakers to pay close attention to the context since pragmatics

is also closely tied to the scenario or context in which anything is being expressed. Pragmatics, according to Leech (983: 6), is the study of meaning in relation to speech contexts.

Four aspects are the focus of pragmatics, according to Yule (1996:3):1. The study of speaker meaning is known as pragmatics. 2. The study of contextual meaning is known as pragmatics. 3. The study of pragmatics focuses on communicating more than is said. 4. The study of pragmatics focuses on how relative distance is expressed. Generally speaking, pragmatics requires us to be able to understand the meaning of the utterances by realizing that the words or phrases have deeper meanings than the literal meaning of what is spoken. Accordingly, Richard and Schmidt (2002) contend that pragmatics is the study of language usage in communication with regard to sentences and the circumstances and context in which they are employed.There are a few things to take into account while discussing pragmatics. These elements define pragmatics in its most basic form. Implicature, Speech Acts, Presupposition, Context, Adjacency Pairs, Deixis, and Distance are the contributing elements. Speech act, a variety of verbal communication and also a subdivision of pragmatics, often takes place in verbal and nonverbal communication. According to Yule (1996), speech actions examine how language is used by both speakers and listeners.

Liturature Review. The speaking actions are divided into three categories: locutionary, illocutionary, and perlocutionary. According to Austin (1962: 108), a locutionary speech act is basically comparable to making a specific utterance with a specific sense and reference, which is also roughly equivalent to meaning in the conventional sense. Accordingly, locutionary refers to what is uttered (Cutting 2002: 16). additionally put forward by Yule (1996), who defines a locutionary act as the production of meaningful utterances. The following sentences serve as an illustration of the locutionary speaking act: 1. This room is really dark. 2. The packaging weighs a much. The true situation is reflected in the two statements above.

The room's illumination is discussed in the first phrase, and the box's weight is discussed in the second. b. Illocutionary. The communicative energy of a speech, such as making a promise, offering, or apologizing, is used to carry out the illocutionary act (Yule, 1996:48). According to Hufford and Heasley (1983:250), a perlocutionary act is an action taken by a speaker when their speech has a specific impact on the listener and other people. Offering someone is another example of a perlocutionary act.

The term "perlocutionary act" describes how one speech affects another person's thinking or behavior. A perlocutionary act is unique to the conditions of issuance and is thus not typically accomplished just by making that precise utterance. It encompasses all intentional or unexpected, frequently unpredictable repercussions that a certain speech in a specific setting causes. In addition, according to Searle in Levinson (1983:240), speech actions can be divided into five categories: instructions, representatives, expressive, declarative, and commissives.

Methodology. This study adopts a qualitative descriptive research design to examine speech acts and their communicative functions in naturally occurring discourse. The qualitative approach is particularly appropriate for speech act analysis, as it allows for an in-depth interpretation of meaning, intention, and contextual factors that cannot be fully captured through quantitative methods alone. The research is grounded in pragmatic theory, primarily drawing on the frameworks proposed by J. L. Austin and John Searle, which conceptualize speech as a form of social action.

The analytical procedure involved several stages. First, the collected utterances were classified according to Searle's taxonomy of speech acts, including representatives, directives, commissives, expressives, and declarations. Second, the illocutionary force of each speech act was identified based on linguistic indicators such as verb choice, sentence structure, and pragmatic markers. Third, the communicative function of each speech act was analyzed to determine how it contributes to interactional goals such as requesting, persuading, expressing emotions, maintaining social relations, or managing discourse. Interpretations were supported by contextual evidence rather than surface-level linguistic form alone. This methodological rigor ensures that the findings accurately reflect the pragmatic functions of speech acts in real communication.

Results And Discussion. The analysis of the collected data reveals that speech acts play a central role in structuring communication and achieving interactional goals. The findings demonstrate

that speakers consistently use language not only to convey information but also to perform actions such as requesting, promising, expressing emotions, and maintaining social relationships. The distribution and function of speech acts vary depending on context, speaker intention, and the nature of the interaction.The results indicate that representative speech acts are the most frequently occurring type in the analyzed data. These speech acts are primarily used to convey information, describe situations, state opinions, and present facts. Their high frequency reflects the fundamental communicative need to share knowledge and establish common ground between interlocutors. In everyday communication, representatives serve as a foundation upon which other speech acts are built, enabling coherent and meaningful interaction. Directive speech acts emerge as the second most prominent category. These include requests, commands, suggestions, and questions aimed at influencing the behavior of the listener. The analysis shows that directives are often expressed indirectly, especially in polite or formal contexts.

Conclusion. In conclusion, students' growing awareness that statements made in English, a foreign language, may be misunderstood should be the focus of speech act instruction in the classroom. Accurately interpreting the intended meaning through utterance analysis is essential. Students may ascertain the meaning of the utterances and increase their knowledge, which would enable them to execute the speech act, by comprehending the conventions and colloquial idioms of the first and second languages.

REFERENCES:

1. Flavell, J. H. (1979). Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive–developmental inquiry. American Psychologist, 34(10), 906–911.

2. Teshaboyeva Nafisa Zubaydulla qizi Teshaboyeva, N., & Mamayoqubova, S.(2020). Communicative approach to language teaching. in молодой исследователь: вызовы и перспективы (pp. 409-414).

3. O'Malley, J. M., & Chamot, A. U. (1990). Learning Strategies in SecondLanguage Acquisition. Cambridge University Press

4. Azarminco, F. (1987). The pragmatic approach (S. Aloui, Trans.). Egypt: National Development Center.Jluli, A. (2011). Proceedings of the Fourth International Symposium on Discourse Analysis. Al-Athar Journal, 2011(12).

5. Searle, J. (2006). Mind, language, and society: Philosophy in the real world (S. Al-Ghanmi, Trans.; 1st ed.). Ikhtilaf Publications.

6. Austin, J. L. (1955). How to do things with words: The William James lectures delivered at Harvard University. Clarendon Press

UO'K 808.3

OMONIMLAR LUG'ATINING MA'LUMOTLAR BAZASINI LOYIHALASH

G'.G'.Abduvaxobov dots.v.b., PhD, Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o'zbek tilidagi omonim birliklarni tizimli tarzda jamlash, tasniflash va raqamli muhitda saqlashga mo'ljallangan omonimlar lug'ati ma'lumotlar bazasini loyihalash masalalari yoritiladi. Tadqiqotda lingvistik ma'lumotlarni strukturalash, omonimlarning semantik farqlanishi, grammatik xususiyatlari va kontekstual qo'llanilishi asosida ma'lumotlar modeli ishlab chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *omonim, elektron lug'at, ma'lumotlar bazasi, lingvistik model, relatsion jadval, semantika.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются вопросы проектирования базы данных словаря омонимов, предназначенной для систематического сбора, классификации и хранения омонимичных единиц узбекского языка в цифровой среде. В исследовании разработана модель данных, основанная на структурировании лингвистических данных, семантической дифференциации, грамматических особенностях и контекстном использовании омонимов.*

Ключевые слова: *омоним, электронный словарь, база данных, лингвистическая модель, реляционная таблица, семантика.*


Abstract. *This article discusses the issues of designing a homonym dictionary database designed to systematically collect, classify, and store homonym units in the Uzbek language in a digital environment. The research develops a data model based on the structuring of linguistic data, semantic differentiation, grammatical features, and contextual use of homonyms.*

Key words: *homonym, electronic dictionary, database, linguistic model, relational table, semantics.*

Kirish. Oxirgi yillarda mobil ilovalardan foydalanish kundan kunga ommalashishi natijasida mobil ilovalarni yaratmoqchi bo‘lgan dasturchilar uchun ko‘plab dasturiy vositalar ishlab chiqilmoqda. Bugungi kunda turli sohalarda ishlayotgan yoki ilmiy tadqiqot ishini amalga oshirayotgan ko‘plab tadqiqotchilar dastlabki navbatda sohaga oid terminlarni bilish, qo‘yilgan vazifalarni yechishda yoki paydo bo‘lgan xatoliklarni bartaraf etishda Googleni yordamga chaqiradi, agar Google qidiruv tizimiga terminlar orqali so‘rov berilsa, muammo yechish qiyinchilik tug‘dirmaydi, agar terminlarsiz oddiy so‘zlar bilan qidirish amalga oshirilsa, muammoni yechishga ancha vaqt ketib qoladi.

Asosiy qism. Omonimlar ma’lumotlar bazasi bu – tartiblangan omonimlarning ma’lumotlarni saqlovchi va qayta ishlovchi axborot modeli hisoblanadi. Soddaroq qilib aytganda, omonim va unga oid birliklarni o‘zida saqlovchi va berilgan so‘rovlar orqali ularni taqdim etuvchi model. Misol uchun, omonimlar sinfi, bu ma’lumotlar bazasi hisoblanadi, ya’ni bir xil turdagi omonimlarning obyektlarini o‘zida saqlaydi. Omonimlarning ma’lumotlar bazasini boshqarishda omonim birliklar ma’lumotlar bazasini hosil qiluvchi, ma’lumotlarni qayta ishlovchi va qidiruvchi tizim hisoblanadi.

Omonimlar bazasidagi ma’lumotlar SQL so‘rov tillari orqali boshqariladi, bu tilda ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimiga so‘rov beriladi, bu so‘rov u yerda qayta ishlanib, natija olish uchun ma’lumotlar bazasiga murojaat qiladi, u yerdan so‘rovga mos ma’lumotni olib, so‘rovga javob beradi.




1-rasm. Omonimlar ma’lumotlar bazasidan omonim birliklarning dasturiy ta’minot orqali ishlatish usullari

Quyidagi dasturlar yordamida ham omonimlar, umumun, foydalanuvchilarga mo‘ljallangan omonimlar bazasini boshqarish tizimiga misol bo‘la oladi:

— Oracle;
— MySQL;
— Microsoft Office Access;
— MariaDB;
— Microsoft SQL Server;

Yuqorida ko‘rsatilgan dasturlar ma’lumotlar bazasi emas, balki omonimlar bazasini boshqarish tizimlari hisoblanadi.



2-rasm. Omonimlar ma’lumotlar bazasining tuzilishi



O‘zbek tili omonimlarining mobil ilovasini yaratish uchun omonimlar lug‘atini ma’lumotlar bazasiga lingvistik ta’minot sifatida kiritish, ularning umumiy va xususiy leksik va grammatik ma’nolarini kodlash orqali lug‘aviy hamda grammatik omonimlarning lug‘aviy ma’nosi izohlanayotgan birlik misoli kabi maydonlariga ajratilgan holda mobil dastur ma’lumotlar bazasining strukturasi hosil qilindi va ushbu strukturaga asosan o‘zbek tilida mavjud omonim birliklar «O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati», «O‘zbek tilining izohli lug‘ati» va uzbekcorpus.uz platformasiga asosan ma’lumotlar bazasi ishlab chiqildi. Shuni unutmaslik kerakki, mobil lug‘at yaratishda mukammal ishlangan lingvistik ta’minot dasturning sifatini belgilab beradi.

«Yangi avlod o‘quv lug‘atlari va ularning mobil ilovalarini yaratish» loyihasi doirasida yaratilgan «O‘zbek tili omonimlarining o‘quv lug‘ati» mobil ilovasining ma’lumotlar bazasini ishlab chiqishda lingvistik ta’minot sifatida lug‘aviy hamda grammatik omonimlar alohida to‘plam sifatida kiritildi. Shuningdek, dasturni mukammallashtirib borish uchun tizimni ishlab chiqishda foydalanuvchi tomonidan ham omonim birliklarni kiritish tizimi ishlab chiqilgan bo‘lib, buni quyidagi jadval orqali ko‘rishimiz mumkin.

Omonim birliklarning yanada tushunarli bo‘lishi uchun tizim imkoniyati sifatida quiz (test savollari, intellektual o‘yin)larning lingvistik hamda dasturiy ta’minotiga alohida e’tibor berilib, omonimlar kontentida berilgan birliklarni rasmko‘rinishida moslikni topish singari topshiriqlar o‘rin olgan. Mobil lug‘atdan foydalanuvchi https://tilshunos.com/ tizimning imkoniyatlaridan foydalangan holda yangi topshiriqlar ishlab chiqish va uni tizimga kiritish imkoniyati yaratilgan bo‘lib, ushbu kiritilayotgan materiallar tizim adminstratori tomonidan tasdiqlanganidan so‘ng, interfeysga yuboriladi.

O‘zbek tilidagi omonim birliklar ma’lumotlar bazasining an’anaviy lug‘atlardan farqli jihati shundan iboratki, omonim birliklarning shakliy va ma’noviy ifodasini tushunib olish uchun o‘zbek tilidagi lug‘aviy va grammatik omonimlarning ma’lumotlar bazasi alohida shakllantirilib, leksik, affiksal va frazeologik birliklarga alohida so‘rov yuborish imkoniyati yaratilgan. Bu esa ma’lumotlar dasturiy ta’minot orqali yaratiladigan lug‘atlarda dasturchilar uchun qo‘l keladi.

Xulosa. Mobil lug‘atning yaratilishiga e’tibor bersak, uning mobil dastur sifatida foydalanuvchilarda ishlashi uchun, avvalo, omonim birliklarning lingvistik bilimlarga asoslangan ma’lumotlar bazasini shakllantirish ishning dastlabki bosqichi hisoblanib, uning dasturiy ta’minoti mobil dasturchi yordamida Dart dasturlash tilining Flutter frengvordida ishlab chiqildi. Hozirgi vaqtda «O‘zbek tili omonimlarining o‘quv lug‘ati»ning «ma’lumotlar bazasi»da leksik, affiksal, frazeologik hamda erkin va turg‘un birikma o‘rtasidagi omonimlarni qidirish imkoniyati mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Захаров В. П. Корпусная лингвистика: учеб.-метод. пос. - СП, 2005. – 48 с.

2. Караулов Ю.Н. Лингвистическое конструирование и тезаурус литератур-ного языка. – М., 1981. – 367 с.
3. Морковкин В.В. Идеографические словари. М., 1970. – 171 с.
4. Ступин Л.П. Лексикография английского языка – М.: Высшая школа, 1985. – 169 с.

UO'K 81'27:338.48:008

TURIZMGA OID MATNLARDA PRETSEDENT NOMLARNING MILLIY-MADANIY BIRLIK SIFATIDA AKS ETISHI VA TASNIFIY XOSLANISHI

N.I.Adizova, dots., PhD, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. *Pretsedent nomlar madaniy axborotni saqlash va uzatishning asosiy til vositalari yadrosi bo'lib, jamiyat hayotidagi muhim voqealar, muayyan vaziyatlar, shaxslar, obyektlar, predmetlarni aks ettiruvchi ramziy birliklardir. Ular, asosan, milliy-mental xususiyatlari bilan namoyon bo'ladi hamda til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni ochib beruvchi muhim vosita sifatida aks etadi. Ushbu maqolada muayyan til va madaniyat egalari hamda boshqa madaniy hamjamiyat vakillari tomonidan pretsedent nomlarning idrok etilishi va talqin qilinishidagi o'ziga xos jihatlar, metodologik asoslari, ilmiy, tasnifiy xususiyatlari aniqlangan. Ularning kodlanishi asosida muayyan shaxslar, narsa-buyumlar, voqealar, vaziyatlar, geografik joylar, milliy urf-odat va qadriyatlar haqidagi tasavvurlar, madaniy xususiyatlar kengaytirilishi misollar asosida ilmiy, tasnifiy jihatdan tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *pretsedent nom, eslatuvchi birlik, ishora qiluvchi birlik, milliy-madaniy birlik, verbal, noverbal, assotsiatsiya…*

Аннотация. *Прецедентные имена являются ядром основных языковых средств сохранения и передачи культурной информации, представляя собой символические единицы, отражающие важные события общественной жизни, определённые ситуации, личности, объекты и предметы. Они в основном проявляются через национально-ментальные особенности и выступают важным средством раскрытия взаимосвязи языка и культуры. В данной статье освещаются специфические особенности, а также методологические основы восприятия и интерпретации прецедентных имён носителями определённого языка и культуры, а также представителями иных культурных сообществ; проводится научный и классификационный анализ соответствующих примеров.*

Ключевые слова: *прецедентное имя, реминисцентная единица, указательная единица, национально-культурная единица, вербальный, невербальный, ассоциация…*

Abstract. *Precedent names constitute the core of the principal linguistic means for preserving and transmitting cultural information, functioning as symbolic units that reflect significant events of social life, specific situations, personalities, objects, and phenomena. They are primarily manifested through national and mental characteristics and serve as an important tool for revealing the interconnection between language and culture.This article examines the distinctive features and methodological foundations of the perception and interpretation of precedent names by speakers of a particular language and culture, as well as by representatives of other cultural communities. A scientific and classificatory analysis of relevant examples is conducted.*

Key words: *precedent name, reminiscence unit, referential unit, national-cultural unit, verbal, non-verbal, association…*

Kirish. Til tizimida qadriyatlar alohida o'rin egallaydi va ular madaniyatning eng muhim xususiyatlari, xulq-atvor me'yorlari – til, nutq, kontekst bilan bog'liq qoidalar, vaziyat hamda madaniy-ijtimoiy tajribalar asosida aks etadi. Shunga ko'ra, lingvomadaniyatshunoslik tilni madaniy qadriyatlarni ifodalovchi tizim sifatida o'rganadi va unda *pretsedent nomlar* va madaniyatning kalit konseptlarini o'rganishga alohida ahamiyat beriladi. Bu kabi birliklar orasida madaniy konseptlarni aks ettiruvchi pretsedent nomlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ular madaniy konseptlarni bilish, muayyan voqea-hodisalarni ifodalash, muvaffaqiyatli madaniyatlararo muloqotni ta'minlash hamda millatlararo diskursiv makonni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Material. *Pretsedent nomlar* madaniy olamda keng tanilgan verbal (matnlar, ismlar, iboralar) va noverbal (rasmlar, fotolavhalar, san'at asarlari) shaklga ega birliklar bo'lib, ular ma'lum millat

vakillarining ko‘pchiligiga tanish bo‘ladi. Bunday fenomenlar qatoriga, shuningdek, “madaniy kodlarning parchalari, belgilar, ritmik tuzilmalar, ijtimoiy idiomalarning fragmentlari va hokazolar” ham kiritilishi mumkin [7,112]. Bu kabi ismlar jamiyatda kechayotgan madaniy o‘zgarishlarning o‘ziga xos oynasi hamdir.

Zamonaviy tilshunoslikda pretsedent birlik tushunchasi XX asr oxiri – XXI asr boshlarida shakllangan bo‘lib, u til va madaniyatning o‘zaro uzviy bog‘liqligini yoritishga xizmat qiluvchi muhim nazariy kategoriya hisoblanadi. Ushbu tushuncha ilk bor rus tilshunosligida *Y.N. Karaulov* tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo‘lib, u pretsedent birliklarni muayyan lingvomadaniy jamoa vakillari uchun yaxshi tanish, ijtimoiy xotirada mustahkam o‘rin egallagan va kommunikatsiyada faol qo‘llaniladigan birliklar sifatida ta’riflaydi [4,262]. Uning fikricha, pretsedent birliklar:

1. jamoa a’zolari tomonidan yaxshi tanilgan bo‘lishi;

2.kognitiv jihatdan muhim axborotni tashishi;

3.qayta-qayta kommunikativ vaziyatlarda murojaat qilinishi lozim.

Keyingi tadqiqotlarda bu tushuncha V.V. Krasnix, G.G. Slishkin, D. Gudkov, R.A. Volkova, M.Y. Ilyushkina, I.V. Zaxarenko kabi olimlar tomonidan rivojlantirildi. Jumladan, V.V. Krasnix pretsedent birliklarni lingvomadaniy belgi sifatida talqin qilib, ularning asosiy vazifasi milliy ongda mavjud bo‘lgan bilim va tasavvurlarni faollashtirishdan iborat ekanini ta’kidlaydi [5,208]. Uning fikrlariga ko‘ra, madaniyatda xalqning tarixiy xotirasi, ma’naviy energiyasi jamlanadi hamda madaniyat “umumiy xotira makoni” sifatida talqin qilinadi hamda nominativ birlik sifatida aks etuvchi bu kabi pretsedent fenomenlarga murojaat muayyan lingvomadaniy hamjamiyat vakillari muloqotida qayta-qayta tiklanib boradi hamda ularning til va nutqda ro‘yobga chiqishi muallifning kommunikativ maqsadiga muvofiq amalga oshadi [5,208]. Ya’ni, “har bir xalq umumiy manbadan o‘z qadriyatlar tizimi va dunyoqarashiga eng mos keladigan unsurlarni tanlab oladi.” [7,119].

Slishkin G.G. fikrlariga ko‘ra, pretsedent fenomenlar lingvo-mental birliklar bo‘lib, ular madaniyat va til orqali shakllanadi, inson ongida aks etadi hamda milliy lingvomadaniy jamoaning dunyo, ijtimoiy munosabatlar, axloqiy-me’yoriy kategoriyalar haqidagi kognitiv hamda ma’naviy jihatdan qimmatli tasavvurlarini ifodalaydi [8,128].

Ko‘rinib turibdiki, “pretsedent fenomenlar – bu milliy-lingvomadaniy jamoaning barcha vakillari uchun yaxshi tanish bo‘lgan, ijtimoiy-madaniy xotirada saqlanadigan va muloqotda takror-takror uchraydigan birliklar” bo‘lib, ular oddiy nominativ birlik emas, balki madaniy xotira kodi sifatida namoyon bo‘ladi [5,208].


Metod. Tadqiqotda tafsiflash, tasniflash metodi, etimologik, tarixiy-lingvistik, leksik tahlil usullari hamda matnshunoslik yondashuvidan foydalanildi. Maqola yozishda, asosiy misollar tarixiy, ilmiy (“Buyuk ajdodlarimiz”, “Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi”) hamda publitsistik (taqdimnomalar, risolalar, internet materiallari) manbalardan tanlanib, tahlilga tortildi.

Natijalar. Pretsedent nomlar madaniy jihatdan muhim ma’lumotlar obyekt – qahramon yoki voqelikning milliy xususiyatlari va o‘ziga xos belgilari orqali anglashiladi hamda keng tanilgan matn bilan bog‘liq individual ism, til sohiblariga yaxshi tanish bo‘lgan va pretsedent vaziyat sifatida namoyon bo‘luvchi holat bilan bog‘liq ism, muayyan sifatlar majmuyini ifodalovchi etalonni ko‘rsatuvchi ramziy ism shaklida aks etadi [2,185]. Ular kalit konseptlar – “mentefaktlar – mental birliklar”, jumladan pretsedent fenomenlar — madaniyat “artefaktlari (moddiy shaklga ega predmetlar – inshoot, madrasa.)” jamiyatning an’analari va urf-odatlarini anglash uchun “bebaho kalitlar”ga aylanadi hamda muayyan madaniyat uchun prinsipial ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlar majmuyini tashkil etadi [9,43].O‘zbek tilshunoslari tadqiqotlarida ham pretsedent birliklar lingvomadaniy hamjamiyatning aksar vakillariga tanish, ularning xotirasida saqlangan va bu kabi birliklarning nutqda aktuallashgan ko‘rinishlari ekanligi o‘z tasdig‘ini topgan[10, 87].

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda shunday xulosaga kelish mumkin: **pretsedent nomlar** muayyan madaniyat vakillari tafakkurida o‘z identitetiga ega konsept shaklidagi verbal yoki noverbal vositalar yordamida ifodalanuvchi, milliy-lingvomadaniy jamoaning barcha vakillari uchun yaxshi tanish bo‘lgan, ijtimoiy-madaniy xotirada saqlanadigan va muloqotda takror-takror uchraydigan oddiy nominativ birlik emas, balki madaniy xotira kodi – “artefaktlar (moddiy shaklga

ega predmetlar – inshoot, madrasa.)", an'ana va urf-odatlar sifatida namoyon bo'ladigan qadriyatlar majmuyi – "kalit so'zlar"dir.

Pretsedent fenomenlar orqali milliy ongda mavjud bilim va tasavvurlar faollashadi hamda madaniy komponent o'z ifodasini topadi. Jumladan, mamlakatimiz tarixi va madaniy hayotining ajralmas qismi sifatida dunyo hamjamiyati nigohida bo'lgan Buxoro, Samarqand, Xiva kabi hududlarda yashagan buyuk allomalar, tarixiy shaxslar, voqea-hodisalar, milliy taomlar, milliy kiyimlar, inshootlar, geografik joy nomlari hamda urf-odat va an'analar bilan bog'liq birliklar nafaqat xalqimiz tafakkurida, balki dunyo ahli dunyoqarashida ham muayyan assotsiatsiyalarni hosil qila oladi. Mazkur nomlar aks etish xususiyatiga ko'ra, asosan, ikki shaklda namoyon bo'ladi (1.1-chizmaga qarang):



1.1-chizma. Pretsedent birliklarning umumiy xoslanishi

1. Eslatuvchi pretsedent nomlar boshqa bir hodisa, shaxs yoki narsani eslatishi asosida namoyon bo'ladi. Masalan, Imom al Buxoriy nomi hadislarni, Amir Temur nomi ulkan, birlashgan davlatni, Mirzo Ulug'bek nomi yulduzlar ilmini, Abu Ali Ibn Sino nomi tib ilmini, Al Xorazmiy nomi matematik ilmlarni, Abu Rayhon Beruniy nomi geografik bilimlarni eslatadi. Chunki bu kabi nomlar o'zbek xalqi tafakkurida milliy, madaniy faxr tuyg'ularini uyg'otishi bilan bir qatorda turli madaniyat vakillari ongida ham muayyan assotsiatsiyalar hosil qilish orqali kodlanadi. Garchi ushbu shaxslar qomusiy olimlar sifatida ilm-fanning turli sohalari bo'yicha ulkan ishlarni amalga oshirgan bo'lsalarda, muayyan bir sohada beqiyos shuhrat qozonishgan hamda dunyo ilm-fani taraqqiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatgan shaxslardir. Masalan, Abu Ali Ibn Sino nomi tib ilmi bilan bog'liq bilimlarni, xususan, "Tib qonunlari" asarini, dunyoda keng tanilgan Afitsena nomini yodga soladi:

Abu Ali Ibn Sinoning *tabobatda qilgan ishlari uning nomini bir necha asrlarga shu fan sohasi bilan chambarchas bog'ladi. Olimning tabobat taraqqiyotidagi buyuk xizmati shundaki, u o'zigacha o'tgan turli xalq namoyondalari tomonidan asrlar davomida tib ilmi sohasida to'plangan ma'lumotlarni saralab, muayyan bir tartibga soldi va ularni o'z tajribalari bilan boyitgan holda ma'lum nazariya va qonun-qoida asosida umumlashtirdi. Bunga uning "Tib qonunlari" va bu asarning jahon tib ilmi tarixida tutgan mavqeyi va qozongan shuhrati yorqin dalildir*. ("Buyuk ajdodlarimiz" asaridan, 87-bet)

2. Ishora qiluvchi birliklar. Bu kabi xususiyatini namoyon etuvchi pretsedent nomlar, asosan, muayyan stilistik maqsad bilan qo'llanadi. Ular, asosan, badiiy adabiyotga oid matnlar tarkibida namoyon bo'ladi.

Pretsedent nomlar nafaqat shaxs nomlari bilan bog'liq holda, balki muayyan voqelik, vaziyat, lavozim, diniy mavqe, ilm-fanga ishora tarzida ham aks etishi mumkin. Shunga binoan, ular o'ziga xos individual xususiyatlariga ko'ra quyidagi tartibda tasniflanishi va jadval asosida taqdim etilishi maqsadga muvofiq (1.1-jadvalga qarang):

1.1-jadval

Pretsedent nomlarning individual xususiyatlariga ko'ra tasniflanishi

№	Mavzuviy guruh	Ramziy ishora	Misol
1	Allomalar nomlari	Ilm-fanga ishora	Al Xorazmiy (matematika)
2	Payg'ambarlar nomlari	Rivoyatlarga ishora	Chashmayi Ayyub
3	Milliy qahramonlarning nomlari	Vatanparvarlik, jasurlikka ishora	Jaloliddin Manguberdi
4	Diniy allomalarning nomlari	Islomiy bilim va tariqatga ishora	Bahouddin Naqshband
5	Hukmdorlarning nomlari	Siyosiy, ijtimoiy, madaniy vaziyatga	Muhammad Xorazmshoh

6	Ayollarning ismlari	Go‘zallik, donolik, munosabatlarga ishora	Bibixonim
7	Obyekt nomlari	Vaziyatga, faoliyatga ishora	“Nodir devonbegi” madrasasi
8	Geografik joy nomlari	Voqea, faoliyat, shaxsga ishora	Chor bakr, Labi hovuz
9	Kiyim, mato nomlari	Milliy identitet, mavsumiylik, davrga	Adras, to‘n
10	Narsa-buyum nomlari	Milliy hunarmandchilikka, qadimiylikka ishora	ko‘za, xum, sopol tovoq
11	Taom nomlari	Milliy stereotip (mehmonnavozlik)ga	Osh
12	Asar nomlari	Davlat boshqaruviga ishora	“Temur tuzuklari”

Xulosa. Faqat lingvomadaniy bilimlar asosidagina pretsedent nomlar sifatida shakllangan so‘zlarning ma’nosini to‘g‘ri anglash mumkin. Chunki ular turli ijtimoiy-madaniy konseptlarni ifodalaydi. Tahlillardan shunday fikrga kelish mumkinki, inshoot va obyektlarning nomlari muayyan voqealarga, hukmdor va tarixiy shaxslarning nomlari siyosiy, ijtimoiy vaziyatlarga, allomalarning nomlari ilm-fan sohalari yoki ularning taraqqiyotiga, milliy kiyimlar, taomlar, narsa-buyumlarning nomlari milliy-madaniy identitet, axloq me’yorlariga ishora qilish orqali o‘z ifodasini topadi. Ular ko‘pchilikka tanish bo‘lib, ularning tasavvurida o‘ziga xos madaniy kod ko‘rinishida aks etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Aminov M., Hasanov F. Buyuk ajdodlarimiz. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi – 2010.

2. Гудков Д. Б. Теория и практика межкультурной коммуникации. М. : Гнозис, 2003. Стр. 185.

3. Istamovna, A. N. "Sayohat turizmiga oid matnlarda milliy-madaniy birliklarning leksik-pragmatik xususiyatlari." Contemporary technologies of computational linguistics 2.22.04 (2024): 479-484.

4. Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. (М., 1987. Стр.262.

Красных В.В. Этнопсихолингвистика и лингвокультурология. — М.: Гнозис, 2002. Стр. 208.

5. Красных В.В. Грамматика лингвокультуры или что держит языковую картину мира? Экология языка и коммуникативная практика. 2013. №1. – URL: https://cyberleninka.ru/article/n/grammatika-lingvokultury. Стр. 124

6. Рыжкина Е. В. Прецедентность имени в английской фразеологии // Новое в лексикологических исследованиях: преемственность и инновации. М. : ФГБОУ ВПО МГЛУ, 2013. С. 112–123. (Вестн. Моск. гос. лингвист. ун-та; вып. 20 (680). Сер. Языкознание.)

7. Слышкин Г.Г. От текста к символу: Лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании и дискурсе / - М., 2000. — 128 с.

8. Волкова Р.А. Прецедентные тексты как сегменты вербального культурного кода. Russian Linguistic Bulletin № 7 (43) ▪ Июль.

9. Худойберганова Д. Матннинг антропосентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013. Б.87.

UO’K 398.9(=512.133):81'373

O‘ZBEK XALQ MAQOLLARINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

M.Sh. Akmuratova, magistrant, Urganch RANCH texnologiya universiteti, Urganch
M.I. Ismailov, talaba, Urganch RANCH texnologiya universiteti, Urganch

Annotatsiya*. O‘zbek xalq maqollari xalqimizning ko‘p asrlik hayot tajribasi, dunyoqarashi va axloqiy-me’yoriy qarashlarini ixcham va obrazli shaklda ifodalovchi paremiologik birliklardir. Ularni chuqur o‘rganishda leksik-semantik xususiyatini tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada o‘zbek xalq maqollarining leksik-semantik xususiyatlari misollar yordamida yoritiladi.*

Kalit so‘zlar*: maqol, ko‘p ma’nolilik, ma’nodoshlik, zid ma’nodoshlik, variantdoshlik.*

Аннотация. *Узбекские народные пословицы представляют собой паремиологические единицы, в краткой и образной форме выражающие многовековой жизненный опыт, мировоззрение и этико-нормативные взгляды нашего народа. При их глубоком изучении важное значение имеет исследование лексико-семантических особенностей. В данной статье на конкретных примерах освещаются лексико-семантические свойства узбекских народных пословиц.*

Ключевые слова: *пословица, многозначность, синонимия, антонимия, вариантность.*

Abstract. *Uzbek folk proverbs are paremiological units that express the centuries-old life experience, worldview, and ethical-normative outlooks of our people in a concise and figurative form.*

In their profound study, investigating lexical-semantic characteristics holds significant importance. This article highlights the lexical-semantic features of Uzbek folk proverbs through specific examples.
Keywords: *proverb, polysemy, synonymy, antonymy, variability.*

Maqollarning lisoniy tabiatini tadqiq etishda, avvalo, ularning leksik-semantik xususiyatlariga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Binobarin, maqollar (paremalar) lug'aviy ma'no tashuvchi mustaqil til birliklari hisoblanib, ular o'zaro ko'p ma'nolilik (polisemiya), ma'nodoshlik (sinonimiya), zid ma'nodoshlik (antonimiya) va variantdoshlik kabi sistemaviy munosabatlarga ega ekanligi bilan xarakterlanadi.

Maqollarda ko'p ma'nolilik hodisasi. Boshqa lisoniy birliklar kabi, maqollar tizimida ham ko'p ma'nolilik (polisemiya) hodisasi kuzatiladi. Paremiologik tahlillar shuni ko'rsatadiki, aksariyat maqollar monosemantik (bir ma'noli) xususiyatga ega bo'lsa, ayrimlarining ma'no ko'lami bittadan ortiq semantik qatlamni ifodalashga ham qodir. Ko'p ma'noli maqollarning semantik strukturasi tahlil qilinganda, odatda, ikkilamchi ma'nolarning birlamchi ma'no negizida taraqqiy etishi va mantiqiy bog'liqlik asosida shakllanishi namoyon bo'ladi.

Polisemantik xususiyat, odatda, o'zbek tilining iste'molida uzoq vaqt davomida saqlanib kelgan va faol qo'llaniluvchi arxaik hamda universallashgan maqollarga xosdir. Masalan, *"Egasini siylagan itiga suyak tashlar"* [2.372] maqolini olsak, uning denotativ (asosiy) va konnotativ (ko'chma) ma'nolari o'rtasida o'ziga xos semantik siljish mavjudligi ko'rinadi.

Maqolning birinchi ma'nosi muayyan manfaat yo'lida amalga oshiriladigan bilvosita xushomadgo'ylikni ifodalaydi. Ya'ni, "pixini yorgan" kishi o'z maqsadiga erishish uchun bevosita tegishli shaxsga emas, balki uning yaqinlari (oilasi, farzandlari) orqali yo'l topishga, ularga sovg'a-salom ulashish orqali asosiy shaxsning ko'nglini ovlashga intiladi. Said Ahmadning "Jimjitlik" asaridagi ushbu parcha maqolning kontekstual ma'nosini yaqqol ochib beradi: *"Nima qilsin? Quruqdan quruq boraversinmi? Har kim o'z obro'siga yarasha ish tutishi kerak... Shunday narsa oborsinki, Rahimovning qulog'iga o'tsin. Yaqin odamlarimni ham qadrlayapti, desin. Egasini siylasang, itiga suyak tashla, deb bekorga aytishmagan"* [3.225].

Mazkur paremaning ikkinchi semantik ma'nosi ijobiy konnotatsiyaga ega bo'lib, u insonning muayyan shaxsga bo'lgan yuksak hurmati va muhabbati uning yaqinlariga ham ko'chishini ifodalaydi. Ya'ni bir kishini chin dildan ardoqlash, uning atrofidagilarni ham izzat-ikrom qilishga sabab bo'ladi. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida ushbu maqol aynan shu ma'noda – Otabekning Kumushga bo'lgan muhabbati tufayli uning ota-onasiga ko'rsatgan yuksak ehtiromini tavsiflash uchun mahorat bilan qo'llanilgan: *"Egasini siylagan itiga suyak tashlar qabilidan qizlari tufayli qutidor va Oftob oyimlar ham juda yaxshi izzat ko'rar edilar"* [4.340].

"Elchiga o'lim yo'q" paremasi ham semantik strukturasi jihatidan ikki ma'nolilik xususiyatiga ega [2.375]. Maqolning birinchi (denotativ) ma'nosi qadimgi xalqaro diplomatiya normalari bilan bog'liq bo'lib, sulh tuzish yoki muayyan xabarni yetkazish maqsadida kelgan vakilning daxlsizligi, uni o'ldirish qonunga xilof ekanligini anglatadi.

Shu bilan birga, ushbu maqolning ikkinchi (ko'chma) ma'nosi ham mavjud bo'lib, u notanish hududlarda yo'l ko'rsatuvchi sifatida chorvadorlar (cho'pon, yilqiboqar va b.) xizmatidan foydalanish afzalligini ifodalaydi. Zero, hududiy relyefni yaxshi biladigan yo'lchi bexavotir harakatlanishni ta'minlaydi. Ushbu ma'no qatlamiga ko'ra, mazkur birlik "Donodan elchi qil, chorvadan yo'lchi qil" maqoli bilan o'zaro sinonimik munosabatga kirishadi.

Ushbu huquqiy normaning tarixiy ildizlari Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asariga borib taqaladi. Koshg'ariy turkiy davlatchilikning qadimiy va o'zgarmas huquqiy qoidasini keltirar ekan: *"Yosh ho'l o'tin o'tda yonmaganidek, xabari og'ir bo'lsa ham, elchiga o'lim yo'q"*, – deya ta'kidlaydi [5.174]. Bu o'xshatish orqali elchining daxlsizligi tabiat qonuniyatlari kabi muqarrar va inkor etib bo'lmas tamoyil ekanligi obrazli tarzda ifodalangan. Mazkur fakt maqolning nafaqat xalq og'zaki ijodi namunasi, balki qadimiy turkiy diplomatiyaning lisoniy muhrlangan qonuni ekanligidan dalolat beradi.

Maqollarda ma'nodoshlik hodisasi. Paremiologik sathda ma'nodoshlik hodisasi eng keng tarqalgan va murakkab semantik kategoriyalardan biri hisoblanadi. Maqollarning o'zaro sinonimik

munosabatga kirishishi uchun ular muayyan lisoniy va mantiqiy talablarga javob berishi lozim. Tadqiqotchi I.E. Savenkova ta'kidlaganidek, maqollarda sinonimiya hodisasi ularning strukturaviy va semantik yaxlitligi bilan belgilanadi [6.6].

Xususan, maqollarning o'zaro ma'nodosh sanalishi uchun quyidagi differensial belgilar (shartlar) mavjud bo'lishi talab etiladi:

1. Semantik invariantlik (Yagona ma'no asosi): Maqollar ifodalayotgan umumiy mantiqiy xulosa yoki hukm bitta markaziy g'oyaga birlashishi lozim.
2. Tematik mushtaraklik: Ma'nodosh paremalar bir xil mavzu doirasiga (masalan, mehnat, do'stlik, bilim) tegishli bo'lishi shart.
3. Obrazli tafovut (Denotativ xilma-xillik): Har bir maqol garchi bir xil g'oyani ifodalasa-da, alohida-alohida obrazlar yoki metaforik asoslar yordamida shakllangan bo'lishi kerak. Aynan obrazlarning turlichaligi maqollarning variantdoshlikdan farqlanib, sinonimiyani hosil qilishini ta'minlaydi.
4. Konnotativ o'ziga xoslik: Sinonimik qatorni tashkil etuvchi birliklar o'zaro uslubiy bo'yoq, mazmun nozikliklari (ottenkalar) va nutqdagi qo'llanish chastotasi bilan bir-biridan farqlanishi mumkin.

Maqollar ma'nodoshligini belgilovchi bosh mezon — ularning lisoniy shakli va qo'llanilgan obrazlaridan qat'i nazar, muayyan nutqiy vaziyatda birining o'rnida ikkinchisini qo'llash imkoniyatidir (kontekstual o'rin almashish). Biroq bunday almashtirish shunchaki mexanik jarayon emas.

Taniqli tilshunos olim Sh.Rahmatullayev ta'kidlaganidek: *"Bunday almashtirish natijasida ma'noda va uslubiy bo'yoqda ma'lum o'zgarish yuz beradi. Bu – tabiiy hol. Aks holda almashtirish o'z mantiqini yo'qotib qo'yadi. Almashtirish natijasida nimadandir xalos bo'lamiz, nimagadir ega bo'lamiz. Ana shu 'nimalar' (mazmuniy va uslubiy farqlar) sinonim haqida gapirish uchun asos bo'ladi. Aks holda sinonimga emas, dubletga ega bo'linadi"* [7.55].

Ushbu fikrga tayanib aytish mumkinki, maqollar sinonimiyasida quyidagi ikki jihat markaziy o'rin tutadi:

1. Semantik yaqinlik: Maqollarning bitta mantiqiy xulosaga xizmat qilishi (nimadan xalos bo'lib, nimaga ega bo'lishimizdan qat'i nazar, umumiy maqsad o'zgarmaydi).
2. Uslubiy differensatsiya**:** Har bir ma'nodosh maqol nutqqa o'ziga xos ekspressivlik (ta'sirchanlik) va obrazlilik olib kiradi. Agar ikki maqol o'rtasida hech qanday uslubiy yoki ma'no nozikligi bo'lmaganida, ular til tizimida sinonim emas, balki ortiqcha birlik — dublet sifatida qolib ketar edi.

Masalan: *Sichqonning o'lgisi kelsa, mushuk bilan o'ynashar; Echkining kaltak yegisi kelsa, cho'ponning tayog'iga surkalar; Ilonning o'lgisi kelsa, shig'irda yotar; Ajali yetgan kiyik adirga qochar; Parvonaning o'lgisi kelsa, sham bilan o'ynashar; O'lgisi kelgan chivin bolga qo'nar; It qutursa, egasini qopar; Bo'ri qutursa, o'z qavmiga chopar; Buqa semirsa, egasini suzar; To'rg'ay qutursa, burgutga chopar; Eshak semirsa, egasini tepar; Ajali yetgan tulki ovchining oldidan chiqar; Yig'lagisi kelgan bola otasining soqolini o'ynar; Mushukning o'lgisi kelsa, arslon bilan o'ynashar* kabi maqollar o'zaro ma'nodosh ekanligi "Ma'nolar mahzani" nomli maqollar izohli lug'atida ham ta'kidlab ko'rsatilgan [2.320-321].

Yuqorida keltirilgan maqollarning barchasida "*bo'ladigan baloga aksariyat hollarda kishining o'zi sababchi bo'ladi: o'zidan jismoniy, moddiy yoki mavqei jihatidan kuchli bo'lgan, yuqori turadigan odam bilan olishadi va o'z xatti-harakatining qurboni bo'ladi*" [8.264-265], – degan umumiy mazmun ifodalangan. Yagona ana shu mazmun orqali ular bir umumiy tematik guruhga birlashadi.

Ma'nodoshlik munosabatiga kirishgan maqollarning har biri o'ziga xos metaforik obraz asosiga quriladi. Shu bilan birga, sinonimik qatorni tashkil etuvchi har bir birlik o'zining semantik nozikligi (ottenkasi) hamda nutqdagi qo'llanish darajasi (chastotasi) bilan individual xususiyat kasb etadi.

Tadqiqotchi B. Jo'rayeva o'zbek xalq maqollarining boy lisoniy xazinasini o'rganib, ularning sinonimik imkoniyatlari haqida diqqatga sazovor statistik ma'lumotlarni keltirib o'tgan. Muallif o'z

tadqiqotida 220 tadan ortiq sinonimik uya (sinonimik qator) mavjudligini aniqlagan bo‘lib, ushbu uyalar tarkibiga 1100 tadan ziyod maqol qamrab olingan [9.13-14].

Maqollar sinonimiyasining o‘ziga xosligi boshqa lisoniy sathlar bilan qiyoslanganda yaqqol namoyon bo‘ladi:

- Leksik sinonimiyada: Bir uyaga, odatda, 2 tadan 10 tagacha (kamdan-kam hollarda o‘ntadan ortiq) so‘z birlashadi.
- Frazeologik sinonimiyada: Bir sinonimik qator, qoidaga ko‘ra, eng ko‘pi bilan 5 ta frazemadan tashkil topadi.
- Maqollar (paremiologik) sinonimiyasida: Bitta uyada 20 tagacha maqolning birlashishi kuzatiladi.

Ushbu miqdoriy ustunlik maqollarning vaziyatli (situativ) ehtiyojlarga ko‘ra naqadar xilma-xil obrazlar va tushunchalar bilan boyitilganidan dalolat beradi. Bitta mantiqiy xulosaning 20 xil variantda ifodalanishi o‘zbek tilining tasviriy imkoniyatlari naqadar kengligini isbotlovchi muhim omildir.

Maqollarda variantdoshlik hodisasi. Maqollar tizimida **variantlilik** hodisasi ma’nodoshlik kabi keng qamrovli va tizimli xususiyatga ega. Paremiologik variantlilik deganda, anglatilayotgan mazmuni (ifoda mundarijasi) bir xil bo‘lib, lisoniy qurilishi (ifoda plani) jihatidan o‘zaro farqlanadigan birliklar tushuniladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, maqollarda variantlanish darajasi boshqa lisoniy birliklarga (so‘z yoki frazemalarga) nisbatan ancha yuqori bo‘lib, quyidagi miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlari bilan xarakterlanadi:

1. Strukturaviy ko‘lam: Ko‘p variantli maqollarning asosiy qismi, odatda, ikki yoki uch variantli ko‘rinishlardan iborat bo‘ladi.
2. Variantlar soni: Maqol janrining og‘zaki tabiatga ega ekanligi sababli, bir paremiologik birlikning variantlari soni ba’zan o‘n tadan o‘n beshtagacha yetishi mumkin.
3. Variantlilikning ma’nodoshlikdan farqi: Sinonimiyadan farqli o‘laroq, variantdoshlikda obrazlar o‘zgarmaydi, balki so‘zlar almashishi (leksik variant), qo‘shimchalar o‘zgarishi (grammatik variant) yoki gap qurilishidagi siljishlar (strukturaviy variant) kuzatiladi.

Maqollardagi variantdoshlik hodisasini xarakterlovchi asosiy mezonlar sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

1. Genetik birlik: Turli lisoniy o‘zgarishlarga qaramay, barcha variantlar muayyan bir asosiy manbaga (etimonga) borib taqalishi va bir birlik negizida shakllangan bo‘lishi shart.
2. Obraz barqarorligi: Variantlar asosi bo‘lgan metaforik obraz o‘zgarmasligi lozim. Ya’ni, variantlanish jarayonida obrazli asos o‘zgarishi emas, balki uning lisoniy ifodasi transformatsiyalanishi kuzatiladi.
3. Semantik ayniyat: Barcha variantlar bir xil denotativ ma’noni anglatishi darkor. Bunda faqatgina ma’noning ekspressivlik darajasi, uslubiy bo‘yog‘i yoki nutqiy qo‘llanilish xususiyatlarida cizilar-cizilmas farqlar mavjud bo‘lishi mumkin.
4. Leksik-strukturaviy yaqinlik: Maqollarning leksik tarkibi va sintaktik qurilishi o‘zaro yuqori darajadagi o‘xshashlikni saqlab qolishi talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda, variantlanish hodisasi maqolning ichki yaxlitligini buzmaydi va uni boshqa mustaqil maqolga aylantirmaydi. Unda obraz va ma’no birligi (semantik invariant) qat’iy saqlanadi. Variantlanish natijasida yuz beradigan o‘zgarishlar maqolning strukturaviy yaxlitligini yemirmaydi, balki mazkur yaxlitlik imkon bergan doirada, ya’ni til tizimining me’yorlari asosida namoyon bo‘ladi.

Maqollardagi variantlilik hodisasini kuzatish asosida ularni quyidagicha ikki guruhga ajratish mumkin: 1) leksik variantli maqollar; 2) grammatik variantli maqollar.

1. Leksik variantli maqollar tarkibidagi so‘z yoki so‘zlarning o‘zgarishi bilan hosil bo‘ladi. Masalan: *E, bosh omon bo‘lsa, do‘ppi topiladi* - *Bosh omon bo‘lsa, mol topiladi; Echkiga jon qayg‘usi, qassobga moy qayg‘usi* - *Echkiga jon, qassobga moy qayg‘usi; Pichoq o‘z sopini kesmas - Pichoq qancha o‘tkir bo‘lsa ham o‘z sopini kesmas* [1.200; 213; 232] kabilar.

2. Grammatik variantli maqollar esa tarkibining grammatik jihatdan o‘zgarishi asosida yuzaga keladi: *Qurbaqani bossa, vaq etadi - Qurbaqani bossangiz vaq deydi - Bossang, qurbaqa ham vaq etadi; Xatga tushding, o‘tga tushding - Xatga tushdingmi, o‘tga tushding; Chiqqan qiz chig‘iriqdan tashqarida - Chiqqan qiz chiyriqdan tashqari; Osmon uzoq, yer qattiq - Yer qattiq, osmon uzoq* [1.140; 155; 163; 218]kabilar.

Xalq og‘zaki ijodi namunalarini, xususan, maqollar tilini tadqiq etish lisoniy taraqqiyotni o‘rganishda yuksak ahamiyat kasb etadi. Negaki, maqollarda tilning bitmas-tuganmas boyligi, xalqning badiiy tafakkuri va lisoniy mahorati o‘zining mukammal ifodasini topadi. Maqollardagi jozibadorlik va ixchamlik xalq poeziyasining seliqon tahlilidan o‘tib, asrlar davomida saralanadi, ardoqlanadi va izchil taraqqiy ettiriladi. Shu bois, maqollar tili muayyan xalq tili tarixini, uning o‘tmishi va bugunini bog‘lovchi muhim ko‘prik bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: «Sharq», 2005. – 257 b.

2. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар маҳзани (ўзбек мақолларининг изоҳли луғати). - Тошкент. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2001. – 448 bet.

Абдурахманов Х. Синтаксические особенности узбекских народных пословиц. Автореф. дис... канд. филол. наук. – Ташкент, 1964.

3. Said Ahmad. Jimjitlik. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2008. – 280 bet.

Садриддинова М.З. Лексика узбекских пословиц и поговорок. Автореф. дис... канд. филол. наук. – Ташкент, 1985.

4. Abdulla Qodiriy. O‘tkan kunlar. – Toshkent: “Sharq” NMAK, 2014. – 400 bet.

5. М.Кошғарий. Девону луғатит-турк. Нашрга тайёрловчи Қ.Содиқов. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijod uyi, 2017. – 482 bet.

6. Савенкова И.Е. Структура и семантика пословиц и поговорок современного русского языка. Автореф. дис... канд. филол. наук. – Москва, 1989.

7. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари. – Тошкент. Фан, 1966.

8. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ўзбек мақолларининг изоҳли луғати, Нега шундай деймиз. – Тошкент. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – 352 b.

9. Жўраева Б.М. Мақолларнинг лисоний мавқеи ва маъновий-услубий қўлланилиши. Филол. фанлари номзоди... дисс... – Самарқанд, 2002. – 132 b.

UDC 811.111’367.625:81’38

SEMANTIC, STRUCTURAL AND STYLISTIC FEATURES OF PHRASAL VERBS IN ENGLISH

D.R. Alaudinova, PhD, Termez state university, Termez
M.B. Egamberdieva, Master student, Termez state university, Termez

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz tilidagi phrasal verblar tushunchasi semantik, strukturaviy va uslubiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda phrasal verblarning ko‘pma’noliligi va idiomatik xususiyatlari alohida e’tiborga olinib, ularning noan’anaviy tuzilishi xorijiy tilni o‘rganuvchilar uchun muayyan qiyinchiliklar tug‘dirishi ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, phrasal verblarning ingliz tilidagi fe’l tizimida tutgan o‘rni hamda kundalik nutqda keng qo‘llanishi yoritiladi*

Kalit so‘zlar*: phrasal verblar, idiomatiklik, kompozitsionlik, semantika, strukturaviy turlar, uslubiy farqlanish, kommunikativ kompetensiya*

Аннотация. *Фразовые глаголы являются одной из наиболее характерных особенностей английского языка и представляют значительные трудности для изучающих его как иностранный. В данной статье рассматривается понятие фразовых глаголов с семантической, структурной и стилистической точек зрения. Особое внимание уделяется их многозначной и идиоматической природе, которая зачастую не позволяет учащимся определить значение посредством прямого композиционного анализа. Исследование*

показывает, что фразовые глаголы составляют значительную часть глагольной системы английского языка и играют важную роль в повседневной коммуникации.
Ключевые слова: *фразовые глаголы, идиоматичность, композиционность, семантика, структурные типы, стилистическая дифференциация, коммуникативная компетенция.*
Abstract*. Phrasal verbs constitute one of the most distinctive features of the English language and present considerable challenges for non-native learners. This article examines the notion of phrasal verbs from semantic, structural, and stylistic perspectives. Special attention is paid to their polysemous and idiomatic nature, which often prevents learners from interpreting meaning through direct compositional analysis. The study demonstrates that phrasal verbs form a substantial part of the English verbal system and play a crucial role in everyday communication.*
Keywords*: phrasal verbs, idiomaticity, compositionality, semantics, structural types, stylistic variation, communicative competence*

Introduction. English, as a Germanic language, possesses a number of grammatical and lexical features that distinguish it from many other languages. Among these features, phrasal verbs occupy a particularly prominent position. They are not only central to English but also characteristic of other Germanic languages, such as German and Dutch. However, their scope, productivity, and frequency in English are especially remarkable.

Phrasal verbs often pose serious difficulties for non-native speakers, as their meanings cannot always be inferred from the meanings of their individual components. For instance, the verb *give* differs significantly from *give up*, just as *find* and *find out* convey fundamentally different meanings. In many cases, the combination of a verb and a particle results in a new semantic unit whose meaning is non-compositional and idiomatic in nature. This characteristic makes phrasal verbs both linguistically intriguing and pedagogically problematic.

The present article aims to explore the notion of phrasal verbs by examining their semantic properties, structural patterns, and stylistic functions in English. By doing so, it seeks to demonstrate why phrasal verbs should be regarded not merely as a grammatical phenomenon but as a key component of communicative competence.

Review of Related Literature. The study of phrasal verbs has a long tradition in English linguistics. Early descriptions focused primarily on their formal properties, while later research increasingly emphasized their semantic and functional complexity. According to Olson (2010), most phrasal verbs are formed from short, monosyllabic verbs, many of which express motion, action, or basic states of being. This observation explains their high frequency and productivity in everyday language. Different scholars have used various terms to describe these constructions, including *verb–adverb combinations*, *verb–particle constructions*, *two-word verbs*, and *separable verbs*. The diversity of terminology reflects the hybrid grammatical nature of phrasal verbs, which display characteristics of both lexical and syntactic units.Research has also highlighted the remarkable frequency of phrasal verbs in English. Melissa notes that they constitute nearly one-third of the English verb vocabulary and are particularly common in spoken discourse. They tend to occur more frequently in informal registers, such as conversation and fiction, whereas in formal writing they are often replaced by Latinate synonyms. From a pedagogical perspective, McCarthy emphasizes that grammatical accuracy alone is insufficient for effective communication. Learners must also acquire a rich and flexible vocabulary, within which phrasal verbs play a central role. Solomon further argues that the avoidance of phrasal verbs by learners can significantly limit their expressive potential in English [1: 91].

Methodology. The present study adopts a descriptive and analytical approach to the investigation of phrasal verbs. The analysis is based on established theoretical frameworks proposed by scholars such as Fraser, Quirk and Thim [7: 91].

Semantic Characteristics of Phrasal Verbs. The semantic dimension of phrasal verbs has received considerable attention in linguistic research due to its complexity and variability. Schneider observes that many verb–particle combinations form semantic units whose meanings are opaque and idiomatic. In such cases, the overall meaning cannot be derived from the literal meanings of the verb

and the particle. This semantic opacity explains why phrasal verbs present such a challenge for learners. Their meanings often require contextual interpretation and repeated exposure rather than direct translation or logical deduction [2: 30].

Structural Types of Phrasal Verbs. In addition to their semantic complexity, phrasal verbs display considerable structural variation. Quirk identify three major structural types. The first type consists of a verb followed by an adverbial particle, as in *take off* or *give in*. The second type includes a verb followed by a preposition, such as *look after* or *rely on*. The third type comprises three-part constructions, combining a verb, an adverbial particle, and a preposition, as in *put up with* or *look forward to*.

Another important structural distinction is that between separable and inseparable phrasal verbs. Separable constructions allow the object to appear between the verb and the particle, whereas inseparable constructions do not permit such variation. This structural flexibility further contributes to the uniqueness of phrasal verbs within the English verbal system [4: 59].

Stylistic and Functional Aspects. Phrasal verbs also perform an important stylistic function in English. Gardner and Davies (2007) demonstrate that while phrasal verbs occur in both spoken and written registers, they are particularly frequent in informal contexts. In academic and formal writing, single-word verbs of Latin origin are often preferred.

Nevertheless, Biber et al. (1999) emphasize that phrasal verbs contribute significantly to the naturalness and fluency of spoken discourse. In fiction and journalism, they enhance expressiveness and create a more engaging and accessible style. For learners, however, stylistic variation remains a major challenge, as inappropriate use of informal phrasal verbs can result in pragmatic errors.

Conclusion. Phrasal verbs represent one of the most distinctive and complex features of the English language. Their semantic diversity, structural variability, and stylistic flexibility make them an essential object of linguistic analysis. As this study has shown, phrasal verbs cannot be regarded merely as grammatical combinations; rather, they function as integral components of the English lexicon. Their high frequency and communicative value underline their importance for both native and non-native speakers.

REFERENCES:

1. Biber, D., Johansson, S., Leech, G., Conrad, S., & Finegan, E. (1999). *Longman Grammar of Spoken and Written English*. Harlow: Pearson Education.

2. Celce-Murcia, M., & Larsen-Freeman, D. (1999). *The Grammar Book: An ESL/EFL Teacher's Course* (2nd ed.). Boston: Heinle & Heinle.

3. Fraser, B. (1976). *The Verb-Particle Combination in English*. New York: Academic Press.

4. Gardner, D., & Davies, M. (2007). Pointing Out Phrasal Verbs: A Corpus-Based Analysis. *TESOL Quarterly*, 41(2), 339–359.

5. McCarthy, M. (2003). *Vocabulary*. Oxford: Oxford University Press.

6. McCarthy, M., & O'Dell, F. (2004). *English Phrasal Verbs in Use*. Cambridge: Cambridge University Press.l, C. (2009). *The Productivity of Phrasal Verbs in Modern English*. Oxford: Oxford

7. Rodriguez, J. (2002). *Phrasal Verbs and Idiomaticity*. Madrid: Universidad Complutense.

8. Schneider, K. (2004). *Phrasal Verbs in English: Usage and Semantics*. Berlin: Mouton de Gruyter.

9. Solomon, B. (2011). *Teaching Vocabulary: The Role of Phrasal Verbs in ESL Learning*. Cambridge: Cambridge University Press.

10. Thim, S. (2012). *Phrasal Verbs: The English Verb-Particle Construction and Its History*. Berlin: Mouton de Gruyter.

11. Olson, A. (2010). Monosyllabic Roots in Phrasal Verb Formation. *Journal of English Studies*, 12(1), 45–60.

12. Melissa, J. (2005). *Stylistic Functions of Phrasal Verbs*. London: Routledge.

13. Dagut, M., & Laufer, B. (1985). Avoidance of Phrasal Verbs – A Case for Contrastive Analysis. *Studies in Second Language Acquisition*, 7(1), 73–79.

UDC 808.3

POLITENESS STRATEGIES IN LINGUOCULTURAL COMMUNICATION

N.X.Aliyeva, teacher, PhD, Fergana State University, Fergana
S.V.Azizova, master student, Fergana State University, Fergana

Annotatsiya. *Mazkur maqolada xushmuomalalik strategiyalari lingvomadaniy muloqot doirasida tahlil qilinadi hamda til, madaniyat va ijtimoiy munosabatlar o'rtasidagi bog'liqlik*

yoritiladi. Xushmuomalalik strategiyalari ijtimoiy muvozanatni saqlash va shaxslararo munosabatlarni boshqarishga xizmat qiluvchi madaniy jihatdan shakllangan nutqiy vositalar sifatida qaraladi. Tadqiqotda madaniy me'yorlarning xushmuomalalik strategiyalariga ta'siri va madaniyatlararo muloqotdagi ahamiyati ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar:*xushmuomalalik strategiyalari, lingvomadaniy muloqot, madaniyat, pragmatika, yuz tushunchasi, madaniyatlararo muloqot*

Аннотация. *В статье рассматриваются стратегии вежливости в лингвокультурной коммуникации и их связь с языком, культурой и социальным взаимодействием. Стратегии вежливости трактуются как культурно обусловленные средства регулирования межличностных отношений и поддержания социальной гармонии. Подчеркивается влияние культурных норм на использование стратегий вежливости, особенно в межкультурной коммуникации.*

Ключевые слова*: стратегии вежливости, лингвокультурная коммуникация, культура, прагматика, лицо, межкультурная коммуникация*

Abstract. *This article explores politeness strategies within linguocultural communication, focusing on the relationship between language, culture, and social interaction. Politeness strategies are viewed as culturally shaped communicative practices used to maintain social harmony and manage interpersonal relations. The study highlights how cultural norms influence the use and interpretation of politeness strategies, particularly in intercultural communication, where pragmatic misunderstandings may occur. The article emphasizes the importance of linguocultural awareness for effective communication and language learning.*

Key words: *politeness strategies, linguocultural communication, culture, pragmatics, face, intercultural communication*

Introduction. Politeness strategies occupy a central position in linguocultural communication because they reveal how language functions not only as a means of transmitting information but also as a social and cultural instrument for regulating human relationships. Communication is inherently social, and every utterance is produced within a specific cultural, situational, and interpersonal context. Speakers continuously make choices about how to express themselves in ways that align with cultural expectations, social norms, and relational goals, and these choices are closely connected with politeness.

From a linguocultural perspective, politeness strategies represent culturally conditioned patterns of language use that allow individuals to manage interaction, express respect, maintain harmony, and negotiate social identities. Language and culture are inseparable, and politeness serves as one of the clearest indicators of this relationship, as it reflects shared values, beliefs, and conventions embedded in a linguistic community. The study of politeness strategies therefore provides valuable insight into how cultural meaning is encoded in language and how speakers use linguistic resources to navigate complex social environments. In linguocultural communication, politeness is not a fixed or universal phenomenon but a dynamic and context-dependent process shaped by historical, social, and cultural factors. What is considered polite in one culture may be interpreted as inappropriate, excessive, or even rude in another, highlighting the importance of cultural awareness in communication. This variability underscores the need to examine politeness strategies within a linguocultural framework that accounts for cultural diversity and social specificity rather than relying solely on universal models.

One of the most influential theoretical foundations for the study of politeness strategies was developed by Brown and Levinson, whose model remains central to pragmatics and sociolinguistics despite ongoing debate and revision. Their theory is based on the concept of face, originally proposed by Erving Goffman, which refers to an individual's public self-image that is emotionally invested and socially recognized. According to this framework, all competent members of a society are assumed to possess face and to be aware of the need to maintain both their own face and that of others during interaction.

Brown and Levinson distinguish between positive face, which is the desire to be liked, approved of, and valued by others, and negative face, which is the desire for autonomy, freedom of action, and freedom from imposition. Many everyday communicative acts such as making requests, giving advice, expressing disagreement, offering criticism, or refusing an invitation have the potential to threaten either the speaker's or the hearer's face and are therefore described as face-threatening acts. Politeness strategies emerge as linguistic solutions to the problem of performing such acts while minimizing social damage and preserving interpersonal relationships. Brown and Levinson propose four broad categories of politeness strategies that speakers may choose from depending on contextual factors such as social distance, relative power, and the degree of imposition involved in the act. Bald on-record strategies involve direct and explicit expressions with no attempt to mitigate the face threat and are typically used in situations where efficiency is prioritized, where the speaker holds significant power over the listener, or where social distance is minimal, such as among close friends or family members. Positive politeness strategies aim to reduce social distance and emphasize solidarity by appealing to the hearer's positive face through expressions of friendliness, shared identity, compliments, humor, and inclusive language.

Negative politeness strategies focus on respecting the hearer's negative face by minimizing imposition through indirectness, hedging, modal verbs, apologies, and formal language, thereby acknowledging the hearer's right to autonomy. Off-record strategies are characterized by indirectness and ambiguity, allowing speakers to imply their intentions without stating them explicitly, thus enabling them to avoid responsibility for potential face threats. While this model has been widely applied across languages and cultures, its interpretation within linguocultural communication reveals significant variation in how face and politeness are understood and enacted. Cultural norms play a decisive role in shaping the perception of face and the preferred strategies for maintaining it, meaning that politeness cannot be fully understood without reference to cultural context. In some cultures, face is closely associated with individual autonomy and personal space, while in others it is linked to group harmony, social roles, and collective identity. These differences influence how speakers evaluate the appropriateness of directness, indirectness, formality, and emotional expression in communication. For instance, in many individualistic cultures, particularly those associated with Western societies, negative politeness strategies are often emphasized as a means of respecting personal freedom and independence, leading to a preference for indirect requests, softened statements, and explicit expressions of apology.

In contrast, collectivist cultures tend to value positive politeness strategies that reinforce social bonds, mutual obligation, and group cohesion, often resulting in more direct involvement in others' affairs and a greater emphasis on expressions of solidarity and respect. In linguocultural communication, these preferences are reflected in linguistic features such as address forms, honorifics, pronoun usage, speech level distinctions, and formulaic expressions of politeness. Many languages encode politeness grammatically, requiring speakers to select forms that reflect social hierarchy, age, status, or familiarity, thereby making politeness an integral part of linguistic competence. The linguocultural dimension of politeness becomes particularly salient in intercultural communication, where speakers from different cultural backgrounds interact and bring with them differing assumptions about appropriate behavior. In such contexts, misunderstandings frequently arise not from grammatical errors but from pragmatic failure, where speakers unintentionally violate politeness norms by applying strategies from their own culture in a different cultural setting.

Conclusion. Politeness strategies represent a vital aspect of linguocultural communication, functioning as linguistic and cultural tools for managing social relationships, expressing respect, and maintaining harmony. Their use is shaped by cultural norms, social expectations, and contextual factors, making politeness a dynamic and culturally specific phenomenon rather than a universal one. The study of politeness strategies highlights the inseparability of language and culture and underscores the importance of cultural awareness in effective communication. As a field of inquiry, it offers valuable contributions to pragmatics, sociolinguistics, intercultural communication, and language education, providing a framework for understanding how language functions as a social and cultural practice in an increasingly interconnected world.

REFERENCES:

1. Brown, P., & Levinson, S. (1987). Politeness: Some universals in language usage. Cambridge University Press.
2. Goffman, E. (1967). Interaction ritual: Essays on face-to-face behavior. Anchor Books.
3. Holmes, J. (1995). Women, men and politeness. Longman.
4. Leech, G. (2014). The pragmatics of politeness. Oxford University Press.
5. Spencer-Oatey, H. (2008). Culturally speaking: Culture, communication and politeness theory. Continuum.
6. Watts, R. J. (2003). Politeness. Cambridge University Press.
7. Kádár, D. Z., & Haugh, M. (2013). Understanding politeness. Cambridge University Press.
8. Thomas, J. (1983). Cross-cultural pragmatic failure. Applied Linguistics, 4(2), 91–112.

UDK 808.5

PATTERNS OF METAPHOR USE IN ENGLISH AND UZBEK

N.X.Aliyeva, PhD, Fergana State University, Fergana
J.Q.Tursunaliyev, Master's student, Fergana State University, Fergana

Annotatsiya. *Maqolada ingliz va o'zbek tillarida metaforaning qo'llanishi kognitiv-semantik yondashuv asosida qiyosiy tahlil qilinadi. Har ikkala tilda umumiy konseptual metaforalar mavjud bo'lsa-da, ularning ifodalanish usullari farqlanadi: ingliz tilida metafora fe'l markazli va unumdor konstruktsiyalar orqali, o'zbek tilida esa barqaror iboralar, madaniy obrazlar va pragmatik muloyimlik strategiyalari orqali mustahkamlanadi.*

Kalit so'zlar: *metafora, metaforik naqshlar, kognitiv tilshunoslik, ingliz tili, o'zbek tili, frazeologiya, diskurs, tarjima.*

Аннотация. *В статье проводится сравнительный когнитивно-семантический анализ метафоры в английском и узбекском языках. Показано, что при наличии общих телесно обусловленных концептуальных метафор языки различаются в их конвенционализации: английский язык преимущественно использует продуктивные глагольные конструкции, тогда как узбекский опирается на устойчивые фразеологические модели, культурно значимые образы и стратегии прагматического смягчения.*

Ключевые слова: *метафора, модели, когнитивная лингвистика, английский язык, узбекский язык, фразеология, дискурс, перевод.*

Abstract. *The article compares metaphor use in English and Uzbek from a cognitive-semantic perspective, focusing on recurring linguistic patterns rather than isolated figurative expressions. While both languages share embodied conceptual metaphors, they differ in how these metaphors are conventionalized: English favors verb-centered, productive constructions, whereas Uzbek relies more on stable phraseological forms, culturally salient imagery, and pragmatic mitigation strategies.*

Key Words: *metaphor, patterns, cognitive linguistics, conceptual metaphor, English, Uzbek, phraseology, discourse, translation.*

Introduction. Metaphor is a routine instrument of meaning-making. Contemporary semantics shows that speakers do not "add" metaphor to otherwise literal thought; rather, they continuously structure abstract experience through concrete, embodied knowledge. If metaphor is so pervasive, a central question is not whether a language uses metaphor, but how it uses it: what patterns become conventional, which images are culturally salient, and which grammatical resources stabilize metaphorical readings. The term patterns of metaphor use is employed here in a precise sense: recurrent pairings of (1) a conceptual mapping, (2) a preferred lexical field and constructional frame, and (3) a typical discourse function (evaluation, persuasion, politeness, intensification, mitigation, etc.). By examining such patterns, we can explain why two expressions may be conceptually equivalent but pragmatically non-equivalent in translation.

The primary framework is Conceptual Metaphor Theory (CMT), which treats metaphor as systematic mapping between a source domain and a target domain. Mappings are not random; they follow experiential regularities: movement provides structure for time and change, verticality structures evaluation, containment structures emotional intensity, and physical force structures social pressure.

However, CMT alone does not predict which linguistic realizations will become conventional. For that, we incorporate the notion of semantic profiling: within a broad mapping, languages can highlight different facets. For example, within TIME AS MOTION, English may foreground approach and speed (the deadline is approaching; time flies), while Uzbek may more frequently foreground entering/exiting stages and bounded intervals. Both are compatible with the same mapping but differ in what is habitually lexicalized.

A second necessary notion is phraseological conventionalization. Many metaphors are learned and processed as multiword units—idioms, proverbs, collocational frames—whose meaning is partly stabilized by tradition. Uzbek is especially rich in proverb-like metaphorical frames that package evaluation and social norms, while English often relies on productive constructional families that allow rapid metaphorical extension.

The study uses qualitative comparative analysis supported by standard cognitive-linguistic procedures. Data consists of widely attested conventional expressions and idioms from everyday discourse, media language, and pedagogical/translation practice. The analysis proceeds in four steps: (1) identify the conceptual mapping; (2) describe linguistic realizations; (3) specify discourse function and connotational profile; and (4) evaluate cross-linguistic equivalence, highlighting mismatches relevant to translation.

Because the goal is to describe stable patterns rather than to compute corpus frequencies, the article prioritizes representative examples and systematic generalizations. Where multiple realizations exist, the focus is on those that are conventional and predictable for competent speakers.

Several metaphorical mappings appear robust in both English and Uzbek because they are grounded in shared experience. TIME AS MOTION is one of the most stable: English regularly portrays time as a moving entity or a traveler on a path, while Uzbek uses parallel motion imagery. In both languages this mapping supports similar discourse functions: urgency, time management, and evaluation of speed or delay.

LIFE AS A JOURNEY is another shared pattern. English draws on road, path, direction, step, crossroads, and obstacles; Uzbek uses yo‘l, safar, qadam, yo‘ldan adashmoq, and manzil. The mapping supports evaluation (a meaningful path vs. a wrong path), counseling (choose your direction), and narrative coherence (stages of life as segments of travel).

EMOTION AS HEAT/CONTAINER is likewise widespread. English contrasts contained vs. overflowing emotion (burst with joy; keep your anger inside), and Uzbek parallels this with idish/chiqish imagery and heat verbs. The shared function is intensification: metaphor increases vividness and conveys bodily urgency.

English shows a strong pattern of metaphorical extension through verb-centered constructions, especially phrasal verbs and resultative frames. Verb-particle combinations are highly productive and readily metaphorize: an argument can break down, a plan can fall apart, an initiative can push through barriers. This pattern favors dynamic profiling—change, agency, and eventfulness—because the construction itself foregrounds action and outcome.

A second English pattern involves nominal compounding and technical metaphors. Modern public discourse frequently draws metaphorical vocabulary from technology and engineering: bottleneck, bandwidth, pipeline, feedback loop, reboot, interface. These items provide compact labels for complex processes and are especially common in organizational and academic language. The discourse function is to rationalize and systematize experience, presenting social interaction as a controllable mechanism.

A second Uzbek pattern is metaphorical evaluation through culturally salient images that are frequently used for politeness and indirectness. In face-sensitive contexts, critique may be framed through mild metaphor or proverbial reasoning rather than direct conflict vocabulary. This supports a pragmatic function of maintaining harmony and respect, especially in intergenerational or institutional communication.

Idiomatic equivalence illustrates the point. Uzbek idioms such as “terisiga sig‘may ketmoq” or “boshi ko‘kka yetdi” are conventional and expressive, but literal translation into English may sound

odd. English typically uses alternative conventionalization. The conceptual state is matched, but the stabilized imagery shifts.

Another divergence concerns argumentation. English conflict metaphors are common in academic critique and media debate, supporting a competitive discourse style. Uzbek can employ conflict imagery, but formal criticism often prefers mitigated frames that preserve respect. For translation, this means that preserving the English metaphor literally may amplify aggression in Uzbek, altering interpersonal meaning.

Conclusion. The study has shown that English and Uzbek share foundational metaphorical mappings grounded in embodied experience, but the languages develop distinct patterns of metaphor use through different constructional resources, phraseological stabilization, and culturally salient imagery. English tends toward productive verb-centered and technical metaphorization, often supporting competitive discourse styles, while Uzbek more often packages metaphor in idioms and socially oriented evaluative frames, supporting harmony and stewardship profiles. Recognizing these patterns is essential for accurate translation and effective cross-cultural communication.

REFERENCES:

1. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). Metaphors We Live By. University of Chicago Press.
2. Lakoff, G. (1993). The contemporary theory of metaphor. In A. Ortony (Ed.), Metaphor and Thought (2nd ed.). Cambridge University Press.
3. Kövecses, Z. (2010). Metaphor: A Practical Introduction (2nd ed.). Oxford University Press.
4. Charteris-Black, J. (2004). Corpus Approaches to Critical Metaphor Analysis. Palgrave Macmillan.
5. Gibbs, R. W. (2017). Metaphor Wars: Conceptual Metaphors in Human Life. Cambridge University Press.
6. Barcelona, A. (Ed.). (2000). Metaphor and Metonymy at the Crossroads. Mouton de Gruyter.
7. Talmy, L. (2000). Toward a Cognitive Semantics (Vols. 1–2). MIT Press.
8. Standard English and Uzbek phraseological dictionaries and academic reference works on Uzbek linguistics (for conventional idiom usage).

UDK 830.1

SEMANTIC SIMILARITIES AND DIFFERENCES OF METAPHORS IN ENGLISH AND UZBEK

N.X.Aliyeva, PhD, Fergana State University,
J.Q.Tursunaliyev, master's student, Fergana State University,

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi metaforalarning qiyosiy semantik tahlili taqdim etiladi. Konseptual metafora nazariyasi va kognitiv-lingvistik semantika yondashuvlariga tayangan holda, unda umumiy jismoniy (embodied) tajriba takrorlanuvchi metaforik andozalarni qanday rag'batlantirishi, shu bilan birga tipologiya, frazeologiya va madaniyat tilga xos realizatsiyalarni qanday shakllantirishi izohlanadi. Tadqiqotda, ayniqsa, quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratiladi: (i) ingliz va o'zbek tillarida bir xil konseptual moslik doirasida tanlanadigan semantik "profil"lar, (ii) an'anaviy metaforik kollokatsiyalar va idiomalar, hamda (iii) tarjimada ahamiyatli bo'lgan nomuvofiqliklar — bunda metaforik ma'no saqlanib qoladi, biroq obrazlilik o'zgaradi. Tahlil natijalari metaforaning bir vaqtning o'zida ham universal, ham mahalliy hodisa ekanini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *Metafora, semantika, kognitiv lingvistika, ingliz tili, o'zbek tili, konseptual moslik, madaniyatlararo muloqot, tarjima.*

Аннотация. *В статье представлен сопоставительный семантический анализ метафор в английском и узбекском языках. В рамках когнитивной лингвистики рассматриваются универсальные концептуальные метафоры и языково-специфические способы их реализации. Показано, что сходства обусловлены телесным опытом и общими когнитивными механизмами, а различия — типологией, фразеологией и культурно-ценностными установками. Отдельно анализируются переводческие трудности при передаче устойчивых метафор и идиом.*

Ключевые слова: *метафора, семантика, когнитивная лингвистика, английский язык, узбекский язык, концептуальная метафора, межкультурная коммуникация, перевод.*

Abstract. *This article presents a comparative semantic study of metaphors in English and Uzbek. Drawing on Conceptual Metaphor Theory and cognitive-linguistic semantics, it explains how shared embodied experience motivates recurring metaphorical patterns while typology, phraseology, and culture shape language-specific realizations. Particular attention is paid to (i) the semantic "profiles" that English and Uzbek select within the same conceptual mapping, (ii) conventional metaphorical collocations and idioms, and (iii) translation-relevant mismatches where metaphorical meaning is preserved but imagery shifts. The analysis demonstrates that metaphor is simultaneously universal and local.*

Key words: *Metaphor, semantics, cognitive linguistics, English, Uzbek, conceptual mapping, cross-cultural communication, translation.*

Introduction. Metaphor has long been treated as a rhetorical figure, yet modern semantics and cognitive linguistics view it primarily as a mechanism of conceptualization. Speakers routinely interpret abstract domains—time, emotion, morality, social relations, knowledge—through more concrete domains grounded in perception and bodily action. Because English and Uzbek belong to different genealogical families and exhibit different typological profiles, they provide a productive pair for observing how similar conceptual needs are met with different linguistic resources. The present article investigates semantic similarities and differences of metaphors in English and Uzbek, focusing on how comparable conceptual mappings are realized in lexicon, phraseology, and discourse.

The study has three goals: (1) to describe recurrent metaphorical models shared across the two languages and explain their cognitive motivation; (2) to identify language-specific patterns, including preferred lexical choices, idioms, and evaluative meanings; and (3) to outline practical implications for translation and cross-cultural communication. The central claim is that similarity is strongest at the conceptual level, while difference is most visible in semantic profiling, collocational conventionalization, and culturally salient imagery.

Conceptual Metaphor and Semantic Profiling. The analysis is grounded in Conceptual Metaphor Theory (CMT), which argues that metaphor is a systematic mapping from a source domain (concrete experience) to a target domain (abstract understanding). Canonical examples include TIME AS MOTION, ARGUMENT AS WAR, and LIFE AS A JOURNEY. CMT further predicts that many metaphors are near-universal because they arise from shared bodily experience. However, languages differ in how they conventionalize, lexicalize, and evaluate these mappings.

A key semantic notion for comparing languages is profiling: within a broad conceptual mapping, a language may foreground different aspects (e.g., path vs. manner, intensity vs. duration, agency vs. fate). Profiling interacts with grammar and phraseology. English has a large inventory of manner verbs and productive phrasal-verb constructions (e.g., break down, lift up, fall apart), while Uzbek frequently uses derivational morphology and stable idiomatic frames. Such structural tendencies influence which metaphorical meanings become conventional and how they are interpreted.

Finally, metaphor is inseparable from culture. Values and collective experience stabilize metaphorical associations (e.g., what counts as "high" status, what counts as "clean" morality, what counts as "heavy" responsibility). Hence, semantic comparison must include connotational nuance, pragmatic register, and discourse function—not only literal paraphrase.

This study applies a qualitative comparative semantic method. Data are drawn from (i) widely attested idioms and phraseological units in both languages, (ii) illustrative examples from public discourse and everyday communication, and (iii) standard conceptual metaphors discussed in cognitive-linguistic literature. The analysis proceeds in three steps: first, identify the conceptual mapping; second, describe linguistic realizations; third, evaluate semantic equivalence and divergence. The goal is not exhaustive corpus statistics but an academically grounded description of representative patterns that are robust and pedagogically useful.

English and Uzbek share many core metaphors motivated by embodiment and common interaction with the physical world. In both languages, abstract time is frequently conceptualized

through motion and spatial extension. English expressions such as "time flies," "the deadline is approaching," or "we are moving into a new era" correspond to Uzbek patterns like "vaqt uchib ketdi," "muddat yaqinlashdi," and "yangi davrga kiryapmiz." Although individual lexical choices differ, the underlying mapping TIME AS MOTION remains stable: temporal change is understood as movement along a path.

Emotional experience is likewise mapped onto physical forces, temperature, and containment. English: "boiling with anger," "burst with joy," "fall into despair," "be overwhelmed." Uzbek: "g'azabdan qaynamoq," "quvonchdan toshmoq," "tushkunlikka tushmoq," "his-tuyg'ular bosib ketdi." These parallels indicate a shared embodied base: emotions are internal pressures and forces that can rise, expand, and exceed control.

Idioms provide a particularly clear site of divergence. English "kick the bucket" has no metaphorically equivalent Uzbek idiom with the same imagery; Uzbek typically uses culturally conventional euphemisms and religiously inflected expressions. Conversely, Uzbek "terisiga sig'may ketmoq" (extreme joy) is highly image-specific and is often best translated by an English idiom with different imagery ("be beside oneself," "be in seventh heaven"). In such cases, semantic equivalence is achieved through functional substitution rather than literal mapping of images.

Conclusion. The comparative semantic analysis shows that English and Uzbek share many metaphorical concepts rooted in embodiment, such as mapping time, life, and emotion onto motion, space, and force. At the same time, important differences arise from language-specific lexicalization patterns, conventional idioms, and culturally stabilized evaluations. English tends to foreground agency and dynamism through productive verb–particle constructions and a wide manner-verb inventory, whereas Uzbek often foregrounds gradualness, responsibility, and social harmony through stable idiomatic frames and culturally salient images. Recognizing these similarities and differences is essential for accurate translation and effective intercultural communication. Future research may extend the present qualitative findings through corpus-based frequency studies and psycholinguistic experiments on metaphor comprehension in bilingual speakers.

REFERENCES:

1. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). Metaphors We Live By. University of Chicago Press.
2. Lakoff, G. (1993). The contemporary theory of metaphor. In A. Ortony (Ed.), Metaphor and Thought (2nd ed.). Cambridge University Press.
3. Kövecses, Z. (2010). Metaphor: A Practical Introduction (2nd ed.). Oxford University Press.
4. Croft, W., & Cruse, D. A. (2004). Cognitive Linguistics. Cambridge University Press.
5. Talmy, L. (2000). Toward a Cognitive Semantics (Vols. 1–2). MIT Press.
6. Gibbs, R. W. (2017). Metaphor Wars: Conceptual Metaphors in Human Life. Cambridge University Press.
7. Barcelona, A. (Ed.). (2000). Metaphor and Metonymy at the Crossroads. Mouton de Gruyter.
8. Charteris-Black, J. (2004). Corpus Approaches to Critical Metaphor Analysis. Palgrave Macmillan.
9. Uzbek and English phraseological and explanatory dictionaries (standard reference sources).

UO'K 81'367

MIRATIVLIK KATEGORIYASINING TARKIBIY ASOSLARI

Z.A.Aliyeva, tayanch doktorant, Samarqand davlat chet tillar instituti, Samarqand

Annotatsiya. *Mazkur maqolada mirativlik kategoriyasining lingvistik mohiyati va uning tarkibiy asoslari ochib berilgan. Ilmiy maqolada, mirativlik nutq egasining kutilmagan axborotga, oldindan tahmin qilinmagan ma'lumotga nisbatan reaksiyasi kognitiv-semantik hodisa sifatida baholanadi. Tadqiqotda mirativlikning grammatik, leksik, pragmatik ifodalanish vositalari aniqlanib, ularning kognitiv asoslari ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *evidensiallik, "p" propozitsiyasi, eksklamativlik, inferensial, kinoya.*

Аннотация. *В данной статье раскрывается лингвистическая сущность категории мират́ивности и ее структурные основы. В научной статье миратвность рассматривается как когнитивно-семантическое явление, отражающее реакцию говорящего на неожиданную или ранее не предполагавшуюся информацию. В ходе исследования выявляются грамматические, лексические и прагматические средства выражения миратвности, а также раскрываются их когнитивные основания.*

Ключевые слова: *эвиденциальность, пропозиция «р», восклицательность, инференциальность, ирония*

Abstract. *This article elucidates the linguistic nature of the category of mirativity and its structural foundations. In the study, mirativity is evaluated as a cognitive-semantic phenomenon that reflects the speaker's reaction to unexpected or previously unanticipated information. The research identifies the grammatical, lexical, and pragmatic means through which mirativity is expressed and reveals their underlying cognitive bases.*

Key words: *evidentiality, "p" proposition, exclamative, inferential, irony*

Mirativlik nutq egasining kutilmagan, oldindan tahmin qilinmagan ma'lumotga bo'lgan reaksiyasini ifodalovchi kategoriya sifatida qaraladi. Ushbu tushuncha dastlab, S. Delancey tomonidan lingvistik termin sifatida ilgari surgan bo'lib, u mirativlikni axborotning "yangiligi" va so'zlovchi ongining "tayyor emasligi" bilan bog'liq deb ta'rif bergan (Scott Delancey; 1997). A. Ayhenvald esa mirativlikni evidensiallik kategoriyasi bilan uzviy bog'liqlikda o'rgangan (Aikhenvald; 2012). A.Ayhenvald evidensiallikda bo'lgani kabi (Aikhenvald 2004), grammatik mirativlik va mirativ strategiyalarni farqlab o'tadi. Birinchisi til grammatikasida maxsus shakllar orqali kodlanadi, ikkinchisi esa mirativ bo'lmagan kategoriyalarning kengaytirilgan qo'llanishi natijasida yuzaga keladi.

Tilshunoslikda turli tillardagi evidensial ko'rsatkichlar doirasida mirativ evidensial vositalarning uchta asosiy semantik xususiyat ajratib ko'rsatiladi:

1. Mirativ evidensial voqeliklar bilvosita evidensial hodisa turkumiga kiritiladi;
2. Mirativ evidensial birliklar kutilmagan ma'lumotlarni ifodalashi mumkin;
3. Mirativ evidensiallar "recency restriction" ga bo'y so'nadi ya'ni so'zlovchi tomonidan axborotning yaqin vaqt ichida kutilmaganda o'zlashtirilgan bo'lishi talab qilinadi.

Mirativlikni ifodalay oladigan evidensial ko'rsatkichlar bevosita emas balki bilvosita ma'lumotni qamrab oladi. Ular narrativ, reportativ, inferensial evidensiallikni ko'rsatadi lekin birlamchi evidensial turlar sanalgan vizual va audial turlarni ifoda etmaydi.

Mirativ evidensiallik nutq vaziyatda muhokama qilinayotgan "p propozitsiyasi" (ma'lumotning qanchalik rost yoki yolg'onligi) haqidagi evidensial turi vaziyat qanday bo'lishidan qat'iy nazar, mirativlikni aks ettirishi mumkin. Mirativ ifoda so'zlovchining mazkur holat yuzasidan oldindan xabardor bo'lmasligi, kutilmagan/yangi axborotni qabul qilayotganligi yoki tayyor bo'lmagan ong holatini bildirishi bilan tavsiflanadi. Shuningdek yangi, muhim, hayratlanarli hodisaga nisbatan tezkor reaksiyani ifodalovchi vosita sifatida talqin qilinadi (Ayhenvald 2004: 197).

Masalan: *Chaqirsa kelmaydigan odam endi birdan o'zi kulimsirab kirib kelganidan uy egasi hang-u mang bo'lib qoldi:*

-Iye, Iye!-deb so'ridan sakrab tushib, kalishini kiyar-kiymas direktorga qarab chopdi.

("Qora ko'zlar" Pirimqul Qodirov. 143-bet)

Keltiriligan lavhada "p-proposition" = direktorning kelganligi

Evidensiallik = bevosita dalil, direktorning kelganligini ko'rdi

Mirativlik = *hang-u mang bo'lib qoldi, -iye, iye!* kabi ifodalar orqali so'zlovchi uchun holatning kutilmagan ekanligi talqin qilinyabdi.

Mirativlik asosan hayratni ifodalovchi mayl sifatida ta'riflansa-da, u kinoya, shubha, o'zga gapni yetkazish (reportedness) kabi ma'nolarni ifodalashda ham qo'llanadi. Nutq vaziyatida mirativlik so'zlovchining bayon etilayotgan fikrning haqiqiyligiga nisbatan hozirgi yoki o'tgan zamondagi tasdiqlanmagan munosabatini ifodalaydi. Bu holat mirativlik hodisasi kinoya yoki shubhani ifodalaganda yaqqol ko'rinadi, biroq u hayrat yoki o'zga nutqni yetkazishda ham namoyon bo'lishi mumkin. Masalan: *Hakim naynov-chi! Birinchi o'qituvchilardan emish! Man bilmasam ekan uni! Jinko'chalik otinoyining qo'lida birga o'qiganmiz. O'lgudek zehni past bola edi. Olti oygacha "Haftiyak"ni tushirolmagan. Tag'in bular "persanalniy pensaner emish"!* ("Dunyoning ishlari", O'tki Hoshimov. 148-bet). Ushbu parchada "*Hakim naynov-chi! Birinchi o'qituvchilardan emish!" "Tag'in bular "persanalniy pensaner emish"!"* ifodalari kinoya mazmunidagi mirativlik orqali talqin qilingan.

Evidensial kategoriyalar tajribaviy, inferensial va boshqa shaxs tomonidan eshitilgan (hearsay) turlarga ajratiladi hamda ularga bog‘liq bo‘lgan mirativlik va subyektivlik kategoriyalarda ham mavjud. Ushbu kategoriyalar modal ifodalarni tahlil qilishda qo‘llaniladigan bir xil omillar asosida talqin qilinadi. Natijalar evidensiallikni yagona, izchil semantik soha sifatida ko’rsatmadi: bir tomondan, inferensiallik deontik va epistemik modallik bilan bir qatorda voqelikning kvalifikatsiyasi tizimiga kiradi; ikkinchi tomondan, tajribaviy va hearsay evidensiallik, shuningdek mirativlik va subyektivlik mutlaqo boshqa tabiatga ega bo‘lib, “oddiy” kvalifikatsion tizimga aloqador emas.

Avval ta’kidlanganidek, mirativlik va (inter)subyektivlik an’anaviy evidensiallikning markazida turgan bevosita ifoda bilvosita qarama-qarshiligiga mos kelmaydi. Chunki ular axborot manbasining bevositaligi masalasi bilan bog‘liq emas. Aslida, ular umuman holat haqidagi axborot manbasini belgilash ham bog‘liq bo’lmasligi mumkin.

Haqiqatan ham, mirativlik holatning o‘zini baholashdan ko‘ra, asosan so‘zlovchining holatga nisbatan reaksiyasini aks ettiradi. Holat va unga berilgan baholar o‘zgarishsiz qoladi, biroq markaziy e’tibor so‘zlovchining ushbu holatga va kontekstga nisbatan tutgan pozitsiyasiga qaratiladi. Masalan: *-E, nodon xotin, menda pul nima qiladi. Sigir-buzoqni sotaman.*

-Yaqinda tug’adigan sigirni-ya! Bunga sirayam ko’nmasman. (“Ufq” trilogiyasi, Said Ahmad. 33-bet) mazkur dialogda birinchi shaxsning “*sigir-buzoqni sotaman”* degan fikri ikkinchi shaxs uchun kutilmagan qaror sifatida qabul qilinib, ajablanishiga sabab bo’lgan. Sababi sigir-buzoq qishloq xo’jaligi kontekstida asosiy boylik hisoblanib, uni sotish g’oyasi normal kutilmalarni buzadi.

Mirativlikning lingvistik kategoriya sifatidagi maqomi kamida uch jihatdan asoslanadi: psixologik jihatdan “hayratlanish” asosiy emotsiyalardan biri, leksik-semantik nuqtayi nazardan hayratlanish turli til birliklarining asosiy ma’nosini tashkil etadi, tipologik jihatdan tillar mirativlikni turli vositalar orqali ifodalashi uning grammatik maqomini inkor etmaydi, balki aksincha, uning tillararo universalligini ko‘rsatadi.

Mirativlikning shakllanishida evidensiallik muhim rol o‘ynagan bo‘lsa-da, uning mustaqil kategoriya sifatida qaror topishi uchun uni, ayniqsa o‘zbek va ingliz tillarida, eksklamativlikdan aniq chegaralash talab etiladi. Eksklamativlik so’zlovchining muayyan holatga nisbatan bildirgan ekspressiv-emotsional bahosini ifoda etadigan grammatik-pragmatik hodisadir. Eksklamativlik axborotga nisbatan emotsional ifoda hayrat, g’azab, quvonchni aks ettirsa, mirativlik esa kutilmagan, yangi ma’lumotga bo’lgan reaksiyaga urg’u beradi.

Masalan: Fotima kelin atlasning bir burchini chimchilab ko’rdi.

-Voy, muncha chiroyli! – U yonbosh tomondagi uyga qarab, o’ktam ovozda qichqirdi. -Oyi, manavini ko’ring! Shokir akamga ayting, bayramga mengayam obersinlar!

(**Ikki eshik orasi. O’tkir Hoshimov** 62-bet)

-Ha-a, topding! -Kimsan akam mo’riga imo qildi. -Shomurod tog’am shu yerda ishlaydi! Master!

Hayron bo’ldim: -Voy-bo’! Ko’tarmadan shu yoqqa qatnaydilarmi?

-Nima qipti! Dashni poyezdga o’tirib kelaveradi! *Iye, ana tramvay!* Chopdik!- Kimsan akam qo’limdan ushlab, sudrab ketdi.

(**Ikki eshik orasi. O’tkir Hoshimov** 76-bet)

Yuqorida keltirilgan dastlabki namuna eksklamativlik hodisasiga misol bo’la oladi. Lavhada so’zlovchining atlas matosiga nisbatan “*Voy, muncha chiroyli!”* tarzida emotsional hayrat ifodasini ko’rsatyabdi. Ikkinchi gapdagi “*Hayron bo’ldim: -Voy-bo’!”, “Iye, ana tramvay!”* ifodalari esa kutilmagan axborotga nisbatan so’zlovchining hayrat reaksiyasini ifoda etgan hamda mirativlik hodisasini shakllantirgan.

Mirativlik va hozirgi zamon o‘rtasidagi bog‘liqlikni universal qonuniyat emas, balki tendensiya sifatida ko‘ramiz. Shuningdek, aspekt (fe’lning vaqt davomiyligi) mirativlik yoki evidensiallik talqinida berilishiga ta’siri kamroq darajada, chunki aspekt odatda zamon bilan bog‘liq bo‘ladi. Hozirgi zamon mazmuni bilan mirativlik talqini o‘rtasidagi yaqinlik, tillarga qarab, ham imperfect (masalan: “It’s raining!”) ham perfect (masalan: “I have come here before!”) aspektdagi gaplarda kuzatiladi.

Ingliz tilida bu ayniqsa aniq namoyon bo'ladi: unda mirativ ifoda narrativ evidensiallik (narrative evidential) vazifasini bajaradi. Evidensiallik ishlatilishi odatda uzoq o'tgan zamon bilan, mirativlik hodisasining ishlatilishi esa hozirgi yoki yaqinda bo'lgan o'tgan zamon bilan bog'liq bo'ladi. O'zbek tilida esa mirativlik hodisasi ko'pincha hozirgi zamon bilan bog'liq holda amalga oshiriladi.

Masalan: I went inside to find him standing in the middle of the parlor. *"We have been robbed!"* he said. **("Cell One", Chimamanda Ngozi Adichie. 1-bet)**

You *were sleeping* when I left. **(The complete short stories, Ernest Hemingway. 51-bet)**

- Rangi-ro'yingni qara, senga nima bo'ldi, bolam? *Voy-bo',* kiyim-boshlaring ham juldur bo'lib ketibdi. Nima yeb, nima ichib yuribsan, tentakkinam? Menginani kuydirib shaqlarda yuribman degin?! **("Ufq" trilogiyasi, Said Ahmad. 106-bet)**

Mazkur berilgan birinchi misolda *"We have been robbed!"* ifodasi keltirilgan vaziyatda so'zlovchi uchun kutilmagan holat hamda so'zlovchi tunab ketilganligidan hayratini yashira olmayabdi. Mirativlik hodisasi hozirgi tugallangan majhullik nisbatida shakllantirilgan. Aksincha, ikkinchi misolda esa "You *were sleeping"* ifodasi bevosita evidensiallikka misola bo'ladi va bu yerda mirativlik hodisasi kuzatilmagan. O'zbek tilidagi so'nggi namunada esa so'zlovchi aynan hozirgi zamonda sodir bo'lib turgan voqelikka nisbatan hayratini ko'rsatgan.

Xulosa qilib aytganda, mirativlik axborotning kutilmaganligini, evidensiallik esa axborot manbasini belgilaydi. Shuningdek, mirativlikning tarkibiy asoslari lingvistik tadqiqotlarda nutq egasining epistemik holatini, uning yangilikka bo'lgan reaksiyasini va axborot bilan interaktiv aloqasini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv til tipologiyasi va kognitiv lingvistika sohalarida mirativlikni mustaqil va izchil o'rganish imkonini beradi.

REFERENCE:

1. DeLancey, S. (1997). Mirativity: The grammatical marking of unexpected information. Linguistic Typology, 1(1), 33–52.

2. Aikhenvald, A. Y. (2004). Evidentiality. Oxford University Press.

3. Aikhenvald, A. Y. (2012). The essence of mirativity. Linguistic Typology, 16(3), 435–485.

UO'K 81'373.6

SLENGLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATI

F.G'.Allayorova, magistrant, Termiz davlat universiteti, Termiz

Annotatsiya. *Har bir tilda uslub turlari uchun umumiy bo'lgan tilning lug'at fondi, shakllari va sintaktik qurilmalari, erkin va turg'un birikmalari mavjuddir. So'zlashuv nutqining dolzarb xarakterdagi mazmunini shakllantirish uchun ushbu uslubga xos fonetik, leksik, grammatik qoidalardan o'rinli foydalanish lozim. Har bir uslubning o'zigagina xoslangan grammatik shakllar, so'z, so'z birikmasi, gap va intonatsion vositalar mavjud. Ana shunday birliklardan biri slenglardir. Ushbu maqolada slenglarning leksik-semantik xususiyatlariga to'xtalinadi.*

Kalit so'zlar. *Sleng, yoshlar nutqi, noadabiy leksika, og'zaki nutq, sinonimiya, omonimiya, antonimlik xususiyati.*

Аннотация. *Каждый язык имеет свой словарный запас, формы и синтаксические средства, свободные и устойчивые языковые сочетания, общие для разных стилей. Для формирования актуального содержания разговорной речи необходимо правильно использовать фонетические, лексические и грамматические правила, специфичные для данного стиля. Каждый стиль имеет свои грамматические формы, слова, словосочетания, предложения и интонационные средства. Одной из таких единиц является сленг. В данной статье мы сосредоточимся на семантических свойствах сленга.*

Ключевые слова. *Сленг, молодежная речь, нелитературный лексикон, устная речь, синонимия, омонимия, антонимия.*

Abstract. *Each language has a vocabulary, forms and syntactic devices, free and stable combinations of the language that are common to the types of style. In order to form the actual content of colloquial speech, it is necessary to appropriately use the phonetic, lexical, and grammatical rules specific to this style. Each style has its own grammatical forms, words, word combinations, sentences,*

and intonational devices. One of such units is slang. In this article, we will focus on the semantic properties of slang.

Key words. *Slang, youth speech, non-literary lexicon, oral speech, synonymy, homonymy, antonymy.*

Til, avvalo, jamiyatimiz a'zolarining o'zaro muloqot vositasi, shu sababli jamiyat til leksikasining shakllanishiga bevosita aloqadordir. Bugungi kunda so'zlashuv nutqida sleng atamasi orqali ifodalanuvchi birliklar qo'llanilishi tobora ortib, ularning ma'nosi ham hammaga tushunarli bo'lib bormoqda. Sleng (ing. slang) – muayyan kasb egalari yoki ijtimoiy guruhlarning og'zaki nutqida uchraydigan, emotsional-ekspressiv bo'yoqqa ega bo'lgan so'z va iboralar bo'lib, faqatgina shu guruh vakillarigagina tushunarli bo'ladi yoki mavjud so'zlarning yangi ma'nolari hisoblanadi. Slenglarni ko'proq yoshlar nutqida uchraydi.

Slenglar so'zlashuv nutqida faol qo'llanilishi bilan bir qatorda internet nashrlari, ommaviy axborot vositalari materiallarida ham foydalanilmoqda. Sleng so'zining qachon paydo bo'lgani noma'lum, biroq u ilk bor yozma ravishda XVIII asrda Angliyada qayd qilingan va o'sha davrda haqorat ma'nosini anglatgan. 1850-yillarga kelib, mazkur termin noqonuniy oddiy leksikaning ifodasi sifatida keng qo'llanila boshladi [3].

Umumiy tilshunoslikda slenglar tadqiqiga bag'ishlangan ishlar XX asrning ikkinchi yarmiga kelib amalga oshirila boshlandi. XX asrning 70-90 yillarida zamonaviy jahon tilshunosligida "kodlanmagan" noadabiy leksikaga qiziqish kuchaydi. Rus tilshunosligida XX asrning oxiri XXI asrning boshlariga kelib, Y.G.Borisova-Lukashanets, K.I.Dubrovina, V.Yelistratov, P.V.Lixolitov, V.M.Mokiyenko, L.A.Radzixovskiy, P.G.Mazurova, R.I.Rozina, M.A.Grachyov, L.I.Skvorsov kabi olimlar tomonidan zamonaviy rus yoshlari nutqidagi slenglar, ularning izohi va qo'llanish xususiyati tadqiq qilina boshlandi [4].

Olima M.Axmedova yoshlar jargoni, ya'ni sleng haqida yoshlarning kundalik muloqot vositasi sifatida ularning rivojlanish darajasini, qiziqishlarini, didlari va ehtiyojlarini namoyon etishini ta'kidlaydi [1]. Sleng ham nutq madaniyatini buzuvchi lug'aviy birlik sifatida keltirilgan.

Dunyo tilshunosligida sleng, jargon va argoning o'ziga xos jihatlari haqida ko'plab fikr-mulohazalar bildirilgan. Chunonchi, sleng haqida tilshunoslikda ko'plab qarama-qarshi fikrlar mavjud:

- sleng - bu maxsus tarixiy shaklda shakllangan va yuqori yoki past darajadagi barcha so'zlashuvchilar uchun umumiy bo'lgan til normasining versiyasi;
- sleng leksik hodisadir;
- sleng noadabiy leksikadir, ya'ni hozirgi adabiy til me'yorlariga ko'ra adabiy tilga mansub emas;
- sleng so'zlashuv nutqida faol birlik;
- sleng bu hissiy bo'yoqqa ega birlik;
- sleng so'z va iboralarning ustun ko'pchiligining aniq ifodalangan qo'pol uslubi bilan tavsiflanadi.

Ko'pgina sleng so'zlar va iboralar turli xil soyalarda qo'pol hissiy rangga ega (hazillash, masxara qilish, istehzoli, nafratlanish, kamsitish, mensimaslik, qo'pol) [7].

Slenglarni tahlil qilish jarayonida, dastlab, ularning leksik-semantik xususiyatiga e'tibor qaratish lozim. Ya'ni slenglar tarkibidagi sinonimiya, omonimiya va antonimiya hodisalarini dalillash uchun quyidagi misollar va tahlillar keltiriladi.

Sinonimiya hodisasi bir necha turlarga bo'linadi. Bu turlardan faqatgina leksik sinonimiya slenglar doirasida kuzatiladi. Leksik sinonimiya leksemalarning bir xil ma'no anglatishiga ko'ra guruhlanishidir: yelka, kift, o'miz (birinchi guruh); in, uya, oshyon (ikkinchi guruh); nur, shu'la, yog'du, ziyo (uchinchi guruh) va b.lar. Bunday guruhlar tilshunoslikda sinonimik qatorlar deb nomlanadi. Har bir sinonimik qatorda leksemalarning denotativ ma'nosi bir xil, ifoda semalari (ma'no qirralari, uslubiy bo'yoqlari, subyektiv baho, qo'llanish doirasi) har xil bo'ladi. Masalan, ozod, erkin, hur, sarbast leksemalari bitta denotatni – "o'z erki, haq-huquqiga egalik"ni ataydi, biroq ularda o'zaro farqlanuvchi ifoda semalari ham bor [2]. Slenglar tarkibida ham leksik sinonimiyani kuzatishimiz

mumkin. Masalan, qochib ketmoq – *chizmoq, surmoq, surayyo bo'lmoq, shamol bo'lmoq, sirpanmoq;*

Aroq (spirtli ichimlik) – *oq choy, 50-50, novcha, 100gr;*

Biror gapni kech tushunadigan kishilarga nisbatan – *tormiz, jirafa;*

Biror narsaga yoki kishiga qattiq yopishib olib ketmaydigan kishiga nisbatan – *kana, kley, superkley;*

Pulni qizg'anuvchi kishiga nisbatan – *jimot, qattiq;*

Biror ishi a'lo darajada bajarmoq – *yorib tashlamoq, qotirmoq, sochib tashlamoq, suv qilib ichmoq, tomiriga tushmoq;*

Hech narsa - *shaftoliqoqi, shomataloq;*

Dollar - ko'kat, kal bobo, ko'ki;

Chiroyli qizga nisbatan – *takoy, chotki narsa, 90-60-90;*

Jinnilik qiladigan kishiga nisbatan – *boshiga g'isht tushmoq, boshi ochiqda qolgan;*

Boshqalarning pulini bemaqsad ishlatmoq – *shilmoq, sog'moq;*

Bo'yi uzun kishiga nisbatan – *stalba, terak;*

Ozg'in kishiga nisbatan – *shlanka, cho'p.*

Leksik antonomiya leksemalarning bir-biriga zid ma'no anglatishi asosida guruhlanishidir: oq va qora, qalin va yupqa kabi. Antonimiya hodisasi, asosan, bir so'z turkumi leksemalari doirasida yuz beradi. Ular sifat, ot, fe'l, holat-paytni ifodalovchi leksemalarga ajratiladi [2].

Antonimlik hodisasi slenglar doirasida ham kuzatiladi. Masalan,

Terak (bo'yi uzun) – *0,5* (bo'yi past) *[6];*

Takoy (chiroyli) – *g'isht* (xunik)*;*

Dordan qochgan (sho'x) – *latta* (tabiatan yumshoq ko'ngilli)*;*

Sher (qo'rqmas) – *quyon* (qo'rqoq)*;*

Quruq (puli yo'q) – *jirniy* (puli ko'p)*;*

Lox (aldash oson bo'lgan inson) – *pishiq* (aldash qiyin bo'lgan inson).

Omonimlar shakli bir xil, ma'nolari har xil (o'zaro bog'lanmagan) leksemalardir. Omonimlik xususiyati ko'pchilik til birliklarida kuzatiladi. Bu hodisa slenglar orasida ham uchraydi.

Dum (I) – topshirilmagan imtihon [5],

Dum (II) – poyloqchi;

Yemoq (I) – musht yemoq,

Yemoq (II) – aldanib qolmoq;

Uxlamoq (I) – o'lmoq (mafia tilida),

Uxlamoq (II) – aldanmoq;

Stalba (I) – ozg'in,

Stalba (I) – bo'yi uzun;

Yorib tashlamoq (I) – biror ishni yaxshi bajarmoq,

Yorib tashlamoq (II) – urmoq.

Tilning jamiyat hayotiga ta'siri, ayniqsa, slenglarni o'rganish orqali aniqroq ko'rinadi. Slenglar nafaqat tilni boyitadi, balki ijtimoiy muloqotda ham muhim rol o'ynaydi. Slenglarning leksik-semantik xususiyatini o'rganish, eng avvalo, ularning lingvistik xususiyatlarini yanada aniqroq o'rganish, o'zaro taqqoslash orqali ma'nolarini oydinlashtirishga imkoniyat yaratadi. Bu orqali tilning qanday moslashishini, turli guruhlar o'rtasidagi aloqani va tilning o'ziga xos xususiyatlarini chuqurroq tushunamiz. Bunday birliklarning og'zaki nutqda tutgan o'rni, amalga oshiradigan vazifalarini yanada teranroq anglaymiz. Ularning kelib chiqishi, ma'nosi va ishlatilishi haqidagi ma'lumotlar tilni qayta ishlash texnologiyalarini rivojlantirishga, tilni o'rganish va ta'lim berish jarayonini boyitishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, sleng birliklar ma'lum bir ijtimoiy guruhning madaniyati, qadriyatlari va hayoti haqida ma'lumot beradi, shuning uchun ham ularning tasnifi ijtimoiy o'zgarishlarni, yangi guruh va submadaniyatlarning paydo bo'lishini, shuningdek, jamiyatdagi o'zgarishlarning tilga ta'sirini o'rganishda ham muhim ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ахмедова М.Х. Ўзбек тили жаргон лексикасининг псилингвистик аспектлари.

Фил.фан.док.(DSc)дисс.автреферати. – Тошкент, 2022. – Б. 13.
2. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005. – B. 271.
3. Mamitova M. O‘zbek talaba yoshlari nutqida slenglar va uning adabiy tilga ta'siri//My science. – Toshkent. 2024. – B. 640-644.
4. Матюшенко Е. Современный молодежный сленг: формирование и функционирование. автореф. дисс. кандидата филологических наук – Волгоград, 2007. – 4 с.
5. Rahimova Z.Sh. O‘zbek tilidagi jargonlar lingvopragmatikasi. – Toshkent, 2025. – B. 31.
6. Bekmuradova Iroda Zokir qizi. O‘zbek tilida slenglarning lingvistik xususiyatlari va tasnifi // Turkologik tadqiqotlar. – Toshkent. 2024. – B. 112-119.
7. http://www.bauka.kz. 8-10.

UO'K 82-343.5:398.2

SHOMON CHORLOVLARIDA MIFOLOGIK HOMIYLAR OBRAZI

O'.Arolov, Mustaqil tadqiqotchi, Toshkent Amaliy Fanlar universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o'zbek shomon marosimlari folklorida muhim o'rin tutadigan shomon chorlovlarida mifologik homiylar obrazining semantik va funksional xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida shomon chorlovlarida pirlar, avliyolar, parilar hamda marhumlar ruhining shomonga ma'naviy va sakral ma'noda madadkor kuch sifatida talqin etilishi yoritiladi. Etnografik va folklor materiallar asosida mifologik homiylarning chorlov matnidagi o'rni, ularning marosimning magik va ilohiy ta'sirini kuchaytirishdagi roli ochib beriladi. Shuningdek, turkiy mifologiyaga xos dualistik tasavvurlar asosida ayrim mifologik obrazlarning ezgu va yovuz kuch sifatidagi talqini hamda ularning shomonlik amaliyotidagi transformatsiyasi tahlil etiladi.*

Kalit so'zlar: *shomonlik, shomon chorlovlari, mifologik homiy, pari, ruh, avliyo, folklor, sakral obraz.*

Аннотация. *В статье рассматриваются семантические и функциональные особенности образов мифологических покровителей в шаманских заклинаниях узбекского обрядового фольклора. На основе этнографических и фольклорных материалов анализируется роль духов предков, святых, пери и умерших как сакральных помощников шамана в процессе изгнания злых духов и исцеления больного. Особое внимание уделяется мифологическим представлениям, связанным с дуалистическим восприятием мифологических персонажей, а также трансформации их образов в шаманской практике. Делается вывод о значимости мифологических покровителей в усилении магического и сакрального воздействия шаманских ритуалов.*

Ключевые слова: *шаманизм, шаманские заклинания, мифологический покровитель, духи, пери, фольклор, сакральный образ, обряд.*

Abstract. *This article examines the semantic and functional characteristics of mythological patron figures in shamanic invocations within Uzbek ritual folklore. Based on ethnographic and folkloric sources, the study analyzes the role of spirits of ancestors, saints, fairies, and the deceased as sacred helpers who support shamans in healing practices and in expelling evil spirits. Particular attention is paid to dualistic mythological perceptions and the transformation of certain mythological characters from demonic to benevolent forces in shamanic belief. The study concludes that mythological patrons play a crucial role in strengthening the magical and sacred effectiveness of shamanic rituals.*

Key words: *shamanism, shamanic invocations, mythological patrons, spirits, folklore, sacred image, ritual practice.*

Kirish. Ma'lumki, shomoniylik dunyodagi qadimiy ildizga ega xalqlar orasida eng qadimiy va hamisha yashab kelayotgan e'tiqodlardan biridir. Shomonlar turli davrlarda turli xil ko‘rinishda faoliyat yuritganlar. Eng qadimgi shomonlar turkiy qavmlar orasida erkak kishilar bo‘lganligi, kishilik jamiyatining keyingi bosqichlarida shomonlik kasbini ayollar egallaganligi etnografik adabiyotlardan ma'lum [1]. Folklorshunos O.Qayumovning yozishicha, hozirgi paytda turkiy qavmlar orasida shomonlik kasbi aksariyat hollarda ayollar tomonidan bajariladi. Bu kasb egalari xalq orasida baxshi, qushnoch, qora qushnoch, alaschi, ko‘chiriqchi nomlari bilan yuritiladi.

O‘zbek qushnoqlari tomonidan amalga oshiriladigan shomon marosimlari folklorida shomon chorlovlarining alohida o‘rni bor. Marosimning asosiy magik jihatlari mifologik homiylarni chorash vositasida, undan keyingi jarayonda amalga oshiriladi. Shomon chorlovlarida bemorning tanasiga singib olgan yovuz ruhlarni quvish uchun homiy ruh sifatida tasavvur qilinadigan pirlarni chaqirish motivi yetakchilik qiladi. Folklorshunos E.S. Novikning fikricha, “Ruhlarni chorash shomon afsungarlik marosimining asosiy qismini tashkil etadi. Marosim aytimlarini kuzatishlari natijasiga ko‘ra, matnda hamisha uchrashi kuzatilgan aytim tarkibi sifatida ruhlarni chorash hodisasi kuzatiladi” [2]. Sibir shomonlari materiallari asosida chiqarilgan mazkur xulosa bevosita o‘zbek shomon chorlovlariga ham taalluqlidir. Etnograf V.N. Basilovning qayd etishicha, o‘zbek, qozoq, uyg‘ur shomonlari ruhlarni chorash aytimlarini childirma (doira) jo‘rligida, qoraqalpoq shomonlari esa, qo‘biz jo‘rligida ijro etishadi va homiy ruhlar madadi bilan bemor tanasidagi yovuz ruhlarni haydash maqsadida chorlov ijro qilinadi. Folklorshunos E.S. Novik esa, “Sibir xalqlari folklori va e’tiqodlarida ovozning ramziy vazifalari” nomli maqolasida “shomon chorlovlari ijrochisi bir vaqtning o‘zida epik qahramon va muallif” [3] ekanligini to‘g‘ri qayd etadi. Biroq chorlov matnida syujetning asosiy harakatlantiruvchi shomon obrazi bilan birga mifologik homiy obrazi ham mavjudki, ular shomon chorlovlarining semantikasida juda katta ahamiyatga ega.

Muzayana Alaviya tomonidan 1957-yilda Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanida baxshi Ashiroy Ro‘ziyevadan yozib olingan Ko‘chiriq marosimining aytimlarida [4] Xudo va aziz avliyolar yod etiladi:

Bismillo, bismillo,
Bismillo, bismillo,
Avval Xudo yod aylayman,
Duyom pirlar yod aylanman,
Aziz avliyolar yod aylanman,
O‘tgan guzashtalar yod aylanman.

Yodga olish shomoniylikda ilohlarni qo‘zg‘atish maqsadida ijro etilgan. Shomon ko‘chiriq aytimining mana shu qismidan keyin shomon qattiq e’tiqod qiladigan taniqli avliyolarning nomlari tilga olinib, aytuvchining ularga sig‘inganligi izhor etiladi:

Ko‘ktosh ota avliyo,
Men sizlarga sig‘indim,
Chiroqchi ota avliyo,
Men sizlarga sig‘indim,
Ko‘kto‘nli ota avliyo,
Men sizlarga sig‘indim.

Ko‘rinadiki, shomon avliyo otalar ruhini alqash vositasida o‘ziga endirishga harakatni boshlaydi. Aksariyat shomon chorlovlarida shomon o‘ziga yordamga chaqirayotgan mifologik homiylarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri “keling” deb taklif qilmaydi, balki ularga sig‘inishini izhor qilish orqali o‘ziga og‘dirib olish yo‘lidan boradi.

Folklorshunos O.Qayumov tomonidan 2007-yilda Samarqand viloyati Nurobod tumanidan yozib olingan “Suq chiqarish” marosimida ijro etilgan qushnoch aytimining ham asosiy qismini shomon chorlovi tashkil etganligining guvohi bo‘lamiz:

Qo‘l berganning qo‘li,
Jo‘l berganning jo‘li.
Enajonim qo‘li,
Eshon bobom qo‘li.

Chorlovning boshlang‘ich qismida shomon enajonim qo‘li, eshon bobom qo‘li iboralarini ifodalash bilan o‘z mifologik homiylari safida o‘ziga pir sanagan eshon bobo va shomonlikni meros qoldirgan enasining ruhlarini qo‘zg‘ashdan ishni boshlaydi.

Bismillohir rohmanir-rohim,
Xili pishmish qo‘li,
Yetti pushtim qo‘li.

Rahimli Olloh nomi bilan bemorga qo‘l urarkan, “yetti pushtim qo‘li” iborasini qo‘llaydi. Shomonning yetti ajdodi qushnochlik qilganligini ko‘rsatuvchi bu ibora uning mifologik homiylari safi naqadar kengligini ham belgilab beradi. Odatda shomonlarning kasbini qo‘l olgan shogirdlari nafaqat o‘zlarining, balki ustozlarining ham mifologik homiylaridan foydalanishadi. Shuning uchun ham o‘ziga madad berishga chaqirilayotgan mifologik homiylar sirasida yetti ajdodi, ularning ham pirlarini alqaydilar:

Elchi momo jo‘l bo‘lsin,
Jo‘lchi momo jo‘l bo‘lsin.
El oralab yurgan momom,
Suqchi momom, Oq momom.
Sariqiz momo, Gulqiz momom,
Suv bo‘yida Sulaymon, Chingiz bobom.
Avliyolar yor bo‘lsin,
Pirlar madadkor bo‘lsin!

Chorlovda mifologik homiylardan Elchi momo, Jo‘lchi momolarning el oralab yurganligi, shomoniylikda dongdorligi e’tirof etilmoqda. Suqchi momo, Oq momo, Sariqiz momo, Gulqiz momo, suv bo‘yidagi Sulaymon, Chingiz bobolar shomonning mifologik homiylaridir.

Chorlovda qayd etilgan Sariqiz momo shomonning mifologik homiysi sifatida obrazlashadi. Aslida turkiy mifologiyada Sariqiz odamlarga yomonlik keltiruvchi yovuz ruh, demonologik obraz. Biroq ingichkalik qushnoch — Xursan momoning shomoniylik amaliyotida Sariqiz mifologik homiy vazifasida kelgan. Bizningcha, qadimgi ajdodlarimizning dualistik tasavvurlari natijasida ayni bir mifologik personaj ham ezgu, ham yovuz kuch sifatida tasavvur qilingan. Badiiy tafakkurdagi evrilishlar natijasida qadimda faqat demonologik mohiyat kasb etgan Sariqiz keyingi davr shomonlari tasavvurida ezgu kuch, ezgu ruh sifatida talqin etila boshlangan.

Xullas, o‘zbek shomon chorlovlarida asosiy mifologik homiylar obrazi sifatida parilar, marhumlar ruhi obrazlashadi. Parilar va marhumlar ruhining mifologik homiy vazifasida kelishi ularning har ikkisi o‘zga olamga mansubligi bilan izohlanishi lozim. Parilar inson istiqomat qilmaydigan makonda yashasalar, marhumlar yer osti olami vakillari sifatida mifologik mohiyat kasb etadi. Shuning uchun shomoniylik e’tiqodida parilar va marhumlar ruhlari shomonga ruhan madad berishiga ishonch paydo bo‘lgan. Ayni shu ishonch shomonning mifologik homiylarga murojaati, ularni davraga chorashi, ularni yod etishi va alqashida ko‘zga tashlanadi. Mifologik homiylar shomonning mushkul ishida madad berishi, yovuz ruhlarni quvishi kabi harakatlari bilan obrazlashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROYXATI:

1.Басилов В.Н.Исломированное шаманство народов Средней Азии и Казахстана. АДД.Москва, 1991. Қаюмов О.С. Ўзбек шомон маросим фольклори. – Тошкент, Iqtisod-Moliya, 2020.

2.Новик Е.С. Фолъклор-обряд-верования: опыт структурно-семиотического изучения текстов устной культуры // Диссертация в форме научногодокладапо совокупности опубликованных работ на соискание ученой степени доктора филологических наук. Масква, 1995-С. 11.

3.Басилов В.Н. Исламированное шаманство народов Средней Азии и Казахстана. АДД. Масква,1991. С.17.

4.Новиков Е. С. Семиотические функции голоса в фолъклоре и верованиях народов Сибири // Фолъклор и мифология Востока в сравнителъно–типологическом освещении. Москва, Наследие, 1999. – С. 217-235.

UO’K 821.512.191

ALISHER NAVOIY IJODIDA - MAKTUBOT

H.A.Aslanova, dots., PhD, Samarqand davlat chet tillar instituti, Samarqand

Annotatsiya. *Mazkur maqolada insho san’ati, maktubotning ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyati xususan, Alisher Navoiy ijodida maktubotning badiiy ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Navoiyning “Munshaot” asari ilmiy jihatdan tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *maktub, qo‘lyozma, arxiv, ijod, san’at, janr, shoir, arbob, vazir, ta’lim, tarbiya.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается искусство сочинения, образовательное и воспитательное значение письма, в частности, художественное значение письма в творчестве Алишера Навои. Произведение Навои "Муншаот" было научно проанализировано.*

Ключевые слова: *письмо, рукопись, архив, творчество, искусство, жанр, поэт, деятель, министр, образование, воспитание.*

Abstract. *This article examines the art of composition, the educational and upbringing significance of writing, particularly the artistic significance of writing in Alisher Navoi's work. Navoi's "Munshaot" was scientifically analyzed.*

Key words: *writing, manuscript, archive, creativity, art, genre, poet, figure, minister, education, upbringing.*

Ma’lumki, qadimdan yozishmalar insonlar o‘rtasidagina emas, balki davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarning yaxshilanishi va mustahkamlanishida muhim vosita vazifasini o‘tab kelgan. Hatto, o‘rta asrlarda sharqda yozishmalar takomil topib borib, insho san’at darajasiga ko‘tarilgan. Xususan, ijod ahli o‘rtasidagi yozishmalar o‘ziga xos badiyat namunasi sifatida yuzaga kelgan. Insho san’atining go‘zal namunasi sifatida qadrlangan bunday maktublar mualliflarining o‘zlari tomonidan yoki ularning muxlislari tomonidan jamlanib bir to‘plam holiga ham keltirilgan. Bu munshaotdir. Munshaot (arab.– insho etilganlar, ya’ni yozilganlar, bitilganlar) – sharq she’riyatidagi janrlardan biri, muallifning nazmda yoki nasrda yozilgan maktublar to‘plami hisoblanadi. Bunday to‘plamlar bir yoki bir necha muallif qalamiga mansub xatlar yig‘indisidan iborat bo‘lgan. Maktublar shunchaki bitilgan xatlar bo‘lmay, badiiyatning o‘ziga xos turi – insho san’ati sifatida yuzaga kelgan, chuqur mazmunga va go‘zal badiiy ifodaga ega bo‘lgan. Ba’zi maktublar yuksak san’at bilan o‘ta jimjimador yozilgan. Asosan arab va fors tillarida yaratilgan. O‘zbek adabiyoti tarixida munshaotning shakllanishi va rivojlanishi Alisher Navoiy ijodi bilan bog‘liq. Navoiy “Munshaot” asarining muqaddimasida forscha maktublar shakllangan yuksak uslubga ega ekanini, turkiy xalqlarda bu uslubda hali hech ish qilinmaganini va o‘zi munshaotga birinchi bo‘lib qo‘l urganini qayd qilgan. Navoiyning ushbu asaridagi maktublarning aksariyati sulton Husayn Boyqaro va uning farzandlari bo‘lmish shahzodalarga yozilgan. Ularda Navoiy maktub egalariga davlatni idora etish, hukumat ishlarini bajarishga doir o‘zining qimmatli maslahat va takliflarini bayon etadi, adolat va hushyorlikka chorlaydi. Munshaot ba’zan “ruq’aot”, “maktubot” deb ham yuritilgan. Munshaotlarning talaygina qo‘lyozma nusxalari O‘zbekiston FA Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar fondida saqlanadi. Bir nusxasi Sankt-Piterburgdagi davlat xalq kutubxonasida 558-tartib raqami bilan saqlanayotgan qo‘lyozmasi bor.

Ana shunday maktublar sharqda asosan arab va fors tillarida yozilgan. Badiiy adabiyotning xos qanday turdagi ham fors adabiyoti namunalari bilan tenglasha oladigan asoslar yaratishni o‘z oldida ijodiy maqsad qilib olgan Alisher Navoiyda o‘zbek tilida ham shunday badiiy ko‘rkam va dilga yoqimli maktublar yozish fikri tug‘iladi. Shu tariqa yozgan maktublari oz vaqt ichida anchagina yig‘ilib qolgach, ularni “Munshaot” nom bilan to‘plam holiga keltiradi.

To‘plamdagi maktublar mazmun-e’tibori bilan ham g‘oyatda qimmatli, chunki, ularning aksariyati Navoiyning hayoti, ijodi va ijtimoiy-siyosiy faoliyatini yorituvchi badiiy lavhalardir. Bir qator maktublarda davlat ishlari va yurt osoishtaligi yo‘lida jon kuydirayotgan davlat arbobining siymosi namoyon bo‘lsa, ba’zi maktublarda shoirning ijod jarayoni aks etadi, bir turkum xatlar davlatni idora etishga doir muhim hujjatlar bo‘lsa, yana birlarida tabrik va ta’ziya mazmunidagi nomalardir. Binobarin, “Munshaot”dagi maktublarning ifoda uslubi ham turlichadir. Ba’zi maktublar sodda va ravon uslubda yozilgan bo‘lib, mazmuni tushunarli va muallif maqsadi aniq bo‘lgani holda ayrim maktublar g‘oyatda badiiy serjilo va serjimjimador uslubda yozilgandi. Hukmdor shaxslar yoki yuqori tabaqa egalari maktublar ko‘proq ana shunday shaklda bo‘lib, ular asosan xat yo‘llanayotgan shaxsning ta’rif-tavsifi, uning haqida qilingan duolardan iboratdir.

Ko‘rkam so‘z va iboralar bilan ziynatlar bu maktublar mazmunini tushunib yetish, ularga jilo berib turgan badiiy san’atlar ostiga yashiringan nozik ma’nolarni idrok etish bugungi kun o‘quvchisi uchun anchayin mushkul.

"Munshaot"dagi maktublarga parda bo'lib turuvchi yana bir jihat ularda xat yo'llanayotgan shaxs nomi, manzili va sananing ko'rsatilmaganligidir. Bu holatni ham sharq insho san'atining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib izohlash kerak. Zero, maktublar o'sha davrda biron bir xabar, maqsad yoki yangilikni eltuvchi vosita-hujjatdan ko'ra badiiy adabiyotning o'ziga xos bir turi sifatida bitilgan va qabul qilingan. Shunday bo'lgach, maktublar boshiga qaysi manzilga va kimga yozilayotganligi hamda oxirgi bitilgan sanasini ko'rsatish insho san'ati uslubiga muvofiq kelmaydigandek ko'ringan. Qolaversa, bunga deyarli ehtiyoj ham bo'lmagan, chunki, maktub ishonchli va tayinli kishilar orqali jo'natilgan yeri va shuningdek o'ta maxfiyligi tufayli xatda yozish muvofiq topilmagan gaplarni og'zaki tarzda bayon etishni o'z zimmasiga olgan.

„Munshaot''ning xijriy 1004-1007, millodiy 1595-1596 -1598-1599-yillarda Ozarbayjoning Qizilog'och shahrida ko'chirilgan qo'lyozmasi tarkibida oltmish maktub, boshqa ko'pgina nusxalarda to'qson atrofida, umrining so'ngi yillarida Navoiyning o'zi tomonidan tuzilgan „Kulliyot''dagi „Munshaot''da esa, bir yuz to'rtta maktub mavjud. Bu holni shunday tushunish kerak: Navoiy dastlab maktublarini to'plam holiga keltirganida u oltmish oltita xatdan iborat bo'lgan. Shundan keyingi 2-3 yil davomida yana yozilgan maktublar yig'ilib qolgan. Navoiy ularni ham to'plamga kiritgan va natijada „Munshaot''ning ikkinchi holati yuzaga kelgan. Nihoyat umr bo'yi barcha asarlarini jamlab bir kitob -„kulliyot" holiga keltirar ekan, Navoiy eng so'ngi yillarda yozilgan maktublarini ham „Munshaot"ga kiritgan va shu tariqa asarning so'ngi uchinchi shakli yuzaga kelgan.

Navoiy tomonidan maktubda o'ttizta idora usuli va qoidalari o'rtaga tashlanadi. Bular: har kuni ertalabdan adolat bilan arzlar eshitish, arkoni davlatni har kuni kechda yig'ib, mulk va mol ishlarini kengashib olish; har kunga belgilangan ishlarning bitganligi haqida hisobot olish; tarixga oid asarlarni, xususan "Zafarnoma"ni va ba'zi devonlarni mutolaa qilish; Iroq mamlakatiga bilimdonroq kishini yuborib turish va arz qilinishi zarur xabarlarni maktubda bitib, u yerdan kelgan ko'rsatmalar asosida ish ko'rish; sharobxona, qimorxona va baytul-lataf (fohishaxona) kabi zararli joylarni qat'iy ma'n etish; haftada ikki marta bozor narxlarini tekshirib turish uchun muhtasiblar tayin qilish, mahalla ahli o'g'il-qizini o'qitish uchun maktab ochishni masjid imomig'a topshirish; bo'lak hamma kentlarda ham shu tartibni joriy etish; viloyat vaqflaridan buzilganini tuzatish, ulardan keladigan mablag'ni o'zlariga, sarf etishni kuzatib borish va bunga maxsus kishi belgilash; devon beklari, lashkarlar ahvolidan voqif bo'lib turish; shohga har bir e'tiborga loyiq qilingan ish yuzasidan, uning mazmuni va tarixini bitib yuborib turish; markazdan bo'lgan hukumlarni paysalga solmay ijro etish va bu haqda yozma yozib turish; ov va turli dabdabali bordi-keldilarni me'yori bilan qilish; tungi qorovullar ishini tekshirib turuvchi tovachi tayin etish; zakot va jarima yig'uvchilar ishini ham maxsus tovachilar orqali tekshirib turish va hokazolardir.

Alisher Navoiy hukmdor faoliyati uchun farz bo'lgan mana shu qoidalarni bir-bir sanab o'tgach, yana o'sha o'zining asl muddaosiga ko'chadi va barcha aytganlarga rioya qilishda, umuman barcha ishlarni bajarishda markaziy davlat manfaatidagi kelib chiqish va shoh itoatida bo'lishini uqtiradi. U davrlarda maktub yozish so'zni yuksak san'at bilan ishlatish hisoblanib, buning o'z qonun-qoidalari bo'lgan. Maktub yozuvchi odam chiroyli va nozik iboralarni qo'llashi, iloji bo'lsa o'z fikrini she'riy parchalar bilan ham ifodalashi, bu bilan o'zining aql va zakovatini ko'rsatishi kerak edi. "Makorimul axloq"ning muallifi Xondamir bu haqda shunday deydi: "Insho, fazl egalarining ta'rificha, ma'no qizlarining quloq va bo'yinlarini so'z durlari bezagi va yorqin ibora ziynati bilan yasatish, jumla eshitilishini ko'ngilni xira qiladigan so'zlardan tozalash va hikoyani hayot suviga aylanib ketadigan lug'atlar bilan bezashdan iboratdir…"[6: 39].

Navoiy Astrobodda hokimlik davrida Husayn Boyqoroning davlatni boshqarish ishlaridan xavotirga tushib, unga maktublar yozadi. Mamlakatni idora etishning hamma jabhalari qamralgan "Munshaot"da Navoiy hazratlari - tongda turib namoz o'qishga intizom qilinsa, ertalab kishilarning arz-dodi eshitilsa, ularga adolat qilinsa: kechqurunlari ovqat yeyilib, so'ng qabulxonada arkoni davlat bilan mol-mulk ishlari muhokama qilinsa; arkoni davlat kunlik ishlardan hisob berib tursalar, chog'ir ichishdan qattiq saqlanilsa, bo'sh vaqtlarida kutubxonada qiroat qilinsa, arkoni davlatga, vazirlarga tavorix kitoblari, xususan, "Zafarnoma" takror-takror o'qib turish buyurilsa: Iroq mamlakatiga aqlli-xushli kishilar yuborib, u yerdagi ishlaridan xabar olib turilsa, devon beklari mahkamada

musulmonlar ishini to‘g‘ri yo‘lda bo‘lishiga bosh-qosh bo‘lsalar: bazm va majlislarda chog‘ir ichishga hirs qo‘yilmasa, majlislar tartib bilan o‘tkazilsa, tayin etilmagan kishilar kirgizilmasa: chegaralarning darvozvlari qattiq qo‘riqlansa, boshqa yurtlardan kelgan bozirganlar, savdogarlarga hurmat-etibor ko‘rguzilsa, ulardan soliq shariat qonunlar asosida olinsa, gunoh qilganlar qattiq jazolansa va bu holat butun mamlakatga tarqatilsa, kabi tarbiyaviy tavsiyalarni berganlar.

Alisher Navoiy o‘z davrning eng obro‘li va katta mavqeli davlat arbobi, buyuk shoiri va ulkan mutafakkiri sifatida murakkab siyosiy voqelik hamda qaynoq madaniy hayotning markazida bo‘lgan. Shu bilan taqozo qilingan holda u, tabiiyki, ko‘p viloyatlarda yashab, ko‘p odamlar bilan turli masalalar yuzasidan ham bevosita, ham maktublar orqali aloqada bo‘lgan. “Munshaot” Navoiyning shunday maktublari majmuasidir. Navoiy “Munshaot”ning kirish qismida bu asar yuzaga kelish sabablarini tushuntirib o‘tadi. Unda ta’kidlashicha, shaxslarning fors tilidagi o‘zaro yozishmalari go‘zal so‘zlar va iboralar bilan bezatilgan, ularda she’rlardan foydalanilgan, umuman, yuksak badiiy saviyada bitilgan. Lekin bu hol turkiygo‘y xalqlar orasida rasm bo‘lmagan. Shuni nazarda tutib, Navoiy “Xayolga andoq keldikim, turk alfozining dag‘i ruq’alari ham ul misol bila bitilgay va bu tilining nomalarin ham o‘shul mivol bila sabt etilgay”, – deb yozadi [1: 40]. Binobarin, Navoiy turkiy tilda ham yaxshi va chiroyli insholar yozish uchun barcha imkoniyatlar mavjud, prozaning bu turida ham ajoyib namunalar yaratsa bo‘ladi, deb hisoblaydi.

Mana shu maqsadda Navoiy o‘z xatlarini yig‘adi. Navoiyning bu majmuadan ko‘zlagan yana bir maqsadi – xatlardagi fikr hamda nasihatlarining barcha uchun foydali ekanligini tushuntirish va ularga rioya etishga chaqirish, xalq va mamlakat manfaatlariga zid bo‘lgan narsalarni yo‘qotish, insonning tinchligi, farovonligini ta’minlaydigan yaxshiliklar uchun kurashish zarurligini uqtirishdan, shoir iborasi bilan aytganda, baxt-saodat kalitini ularga ko‘rsatishdan iborat edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Муҳиддинов М.Қ. Алишер Навоий ва унинг салафлари ижодида инсон концепцияси. («Хамса»ларнинг биринчи достонлари асосида) // филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 1995. – 238 б.

2. Муҳиддинов М.Қ. Комил инсон – адабиёт идеали. – Тошкент: Маънавият, 2005. – 208 б.

3. Муҳиддинов М.Қ. Нурли қалблар гулшани.– Тошкент: Фан, 2007. – 168 б.

4. Эркинов С. Алишер Навоийнинг «Фарҳод ва Ширин» достони ва уни қиёсий ўрганишнинг баъзи масалалари. Докторлик дисс. – Т., 1974.

5. Ўзбек классик адабиёти асарлари учун қисқача луғат. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1953. – 454 б.

6. Ғиёсиддин бинни Ҳумомиддин Хондамир. Макоримул-ахлоқ. ЎзФА нашриёти. Тошкент, 1948, 39-бет.

UO’K 82-34

“TEMURNOMA”DA QO‘LLANGAN ETNOGRAFIK REALIYALAR XUSUSIDA

M.B.Asqarova, doktorant, Namangan davlat universiteti, Namangan
Orcid:0000-0001-5880-5758

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Salohiddin Toshkandiyning “Temurnoma” asarida qo‘llangan etnografik realiyalarning semantik va lingvomadaniy xususiyatlari tadqiq etiladi. Asarda uchraydigan an’ana, marosim, bayram va o‘yinlarga oid leksik birliklar Temuriylar davri ijtimoiy-madaniy hayotining muhim ko‘rsatkichlari sifatida tahlil qilinadi. Xususan, “o‘yin”, “tomosha”, “to‘y” kabi tushunchalarning semantik qatlamlari, ularning kontekstual ma’nolari va konseptual yuklamalari ochib beriladi. Tadqiqot jarayonida tarixiy manba tilidagi etnografik birliklarning xalq mentaliteti, ijtimoiy munosabatlar hamda davr mafkurasi bilan uzviy bog‘liqligi yoritiladi. Maqola “Temurnoma” matni asosida Temuriylar davri madaniyatining lingvomadaniy manzarasi yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *“Temurnoma”, etnografik realiyalar, lingvomadaniyat, o‘yin, to‘y, marosim, Temuriylar davri.*

Аннотация. *В статье рассматриваются семантические и лингвокультурологические особенности этнографических реалий, представленных в произведении Салохиддина Ташкандия «Темурнома». Лексические единицы, связанные с традициями, обрядами, праздниками и народными играми, анализируются как отражение социально-культурной жизни эпохи Темуридов. Особое внимание уделяется семантике понятий «игра», «зрелище», «той», их контекстуальным значениям и концептуальному наполнению. В ходе исследования*

выявляется связь этнографических единиц с народным мировоззрением, социальной структурой и идеологией эпохи. Статья способствует реконструкции лингвокультурной картины Темуридского периода на основе текста «Темурнома».

Ключевые слова: *Темурнома, этнографические реалии, лингвокультурология, игра, той, обряд, эпоха Темуридов.*

Abstract. *In this article was enlightned the semantic and linguocultural features of ethnographic realities used in Salohiddin Toshkandiy's work Temurnoma. Lexical units related to traditions, rituals, festivals, and folk games are analyzed as key indicators of the socio-cultural life of the Timurid period. Special attention is paid to the semantic structure and contextual meanings of concepts such as game, spectacle, and wedding, as well as their conceptual significance. The study reveals the close relationship between ethnographic units, folk mentality, social relations, and the ideology of the era. Based on the text of Temurnoma, the article aims to reconstruct the linguocultural landscape of Timurid culture.*

Key words: *Temurnoma, ethnographic realities, linguoculturology, game, wedding, ritual, Timurid period.*

Kirish. Tarixiy-badiiy manbalar tilini lingvomadaniy jihatdan tadqiq etish muayyan davr xalqining dunyoqarashi, ijtimoiy munosabatlari hamda madaniy qadriyatlarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, etnografik realiyalar — urf-odatlar, marosimlar, bayramlar va xalq o'yinlari bilan bog'liq birliklar til orqali milliy madaniyatning o'ziga xos jihatlarini namoyon etadi. Temuriylar davri Markaziy Osiyo tarixida siyosiy qudrat bilan bir qatorda boy madaniy hayoti, keng ko'lamli xalq bayramlari, tomosha san'ati va marosimlari bilan ajralib turadi. Bu davr madaniyatini o'rganishda Salohiddin Toshkandiyning "Temurnoma" asari muhim manbalardan biri hisoblanadi. Asarda Amir Temur shaxsiyati, harbiy faoliyati bilan birga, davrning ijtimoiy-madaniy hayotiga oid ko'plab etnografik tasvirlar ham uchraydi. Mazkur maqolada "Temurnoma" asarida qo'llangan etnografik realiyalar semantik jihatdan tahlil qilinib, ularning lingvomadaniy mohiyati ochib beriladi. Xususan, an'ana, marosim, o'yin va to'y kabi birliklarning asardagi funksional va konseptual xususiyatlarini aniqlash asosiy maqsad qilib belgilandi.

Temuriylar davri tarixiy-madaniy hayotini o'rganishda yozma manbalar va ularning lingvistik talqini muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, tarixiy-badiiy asarlarda aks etgan etnografik realiyalar muayyan davr xalqining ijtimoiy munosabatlari, an'analari va madaniy tafakkurini anglashda asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Shu bois, mazkur masala tarix, adabiyotshunoslik va tilshunoslik fanlari kesishgan nuqtada tadqiq etilib kelinmoqda. Temuriylar davri tarixiga oid dastlabki fundamental tadqiqotlar Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma", Mirxond va Xondamir asarlari asosida olib borilgan. Ushbu manbalarda Amir Temur hayoti, harbiy yurishlari bilan birga, bayramlar, marosimlar, tantanalar va xalq yig'inlari haqida ham muhim ma'lumotlar berilgan. Tarixchilar tomonidan bu manbalar asosan tarixiy voqealar nuqtayi nazaridan tahlil qilingan bo'lsa, ulardagi etnografik tafsilotlar ikkilamchi masala sifatida qolib kelgan. Salohiddin Toshkandiyning "Temurnoma" asari esa Temur shaxsini xalqona tasvirlash, og'zaki an'anaga yaqin uslubda bayon etilishi bilan ajralib turadi. Asar adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan epik-badiiy manba sifatida baholangan bo'lsa-da, undagi etnografik realiyalarning semantik va lingvomadaniy xususiyatlari yetarli darajada maxsus tadqiq etilmagan. Ayrim tadqiqotlarda "Temurnoma" tarixiy-afsonaviy manba sifatida tavsiflanadi, biroq undagi marosimlar, o'yinlar va tomosha san'atiga oid birliklarning til tizimidagi o'rni alohida tahlil qilinmagan. O'zbek tilshunosligida etnografik leksika va realiyalar masalasi bir qator olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, A. Hojiyev, Sh. Rahmatullayev, N. Mahmudov, E. Begmatov ishlarida milliy-madaniy komponentga ega leksik birliklarning semantik tuzilishi, ularning til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqligi yoritilgan. Ushbu tadqiqotlarda etnografik birliklar milliy tafakkur va mentalitetning ifodasi sifatida talqin qilinadi.Lingvokulturologiya doirasida V. A. Maslova [4], V. N. Teliya [7], Y. S. Stepanov, A. Vejbitskaya kabi olimlarning ishlari konsept, madaniy sema, milliy stereotip masalalarini ilmiy asosda yoritib bergan. Ularning nazariy qarashlari tarixiy matnlardagi "o'yin", "to'y", "marosim" kabi tushunchalarni konseptual birlik sifatida tahlil qilish imkonini beradi. Mazkur

nazariy yondashuvlar asosida tarixiy matnlarning lingvomadaniy talqini so‘nggi yillarda dolzarb yo‘nalishlardan biriga aylandi. O‘zbek tilshunosligida tarixiy matnlarni lingvomadaniy jihatdan o‘rganish borasida ham muayyan izlanishlar mavjud. Xususan, tarixiy asarlardagi leksik qatlam, realiyalar, an’ana va urf-odatlarga oid birliklar ayrim dissertatsiya va maqolalarda tahlil qilingan. Biroq Temuriylar davri manbalari, xususan “Temurnoma”dagi etnografik realiyalarning semantik xususiyatlarini kompleks, tizimli va konseptual yondashuv asosida tadqiq etish masalasi hali yetarli darajada yoritilmagan.Shu jihatdan, mazkur tadqiqot Salohiddin Toshkandiyning “Temurnoma” asarida qo‘llangan etnografik realiyalarni semantik va lingvomadaniy nuqtayi nazardan tahlil qilish orqali mavjud ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan bo‘lib, Temuriylar davri madaniy hayotining til orqali ifodalanishini aniqlashga xizmat qiladi. Etnografik realiyalar til orqali muayyan xalqning tarixiy hayoti, turmush tarzi, urf-odatlari, marosimlari, an’analari hamda madaniy qadriyatlarini ifodalovchi leksik birliklardir. Bunday birliklar til tizimida milliy-madaniy semantikaga ega bo‘lib, ularni boshqa tillarga yoki davrlarga to‘liq ekvivalent bilan tarjima qilish ko‘pincha mushkul hisoblanadi. Shu sababli etnografik realiyalar xalqning mentaliteti va madaniy xotirasini saqlovchi muhim vosita sifatida qaraladi. Ilmiy adabiyotlarda etnografik realiyalar ko‘pincha milliy-madaniy birliklar, realiyalar, madaniy belgili leksika kabi atamalar bilan izohlanadi. Tilshunoslikda ular lingvokulturologiya, etnolingvistika, sotsiolingvistika va tarixiy leksikologiya yo‘nalishlarida tadqiq etiladi. V. N. Teliya, Y. S. Stepanov, V. A. Maslova kabi olimlar etnografik birliklarni til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy aloqaning yorqin namoyoni sifatida baholaydilar. Etnografik realiyalar, asosan, muayyan xalq hayotiga xos bo‘lgan va boshqa madaniyatlarda to‘liq mos tushunchaga ega bo‘lmagan predmet, hodisa yoki tushunchalarni ifodalaydi. Ular tarixiy davr bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan ayrimlari faol leksikadan chiqib ketadi yoki tarixiy birlik sifatida saqlanib qoladi. Ilmiy tadqiqotlarda etnografik realiyalar quyidagi asosiy guruhlarga ajratiladi [3]:

1. An’ana va marosimlarga oid realiyalar. Bu guruhga xalqning urf-odatlari, diniy va ijtimoiy marosimlari bilan bog‘liq birliklar kiradi. Masalan: to‘y, nikoh, aqiqa, beshik to‘yi, hayit, Navro‘z va boshqalar. Bunday realiyalar jamiyatning ijtimoiy tuzilishi va qadriyatlar tizimini aks ettiradi.

2. O‘yin va tomosha san’atiga oid realiyalar. Mazkur guruh xalqning ommaviy hordiq chiqarish shakllari, musobaqa va tomosha an’analarini ifodalaydi. Masalan: kurash, chavгон, uloq (ko‘pkari), dorbozlik, poyga kabi birliklar jismoniy kuch, jasorat va raqobat konseptlari bilan bog‘liq.

3. Kundalik turmush va xo‘jalik hayotiga oid realiyalar. Bu turga xalqning yashash tarzi, ovqatlanish, kiyinish va mehnat faoliyatiga oid birliklar kiradi. Ular orqali muayyan davrning iqtisodiy va ijtimoiy hayoti yoritiladi.

4. Diniy e’tiqod va marosimlarga oid realiyalar. Diniy dunyoqarash bilan bog‘liq birliklar xalq ma’naviy hayotining muhim qatlamini tashkil etadi. Ular diniy marosimlar, duolar, bayramlar bilan uzviy aloqada bo‘ladi.

5. Harbiy va ijtimoiy hayotga oid realiyalar.Tarixiy manbalarda ko‘p uchraydigan ushbu birliklar jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanish, harbiy tuzilma va siyosiy hayotni aks ettiradi.

Etnografik realiyalar ko‘pincha ko‘p qatlamli semantik tuzilishga ega bo‘ladi. Ular: Denotativ ma’no – real predmet yoki hodisani bildiradi; Konnotativ ma’no – madaniy, ijtimoiy va baholovchi yuklamani o‘z ichiga oladi. Simvolik ma’no – xalq mentalitetida shakllangan ramziy tushunchalarni ifodalaydi. Masalan, “to‘y” leksemasi nafaqat nikoh marosimini, balki birlik, qudrat, saxovat va ijtimoiy nufuz ramzini ham anglatadi. “O‘yin” tushunchasi esa hordiq bilan bir qatorda harbiy tayyorgarlik, jismoniy quvvat va mardlik konseptlari bilan bog‘lanadi.


Tarixiy-badiiy asarlarda etnografik realiyalar davr ruhini ifodalovchi asosiy unsurlardan biri hisoblanadi. Xususan, Salohiddin Toshkandiyning “Temurnoma” asarida o‘yinlar, to‘ylar, tomoshalar va marosimlarga oid birliklar Temuriylar davrining ijtimoiy-madaniy hayotini jonli tasvirlashga xizmat qiladi. Ushbu realiyalar orqali muallif nafaqat voqealarni, balki xalqning dunyoqarashi va madaniy qadriyatlarini ham ifodalaydi. Ko‘plab manbalarda Temuriylar davri tomosha san’atlari, bayramlari to‘g‘risida ma’lumotlar saqlanib qolgan. Ular qatorida tadqiqotimiz manbasi sifatida tahlil qilinayotgan Salohiddin Toshkandiyning “Temurnoma”si ham qimmatli manbadir. Markaziy Osiyo hududida ko‘pchilikka mo‘ljallangan hamda ko‘ruvchi va tinglovchini quvontiradigan yoki qayg‘urtiradigan, ba’zan hatto jumbushga soladigan ijrolar, maydon ma’rakalari,

marosimlar bilan bog‘liq namoyishlar va o‘yinlar- barchasi “tomosha” deb yuritilgan. Turkiychada “o‘yin” atamasi ham qo‘llangan. o‘yin istilohining qo‘llash semalari keng bo‘lib, ermak mashg‘ulotlar, badantarbiya va sportga oid sohalarni ham o‘z ichiga olgan. Ot-ulov yordamida olishuv, yakkama-yakka kurash, “urush-urush” o‘yinlari shular jumlasidandir. Asarda ham ko‘p o‘rinlarda mazkur mashg‘ulotar qayd etiladi, shu bilan birga Amir Temurning bolaligidan jismonan kuchli bo‘lib o‘sgani, mardligi misollar bilan yoritilgan. Sohibqiron bahslarda qassobning sixlik qanorasini (kundasini) bir barmog‘i bilan otib yuborgani, bir qo‘li bilan yuk to‘la arobani ko‘tarib tashlagani, ajdarning boshini tishi bilan tishlab uzib tashlagani, qirq kishi tortadigan qovg‘ani (meshni) quduqdan qirq marta yolg‘iz o‘zi tortib chiqargani, filni boshida ko‘targani haqidagi mahoratli kurashlari aks etgan. Masalan, *o‘yinlari misli o‘q yoy, puxtabozliq va tupuqbozliq va dorbozliq, necha o‘yinlar shunga o‘xshash erdi. (“Temurnoma”, 89-bet)…oni oti Shijoat bekachdur, san birla* ***qo‘l qayirmoq*** *qilibdur (“Temurnoma, 89-bet”). Xonni kalla handalagi jasadi falakidin uzulib bozori ajalg‘a* ***shiryang*** *o‘ynag‘ali ketti. Xalq orasida keng tarqalgan o‘yinlar hozirgi kungacha saqlanib kelinmoqda.* Amir Temur va Temuriylar davlatida turli bayramlar, sayillar, tomoshalar o‘tkazilib kelinganligi to‘g‘risida ko‘pgina ilmiy ma’lumotlar bor. Ma’rakalarda har toifa ijrochilar alohida-alohida tarabxona va xosxona san’atkorlarning aralash guruhlari o‘z mahoratlarini namoyish etishgan bo‘lsa, teatrlashgan sayillar va namoyishlarda minglab har xil ijrochilar qatnashgan, o‘zaro bellashgan. Amir Temur Movorounnahrda avvaldan mavjud an’analarni davom ettirgan, o‘zining har bir g‘alabasini bayram, to‘y bilan nishonlagan. Asarda har bir an’ana, bayram asosida o‘tkazilgan “to‘y” turlicha o‘tkazilgan, ularning marosimlari, o‘tkazilish vaqti, davomiyligi ham turlicha bo‘lgan. Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma” asarida ham Amir Temur saltanatidagi ko‘plab to‘ylar haqida ma’lumotlar berilgan. Bu to‘ylar asosan 3 xil ko‘rinishda ko‘rishimiz mumkin:

1.Amir Temur hayoti bilan bog‘liq to‘ylar. Sohibqironning nikoh to‘ylari, g‘alaba to‘ylari, qurilish boshlanganda yoki tugallangandagi to‘y marosimlar.

2. Amir Temur farzandlari va nabiralari hayoti bilan bog‘liq marosimlar. Farzandlar va nabiralarning nikoh, aqiqa(beshik to‘y)lari.

3. Davlat va din ishlari bilan bog‘liq bayramlar. Xalq bayramlari, ommaviy sayllar, Navro‘z, hayit ayyomlari, turli marosimlar. Salohiddin Toshkandiyning “Temurnoma” asarida to‘y leksemasining lingvomadaniy konseptini quyidagi sxemada ko‘rsatish mumkin:



1-rasm. “To‘y” konseptining semantik tasnifi

Nikoh to‘yi **–** uning qanday o‘tishi, davomiyligi xususida asarda ma’lumotlar kamroq bo‘lsa-da, nikohdan oldingi vaziyat, kurashib qizning roziligini olish (qizning o‘zi bilan jang qilib yenggan taqdirda, nikohga rozilik, o‘zini baxshida qilishi) shuningdek nikoh kechasi tasvirlari ko‘p o‘rinlarda yoritilgan. Sohibqiron va Kamol oy (O‘ljoy Turkon) bilan sodir bo‘lgan jang tasviridan so‘ng: ***uch yuz qator teva to‘yg‘a keraklik yuklarni ortib, ming qo‘y bila Buxorog‘a yetub keldilar. Buxoroda qirq kun kecha-kunduz oyin bog‘lab, to‘y berdilar (Temurnoma, 86-bet)*** *…oni oti Shijoat bekachdur, san birla* ***qo‘l qayirmoq*** *qilibdur. Ammo oni sanga hukmi sha’riy qilib berurmiz, agar san aning qo‘lini qayirsang, sani xotuning bo‘lsin va agar kuching yetmasa, taloq qilursan*

("Temurnoma, 89-bet"). Sohibqiron har bir aziz mehmonni ziyofat va bazm bilan siylagan. Oilaviy marosimlarni ham sozanda, xonanda va raqqos-u raqqossalarsiz, umuman olganda o'yinchilarning katta-katta guruhlarini jalb etib o'tkazishni yoqtirgan. Uning davrida xalq bayramlari juda ham keng ko'lamda nishonlanganligini asarda uchratishimiz mumkin. Maydon tomoshalari orasida ot bilan bajariladigan poyga,uloq chopish(ko'pkari), otdan ag'darish, chavgon, qaboq o'yin kabilar, gushtirlik, ya'ni kurash, qilich, nayza, gurzi va boshqa qurol va aslahalar bilan o'tadigan bellashuvlar, shuningdek, qo'chqor, xo'roz urushtirish singari qadimiy o'yin va musobaqalar yetakchilik qilgan.

Demak, "Temurnoma" tarixiy-badiiy asar bo'lish bilan birgalikda o'zida xalqimizning boy merosini, lingvomadaniy birliklarini: barqaror birikmalarni, paremiologik birliklar, shuningdek, etalonlar, ramzlar, metaforalar, o'xshatishlar, nutqiy etiketlar, etnografizmlar, milliy realiyalar, arxetiplar, mifonimlar, muqobilsiz leksik birliklar, pretsedent nomlarni mujjassamlashtirgan bebaho asardir. Asarda qo'llangan realiyalarni tadqiq qilish orqali qadim xalqimiz tarixi, milliy-ma'naviy qadriyatlari, milliy tilimizning jozibasi yaqqol namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.С.Тошкандий Темурнома: Амир Темур жангномаси. (Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва луғат муаллифи П.Равшанов). – Тошкент. Чўлпон, 1990.

2.Madvaliyev A. O'zbek tilining izohli lug'ati. –Toshkent."O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2013.

3.Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. –Toshkent. 2009.

4. Маслова, В. А. Принцип противопоставления и его реализация в семантике языка: (на материале лекс. единиц): дис. ... канд. филол. наук / В. А. Маслова. – Ош, 1981. – 215 с.

5.Маслова, В. А. Русский характер сквозь призму языка и текста: лингвокультурологический анализ: [монография] / В. А. Маслова. – Saarbrucken: LAP LAMBERT Academic Publishing, 2011. – 123 с.

6.Маслова, В. А. Когнитивный и коммуникативный аспекты художественного текста: монография / В. А. Маслова. – Витебск: ВГУ имени П. М. Машерова, 2014. – 104 с.

7. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа "Языки русской культуры", 1996. – 288 с.; Воробьёв В.В. Лингвокультурология: Теория и методы. – М.: РУДН, 2008. – С. 36.

8. Воробьёв В.В. Лингвокультурология: Теория и методы. – М.: РУДН, 2008. – С. 36.

UO'K: 81'373.2:81'37

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA ANTROPONIMLARNING SEMANTIK VA LINGVOMADANIY JIHATLARI

S.H.Axmedova, dots., PhD, Buxoro davlat universiteti, Buxoro
M.B.Ibodova, magistrant, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. *Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillaridagi antroponimlarning semantik hamda lingvomadaniy xususiyatlarini qiyosiy jihatdan tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda shaxs ismlarining ma'no qatlamlari, ularning kelib chiqishi, milliy-madaniy qadriyatlar bilan bog'liqligi hamda jamiyatda shakllangan ijtimoiy-madaniy omillarning antroponimlarga ta'siri o'rganiladi. Ingliz va o'zbek antroponimik tizimlarida uchraydigan umumiy va farqli jihatlar aniqlanib, ismlarning tarixiy, diniy, ijtimoiy va madaniy ahamiyati tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *antroponim, semantika, lingvomadaniyat, qiyosiy tahlil, ingliz tili, o'zbek tili, onomastika.*

Аннотация. *Данная статья посвящена сравнительному анализу семантических и лингвокультурных особенностей антропонимов в английском и узбекском языках. В работе рассматриваются смысловые пласты личных имён, их происхождение, культурные коннотации, а также влияние социальных и культурных факторов на формирование антропонимических систем. Выявляются общие и отличительные черты английских и узбекских антропонимов, анализируется их историческая, религиозная, социальная и культурная значимость.*

Ключевые слова: *антропоним, семантика, лингвокультура, сравнительный анализ, английский язык, узбекский язык, ономастика.*

Abstract. *This article is devoted to a comparative analysis of the semantic and linguocultural aspects of anthroponyms in the English and Uzbek languages. The study examines the semantic layers of personal names, their origins, cultural connotations, and the influence of social and cultural*

factors on the formation of anthroponymic systems. Common and distinctive features of English and Uzbek anthroponyms are identified, with particular attention paid to their historical, religious, social, and cultural role.

Key words: *anthroponym, semantics, linguoculture, comparative analysis, English language, Uzbek language, onomastics*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda antroponimlar shaxsni nomlash vositasi sifatidagina emas, balki muayyan xalqning tarixiy xotirasi, madaniy qadriyatlari va dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy birlik sifatida qaralmoqda. Shaxs ismlari jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, diniy e'tiqodlari, milliy an'analari hamda madaniy me'yorlari bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi va rivojlanadi. Shu sababli antroponimlarni semantik va lingvomadaniy jihatdan o'rganish til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ingliz va o'zbek tillaridagi antroponimik tizimlar turli tarixiy va madaniy sharoitlarda shakllangan bo'lsa-da, ularning har ikkisi ham milliy mentalitet va madaniy qadriyatlarning aks etishida muhim rol o'ynaydi. Ingliz antroponimlari asosan qadimgi german, lotin, yunon va bibliyaviy manbalarga tayanib rivojlangan bo'lsa, o'zbek antroponimlari turkiy, islomiy, fors-tojik va mahalliy madaniy qatlamlar asosida shakllangan. Bu esa har ikki tildagi shaxs ismlarining semantik tarkibi va lingvomadaniy mazmunida sezilarli farqlarni yuzaga keltiradi.

Mazkur maqolaning maqsadi ingliz va o'zbek tillaridagi antroponimlarning semantik va lingvomadaniy xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish, ularning umumiy va farqli jihatlarini aniqlash hamda shaxs ismlarining milliy-madaniy axborot tashuvchisi sifatidagi rolini ochib berishdan iborat. Tadqiqot natijalari qiyosiy tilshunoslik, onomastika va lingvokulturologiya sohalarini boyitishga xizmat qiladi.

Ko'plab tadqiqotchilar antroponimlarni madaniy jihatdan belgilangan belgilar sifatida talqin qiladi. Van Langendonck (2007) shaxs ismlari pragmatik, ijtimoiy va madaniy axborotni o'zida mujassam etishini ta'kidlab, ularni shaxs identifikatsiyasining muhim ko'rsatkichi sifatida baholaydi. Bu yondashuvga ko'ra, antroponimlar tarixiy shakllangan nomlash an'analari va jamoaviy qadriyatlarni aks ettiruvchi lingvistik birliklardir.

Lingvokulturologik nuqtai nazardan antroponimlar madaniy xotira tashuvchisi sifatida qaraladi. Wierzbicka (1997) shaxs ismlari muayyan madaniyatga xos tushunchalar va qadriyatlar bilan bevosita bog'liq ekanini ko'rsatadi. Shu bois antroponimlarni qiyosiy-lingvomadaniy jihatdan o'rganish tillar va madaniyatlar o'rtasidagi farqlarni aniqlashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Ingliz tilidagi antroponimlarning semantik tuzilishi ko'p qatlamli tarixiy jarayonlar natijasida shakllangan. Ularning asosiy qismi qadimgi german, xristian va klassik manbalarga borib taqaladi. Algeo (2010) ingliz shaxs ismlarining dastlab aniq leksik ma'noga ega bo'lganini, biroq vaqt o'tishi bilan bu ma'nolar ko'pchilik nutq egalarining ongida xiralashganini ta'kidlaydi. Masalan, William yoki Edward kabi ismlar tarixan ijtimoiy jihatdan ijobiy fazilatlarni ifodalagan.

Xristianlik ta'siri ingliz antroponimik tizimining shakllanishida muhim rol o'ynagan. Bibliyaga oid John, Mary, Michael kabi ismlar semantik motivatsiyadan ko'ra madaniy va diniy ramziyligi bilan ajralib turadi. Crystal (2003) qayd etishicha, ingliz tilidagi ko'plab shaxs ismlari semantik jihatdan "xiralashgan" bo'lsa-da, ularning madaniy tanilish darajasi yuqori bo'lib qolmoqda.

Zamonaviy ingliz jamiyatida ism tanlash jarayonida shaxsiy did, moda va ommaviy madaniyat muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shunga qaramay, ingliz antroponimlari ijtimoiy kelib chiqish, madaniy mansublik va avlodlararo farqlarni ifodalovchi muhim belgi sifatida saqlanib qolmoqda. Hough (2016) ta'kidlaganidek, shaxs ismlarining semantik qiymati susayishi mumkin, biroq ularning ijtimoiy va madaniy funksiyasi yo'qolmaydi. O'zbek antroponimlari ingliz ismlaridan farqli o'laroq, yuqori darajadagi semantik oshkoraligi bilan ajralib turadi. Ko'plab o'zbek shaxs ismlari umumtil leksikasidan olingan bo'lib, aniq va tushunarli ma'noni ifodalaydi. Bunday ismlar odatda ota-onaning ezgu tilaklari, ijobiy fazilatlar yoki ma'naviy qadriyatlar bilan bog'liq holda tanlanadi.

Wierzbicka (1992) semantik motivatsiyaga asoslangan nomlash an'analari kuchli bo'lgan madaniyatlarda shaxs ismlarining ma'nosi saqlanib qolishini ta'kidlaydi. Ushbu holat o'zbek

antroponimik tizimiga to‘liq mos keladi. Baxtiyor, Umida, Jasur, Dilshod kabi ismlar ijobiy ma’no va madaniy ramziylikka ega bo‘lib, nutq egalarining ongida faol semantik birlik sifatida yashaydi.

O‘zbek antroponimikasida islomiy an’analar ham muhim o‘rin tutadi. Arab tilidan kirib kelgan diniy ismlar nafaqat shaxsni nomlash, balki diniy identifikatsiyani ifodalash vazifasini ham bajaradi. Bundan tashqari, ayrim ismlar himoya, shukronalik yoki ijtimoiy vaziyatni aks ettirish maqsadida qo‘yiladi. Bu esa o‘zbek antroponimlarining semantika, madaniyat va ijtimoiy ong bilan uzviy bog‘langanini ko‘rsatadi.

Ushbu tadqiqot ingliz va o‘zbek tillaridagi antroponimlarning nafaqat shaxsni nomlash vositasi, balki madaniy va lingvistik birlik ekanini ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydi-ki, ingliz antroponimlari tarixiy an’analar va individual tanlovlar sababli semantik jihatdan qisman “xiralashgan”, biroq ularning madaniy va ijtimoiy ahamiyati saqlanib qoladi. O‘zbek antroponimlari esa semantik oshkoralik va madaniy motivatsiyani saqlagan holda shaxs ismlari orqali diniy, ijtimoiy va madaniy qadriyatlarni ifodalaydi. Shaxs ismlarining semantik tuzilishi va lingvomadaniy funksiyalari ularning shakllangan madaniy muhitiga bevosita bog‘liq. Ingliz va o‘zbek antroponimlarining farqlari madaniyatlararo o‘ziga xoslikni, shaxsiy va jamoaviy identifikatsiyani yoritishda muhim ahamiyatga ega. Shu bois, antroponimlarni o‘rganishda ularni faqat nomlash vositasi sifatida emas, balki til, madaniyat va shaxsiyat o‘rtasidagi uzviy munosabatlar tizimida tahlil qilish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Crystal, D. (2003). The Cambridge Encyclopedia of the English Language. Cambridge University Press.
2. Hough, C. (2016). The Oxford Handbook of Names and Naming. Oxford University Press.
3. Lyons, J. (1977). Semantics. Cambridge University Press.
4. Van Langendonck, W. (2007). Theory and Typology of Proper Names. Mouton de Gruyter.
5. Puzey, G., & Kostanski, L. (2016). Names and Naming. Multilingual Matters.
6. Begmatov, E.A. O‘zbek tili antroponimikasi. Toshkent: Fan, 2013.
7. Yo‘ldoshev, B. O‘zbek onomastikasi masalalari. Samarqand, 2011.

UO’K: 811.512.133:81'42

ALISHER NAVOIYNING “HAYRAT UL-ABROR” ASARIDA VAQT MUNOSABATINI IFODALOVCHI YORDAMCHI SO‘ZLAR

Z.A. Axrorova, tayanch doktorant, Farg‘ona davlat universiteti, Farg‘ona
ORCID ID 0009-0009-0313-X7

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonida vaqt munosabatini ifodalovchi yordamchi so‘zlar hamda vaqtga oid leksik birliklarning semantik-funksional xususiyatlari tahlil qilinadi. Asarda hargiz, aslo, hech kabi yordamchi so‘zlarning inkor ma’nosini zamoniy uzluksizlik asosida kuchaytirishdagi o‘rni, shuningdek azal, ibtido, subh, tun, tong leksemalarining falsafiy-badiiy yuklamasi yoritiladi. Tadqiqot natijalari mazkur birliklarning asar g‘oyaviy-badiiy tizimida temporallikni shakllantiruvchi muhim vosita ekanini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *temporallik, yordamchi so‘zlar, inkor, vaqt munosabati, diskurs, Alisher Navoiy, “Hayrat ul-abror”.*

Аннотация. *В статье анализируются семантико-функциональные особенности служебных слов и лексических единиц, выражающих временные отношения в поэме Алишера Навои «Хайрат ул-аброр». Особое внимание уделяется словам hargiz, aslo, hech, усиливающим отрицание на основе временной непрерывности, а также лексемам azal, ibtido, subh, tun, tong, которые формируют философско-художественную концепцию времени. Результаты исследования подтверждают значимую роль указанных единиц в идейно-художественной системе произведения.*

Ключевые слова: *темпоральность, служебные слова, отрицание, временные отношения, дискурс, Алишер Навои.*

Abstract. *This article examines the semantic and functional features of auxiliary words and lexical units expressing temporal relations in Alisher Navoi’s poem Hayrat ul-abror. Particular attention is paid to auxiliary words such as hargiz, aslo, and hech, which intensify negation through temporal continuity, as well as to the lexemes azal, ibtido, subh, tun, and tong, which convey the*

philosophical and artistic interpretation of time. The study demonstrates that these linguistic units play a crucial role in shaping the ideological and artistic structure of the work.
Keywords: *temporality, auxiliary words, negation, temporal relations, discourse, Alisher Navoi.*

Kirish. O‘zbek tilida temporallik bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan.Ushu tadqiqot ishlari, ko‘pincha, fe’l tizimi va leksik vositalarga asoslanadi. M.Hakimova kabi tadqiqotchilarning ishlari shuni ko‘rsatadiki [4], o‘zbek tilida temporal maydon ko‘p bosqichli tuzilishga ega bo‘lib, uning yadrosini fe’l zamonlari tashkil etadi. Shuningdek, o‘zbek tilida temporallikni o‘rganishda lingvokulturologiya va etnolingvistika sohalari ham muhim ahamiyatga ega. Vaqt tushunchasi xalqning madaniyati, urf-odatlari va dunyoqarashi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu jihatlar tilshunoslik tadqiqotlarida alohida e’tibor qozongan.

Alisher Navoiy ijodida vaqt tushunchasi grammatik kategoriya doirasidan chiqib, falsafiy-axloqiy mazmun kasb etadi. Shoir asarlarida vaqt inson hayoti, ma’naviy kamolot, ezgulik va yovuzlik muammolari bilan uzviy bog‘langan holda talqin qilinadi. “Hayrat ul-abror” dostoni ham ana shunday yondashuvning yorqin namunasi bo‘lib, unda vaqt munosabatini ifodalovchi til birliklari muhim badiiy-estetik vazifa bajaradi.

Zamonaviy tilshunoslikda vaqt kategoriyasi nafaqat fe’l zamonlari, balki yordamchi so‘zlar, modal birliklar va leksik vositalar orqali ham ifodalanishi ta’kidlanadi. Shu nuqtayi nazardan, Navoiy matnida yordamchi so‘zlarning vaqt munosabatini shakllantirishdagi o‘rnini aniqlash ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili va medotologiya. O‘zbek tilshunosligida vaqt masalasiga oid tadqiqotlar salmoqli o‘rinni egallaydi.Jumladan, Ayub G‘ulomov o‘zbek tilshunosligida fe’l zamonlari tadqiqining asoschilaridan biri hisoblanadi. Tilshunos olim o‘zbek tilidagi fe’l zamonlarini (o‘tmish, hozirgi, kelasi) ilmiy jihatdan tavsiflagan. Zamon shakllarining grammatik va semantik xususiyatlarini yoritgan.Vaqtni morfologik kategoriya sifatida tahlil qilgan.

Solih Mutallibov esa zamon va aspekt munosabatini o‘rgangan olim bo‘lib, fe’l kategoriyalariga bag‘ishlangan maqolalari bilan ushbu sohaga hissa qo‘shgan. Zamon shakllarining nutqdagi qo‘llanilishini o‘rgangan. Fe’l zamonlaridagi ma’no nozikliklarini tahlil qilgan. Zamon va harakat davomiyligi (aspekt) o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatgan.

F. Abdullayev fe’l kategoriyalarini chuqur tadqiq qilgan. Zamon shakllarining uslubiy va semantik imkoniyatlarini ochib bergan. Vaqtni ifodalovchi grammatik vositalarni tizimlashtirgan.

A. Nurmonov Zamonaviy nazariy grammatika vakilibo‘lib, funksional grammatika bo‘yicha maqolalar bilan mazkur sohaga hissa qo‘shgan. Zamonni faqat fe’l bilan cheklanmay, leksik, sintaktik va kontekstual vositalar orqali o‘rganishni asoslagan. Temporallikni funksional-semantik maydon sifatida talqin qilgan.

Bundan tashqari, H.Yo‘ldosheva tadqiqotlarida vaqt komponentining xususiyatlari, uning leksik va logik urg‘ular hamda gapning kommunikativ turlarini hosil qilishdagi vazifalari tahlil etiladi.

Tadqiqotda tavsifiy, kontekstual-semantik va diskursiv tahlil usullaridan foydalanildi. Baytlar matn ichidagi funksiyasi asosida o‘rganilib, yordamchi so‘zlarning temporallikni ifodalashdagi semantik yuklamasi aniqlandi. Shuningdek, tarixiy-tilshunoslik yondashuvi orqali ayrim leksemalarning mumtoz davrdagi ma’nosi izohlandi.

Natija va muhokama. Yordamchi so‘zlar mustaqil leksik ma’noga ega bo‘lmay, nutqda grammatik va mantiqiy munosabatlarni ifodalaydi. “Hayrat ul-abror” dostonida *hargiz* yordamchi so‘zi kam qo‘llanilgan bo‘lsa-da, kuchli semantik ta’sirga ega. U *aslo, sira, hech* birliklari bilan sinonimik munosabatda bo‘lib, harakatning hech bir zamonda sodir bo‘lmasligini bildiradi:

Qolmadi yo‘lida chun aslo makon,
Qildi makon bodiyayi lomakon.
Chunki erur asli yomon nopisand,
Aylamas ul yaxshini aslo pisand. [1, 9]

Mazkur misralarda inkor faqat bir vaqt kesimi bilan cheklanmaydi, balki o‘tmish, hozirgi va kelajak zamonlarni qamrab olgan holda umumlashgan xarakter kasb etadi. Shu jihatdan *hargiz* va unga yaqin yordamchi so‘zlar “abadiy inkor”ni ifodalovchi temporallik vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Dostonda vaqt tushunchasi ko‘pincha *azal* va *ibtido* leksemalari orqali umumlashtiriladi:

Chun bu nasim esti azal tog‘idin,

Muncha gul ochildi jahon bog‘idin. [1, 15]

Bu baytda *azal* leksemasi mavjudotning boshlanish nuqtasini, ilohiy ibtidoni anglatadi. Shoir borliqdagi go‘zalliklarning manbayi sifatida ibtidoiy vaqtni ko‘rsatadi. Til masalasiga oid mashhur baytda esa *ibtido* yangi tarixiy bosqich ma’nosini ifodalaydi:

Forsiy o‘ldi chu alarga ado,

Turkiy ila qilsam ani ibtido. [1, 5]

Bu yerda *ibtido* turkiy tilda ijod qilishni yangi davr boshlanishi sifatida talqin etishga xizmat qiladi.

Dostonning XVIII bobida vaqt leksemalari ramziy ma’no kasb etadi. *Subh* yorug‘lik va najot timsoli sifatida *tun* obrazi bilan qarama-qarshi qo‘yiladi:

Hajr qaro shomida subhi najot,

Zulmati furqat aro obi hayot. [1, 17]

Mazkur misralarda *subh* inson ruhiy holatidagi o‘zgarish, umid va ma’naviy uyg‘onish belgisi sifatida namoyon bo‘ladi. *Tong* obrazi esa kamolotning yangi bosqichini anglatadi:

Tong qushi chun berdi payomi sabuh,

No‘sh etayin bir-ikki jomi sabuh. [1, 23]

Bu birliklar orqali shoir inson hayotini vaqt oqimida kechuvchi ma’naviy jarayon sifatida talqin qiladi.

Xulosa. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, “Hayrat ul-abror” dostonida vaqt munosabatini ifodalovchi yordamchi so‘zlar va vaqtga oid leksik birliklar asarning g‘oyaviy-badiiy tizimida muhim o‘rin egallaydi. *Hargiz, aslo, hech* kabi yordamchi so‘zlar inkorni zamoniy uzluksizlik asosida kuchaytirsa, *azal, ibtido, subh, tun, tong* leksemalari inson hayoti va ma’naviy kamolot jarayonini vaqt tushunchasi bilan uzviy bog‘liq holda yoritadi. Ushbu holat Navoiy tilining semantik chuqurligi va vaqt kategoriyasini badiiy diskursda mahorat bilan qo‘llaganini tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Алишер Навоий. Ҳайратул-аброр – Тошкент. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти 1989.
2. Hojiyev A. O‘zbek tilida yordamchi so‘zlar. – Toshkent.
3. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tili grammatikasi. – Toshkent.
4. Ҳакимова М. Ўзбек тилида вақт маъноли луғавий бирликлар ва уларнинг матн шакллантириш имкониятлари. Филол. фан.ном.дисс. автореф. -Фарғона, 2004.
5. G‘ulomov A. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Morfologiya”, “O‘zbek tilida fe’l”.
6. Mutallibov S.“Hozirgi o‘zbek adabiy tili”
7. Abdullayev F.“O‘zbek tilida fe’l kategoriyalari”.
8. Nurmonov A.“O‘zbek tilining nazariy grammatikasi”.

UO’K 821.111:821.512.191

XRESTOMATIK ASARLARNING INGLIZ VA O‘ZBEK ADABIYOTIDAGI O‘RNI

F.U.Axtamova, mustaqil tadqiqotchi, Samarqand davlat chet tillar instituti, Samarqand

Annotatsiya. *Xrestomatik asarlar adabiyotda muhim o‘rin tutadi, chunki ular turli mualliflar va asarlardan tanlangan parchalarni o‘z ichiga olib, o‘quvchilarga ma‘lum bir mavzu yoki soha bo‘yicha kengaytirilgan bilim berish maqsadida tayyorlanadi. O‘zbek va dunyo adabiyotida xrestomatik asarlar turli xil shaklda mavjud bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Quyidagi maqolada xrestomatik asarlar tarixi, tuzulishi haqida ayniqsa adabiy xrestomatik asarlar borasida fikr yuritiladi.*

Kalit so‘zlar*: xrestomatiya, memuar, kulliyot, biografiya, klassik adabiyot, tazkira, majmua.*

Аннотация. *Хрестоматы играют важную роль в литературе, поскольку содержат избранные отрывки из произведений различных авторов и призваны расширить знания*

читателей по той или иной теме или области. Хрестоматы существуют в различных формах в узбекской и мировой литературе, каждая из которых имеет свои уникальные особенности. В данной статье рассматривается история и структура крестцово-мемориальных произведений, особенно литературных крестцово-мемориальных произведений.

Ключевые слова: *хрестоматия, мемуары, сборник, биография, классическая литература, собрание.*

Abstract. *Chrestomathy works occupy an important place in literature, as they include selected excerpts from various authors and works, and are prepared to provide readers with expanded knowledge on a particular topic or field. Chrestomathy works exist in various forms in Uzbek and world literature, each of which has its own unique characteristics. The following article discusses the history and structure of chrestomathy works, especially literary chrestomathy works.*

Key words: *chrestomathy, memoir, collection, biography, classical literature, tazkira, complex.*

Xrestomatiya (yun. chrestos — foydali va manthano — o‘qiyman) — ta’limning biror sohasi bo‘yicha muayyan ichki tamoyillar asosida tartib bilan berilgan o‘quv kitobi. Xrestomatiya o‘zbek tilida “majmua” deb ham yuritiladi. Ular ilmiy, badiiy, memuar, publitsistik asar yoki ulardan olingan parcha yoxud turli hujjatlardan iborat bo‘lishi mumkin.

Bu atama ilk bor milodiy IV asrda yunon grammatigi Elladiy tomonidan yunon yozuvchilarining asarlaridan olingan parchalar to‘plamiga nisbatan qo‘llangan. Shundan buyon Yevropa ta‘lim tizimida bu didaktik atamadan foydalanib kelinadi. Qadimgi Turkiston maktabxona va madrasalaridagi ta‘lim jarayonida talabalarning mustaqil o‘qishi uchun foydalanilgan bayozu kulliyotlar ham o‘ziga xos Xrestomatiya hisoblangan. O‘zbekistonda bevosita pedagogik maqsadda tartib bilan berilgan Xrestomatiyalar ilk bor XX asr boshlarida Munavvar qori (“Sabzavor”), Abdulla Avloniy (“Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Maktab gulistoni”, “Adabiyot yoxud milliy she’rlar”), Hamza (“Yengil adabiyot”, “Qiroat kitobi”) va boshqa jadid ma‘rifatchilari tomonidan yangi usul maktablari o‘quvchilari uchun tayyorlangan. XX asrning 20-yillari o‘rtalarida chop etilgan Elbekning “Go‘zal yozg‘ichlar”, Cho‘lponning “Adabiyot parchalari” singari majmualari to‘la ma’nodagi o‘quv xrestomatiyalaridir. XX asrning 50-yillaridan buyon maktab o‘quvchilari va oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun muntazam ravishda nashr qilib kelinadi [3:450].

Dunyo adabiyotida ham xrestomatik asarlar keng tarqalgan va ular turli tillarda, madaniyatlarda va davrlarda yaratilgan. Dunyo adabiyotidagi xrestomatik asarlar ko‘pincha klassik asarlarning tanlangan parchalaridan iborat bo‘ladi. Masalan, Gomerning “Iliada”si, Shekspirning pyesalari yoki Dantening “Ilohiy komediya”si kabi asarlarning qismlari kiritilishi mumkin. Bundan tashqari, adabiy xrestomatik asarlar orqali ma‘lum bir davrda yashagan va ijod qilgan shoir yoki yozuvchilar haqida,ularning ijod uslubi qolaversa, hayoti haqida ham ma‘lumotlarga ega bo‘lish mumkin [5:138]. Masalan, Samyuel Jonsonning “Ingliz shoirlarining hayoti” asari bunga yaqqol namuna bo‘ladi. Bu turdagi asarlar nafaqat adabiyotda, qolaversa, boshqa sohalarda ham juda ko‘p uchraydi. Masalan, turli adabiy, ilmiy yoki madaniy materiallardan tanlangan parchalar to‘plami bo‘lib, ular o‘quvchilarni ma‘lum bir soha yoki mavzu bilan tanishtirish maqsadida tayyorlanadi. Bu asarlar ko‘pincha o‘quv dasturlarida, akademik kurslarda yoki o‘quv materiallari sifatida foydalaniladi. Xrestomatik asarlar o‘zining tuzilishi, mazmuni va maqsadlari bilan bir qator o‘ziga xosliklarga ega.

Har bir yaratilgan asar o‘zining tuzilishi va maqsadi bilan boshqalaridan ajralib turadi. Xrestomtatik asarlarda ham o‘ziga xos tuzilish mavjud:

- Tanlangan parchalar - asarlarning asosiy qismi turli mualliflardan olingan matnlardir. Bu parchalar ko‘pincha bir xil mavzu yoki g‘oya atrofida jamlangan bo‘ladi.

- Kirish- Odatda, xrestomatik asarning kirish qismida uning maqsadi, ahamiyati va tarkibi haqida qisqacha ma lumot beriladi. Masalan, Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asarining kirish qismida muallif asar haqida qisqacha fikr bildiradi va bu asarni yozishdan maqsadini kitobxonga tushuntiradi. Demak, kirish qismi orqali muallif o‘quvchini ruhan tayyorlaydi [4:259].

- Izohlar va sharhlar: Tanlangan matnlar ustida izohlar yoki sharhlar berilishi mumkin, bu esa o‘quvchilarga matnni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Izohlar asosan ishonchli manbalarga

tayangan holda tuziladi yoki asarning aynan shu qismi haqida muallif o‘z fikrini berishda ham keng qo‘llaniladi.

- Index yoki ro‘yxat: Ba‘zi xrestomatik asarlar oxirida mualliflar yoki mavzular bo‘yicha indeksni o‘z ichiga olishi mumkin.

Adabiyotda xrestomatik asarlar yozishning o’z tartib qoidalari va rioya qilish kerak bo‘lgan qoidalari mavjud. Quyida ularning ba‘zilari haqida fikr yuritamiz:

Birinchidan, bu asarni yozishdan maqsad va qanday mavzuni qamrab olishini oydinlashtirib olish zarur. Asar qaysi adabiy yo‘nalishga mos kelishi va qaysi davrni o’z ichiga olishi asardagi berilayotgan shoir yoki yozuvchilarni tanlashda muhim omil hisoblanadi. Masalan, muallif yigirmanchi asrga doir shoirlarning hayot va ijodi haqida yozmoqchi bo‘lsa, shu davrda ijod qilgan barcha shoirlarni qamrab olinishini ta‘minlasa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Asar mavzusi esa “Yigirmanchi asrda yashab ijod qilgan o‘zbek shoirlari haqida” kabi tanlansa ham bo‘ladi.

Ikkinchidan, manbalarni o‘rganib chiqish va yozilayotgan davr haqida eng ishonchli bo‘lganlarini saralab olish. Ammo ushbu turdagi asar yozishga qo‘l urgan mualliflar ko‘pincha o‘z zamonasining yoki zamondoshlari haqida ma‘lumotlar qoldirishga harakat qilgan. Chunki o‘zi tanigan, bilgan, ko‘rgan va hamsuhbat bo‘lgan insonlar haqida yozish osonroq va o‘quvchiga ham qiziq bo‘ladi. Ba‘zida esa bir davrda yashagan ammo hamsuhbat bo‘lmagan insonlar haqida esa, ularni ko‘rgan bilgan yoki yozib qoldirilgan asarlar orqali xrestomatik asarni shakllantirgan. Tarixda ma‘lum bir davr haqida yozayotgan muallifning aynan shu davrga oid bo‘lgan joyga borishini, o‘sha joy bilan yaqindan tanishib chiqishi va har bir kichik ma‘lumotlarni ham to‘plashi bu asarning mukammal yaratilishiga zamin yaratadi.

Uchinchi bosqich - tahlil va tanlov jarayoni bo‘lib, bunda yig’ilgan ma‘lumotlar saralab olinadi, ya‘ni muallif eng muhim va ishonchli deb hisoblagan qismlarni saralab oladi. Masalan, asar tarkibida Alisher Navoiy haqida ham ma‘lumotlar berilayotgan bo‘lsa, bir xil ma‘lumotlarning eng ishonarlisi va o‘z isbotini topganini asarga kiritish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

To‘rtinchidan, xrestomatik asarning tuzilishini rejalashtirish, ya‘ni asar qaysi bo‘limlardan iborat bo‘lishi, ushbu bo‘limlar qanday ma‘lumotlarni o‘z ichiga olishi haqida oldindan struktura shakllantirib olish juda muhumdir. Masalan, Samyuel Jonsonning “Ingliz shoirlarining hayoti” asari ellik ikki shoirning hayoti va ijodini o‘z ichiga qamrab olgan. Bunda muallif ularning yashagan yillariga ko‘ra ketma ketlikda qismlarga bo‘lib chiqqan. Albatta bu juda katta asar bo‘lganligi bois ikkita kitob bo‘lib shakllangan.

Beshinchi bosqich, asarni to‘plangan ma‘lumotlar asosida yozish. Har bir bo‘limda keltirilgan shoir, yozuvchilarni va ularning asarlarini tahlili, sharhi yoki izohlar bilan boyitish, asarni yanada qiziqarli qiladi.

Oltinchidan, qayta ko‘rib chiqish yoki ba‘zi qismlarni tahrirlash jarayoni. Tanlangan adabiy uslubni hisobga olgan holda asarni qayta ko‘rib chiqish va yo‘l qo‘yilgan xatolarni bartaraf qilish bosqichidir. Masalan, o‘quvchiga tushunarsiz bo‘lgan qismlarni anniq fikr bilan to‘g‘rilash, murakkab tushunish qiyin bo‘lgan gaplarni sodda ravon tilde bayon qilish. Bu orqali asar yanayam xalqchil va o‘qishli bo‘ladi.

Yettinchidan, ommalashtirish yoki o‘quvchi e‘tiboriga havola qilish bosqichi. Tayyorlangan xrestomatik asarni nashr qilish va uni qanday ommalashtirishni rejalashtirib olish zarur. Masalan, yozilgan asarni qismlarini jurnal yoki gazetalarda chop etish ham mumkin. Samyuel Jonson o‘zining asarini qismlarini gazeta va jurnallarda chop etib brogan, bu esa odamlarning kitobga bo‘lgan qiziqishini oshirishga xizmat qilgan.

Sakkizinchidan, fikr-mulohazalarni o‘rganish bu har bir muallif uchun juda muhum sanaladi. Asar bilan tanishib chiqqan kitobxonlarning fikr-mulohazalarinin o‘rganib chiqish muallif uchun kelgusida yangi asarga qo‘l urganda yondashuvni yaxshilashga xizmat qiladi. Masalan, agar kimdir asar haqida yangi tahlil yoki ma‘lumot taqdim etsa, bu asarni chuqurroq tadqiq qilish imkoniyatini yaratadi. Ammo bu turdagi asarlarni yozish juda katta mehnat, mashaqqat va vaqt talab qiladi. Chunki boshqa janrlardan farqli o‘laroq, bunday asarlar yillar, raqamlar, joynomlari qisqa qilib aytganda anniq ma‘lumotlarga tayangan holda shakllantiriladi. Faqatgina muallif tomonidan asarlarga beriladigan tanqidlar yoki xolis fikrlar muallifning o‘z fikr mulohazasidan kelib chiqqan holda

shakllantiriladi. Nima uchun vaqt atamasini yuqoridagi fikrimizga qo‘shganimizning asosiy sababi, bunday asarlar yozish uzoq davrni yoki muallifning butun hayotini ham o‘z ichiga qamrab olishi mumkin. Fikrimizning dalili sifatida, Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asari uning butun umri davomida yozilgan, o‘sha davrda yashagan shoirlarning hayoti va ijodi qolaversa ijtimoiy-siyosiy hayot haqida so‘z yurituvchi asarlardan biri hisoblanadi.

Adabiyotda xrestomatik asarlar nima uchun kerak?

Ushbu savolga javob berish uchun biz bevosita tarixga yuzlanamiz, chunki qadimdan asarlarni kitobxonlarga tanishtirish ularni muallifi haqida ma‘lumotlar berish uchun turli xil usullar joriy qilingan. Bir xalqning boshqa xalq shoirlarining asarlari bilan tanishishi uchun, bahramand bo‘lishi uchun ham davrga oid asarlar jamlanmasi yig‘ish kerak bo‘lgan. Demak bunga qo‘l urgan mualliflar, ba‘zan bir davrda yashagan ijod ahlini yoki bir xil uslubda qalam tebratganlarni saralab olishgan. Sharq mumtoz adabiyotida, aynan bir asar tarkibiga ko‘plab shoir-u yozuvchilarni jamlash tazkira janriga mansub hisoblangan. O‘zbek adabiyotida ilk bor ushbu turdagi asar yozishga qo‘l urgan ijodkor sifatida Alisher Navoiyni bilamiz. Ushbu turdagi asarlarni yozgan mualliflar nafaqat asarda ijodkorlarni jamlash balki ularning yaratgan asarlari haqida o‘zlarining izohlarini yoki tanqidlarini ham taqdim etganlar. Bunday asarlar juda keng tarqala boshlagan, tildan tilga tarjima qilingan va bu sharq adabiyotini g‘arbga yoki g‘arb adabiyoti namunalarini sharqqa kirib borishiga zamin yaratgan. Asarlarning bundan “almashinuvi” esa xalqlarning urf-odatlari, madaniyati, dunyoqarashi haqida o’zaro fikr almashinuviga zamin yaratgan.

Demak adabiyotda xrestomatik asarlar kitobxonga ma‘lum bir davr, janr yoki muallif haqida muhum ma‘lumotlarni taqdim etadigan va ushbu ma‘lumotlar asosida o‘sha davrga oid tasavvur va qarashlarni shakllantirishga, o‘rganishga yordam beruvchi manba hisoblanadi. Xrestomatik asarlarni yaratish va foydalanish jarayoni, shuningdek, ularning mazmuni va ahamiyati haqida chuqurroq tushuncha hosil qilish uchun yanada ko‘proq tadqiqotlar olib borish zarur. Qolaversa, adabiyot sohasida ilmiy izlanishlar olib borayotgan yosh olimlar uchun ham aynan xrestomatik asarlar katta yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Adabiyot xrestomatiyasi. Majmua. — G‘ofur G‘ulom, 2018. — 152 b.

2. Tojiboyeva O. T. Ilk xrestomatiyalarda Alisher Navoiy ijodidan parchalar.//O‘zbekistonda xorijiy tillar. — 2023. — № 6 (53). — B. 287 296.

3. Xrestomatiya // O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 9-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2005. – B. 661.

4. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Мажолис ун нафоис. 20 томлик. 13 том. — Тошкент: Фан, 1997. — 300 б.

5. Березин И.Н. Турецкая хрестоматия. Том I. Отделение джагатайское или восточное. — Казань: Типография университета, 1857. — 375 с.

6. Samuel Johnson. “The lives of the English Poets”. —London. 1826. — 457 p.

UDC 81’22:811.111:811.512

THE ROLE OF CULTURAL NORMS AND VALUES IN THE FORMATION AND INTERPRETATION OF REQUESTS AND OFFERS IN ENGLISH AND UZBEK DISCOURSE

S.X. Azimova, PhD, Fergana State University, Fergana
N.X. Ubaydullayeva, master student, Fergana State University, Fergana

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillarida iltimos va taklif nutqiy aktlarining shakllanishi hamda talqin etilishiga madaniy me’yorlar va qadriyatlarning ta’siri tahlil qilinadi. Iltimos va takliflar insonlararo muloqotning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ular ko‘pincha muayyan madaniy muhit bilan chambarchas bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Tadqiqot ushbu nutqiy birliklarning ifodalanishi va qabul qilinishidagi o‘xshashliklar hamda farqlarni aniqlashga qaratilgan bo‘lib, bunda xushmuomalalik strategiyalari, rasmiylik darajasi va bilvosita ifoda usullarini belgilovchi madaniy omillarga alohida e’tibor qaratiladi.*

Kalit so‘zlar: *madaniy me’yorlar, xushmuomalalik strategiyalari, iltimoslar, takliflar, ingliz tili, o‘zbek tili, individualizm, kollektivizm, lingvistik xulq-atvor.*

Аннотация. *В статье рассматривается воздействие культурных норм и ценностей на формирование и интерпретацию просьб и предложений в английском и узбекском языковых контекстах. Просьбы и предложения являются важными элементами межличностного общения и, как правило, тесно связаны с культурными рамками соответствующих языков. Исследование направлено на выявление сходств и различий в их выражении и восприятии с акцентом на культурные параметры, определяющие стратегии вежливости, степень формальности и уровень косвенности.*

Ключевые слова: *культурные нормы, стратегии вежливости, просьбы, предложения, английский язык, узбекский язык, индивидуализм, коллективизм, языковое поведение.*

Abstract. *This paper examines how cultural norms and values influence the formulation and interpretation of requests and offers in English and Uzbek contexts. Requests and offers constitute essential components of interpersonal communication and are typically closely associated with the cultural frameworks in which they operate. The study aims to identify similarities and differences in their production and perception, placing particular emphasis on cultural dimensions that shape politeness strategies, degrees of formality, and levels of indirectness.*

Keywords: *cultural norms, politeness strategies, requests, offers, English language, Uzbek language, individualism, collectivism, linguistic behavior.*

Introduction. Language functions not only as a communicative instrument but also as a reflection of cultural norms and values. Communicative behavior, particularly in the realization of requests and offers, reveals important information about social conventions, traditions, and interpersonal relations within a given culture. However, the ways in which these speech acts are performed vary considerably across languages and cultural communities, as they are shaped by the dominant values and norms of the societies in which they are used. In English-speaking cultures, communication is generally characterized by individualism and low-context interaction, where directness, explicitness, and efficiency are highly valued. Requests and offers are commonly expressed through polite formulas and modal verbs, demonstrating respect for the addressee's personal autonomy while maintaining clarity. By contrast, Uzbek culture, which is rooted in collectivism and high-context communication, places greater emphasis on indirectness, social hierarchy, and the use of honorifics or kinship terms as markers of politeness. Requests and offers are among the most frequently used speech acts in everyday interaction, yet they are also potentially face-threatening, as they may impose obligations or expectations on the addressee. As a result, speakers rely on culturally conditioned strategies to mitigate imposition and maintain social harmony. Despite the clear impact of these cultural differences on intercultural interaction, comparative studies focusing specifically on English and Uzbek remain scarce. The present study seeks to fill this gap by exploring how cultural norms shape the production and interpretation of requests and offers in both languages. Particular attention is given to the interaction between politeness strategies, indirectness, and levels of formality.

Literature review and methodology. Requests and offers have been widely investigated within the fields of pragmatics and sociolinguistics. Brown and Levinson's [1] theory of politeness has played a central role in explaining how speakers manage face-threatening acts (FTAs), such as requests, which require balancing the speaker's intentions with the listener's autonomy. In individualistic societies, including English-speaking cultures, direct forms are often softened through polite expressions in order to protect the listener's negative face, defined as the desire to remain free from imposition.

While a number of studies have addressed cultural variation in requests and offers across different languages, direct comparisons between English and Uzbek are still limited. Research on English communication [4] has highlighted the frequent use of modal verbs and hedging devices, whereas studies on Uzbek discourse [5] emphasize the role of kinship terms and culturally specific politeness markers. Nevertheless, few investigations have examined these two languages side by side, leaving insufficient understanding of how their linguistic practices reflect deeper cultural values.

Data collection involved several methods. Naturally occurring conversations among native speakers of English and Uzbek were recorded to capture authentic everyday usage of requests and offers. In addition, semi-structured interviews were conducted with 15 native speakers of each language to explore their perceptions of politeness and cultural expectations. Both formal and informal written materials, including emails and letters, were also analyzed to supplement the spoken data. Participants were selected to represent a range of ages, genders, and social backgrounds.

Although existing research provides valuable insights into request and offer strategies in various languages, direct comparative analyses between English and Uzbek remain limited. Most studies examine these languages independently, without systematically contrasting their pragmatic norms. Consequently, there is insufficient understanding of how linguistic differences between English and Uzbek reflect deeper cultural values such as individualism versus collectivism and equality versus hierarchy.

English Patterns. The analysis shows that requests and offers in English tend to be relatively direct, with a strong emphasis on clarity and respect for individual autonomy. Out of 100 examples collected from native English speakers, modal verbs such as could, would, and can appeared in 75% of requests (e.g., "Could you help me with this?"). The politeness marker please was used in 65% of requests and 40% of offers, frequently positioned at the end of the sentence (e.g., "Pass me the salt, please."). Hedging expressions, such as "I was wondering if you could…", were identified in 45% of formal contexts as a means of softening the request.

In formal contexts, English speakers frequently employ hedging strategies to reduce the force of a request. Expressions such as "I was wondering if you could" or "Would it be possible to" allow speakers to appear polite and considerate while maintaining explicitness. These patterns indicate that politeness in English is largely encoded through grammatical and lexical choices rather than through reliance on shared social context.

These findings reflect English speakers' preference for efficiency and egalitarian interaction. Directness aligns with the individualistic orientation of the culture, where personal autonomy and unambiguous communication are valued. Politeness markers and modal verbs help reduce the impositive force of requests without sacrificing explicitness.

Uzbek Patterns. In contrast, requests and offers in Uzbek discourse are characterized by a higher degree of indirectness and the frequent use of culturally embedded politeness devices. Among the 100 Uzbek examples analyzed, honorifics and kinship terms such as aka (brother) and opa (sister) occurred in 80% of cases, serving to express respect and social closeness. Indirect formulations, including statements of need rather than explicit requests (e.g., "I'm thirsty" instead of "Can you bring me water?"), were observed in 70% of requests.

Rather than issuing direct requests, Uzbek speakers often imply their needs or intentions, allowing the addressee to infer the intended meaning. Religious and culturally specific expressions are also commonly used, particularly in offers, to convey humility, goodwill, and respect. These features reinforce the collectivist orientation of Uzbek society, where interpersonal relationships are prioritized over communicative efficiency.

Discussion. The results are consistent with established descriptions of cultural communication styles. English-speaking societies, shaped by individualism, tend to favor clarity and equality in interaction [3]. Requests are often direct but mitigated by polite expressions to balance efficiency with respect. Uzbek communication, influenced by collectivism and high-context traditions, prioritizes social harmony and relational sensitivity [3]. The use of indirectness and honorifics reflects a strong orientation toward respect, especially in hierarchical relationships.

Conclusion. The study demonstrates notable differences in the formulation and interpretation of requests and offers in English and Uzbek contexts. English communication is marked by directness, transparency, and frequent use of politeness devices such as modal verbs and please, reflecting values of individualism and equality. In contrast, Uzbek speakers rely more heavily on indirect expressions, honorifics, and kinship terms, highlighting collectivist values, respect, and social hierarchy.

REFERENCES:

1. Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). Politeness: Some universals in language usage. Cambridge University Press.
2. Hofstede, G. (2001). Culture's consequences: Comparing values, behaviors, institutions, and organizations across nations (2nd ed.). Sage Publications.
3. Holmes, J. (1995). Women, men, and politeness. Longman.
4. Yusupova, D. (2019). Politeness strategies in Uzbek: An analysis of requests and offers. Uzbek Journal of Linguistics, 12(1), 23–38.

UO'K 811.511.36.

KOREYS TILIDA SINONIMIYA MASALASI VA UNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

P.A.Azizova, magistrant, O'zbekiston davlat jahon tillar universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Har qanday tilda sinonimlar, so'zlar bir xil yoki ma'nosiga ko'ra yaqin. Agar biz ona tilimizda ular o'rtasidagi farqni intuitiv his qilsak va qaysi vaziyatda qaysi so'zni qo'llash kerakligini bilsak, chet tillari bilan bog'liq muammolar ancha murakkab. Koreys tilida ham shunday so'zlar bor, juda ham ko'p. Bugungi kunda juda tez-tez uchraydigan bir nechta so'zlarni tanlaymiz va ulardan foydalanish koreys tilini o'rganishning dastlabki bosqichida ko'plab savollarni keltirib chiqaradi va shu muammoni quyidagi maqola orqali ko'rib chiqish imkoniga ega bo'lamiz.*

Kalit so'zlar: *synonimia, semantik bog'lanish, dominant so'z, polisemiya*

Аннотация. *В любом языке синонимы представляют собой лексические единицы, совпадающие или близкие по значению. В родном языке носители, как правило, интуитивно улавливают семантические и стилистические различия между такими словами и адекватно выбирают их в зависимости от коммуникативной ситуации. Однако при изучении иностранных языков данная задача значительно усложняется. Корейский язык не является исключением и характеризуется наличием большого количества синонимичных лексем, различия в употреблении которых нередко вызывают затруднения у начинающих изучающих. В рамках настоящего исследования будут отобраны и проанализированы некоторые наиболее часто употребляемые синонимичные слова, использование которых вызывает наибольшее количество вопросов на начальном этапе изучения корейского языка. Их детальный анализ предполагается представить в следующей статье.*

Ключевые слова: *синонимия, семантическая связь, доминантное слово, полисемия*

Abstract. *In any language, synonyms are lexical units that are identical or similar in meaning. In one's native language, speakers typically perceive the semantic and stylistic distinctions between such words intuitively and are able to select the appropriate item according to the communicative context. In contrast, when learning a foreign language, this task becomes considerably more complex. The Korean language is no exception and is characterized by a large number of synonymous lexical items whose differences in usage often pose difficulties for beginning learners. The present study selects and examines several commonly used synonyms that raise the greatest number of questions at the initial stage of learning Korean. A more detailed analysis of these items will be presented in a subsequent article.*

Key words: *synonymy, semantic relation, dominant word, polysemy.*

Til — inson tafakkuri va madaniyatining aks etish shakli bo‘lib, u murakkab va ko‘p qatlamli tizimdan iboratdir. Til birliklari, xususan, so‘zlar va ularning ma’nolari inson ongidan qat’i nazar, muayyan ichki qonuniyatlar asosida turli guruhlarga birlashadi. Bu jarayon tilshunoslikda leksik-semantik tizim tushunchasi bilan izohlanadi [5]. Mazkur tizim til birliklari o‘rtasidagi semantik munosabatlarni, xususan, ma’no yaqinligi va farqliligini aniqlashga xizmat qiladi.

So‘zlarni leksik-semantik guruhlarga ajratish jarayoni atrof-muhit obyektlari va hodisalarining inson ongidagi assotsiativ tasnifi bilan chambarchas bog‘liqdir [2]. Ushbu assotsiatsiyalar natijasida so‘zlar taqqoslanadi, aniqlanadi va farqlanadi hamda so‘zlar o‘rtasida muayyan semantik munosabatlar shakllanadi.

Tilshunoslikda so‘zlar o‘rtasidagi semantik munosabatlar bir necha asosiy turlarga ajratiladi. Ushbu munosabatlar umumiy ma’no elementlarining mavjudligi yoki yo‘qligi, ma’nolarning yaqinligi va qarama-qarshiligi asosida belgilanadi [6]. Shu mezonlarga ko‘ra, til lug‘ati quyidagi uch asosiy guruhga bo‘linadi:

- omonimlar;
- sinonimlar;
- antonimlar.

Mazkur maqolada e’tibor asosan sinonimiya hodisasiga, xususan, koreys tilidagi sinonimlarning semantik va uslubiy xususiyatlariga qaratiladi.

Sinonimlar (yunoncha synonymia — “bir xil nom”) nutqning bir xil qismiga mansub bo‘lib, ma’nosi bir-biriga yaqin yoki bir xil bo‘lgan, biroq tovush tarkibi jihatidan farqlanuvchi so‘zlardir [1]. Sinonimiya til hodisasi sifatida tilshunoslikda turlicha talqin qilinadi.

Ayrim tilshunoslar tilda mutlaq sinonimiya mavjudligini inkor etib, har bir so‘zning o‘ziga xos semantik yoki uslubiy yuklamaga ega ekanligini ta’kidlaydilar [3]. Boshqa tadqiqotchilar esa faqat ma’nosi mutlaqo bir xil bo‘lgan birliklargina sinonim sifatida e’tirof etilishini ilgari suradilar. Yana bir guruh olimlar sinonimlarni umumiy ma’noga ega bo‘lib, ayrim semantik komponentlari bilan farqlanuvchi birliklar sifatida baholaydilar.

Sinonimlarning eng keng tarqalgan tasnifi ularni to‘liq (mutlaq) va qisman (nisbiy) sinonimlarga ajratishdan iborat bo‘lib, bu tasnif so‘z ma’nolarining yaqinlik darajasi va ularning o‘zaro almashinish imkoniyatiga asoslanadi.

To‘liq sinonimlar ma’nolarining maksimal darajada mos kelishi va barcha kontekstlarda bir-birini almashtira olish xususiyati bilan tavsiflanadi. Biroq til amaliyotida mutlaq sinonimlar juda kam uchraydi. Odatda bunday birliklar tilda uzoq vaqt birga yashamaydi: ulardan biri faol lug‘atdan chiqib ketadi yoki uslubiy jihatdan cheklanadi.

Qisman sinonimlar ma’no nozikliklari, uslubiy bo‘yoqlari va qo‘llanish doirasi bilan farqlanadi. Bunday birliklar sinonimik qator hosil qiladi. Har bir sinonimik qatorda semantik jihatdan eng umumiy, uslubiy jihatdan neytral va birikuvchanligi yuqori bo‘lgan dominant so‘z ajratiladi.

Koreys tilidagi sinonimlarning leksik-semantik xususiyatlari

Koreys tilida sinonimiya hodisasi keng tarqalgan bo‘lib, ko‘plab sinonimik birliklar o‘rtasida juda nozik semantik va pragmatik farqlar mavjud. Masalan:

- 재능 – 재주 (iste’dod)
- 사과 – 사죄 (uzr so‘rash)
- 발전 – 발달 (rivojlanish)
- 걸상 – 의자 (stul)

Shuningdek, daraja bildiruvchi ravishlar orasidagi sinonimiya koreys tilini o‘rganuvchilar uchun alohida qiyinchilik tug‘diradi. Masalan, 아주 neytral bo‘lsa, 너무, 엄청, 매우 kuchaytirilgan darajani bildiradi, 되게 esa faqat so‘zlashuv nutqiga xos birlik hisoblanadi [9].

Xulosa. Har bir so‘zning sinonimlari muayyan nutqiy vaziyat va kontekstga bog‘liq holda qo‘llanilishi til tizimining muhim qonuniyatlaridan biri hisoblanadi. Sinonimik birliklar o‘rtasidagi semantik, uslubiy va pragmatik farqlar tilda ma’no aniqligini ta’minlash, nutqning ifodaviy imkoniyatlarini kengaytirish hamda kommunikativ maqsadga erishishda muhim rol o‘ynaydi. Shu nuqtai nazardan, sinonimiya hodisasi tilning nafaqat leksik boyligini, balki uning funksional imkoniyatlarini ham namoyon etuvchi muhim lingvistik kategoriya sifatida baholanadi.

Koreys tilini o‘rganish jarayonida sinonimlar orasidagi nozik semantik va uslubiy farqlarni aniqlash o‘rganuvchilar uchun sezilarli qiyinchilik tug‘diradi. Bu holat, avvalo, koreys tilining ijtimoiy-madaniy xususiyatlari, hurmat kategoriyasi va nutq darajalari tizimi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ko‘plab sinonimik birliklar tashqi tomondan bir xil ma’noni ifodalagandek tuyulsa-da, ularning qo‘llanishi nutq subyektlari o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar, rasmiylik darajasi, kommunikativ vaziyat va uslubiy kontekstga qarab keskin farqlanadi. Shu sababli, sinonimlarning noto‘g‘ri qo‘llanilishi nutqning sun’iy, noo‘rin yoki hatto muloqot ishtirokchilari uchun noqulay holatlarni yuzaga keltirishi mumkin.

Ona tilida so‘zlashuvchilar sinonimik birliklar o‘rtasidagi farqlarni, odatda, intuitiv tarzda his qiladilar. Biroq ushbu intuitiv bilim ko‘pincha nazariy tushuntirish va ilmiy izoh berish jarayonida yetarli bo‘lmaydi. Ayniqsa, koreys tilini chet tili sifatida o‘rganuvchilarga sinonimlarning semantik chegaralarini aniq va tizimli ravishda tushuntirish o‘qituvchilardan yuqori darajadagi lingvistik kompetensiya va metodik yondashuvni talab etadi. Amaldagi ko‘plab lug‘at va o‘quv qo‘llanmalarda sinonimlar umumiy ma’noda berilib, ularning kontekstual va uslubiy farqlari yetarli darajada yoritilmaydi, bu esa o‘rganuvchilarning amaliy nutqida xatolarga olib keladi.

Shu sababli, koreys tilini o‘rganuvchilarning asosiy maqsadi — ona tilida so‘zlashuvchilar darajasida to‘g‘ri, ravon va tabiiy nutq hosil qilishdan iborat bo‘lsa, sinonimlar orasidagi ma’no farqlarini aniqlash va ularni ilmiy asosda tavsiflash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon faqat leksik ma’nolarni qiyoslash bilangina cheklanmay, balki pragmatik, ijtimoiy va madaniy omillarni ham hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Ayniqsa, sinonimik qatorlardagi dominant so‘zlarni aniqlash, ularning qo‘llanish chastotasi va nutqiy funksiyalarini tahlil qilish koreys tilini o‘rganish metodikasini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, koreys tilidagi sinonimiya masalasini chuqur va tizimli o‘rganish nafaqat koreys tilini o‘rganuvchilar uchun, balki ushbu tilni o‘qituvchi mutaxassislar, tarjimonlar va tilshunos tadqiqotchilar uchun ham dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Sinonimlarning semantik va uslubiy xususiyatlarini to‘liq ochib berish koreys tilini o‘qitish samaradorligini oshirishga, o‘rganuvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga hamda koreys tilining leksik tizimini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Ахманова О. С. Словарь лингвистических терминов. — М.: УРСС, 2004.
2. Aitchison J. Words in the Mind. Oxford: Blackwell, 2012.
3. Bloomfield L. Language. New York: Holt, Rinehart and Winston, 1933
4. Apresyan Yu. D. Lexical Semantics. — Moscow: Nauka, 1974.
5. Lyons J. Linguistic Semantics. — Cambridge: Cambridge University Press, 1995.
6. Cruse D. A. Lexical Semantics. — Cambridge: Cambridge University Press, 1986.
7. Ullmann S. Semantics. — Oxford: Blackwell, 1962.
8. Lee I., Ramsey S. R. The Korean Language. — Albany: SUNY Press, 2000.
9. Sohn H.-M. Korean Language in Culture and Society. — Honolulu: University of Hawaii Press, 2006.
10. Carter R. Vocabulary: Applied Linguistic Perspectives. — London: Routledge, 2012.

UO’K 659.1:81'271.16.

INGLIZ VA RUS TILLARIDAGI INSONLARNI QATTIQ IZTIROBGA SOLUVCHI SHOK REKLAMALAR
(Ijtimoiy reklamalar misolida)

J.A.Baxadirov, PhD, dots., Toshkent amaliy fanlar universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Maqolada ingliz va rus tillarida yaratilgan insonlarni qattiq iztirobga soluvchi ijtimoiy reklamalar xaqida so‘z boradi. Jumladan har ikki tilda ushbu turdagi reklamalar o‘z oldiga jamiyatdagi muammolarga yondashishda insondagi «muhabbat», «azoblanish», «mehribonlik» kabi insoniy his-tuyg‘u va kechinmalarni tasvirlashdan foydalanib kelayotganligi misollar yordamida yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *reklama, ijtimoiy, muammo, inson, shok, til, faoliyat, xizmat, zararli oqibat, matn*

Аннотация. *В статье рассматриваются рекламные объявления в социальных сетях, созданные на английском и русском языках, которые причиняют людям серьезные неудобства. В частности, на примерах объясняется, что в рекламе этого типа на обоих языках для описания человеческих чувств и переживаний, таких как «любовь», «страдание», «доброта» при решении проблем общества, используются такие выражения.*

Ключевые слова: *реклама, социальная проблема, человеческий фактор, шок, язык, деятельность, услуга, вредное воздействие, текст*

Abstract.*The article discusses social media advertisements created in English and Russian that are causing severe distress to people. In particular, it is explained with the help of examples that*

advertisements of this type in both languages use to describe human feelings and experiences such as "love", "suffering", "kindness" in approaching the problems in society.

Key words: *advertising, social, problem, human, shock, language, human, activity, service, harmful effect, text*

Kirish. Jamiyatda istiqomat qiluvchi insonlarni hulq-atvorlari va hatti-harakatlarini namoyon etish usuli hisoblangan ijtimoiy reklama ayni shu jamiyatning va unda yashab kelayotgan shaxsning kamol topishini ta'minlovchi ijtimoiy qadr-qimmat tushunchalari haqida keng xalq ommasini habardor qilishga qaratilgan. Bugungi kunda "dunyoning ko'p mamlakatlarida ijtimoiy reklama davlat va fuqarolar o'rtasidagi keng qo'llaniladigan muloqot vositasi hisoblanadi"[1].

Hozirgi paytda aholini ijtimoiy reklamaga nisbatan ehtiyoji ortib bormoqda shuning uchun reklama matnida aks ettiriladigan matnlar, tasvirlar va boshqa tasviriy va ifodaviy vositalar aholini qiziqtirayotgan ijtimoiy muammolarni ochib berilishiga xizmat qiladi. Ijtimoiy reklamalarni ko'chalarda, xiyobonlarda, metrolarda, odamlar ko'p to'planadigan jamoat joylarida uchratishmiz mumkin. Shubhasiz, bu faoliyat kelajakda yanada ommalashib boradi.

XXI asrga kelib ijtimoiy reklamaning yana bir alohida turi «shok» reklama boshqa turdagi ijtimoiy reklamalardan o'ziga xos xususiyatlari bilan alohida ajralib chiqdi. Lug'atlarda "shok" so'zi quyidagicha talqin etiladi: "Shok (fransuz tilidagi "shoc" so'zidan olingan) operatsiya, kuyish yoki qattiq travma kabi organizmda ta'sirchanligini yuzaga keltiruvchi va inson hayotiga havf tug'diruvchi holatni ifodalaydi". T.F. Yefremova tomonidan tuzilgan rus tilining zamonaviy izohli lug'atida "shok" so'zi "ruhiy zarba, iztirob, hayajon yoki kuchli jismonan shikastlanish va lat olish oqibatida organizmni o'z me'yoriy vazifasini umumiy buzilishi holati" [2] deb izohlanadi. Falsafiy lug'atlarda "shok" so'zining majoziy ma'nosi "insondagi ruhiy tushkunlik holati deb keltirilgan. Bu kuchli hissiy zo'riqqanlik va jismoniy iztirob holati bilan ham bog'liq. Buning natijasida inson hayotida va ongida yangicha kechinmalar paydo bo'lib, unga bu kechinmani yengib o'tish qiyinchilik tug'diradi". Yuqorida keltirib o'tilgan fikrlardan xulosa yasaydigan bo'lsak, aytishimiz mumkinki, «shok» reklama bu reklamaning shunday turi bo'lib, u insonda ruhiy iztirob, tushkunlik, taajublanish va hissiy zo'riqish kabi holatlarni yuzaga keltiradi. Mazkur reklama boshqa turdagi reklamalarga xos bo'lgan tartib-qoidalarni inkor qiladi va uning ajralib turadigan yana bir xususiyati unda insonni ruhiy tushkunlik kayfiyatiga soluvchi (qon, insonni timtalangan tana qismi, behayolik sahnalari aks etgan suratlar, zo'rovonlikka oid materiallar va boshqalar) va nizo va kelishmovchiliklar aks etgan tasvirlar beriladi.

Tahlil. "Shok" reklamalarda, odatda, inson ongiga ta'sir qiluvchi ancha ta'sirchan va qaltis holatlar ask ettiriladi. Shunday bo'lsada, mazkur reklama turi savdo faoliyatini jadallashtirishga yordam beradi. Televideniye orqali ko'rsatiladigan bunday ijtimoiy reklamalar insonni hayotda sodir bo'lib turadigan juda intim munosabatlardan tortib, qotillik va shavqatsizlik kabi hayotning salbiy tomonlarini tasvirlashga xizmat qiladi. "Shok reklamaning" inson ongiga o'tkazadigan ta'siri juda chuqur bo'lib, insondagi qo'rquv, yashirin va mamnuniyat hissiyotlarini va inson qalbidan chuqur joy olgan, ammo boshqalar bilan baham ko'ra olmaydigan his-tuyg'ularni namoyon etadi.

Ushbu reklama turiga nisbatan paydo bo'ladigan reaksiya kuchli hissiy iztirob paydo qilib, inson ruhiyatini tasodifiy hamda hayotga havf soluvchi va tez fursatda iskanjasiga oluvchi, shu bilan birga, juda kuchli qo'rquvga soluvchi kechinmalar bilan bog'liqdir. Ruhiy iztirob va zo'riqish holati hamma insonga har xil ta'sir ko'rsatadi: kimlardadir bu holat achinish va aybdorlik hissini, boshqalarda esa insonni butunlay aqldan ozdirish darajasida namoyon bo'ladi. Ruhiy iztirob iskanjasida qolgan insonni tobe qilish, boshqarish va har maqomga solish oson kechadi, chunki kuchli qo'rquv insondagi ruhiy himoya qobig'ini sindiradi va uning ongini qurshab oladi.

"Shok" reklamalarda ma'lum sabablarga ko'ra keng xalq ommasi uchun qabul qilib bo'lmas vositalardan foydalanilganligi bois ular ko'pchilikni e'tiborini tortmasdan qo'ymaydi. Bunday reklamalardan foydalanish orqali ikki xil samaraga erishish mumkin: keng xalq ommasini e'tiborini tortish va OAVlari orqali reklama kampaniyalari o'rtasidagi sovuqchiliklarni yengillashtishdan iborat.

Quyida ingliz va rus «shok» reklamalarida qo'llanilgan usullarni tahlil qilib o'tamiz. G'arbiy

mamlakatlarda ushbu turdagi reklamalardan inson ongiga kuchli ta'sir o'tkazishning keng tarqalgan ko'rinishi sifatida foydalanib kelinmoqda. Ingliz tilida yaratilgan ijtimoiy reklamalarni maqsad va mazmuniga ko'ra quyidagicha turlarga ajratish mumkin:

1) ahloqsizlikni targ'iq etuvchi reklamalar. Bunga misol qilib, vegeterianlikni targ'ib etuvchi ijtimoiy reklamalarni olishimiz mumkin (hozirda bunday reklamalarni tarqatish ta'qiqlab qo'yilgan). Hayvonlarga zo'rovonlik qilishga qarshi kurashuvchi guruhlar tomonidan tayyorlangan reklama peshtaxtasida mashhur latofatli aktrisa Pamela Anderson ichki kiyimda turgan surati tushirilgan bo'lib, uning tanasi bir necha qismlarga bo'lingan holda tasvirlangan. Ushbu reklamada ingliz tilida shunday jumlalar bitilgan: "The body of animals is made up of the same parts" (Hayvonlar tanasi ham ayni shunday qismlardan iborat). Mazkur reklamada ilgari surilgan g'oya asosida yotgan "hayvonlar ham odamlardek azoblanadi" fikr orqali insonlarga hayvonlarni himoya qilishga, ularga nisbatan zo'rovonlik qilmaslikka chaqiriq yotganini ko'rishimiz mumkin.

Muhokama. Xozirgi vaqtgacha g'arb mamlakatlarida tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishga qarshi kurashishga qaratilgan bir qator ijtimoiy reklamalar yaratildi. Bunga yaqqol misol qilib quyidagi reklama matnini keltirish mumkin "*Chekish insonni qaramlikka yetaklaydi*" shunisi e'tiborga molikki, uchta reklama peshtaxtasidan ikkitasida yosh yigit, bittasida esa qiz bola tasviri tushurilgan. Bundan xulosa chiqarish mumkinki, chekish ayollarga nisbatan erkaklar orasida kengroq tarqalganligini ko'rsatadi"[3].

2) ijtimoiy muammolarning yoritilishi. Keyingi ingliz tilida yaratilgan reklama «Shokolad dunyosi» qandolatchilik mahsuloti bilan bog'liq edi. Reklama beruvchilarning oldida viski spirtli ichimligi bo'lgan shokolat konfetlari reklamasi turardi. Reklamada konfet iste'mol qilib, shirakayf bo'lib qolgan yosh bolalarning tasviri tushirilgan edi. Bunday ruhdagi reklamalar orqali yoshlarga spirtli ichimliklarni majburlab iste'mol qildirmaslik xolatlari maqsad qilib qo'yilgan.

G'arb mamlakatlarida bundan tashqari, donorlik faoliyatini targ'ib etuvchi shok reklamalarni ham uchratishimiz mumkin. Ana shunday ijtimoiy reklamalarning birida uchishga shaylanib turgan betmenning (kinofilm qahramoni) holatida (avtomobil xalokati tufayli) o'lib yotgan kishini tasvirini aks ettirgan. Bu reklamaning matnida: "Sen o'lganingdan so'ng qahramonga aylanasan. Bu tanangdan voz kech" degan jumlalarni o'qib olish mumkin. Bu esa insonlarning o'limi ustidan istehzoli kulishni ko'rsatuvchi yana bir reklamaga misol bo'ladi.



Quyida esa rus tilida yaratilgan ijtimoiy reklamalarga e'tibor qaratamiz. "Rossiyada ijtimoiy reklamachilik sohasi AQSH va boshqa g'arbiy Yevropa mamlakatlaridagidek taraqqiy topmagan. Bunga asosiy sabablardan biri bu sohada faoliyat ko'rsatayotgan kadrlarning malakasini yetarli darajada emasligi bilan bog'liq"[4].

Rus tilida ishlangan shok reklamalarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin: *1)iste'molchini qaysidir ma'noda qo'rqitishga asoslangan reklamalar.* Bunga quyidagi reklamani misol qilib keltirishimiz mumkin, aholini yo'l harakati havfsizligi qoidalariga rioya qilishlari va spirtli ichimliklar ichib avtotransport vositalarini boshqarmaslikka targ'ib etuvchi tashqi reklamada reklama peshtaxtasida fanerdan ishlangan konstruksiyani teshib o'tgan inson tanasi shaklidagi surat aks ettirilgan. Reklamadagi insonning qo'llari avtomobilning rulini mahkam tutib turgani va uning tanasi qonga bo'yalgani aks ettirilgan. Bu tasvir reklama peshtaxtasining har ikki tomonidan "osilib turibdi" va uning quyida berilgan jumladan mana bularni o'qib olish mumkin: "Buning o'rnida siz ham bo'lishingiz mumkin edi".

2) Ahloqsizlik kabi odatlarni targ'ib qiluvchi reklamalar. Ko'p hollarda rus tilida yaratilgan ijtimoiy reklamalarda tasviriy va og'zaki oksyumoron (*qarama-qarshi ma'noli so'zlarni qo'llash bilan yuzaga keltiriladigan uslubiy ifoda vositasi*) stilistik usulidan foydalanishni kuzatish mumkin. Bunda misol tariqasida tibbiyot xodimi surati tushirilgan va "Narkomanlarmi? Kelaveringlar. Men sizlarni kutyapman" degan jumlalar aks etgan ijtimoiy reklamani keltirish mumkin.

3)ijtimoiy muammolarni yoritadigan reklamalar. Bunga misol qilib, o‘zida “Sizga baribirmi?!” jumlalari tushirilgan ijtimoiy reklamani olish mumkin. Mazkur reklamada yosh chaqaloqni uxlab yotgani va uning badaniga sigaretani bosib o‘chirilayotgan holati aks ettirilgan. Ijtimoiy reklamaning matnidan: «Yosh bolalarni oldida chekish unga azob berish bilan barobar» degan jumlalarni o‘qish mumkin. Yana bir reklamada sigaret chekayotgan odamning og‘zida miltiqning o‘qi otilib chiqayotgan holat tasvirlangan bo‘lib, unda: “chekish orqali nafaqat o‘zingni, balki boshqalarni ham xarob etasan” degan matn joylashtirilgan. Ushbu turdagi ijtimoiy reklamalar yordamida bo‘lajak onalarni chekish holatlariga chek qo‘yish muammosi ko‘tarilgan. Bir reklamada ichayotgan homilador onaning qornidasi bola ham qo‘llarida aroq idishini ushlab turgani tasvirlangan. Reklama matnida: “Tug‘ilajak bolangni kelajagini o‘yla!” degan jumla aks etgan.



Xulosa. Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, ingliz va rus tillarida yaratilagan “shok” reklamalar muhim xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Har ikkala mamlakatda ham insonlarning diqqat-e’tiborlarini jamiyatda mavjud bo‘lgan ijtimoiy muammolarga nisbatan befarq bo‘lmaslik targ‘ib etilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Березкина, О.П. Социальная реклама и ее место в обществе / Социально-психологическое воздействие СМИ:учеб. Пособие для студентов.высш. учеб. заведений / О.П. Березкина. – М.: Издательский центр «Академия», 2009. – 141 с.

2. Ефремова Т.Ф. Новый словарь русского языка. 2000. – Т. 2. – С. 34.

3. Зотова Анна Сергеевна диссертация – Российская и французская социальная реклама 2014. Стр-84.

UO’K 81'1:81'21

DESKRIPTIVIZM VA PRESKRIPTIVIZM TILSHUNOSLIKDAGI IKKI ASOSIY YONDASHUV SIFATIDA

O‘.X.Begimov, katta o‘qituvchi, Ma’mun universiteti, Xiva

Annotatsiya. *Ushbu maqola deskriptivizm va preskriptivizm — tilshunoslikdagi ikki asosiy yondashuvni tahlil qiladi. Maqola, shuningdek, o‘zbek tilidagi so‘kinish va haqorat so‘zlari masalasini tahlil qilib, bunday lug‘atlarni tuzish zaruratini ko‘rsatadi. Deskriptivizm va preskriptivizm tilshunoslikda bir-birini to‘ldiruvchi yondashuvlar sifatida qo‘llanilishi lozimligini ta’kidlaydi.*

Kalit so‘zlar: *deskriptivizm, preskriptivizm, til me’yorlari, ijtimoiy tilshunoslik, sotsiolingvistika, sheva, jargon, tabu, so‘kinish va haqorat so‘zlari, adabiy til, til madaniyati*

Аннотация. *В данной статье анализируются дескриптивизм и прескриптивизм — два основных подхода в лингвистике. Также рассматривается вопрос о бранной и оскорбительной лексике в узбекском языке и подчеркивается необходимость составления таких словарей. Отмечается, что дескриптивизм и прескриптивизм должны применяться как взаимодополняющие подходы в языкознании.*

Ключевые слова: *дескриптивизм, прескриптивизм, языковые нормы, социальная лингвистика, социолингвистика, диалект, жаргон, табу, бранные и оскорбительные слова, литературный язык, культура речи.*

Abstract. *This article analyzes descriptivism and prescriptivism — the two main approaches in linguistics. It also examines the issue of swearing and offensive words in the Uzbek language, emphasizing the necessity of compiling dictionaries of such vocabulary. The article concludes that descriptivism and prescriptivism should be applied as complementary approaches in linguistics.*

Keywords: *descriptivism, prescriptivism, language norms, sociolinguistics, social linguistics, dialect, jargon, taboo, swearing and offensive words, literary language, language culture.*

Deskriptivizm va preskriptivizm — tilshunoslikdagi ikki asosiy yondashuv bo‘lib, ular tildan foydalanishni tasvirlash (deskriptiya) yoki belgilash (preskriptiya) nuqtayi nazaridan farqlanadi. Quyida ularning ilmiy ta’rifi, mohiyati va misollar bilan tahlilini keltiramiz:

1. Deskriptivizm (descriptive linguistics) — bu tilni qanday ishlatilayotgan bo‘lsa, shundayligicha o‘rganadigan ilmiy yondashuvdir. U til qoidalarini o‘rnatmaydi, balki real nutqni kuzatadi va tasvirlaydi. Umuman olganda, til — bu me’yoriy tizim emas, balki jamiyat tomonidan real hayotda qanday qo‘llanayotgan bo‘lsa, shunday o‘rganilishi kerak, degan tamoyilga amal qiladi.

Deskriptiv yondashuv tarafdorlari sifatida biz Leonard Bloomfield, Ferdinand de Sossyur, Noam Chomsky (ba’zi jihatdan), J. Lyons kabi olimlarni ko‘rsatishimiz mumkin.

Deskriptivizm tilni dinamik ijtimoiy hodisa deb qaraydi. Shuning uchun tildagi shevalar, jargon, so‘zlashuv tili, hatto grammatik “xatolar” ham ilmiy tahlil uchun qimmatli manba hisoblanadi.

Masalan, o‘zbek tilida “Men boramanmi yo‘qmi?” degan so‘roq shakli adabiy me’yorga to‘liq mos bo‘lmasa ham, deskriptiv yondashuvda bu xalq orasida real qo‘llanayotgan tilda mavjud konstruksiya sifatida o‘rganiladi.

Ingliz tilida “Ain’t” so‘zi grammatik jihatdan noto‘g‘ri sanalsa-da, deskriptiv tilshunoslar uni so‘zlashuv tilidagi real birlik sifatida tahlil qiladi.

Yoki tilda so‘kinch so‘zlar, qo‘pol so‘zlar, man etilgan so‘zlar bor (jargon, disfemizm, tabu). O‘zbek tilida bunday so‘zlar lug‘ati tuzilmagan. Xo‘sh, nega? Keling, deskriptiv yondashuvning ahamiyatini shu tarmoq misolida batafsil izohlashga harakat qilamiz:

O‘zbek tilida rus tilshunosligidagi T.V.Axmetovaning “Русский мат” (1993) kabi maxsus so‘kinish va haqorat so‘zlariga bag‘ishlangan izohli lug‘atning yo‘qligi bir necha ilmiy, ijtimoiy va madaniy sabablar bilan izohlanadi. Quyida buning asosiy omillarini berib o‘tishga harakat qilamiz:

1. Tarixiy-ijtimoiy omillar. O‘zbek tilshunosligi, ayniqsa, sovet davrida, normativlik, adabiy til pokligini saqlash, axloqiy me’yorlarga rioya qilish tamoyillariga asoslangan. Shuning uchun qo‘pol, haqoratli, pornografik mazmundagi birliklarni o‘rganish “nojoiz”, “obro‘siz” mavzu sifatida qaralgan; ilmiy tadqiqotlarda bunday leksika maxsus tahlilga tortilmagan.

2. Lingvistik tabularning kuchliligi. O‘zbek jamiyatida diniy, ma’naviy va axloqiy me’yorlar so‘kinish, tanadagi intim a’zolar nomi, jinsiy aloqa haqidagi ifodalarni “tabu” toifasiga mansub deb qaraladi. Natijada ularni rasmiy nashrlarda berish axloqiy jihatdan qiyin.

3. Til siyosati va davlat standarti. Davlat tilining me’yoriy qoida va lug‘atlarida adabiy norma asos bo‘ladi; so‘kinish va haqorat so‘zlari adabiy leksikaga kirmaydi. Shu sababli davlat buyurtmasi bilan bunday lug‘at chiqarilishi amalda qiyin.

4. Ilmiy maktabning yetarli rivojlanmaganligi. O‘zbek tilshunosligida disfemizm, tabu, so‘kinish tili, qo‘pol leksika kabi yo‘nalishlar hali keng rivojlanmagan; material to‘plash, ijtimoiy-dialektal taqsimotlarini o‘rganish ishlari yetarlicha olib borilmagan.

Bunday lug‘atni tuzish kerakmi? Bizningcha, kerak. Chunki bunday lug‘at tilni buzmaydi, balki uni ilmiy o‘rganish imkonini beradi. Dunyoning ko‘plab tillarida bunday lug‘atlar mavjud: inglizcha Dictionary of Slang, fransuzcha Dictionnaire de l’argot, ruscha mat lug‘atlari va hokazo. Lug‘at tuzish jarayonida ilmiy va axloqiy mezonlarga qat’iy amal qilishi shart: so‘zning qo‘pol shakli beriladi, lekin neytral ilmiy uslubda izohlanadi; so‘zning ijtimoiy xavfi, huquqiy oqibatlari ham ko‘rsatiladi. Shuningdek, lingvistik ekspertlar uchun qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi; haqorat, so‘kinish, sha’nni kamsitish darajasini baholash uchun standartlashtirilgan korpus yaratadi; maktab emas, ilmiy muassasalar va ekspertlar uchun mo‘ljallangan bo‘ladi.

Bu jarayon tilning real ko‘rinishini ko‘rsatishda, qo‘pol leksikaning etimologiyasini izohlashda, sud ekspertizasi uchun bir xil talqin mezonlari yaratishda, o‘zbek tilining sotsiolingvistik xaritasini tuzishda, qo‘pol so‘zlar sonining ortib borishini psixolingvistik jihatdan o‘rganishda qo‘l keladi, albatta.

O‘zbek tilida so‘kinish va haqorat so‘zlari izohli lug‘atini yaratish:

- ☑ ilmiy jihatdan zarur,
- ☑ sud-lingvistik ekspertiza uchun muhim,
- ☑ tilshunoslikning bo‘sh qolgan sohasi,

☑ ijtimoiy reallikni aks ettiradi.

Ammo u:

❗ adabiy lug‘at emas;

❗ yoshlar yoki o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan emas;

❗ faqat ilmiy, huquqiy va ekspertiza ehtiyojlari uchun yaratiladi.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, deskriptivizm tilni o‘zgarmas me’yorlarga solmaydi, balki u qanday ishlatilayotganini tasvirlab beradi.

2. Preskriptivizm (prescriptive linguistics) — bu tilga qanday qoida asosida to‘g‘ri foydalanish kerakligini belgilab beruvchi yondashuvdir. Ya’ni bu “to‘g‘ri” va “noto‘g‘ri” tildan foydalanish masalasiga e’tibor qaratadi.

Tilni me’yorga solish, uni adabiy shaklda saqlash va nutq madaniyatini ta’minlash zarur, degan tamoyilga amal qiladi.

Preskriptiv yondashuv tarafdorlari:

Til me’yorlarini belgilovchi akademiyalar, me’yoriy grammatikalar, lug‘at tuzuvchilar...

Preskriptivizm adabiy til me’yorlarini saqlash, grammatik, orfografik, uslubiy talablarni o‘rgatish uchun muhim. U tildagi betartiblikni oldini olishga, me’yoriy birlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Masalan, o‘zbek tilida “boryapman” to‘g‘ri shakl sanaladi, “borvoman” esa so‘zlashuv variantidir. Preskriptivizm faqat “boryapman” shaklini to‘g‘ri deb tan oladi.

Ingliz tilida “He doesn’t go” me’yoriy, “He don’t go” esa noto‘g‘ri hisoblanadi. Preskriptiv yondashuv “He don’t go”ni grammatik xato deb belgilaydi.

Yozuv va savodxonlik, aslida, juda murakkab jarayon. Kirill yozuvidagi 4 harf: Ее, Ёё, Юю, Яя harflarining lotin yozuvida yozilishi xalqni chalg‘ituvchi qoidalarga to‘lib ketgan. Umid qilamizki, bu preskriptivizm asosida emas, deskriptivizm asosida qayta ishlab chiqiladi va xalqni qiynab kelayotgan sentabrmi yoki sentyabrmi? budjetmi yoki byudjetmi? degan savollar o‘z to‘g‘ri javobini oladi.

Xullas, preskriptivizm tilni o‘rnatilgan qat’iy me’yorlar asosda tartibga soladi, adabiy tilni madaniyat ko‘rsatkichi deb biladi.

Tilshunoslikda deskriptivizm va preskriptivizm bir-birini inkor etmaydi, balki bir-birini to‘ldiradi.

Deskriptiv yondashuv tilni ilmiy tahlil qilish uchun zarur, chunki u tilning tabiiy evolyutsiyasini ochib beradi.

Preskriptiv yondashuv esa til madaniyati va adabiy me’yorni saqlashga xizmat qiladi.

O‘zbek tilshunosligida ham bu ikki yondashuv uyg‘un tarzda qo‘llaniladi: Masalan, o‘zbek tili orfografiya qoidalari preskriptiv asosga ega, dialektologiya yoki sotsiolingvistika esa deskriptiv asosda quriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. O‘zbek tili me’yorlari (punktuatsiya). – Toshkent: Zamin nashr, 2021. – 232 b.

2. Ashirbayev S. Areal lingvistika. – Toshkent: Bookmany print, 2023. – 148 b.

3. Abjalova M., Rashidova U. Tilshunoslik nazariyasi. Tilshunoslikning mantiqiy asoslari. – Toshkent: Bookmany print, 2025. – 268 b.

4. Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar: to‘plam. – Toshkent: Bookmany print, 2025. – 450 b.

UO’K 821.111-14:81’42

JEFRI CHOSER HIKOYALARIDA HAZIL VA ISTEHZO

D.O.Bekmirzayeva, o‘qituvchi, Samarqand davlat chet eillar instituti, Samarqand

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Jefri Choserning “Kenterberi hikoyalari” asarida hazil va istehzo badiiy vosita sifatida qanday ishlatilgani tahlil qilinadi. Muallif hazilning ochiq komik shakllari hamda istehzoning nozik, bilvosita ko‘rinishlari orqali o‘rta asr jamiyatidagi axloqiy muammolar, riyokorlik va ijtimoiy ziddiyatlarni qanday fosh etishini ko‘rsatadi. Umumiy prolog, Miller(tegirmonchi) hikoyasi va Bastlik ayol hikoyasi misolida Choser istehzosi va kulgi estetikasi*

ochib beriladi. Maqola hazil va istehzoning nafaqat kuldirish, balki tanqidiy tafakkurni shakllantirishdagi rolini asoslashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Jefri Choser, "Kenterberi hikoyalari", hazil va kulgi estetikasi, istehzo (ironiya), kinoya va masxara, o'rta asr ingliz adabiyoti, ijtimoiy tanqid, diniy riyokorlik, badiiy realizm, komik janr, rivoyatchi ovozi, obraz yaratish usullari, satira, axloqiy muammolar, o'rta asr jamiyati, adabiy uslub, tanqidiy tafakkur, muallif istehzosi.

Аннотация. *В данной статье анализируется, каким образом юмор и ирония используются как художественные средства в произведении Джеффри Чосера Кентерберийские рассказы. Автор показывает, как посредством как открытых комических форм юмора, так и тонких, косвенных проявлений иронии Чосер разоблачает моральные проблемы, лицемерие и социальные противоречия средневекового общества. На примере Общего пролога, «Рассказа мельника» и «Рассказа Батской жены» раскрываются эстетика смеха и ирония Чосера. Статья направлена на обоснование роли юмора и иронии не только как средства развлечения, но и как важного инструмента формирования критического мышления.*

Ключевые слова: *Джеффри Чосер, "Кентерберийские рассказы", юмор и эстетика смеха, ирония, сарказм и насмешка, средневековая английская литература, социальная критика, религиозное лицемерие, художественный реализм, комический жанр, голос рассказчика, способы создания образов, сатира, нравственные проблемы, средневековое общество, литературный стиль, критическое мышление, авторская ирония.*

Abstract. *This article analyzes how humor and irony are employed as artistic devices in Geoffrey Chaucer's "The Canterbury Tales". The author demonstrates how, through both overt comic forms of humor and subtle, indirect manifestations of irony, Chaucer exposes moral problems, hypocrisy, and social contradictions of medieval society. Using examples from the General Prologue, The Miller's Tale, and The Wife of Bath's Tale, the aesthetics of laughter and Chaucer's irony are explored in detail. The article aims to substantiate the role of humor and irony not only as means of amusement, but also as instruments for shaping critical thinking.*

Key words: *Geoffrey Chaucer, "The Canterbury Tales", humor and aesthetics of laughter, irony, sarcasm and mockery, medieval English literature, social criticism, religious hypocrisy, literary realism, comic genre, narrative voice, methods of character creation, satire, moral problems, medieval society, literary style, critical thinking, authorial irony.*

Jefri Choser o'rta asr ingliz adabiyotining eng yirik namoyandalaridan biri bo'lib, uning "*Kenterberi hikoyalari*" asari nafaqat janr jihatidan, balki badiiy uslub nuqtai nazaridan ham katta ahamiyatga ega. Choser ijodining eng muhim xususiyatlaridan biri — hazil va istehzo orqali jamiyatni tanqid qilish mahoratidir. U kulgi vositasida o'rta asr jamiyatidagi axloqiy buzilishlar, riyokorlik va ijtimoiy ziddiyatlarni ochib beradi [3:15]. Hazil va istehzo Choser uchun faqat kuldirish vositasi emas, balki murakkab estetik va ijtimoiy funksiyani bajaradigan badiiy uslubdir. Ular faqat o'quvchini kuldirish vositasi emas, balki axloqiy, ijtimoiy va estetik funksiyalarni bajaruvchi vositalardir. Hazil va kinoya orqali muallif jamiyatdagi riyokorlik, ochko'zlik, dunyoviylik kabi muammolarni ochib beradi, shuningdek, qahramonlarning xarakteridagi ziddiyat va insoniy xatolarni fosh qiladi. Shu bilan birga, hazil va istehzo o'quvchini tanqidiy tafakkurga, voqelik va so'zlar orasidagi ziddiyatni sezishga va axloqiy mulohaza yuritishga undaydi.U kulgi orqali o'quvchini erkinlashtiradi, istehzo orqali esa yashirin muammolarni ochib beradi. Ushbu maqolada Choser hikoyalarida hazil va istehzo shakllari, ularning badiiy vazifasi hamda ijtimoiy mazmuni tahlil qilinadi.

Hazil — o'quvchini kuldirish orqali ta'sir ko'rsatadigan badiiy vosita bo'lsa, istehzo (ironiya) — tashqi ma'no bilan ichki, yashirin ma'no o'rtasidagi ziddiyatga asoslangan uslubdir. Choser ko'pincha ochiq masxaradan ko'ra nozik, bilvosita istehzo usulidan foydalanadi. Choser aynan shu nozik istehzo ustasi sifatida ajralib turadi. U qahramonlarni bevosita qoralamaydi, balki ularning nutqi, xatti-harakati va o'z-o'zini taqdim etish usuli orqali ularning haqiqiy mohiyatini ochib beradi. Shu jihatdan Choser istehzosi o'quvchini faol talqinchi bo'lishga majbur qiladi[5:65]. Choser ijodida

hazilning ko‘p uchraydigan shakllari — komik effekt yaratish, personaj xarakterini ochish va realistik tasvirni boyitishdir.

Hazil shuningdek, qahramonlarni esda qolarli va tabiiy qiladi. Qolaversa, sharqda mutoyiba san'ati ham borki, uni ijtimoiy aloqaning bir ko‘rinishi, deb hisoblash mumkin. "Mutoyiba uni qo‘llovchi kishilarning yoshi, millati, jo‘g‘rofiy joylashuvi, olgan ta'limi kabi omillarga qarab, turlicha bo‘lishi mumkin. Masalan, yosh bolalar nisbatan sodda mutoyiba shakllarini qabul qilishsa, dunyoqarashi shakllangan va yaxshi ta'lim olgan shaxslar satira kabi murakkabroq janrlarni hazm qilishadi. Mutoyiba – kulgi bilan xayrixohlikni o‘zida mujassam etgan komiklik turi. Badiiy adabiyotga mansub yumoristik asarda yozuvchi ijtimoiy hayotdagi, shaxsiy turmushdagi, xususan, ayrim kishilardagi ba'zi kamchilik, nuqsonlardan kulib, uni tanqid qiladi. Bunda yozuvchi tanqid qilinayotgan ob'yektning yo‘qotilishiga tarafdor emas, unga achinadi, undagi mavjud kamchilikning tuzalishini istaydi. Yengil tanqid, hazil ruhi bilan mutoyiba satiradan farq qiladi. Satirik asarda ijtimoiy hayot hodisalari zaharxanda kulgi orqali fosh etilsa, xarakterdagi nuqsonlar hazilmutoyiba, kinoya bilan tanqid qilinadi. Satirada mutoyiba unsuri bo‘lganidek, mutoyibada ham satira unsuri bor. Har qanday jiddiy asar (roman, qissa, hikoya, doston, she'r va boshqalar)da, xalq ijodi namunalarida ham mutoyiba bo‘ladi [9].

"*Kenterberi hikoyalari*"ning umumiy prologi Choser istehzosi uchun eng boy manbalardan biridir. Masalan, Pardoner (riyokor) tashqi tomondan "dindor" sifatida ko‘rsatilsa-da, uning ochko‘zligi va ikkiyuzlamachiligi nozik kinoya bilan fosh qilinadi. U odamlarni gunohdan qutqarish uchun hujjat sotadi, lekin o‘zi ochko‘zlik bilan boyiydi. Choser uni ochiq tanqid qilmaydi; u o‘zini o‘zi fosh qiluvchi shaklda tasvirlanadi [1:25].

Muallif Pardonerning muqaddas buyumlar sotishi haqida xotirjam ohangda so‘zlaydi, biroq bu "xotirjamlik" aslida keskin tanqidni yashiradi. Choser asarini yozishda sokin va muloyim tilni tablagan bo'lsada, u jamiyatdagi noxaqliklarni aniq ochib berishga xarakat qilgan. Xuddi shuningdek, Friar (yolg‘on dindor), dunyoviy hayotga berilib, odamlarni aldov va hiyla bilan pul topadi.U cherkov qoidalarini chetlab o‘tadi, lekin o‘zini samimiy va xolis qilib ko‘rsatadi [2:86].

Monk (monax) monastir qoidalarini buzib, ov, taom va qulay hayotni sevadi. U ruhoniy vazifasidan ko‘ra, dunyoviy hayotga berilganligi bilan kulgili tasvirlanadi [4:125]. Summoner (poraxo‘r) kabi diniy vakillar hazil va istehzo orqali rasmiy diniy mavqelariga zid tarzda tasvirlanadi. Bu Choserning cherkov tizimidagi korrupsiyani kulgi vositasida fosh etishiga misoldir. Yuqorida ta'kidlanganidek yozuvchi jamiyatning barcha qatlamlarini qamrab olgan va sayohatchilar misolida qusurlarini ochiq ko‘rsatgan.

Ba'zi hikoyalarda Choser ochiq kulgi va komik vaziyatlarga murojaat qiladi. Masalan, *Miller hikoyasi* va *Reeve (xo'jalik boshqaruvchisi) hikoyasi*da jismoniy hazil, erotik vaziyatlar va kutilmagan voqealar orqali o‘quvchi kuldiriladi. Bu hikoyalarda hazil ko‘proq xalqona, qo‘pol shaklda namoyon bo‘lsa-da, u ijtimoiy tengsizlik va ahmoqlikni fosh qilish vazifasini bajaradi [7:34].

*Miller hikoyasi*da o‘zini aqlli deb bilgan qahramonlarning ahmoqona ahvolga tushib qolishi — istehzoning an'anaviy shaklidir. Bu yerda Choser "inson o‘zini aqlli deb bilgani sari ko‘proq kulgili bo‘ladi" degan g‘oyani ilgari suradi. Bu turdagi hazil o‘rta asr xalq kulgi an'analari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, yuqori tabaqa va quyi tabaqa o‘rtasidagi ziddiyatlarni ochib beradi.

Bastlik ayol obrazi Choser istehzosining murakkab va ko‘p qatlamli namunalaridan biridir. U o‘z nutqida erkaklar ustidan ustunligini ochiq targ‘ib qiladi, diniy matnlarni o‘z foydasiga talqin qiladi. Tashqi tomondan u kuchli va mustaqil ayol sifatida ko‘rinsa-da, muallif uning nutqidagi mantiqiy ziddiyatlarni kinoya bilan ko‘rsatadi. Bu yerda istehzo ikki tomonlama ishlaydi: bir tomondan, erkaklar hukmronligi tanqid qilinadi; ikkinchi tomondan, Bastlik ayolning o‘zi ham mutlaq haqiqat egasi sifatida ko‘rsatilmaydi [8:90].

Choser ijodida hazil va istehzo faqat kulgi uchun emas, balki muhim badiiy va ijtimoiy vazifani bajaradi. Hazil va istehzo yordamida Choser personajlarning xarakterini ochib beradi. Masalan: Bastlik ayol o‘zini mustaqil va kuchli ayol sifatida ko‘rsatadi, lekin istehzo orqali uning mantiqiy qarama-qarshiliklari va o‘zini oqlash urinishlari fosh qilinadi. Shu tarzda qahramonlar realistik va esda qolarli bo‘ladi, ularning xatti-harakati o‘quvchini kuldiradi, lekin o‘ylashga ham majbur qiladi. Choser hazil va istehzoni ishlatib, o‘quvchini faol talqinchiga aylantiradi. O‘quvchi so‘z va voqelik

orasidagi ziddiyatni anglash orqali personajlarning asl mohiyatini tushunadi. Masalan: Pardoner o‘z hikoyasida ochko‘zlikni tanqid qiladi, lekin o‘zi ham eng ochko‘z shaxs sifatida tasvirlangan [6:60]. Bu istehzo o‘quvchini axloqiy mulohaza qilishga chorlaydi. Hazil va istehzo Choser hikoyalariga ritm, kulgi va dramatik effekt qo‘shadi. Komik vaziyatlar, jismoniy hazil, so‘z o‘yinlari o‘quvchiga qiziqarli va esda qolarli o‘qish tajribasini beradi. Shu bilan birga, u o‘rta asr realistik tasvirini yaratadi, bu esa asarning badiiy qiymatini oshiradi.

Hazil orqali Choser og‘ir tanqidni yumshatadi, istehzo orqali esa chuqur ma’naviy muammolarni yashirin tarzda ochib beradi. Choser hikoyalarining ajralmas badiiy unsurlaridir. U kulgi vositasida o‘rta asr jamiyatining axloqiy muammolarini, diniy korrupsiyani va insoniy zaifliklarni yuksak badiiy darajada tasvirlaydi. Shu sababli Choser istehzosi nafaqat o‘z davri uchun, balki bugungi zamon o‘quvchisi uchun ham dolzarbligini yo‘qotmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Chaucer, G. *The Canterbury Tales*. Ed. Larry D. Benson. Boston: Houghton Mifflin, 1987.
2. Chaucer, G. *The Riverside Chaucer*. 3rd ed. Ed. Larry D. Benson. Oxford: Oxford University Press, 1987.
3. Bloom, H. (ed.). *Geoffrey Chaucer*. New York: Chelsea House, 2004.
4. Brewer, D. S. *Chaucer*. London: Longman, 1969.
5. Coghill, N. *The Poet Chaucer*. London: Oxford University Press, 1956.
6. Donaldson, E. T. *Speaking of Chaucer*. London: Athlone Press, 1970.
7. Kittredge, G. L. *Chaucer and His Poetry*. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1915.
8. Mann, J. *Chaucer and Medieval Estates Satire*. Cambridge: Cambridge University Press, 1973.
9. https://uz.wikipedia.org/wiki/Mutoyiba.

UO’K 81'255.2:81'37

MADANIY REALIYALARNI IFODALOVCHI BIRLIKLARNING TARJIMADA BERILISHI

(“Dunyoning ishlari” qissasi misolida)

G.Sh.Boboqulova, mustaqil tadqiqodchi, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tarjimashunoslikda tarjimon asosan asar tarjimasida ma’naviy realiyalarning o’rni va ularning tarjimasi haqida bayon etilgan. Bundan tashqari O’.Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasidagi hikoyalarda parchalar o’zbek va ingliz tillaridadagi tarjimalari misollar bilan yoritilgan. Milliy adabiyot boshqa millat adabiyotiga ham ta’sir o‘tkazib, kommunikativ muloqotni ta’minlaydi. Adabiyotlar o‘zaro muloqotga kirishganda biri ikkinchisining rivojiga hissa qo‘shadi va ushbu o‘zaro muloqotning davomiyligini esa tarjima matni ta’minlaydi*

Kalit so’zlar: *moddiy madaliyat, realiya, tarjimon, tarjima,tarjima nazariyasi,ekvivalent, asliyat,izohli tarjima,urf-odatlar, milliy qadriyat.*

Аннотация. *В данной статье описывается роль переводчика в переводоведении, главным образом в переводе духовных реалий и их переводе. Кроме того, на примерах иллюстрируются переводы отрывков из рассказа О. Хошимова «Труды мира» на узбекский и английский языки. Национальная литература также оказывает влияние на литературу других народов, обеспечивая коммуникативный диалог. Когда литературы вступают в диалог, одна способствует развитию другой, и продолжение этого диалога обеспечивается переведенным текстом.*

Ключевые слова: *материальный носитель, реальность, переводчик, перевод, теория перевода, эквивалент, оригинальность, пояснительный перевод, обычаи, национальные ценности.*

Abstract. *This article describes the role of the translator in translation studies, primarily in the translation of spiritual realities and their translation. Furthermore, examples are provided to illustrate the translations of excerpts from O. Khoshimov's story "Works of Peace" into Uzbek and English. National literature also influences the literature of other nations, fostering a communicative dialogue. When literatures enter into dialogue, one contributes to the development of the other, and the continuation of this dialogue is ensured by the translated text.*

Key words: *material medium, reality, translator, translation, translation theory, equivalent, originality, explanatory translation, customs, national values.*

Badiiy asarlarda shakl va mazmun jihatdan milly va umuminsoniy g‘oyalar aks ettiriladi. Bunday tasvir ma’lum bir zamon va makonda muayyan qahramonlar yordamida milliy kolorit tushunchasi orqali izohlanadi. Milly kolorit deb badiiy asarda aks etgan milliy xususiyatlar yig‘indisiga aytiladi [1].

Bir tilga xos so‘zlar: urf-odatlar, turmush tarzi, yoki milliy xususiyatlar ikkinchi til vakiliga noma’lum tushuncha hisoblanadi. Tarjima jarayonida milliy koloritni to‘g‘ri uslullardan foydalangan holda qayta bera olish bu tarjimonnning mahoratidir. Masalan, ona tilimizda uchraydigan, milliylik kasb etuvchi, muayyan davr va joygagina xos bo‘lgan so‘zlar va tushunchalar ya’ni mahalliy kolorit boshqa tillarda tushunarsiz farqli bo‘lishi mumkin. Mahalliy kolorit – biror mahalliy sharoit, urf-odat yoki joyga xos turmush-tarzi, peyzaj va til xususiyatlarini badiiy adabiyotda ask ettirish [2].

G‘.Salomov, Q.Musayev singari tarjimashunos olimlar tarjimada xos so‘zlar (milliy so‘zlar) ning o‘z o‘rni borligini ta’kidlab, xos so‘zlar – bu har bir davlatning o‘z madaniyatiga bog‘liq bo‘lgan, o‘zlarining milliy koloritini ifoda etuvchi so‘zlar hisoblanadi. Xos so‘zlarni quyidagi turlarga bo‘lish mumkin:

1. Dinlarga va diniy marosimlarga bog‘liq so‘zlar: mulla, hojiaka, hojiona, yepiskop, arxiyepiskop, papa kabilar;
2. Xalq urf-odatlarini bildiruvchi so‘zlar: ko‘rpacha, challari, beshik, muchal to‘yi, sunnat to‘yi kabilar;
3. Milliy kiyinishga oid so‘zlar: do‘ppi, chopon, shlyapa, kepka kabi so‘zlar.

Demak, bir xalq tilida paydo bo‘lib, shu xalqning kelib chiqishi, tarixi va turmush tarzi, milliy ruhi va madaniyatini o‘zida aks ettiradigan boshqa tilda muqobiliga ega bo‘lmagan so‘zlar – realiyalardir. Bunday etnografizmlarni bir necha guruhga ajratish mumkin:

– kundalik turmushda qo‘llaniladigan ba’zi realiyalar, rozg‘or anjomlari, odamlarga xos bo‘lgan narsalar;
– atoqli ismlar va joy nomlari;
– manzillar va salomlashishlar;
– jurnallar va gazetalar nomi va sarlavhalari;
– og‘irlik, uzunlik o‘lchov birliklari.

Bunday realiyalarni tarjimada quyidagicha ifodalash mumin:

– transliteratsiya yoki transkripsiya qilish;
– realiyalarni sarlavha osti izohlari orqali tarjima qilish;
– kalkalash (so‘zma-so‘z) tarjima qilish;
– analogiya (o‘xshash so‘zlar orqali) tarjima qilish;
– tasviriy tarjimalar.

Qayta yaratilgan tarjima matning asliyat matniga muqobilligi asardan ma’naviy ozuqa olishda yoki umumiy tasavvurga ega bo‘lishda muhimdir. Shu o‘rinda A.Mo‘minova bu haqida shunday fikr bildiradi: “Tarjima bilan shug‘ullanuvchi shaxs, ya’ni tarjimon ikki til, ikki millat o‘rtasidagi ko‘prikdir, uning tarjima qilish qobilyati orqali xalqning, millatning eng nozik qirralari aks ettiriladi” [3]. Darhaqiqat, butun bir xalqning madaniyati, turmush tarzi, an’analari va dunyoqarashi albatta uning tilida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham bu jihatdan tarjimon zimmasida turgan mas’uliyat juda katta. Ayniqsa muayyan xalq tiliga mansub bo‘lgan milliy so‘zlarni ya’ni xos so‘zlarni tarjima qilishda tarjimonning yondashuvi alohida e’tiborga molikdir. Chunki tarjimon asarni qanday ko‘z bilan ko‘rsa o‘quvchi ham shundayligicha qabul qiladi, xulosa chiqaradi. Ma’lumki, badiiy tarjimada milliy kolorit tushunchasi bizga noma’lum bo‘lgan xalqning urf-odatlari, hayot tarzi, umumiy olganda, milliy xususiyatlari tushuniladi. Shunday ekan, milliy koloritni saqlagan holda eng maqbul usullardan to‘g’ri foydalanib tarjima qila olgan tarjimonni shak-shubhasiz o‘z kasbining ustasi deyish mumkin. Misol uchun, o‘zbek tilida uchragan so‘zlar va tushunchalar boshqa tillarda bo‘lmasligi yoki mazmun, shakl, hajm jihatdan farq qilishi mumkin. Lekin aynan milliyligimizni ifoda etadigan vositalar ham shular ekanligini hisobga olgan holda madaniyatimizning o‘ziga xos qirralarini xorijlik kitobxonga yetkazib berishda uning tarjima muammolari barchamizning oldimizda ko‘ndalang turibdi. Quyida, O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qisssidagi hikoyalardan o‘zbek va ingliz tillaridagi tarjimalarini quyida keltiramiz:1Hayot gohida shunday sinovlarni oldimizga qo‘yadiki, ularga dosh berish oson emas. Ingliz tilida: Life sometimes presents us with trials that are not easy to endure.2. O‘zbek tilida- Inson o‘zining chinakam baxtini topishi uchun ko‘p narsalardan voz kechishi kerak. Ingliz tilida tarjimasi: A person must give up many things to find their true happiness. 3. O‘zbek tiida: Ba’zan eng oddiy narsalarda ham hayotning eng chuqur

ma’nosini topish mumkin. Ingliz tilida: Sometimes, the deepest meaning of life can be found in the simplest things.4. Har bir insonning o‘ziga xos hayot yo‘li va taqdiri bo.- Every person has their own unique path in life and destiny.

5. Odamlar o‘z baxtini uzoqdan izlaydi, lekin ba’zan u yaqin orada bo‘ladi. Inglizcha: People search for happiness far away, but sometimes it is close by Hikoyada tasvirlangan vaziyatlar va obrazlar o‘zbek madaniyati bilan bog‘liq. Bu madaniy kontekstni boshqa tilga tarjima qilishda, o‘quvchi hikoyaning asl ma’nosini va muhim nuqtalarini to‘liq anglamasligi mumkin

O‘. Hoshimovning ”Dunyoning ishlari“ hikoyasidan ba’zi gaplarni tarjima qilishda quyidagi muammolarga duch kelish mumkin:1.Mahalliy leksika va ifodalar: Hikoyada o‘zbek xalqining turmush tarziga xos bo‘lgan so‘zlar, iboralar va maqollar mavjud. Ularni boshqa tilga tarjima qilishda muqobilini topish qiyin bo‘lishi mumkin,chunki bunday iboralar boshqa madaniyatlarda mavjud bo‘lmasligi yoki o‘ziga xos ma’noni yo‘qotishi mumkin. 2. Emotsional rang-baranglik: O‘tkir Hoshimovning asarlarida ko‘p hollarda chuqur emotsiyalar, mehr, dard va hazil aralashgan. Buni tarjima qilishda muallifning o‘ziga xos uslubini saqlab qolish qiyin bo‘lishi mumkin, chunki har bir tilning o‘z emotsional ifoda usullari mavjud.4. Dialekt va lahjalar: Asarda ba’zida dialektal yoki mahalliy lahjalar ishlatilishi mumkin. Bu elementlarni tarjima qilishda ularning mazmuni va o‘quvchiga ta’sirini to‘g‘ri yetkazish qiyinchilik tug‘diradi.

Bugunga kelib, madaniyat transferi haqidagi turli xil ta’rif, yondashuvlar mavjud, lekin ushbu tadqiqotning asosida madaniyat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni, yetkazish va qabul qilish jarayoni tahlili, o‘zga madaniyatni resepsiya va interpretatsiya jarayonlarini o‘rganish tadqiqotchilarni umumiy bir yo‘lda birlashtiradi. Matnlar, g‘oyalar transferi doirasida tadqiqot olib borgan P.Antoniga ko‘ra, ―agar material transfer bo‘lmaganda edi, agar matnlar vaqt bo‘ylab va makon osha degan fikrni ilgari tashilmaganda edi, birorta ham tarjima bo‘lmas edi. Badiiy adabiyotlar transferini tadqiq qilgan olima I.N.Lagutina esa, madaniyatning ko‘chishida tarjimaning o‘rni haqida quyidagicha mulohaza qiladi:―milliy adabiyot boshqa millat adabiyotiga ham ta’sir o‘tkazib, kommunikativ muloqotni ta’minlaydi. Adabiyotlar o‘zaro muloqotga kirishganda biri ikkinchisining rivojiga hissa qo‘shadi va ushbu o‘zaro muloqotning davomiyligini esa tarjima matni ta’minlaydi . ”Dunyoning ishlari“ asarida Hoshimovning badiiy mahorati va adabiy tilining o‘ziga xos jihatlariyaqqol ko’zga tashlanadi.Asarda ko‘tarilgan asosiy mavzular: insoniy qadriyatlar, axloqiy muammolar, ijtimoiy adolat bo’lib yuzuvchu tomonida o’quvchiga juda tushunarli va manzmunli qilib etkazilgan. Hoshimovning asarida jamiyatning muhim muammolariga qanday yondashilgani, ayniqsa ona obrazi juda bir tasvirlanganki, hayotda har bir ona o’z farzandiga qanday muomia qilshi yoki bo’lmsa o’g’lning onaga nisbatan mig’illab xafa holatda gapirganida uning jahlini chiqarmaslikka, va madaniyatli qilb tushuntirishini tasvirlagan. Ona obrazida haqiqiy sofdillik, ko’ngil ranjitmaslik ,o’z o’g’lini naqadar yxshi ko’rishi va chiroyli odob bilan javob berishi – bu o’zbekadabiyotida v madniyatida namuna desak mubolag’a bo’lmatdi.Asarda har bir qahramonning xarakrei, uning duyoqarshi , muomilasi , o’sha davrdagi ijtimoiy hayot, va shu davr ijtimoiy – madaniy sharoitlar badiiy vositalar bilan yoritilgan. O’.Hoshimov o’zining hayotiy tajribalasi orqali qahramonlar xarakteri, badiiy mahorati, falsafiy va ijtimoiy qarashlari, hamda o‘zbek adabiyotiga qo‘shgan hissasi batafsil yoritiladi.Bu asar bir necha jihatdan alohida ahamiyatga ega bo‘lib, quyidagi nuqtalarda o‘z aksini topadi:

1.Badiiy uslubda: Hoshimovning asarda qo‘llagan badiiy uslubi o‘zbek adabiyotida yangi yo‘nalishlarni ochib berdi. Uning o‘tkir satira va chuqur psixologik tahlillari o‘quvchini hayotiy muammolar haqida o‘ylashga majbur qiladi.

Realizm va milliy ruh: Asarda oddiy insonlarning kundalik hayoti orqali milliy ruh va an’analar aks ettirilgan. Bu jihat Hoshimovni o‘zbek adabiyotining realistik an’analariga sodiq bo‘lgan yozuvchi sifatida ko‘rsatadi.

2. Jamiyatdagi muammolarni yoritishda:”Dunyoning ishlari”da ijtimoiy adolatsizlik, ma’naviy qadriyatlarning yo‘qolishi, insoniylik va axloqiy me’yorlarning buzilishi kabi muhim mavzular ko‘tarilgan. Bu masalalar o‘sha davr jamiyatining ijtimoiy-madaniy hayotiga teran nazar bilan qarash imkonini beradi.

Tarjima — bu ikki til o‘rtasidagi naqadar murakkab tilshunoslik va madaniy jarayon bo‘lib, matnni boshqa tilga o‘tkazish bilan birga, uning madaniy-ma’naviy qiymatini ham saqlab qolish

vazifasini o‘z zimmasiga oladi. Tarjima jarayoni faqat lug‘aviy ekvivalent topish emas, balki asliyatdagi **madaniyatga xos realiyalarni** (so‘zlar, iboralar, predmetlar, urf-odatlar) yangi til auditoriyasiga tushunarli va mos shaklda yetkazish jarayonidir. Bu jarayonda tarjimon asliyatdagi moddiy madaniyat unsurlarini tarjimada qayta yaratishi — tarjima nazariyasi va amaliyotining eng murakkab vazifalaridan biridir.**Moddiy madaniyat** — til orqali ifodalangan, ma'lum bir xalqning moddiy boyliklari, predmetlari, urf-odatlari, texnologiyalari va kundalik hayot buyumlari majmuini anglatadi. Tarjima nazariyasida bu tur birikmalar ko‘pincha **"realiyalar"** deb yuritiladi — madaniyatga xos til elementlari bo‘lib, ular boshqa til va madaniyatda aniq ekvivalentga ega bo‘lmasligi mumkin. Realiyalar «haqiqiy predmetlar» deb tarjima qilinuvchi atama bo‘lib, adabiy matnlarda ularning mavjudligi asar joylashgan madaniyatni his qilishga yordam beradi. Asl til foydalanuvchilari uchun bu elementlar tabiiy qabul qilinsa, tarjimada ular qanchalik mazmunli yetkazilishi muhim ahamiyatga ega. Tarjimashunoslar bu birliklarni "**madaniyat-spetsifik birliklar (Culture-Specific Items, CSI)**" deb ham ataydi. CSIlar bir tilning va uning madaniyatining tarixiy, ijtimoiy, diniy va urf-odat elementlarini o‘zida mujassam etadi. Bunday birliklar boshqa tilga tarjima qilinayotganda semantik, pragmatik va madaniy nuanslar yo‘qolmasligi kerak .Masalan, xalq urf-odati yoki maxsus buyum nomlari so‘zma-so‘z tarjima qilinganda ma'nosi tushunarsiz bo‘lib qoladi yoki noto‘g‘ri idrok qilinadi. **Izohli tarjima (annotation)**Bu strategiyada tarjimon o‘quvchiga ma'lum bir madaniyat elementining ma'nosini tushuntiruvchi qisqa izoh qo‘shadi. Bu usul ayniqsa realiyalar yoki o‘ziga xos madaniy predmetlar nomlarini tarjima qilishda qo‘llanadi.**.** Tarjimon manba madaniyatiga xos birlikni maqsad madaniyatida mavjud bo‘lgan yaqin tushuncha bilan almashtiradi. Bu usul madaniyatlararo tafovutni kamaytiradi, ammo madaniyatning asl hususiyatlarini zaiflashtirib yuborishi mumkin. Ba'zi hollarda predmet nomini izohlab yoki uning vazifasini ta'riflab berish maqbul bo‘ladi, ayniqsa ekvivalent so‘zi yo‘q bo‘lsa. Masalan, an'anaviy kiyim nomi — uning tarkibi, vazifasi va o‘rnini tushuntiruvchi izoh bilan tarjima qilinadi.

Shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, transfer va tarjima ma'lum va noma'lum belgilar o‘rtasidagi semiotik masofada faoliyat yurgizadi. Badiiy matnda madaniyat transferining sodir bo‘lishi – ma'lum bir g‘oyalarning begona madaniyat maydoniga ―ko‘chishi‖, badiiy matnning yangi hayoti, yangi muhit sharoitidan kelib chiqib moslashishini, bir so‘z o‘ziga yangi ma'no ―yuklab olishi va assosiatsiyalari bilan bog‘liq masalalarni tarjimashunoslikda madaniyat transferi nazariyasining asosini tashkil qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sh. A. Yangiboyeva "Tarjimashunoslik: muammolar, yechimlar va istiqbollar"//, Academic Research in Modern Science, 2022-yil.

2. "Tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolar" – M. Xolbekov, Tahlil va Tadqiqotlar, 2023-yil.

3. Sh. Choriyeva "Badiiy tarjimada uchraydigan asosiy muammolar"//, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti konferensiyalari, 2024-yil, dekabr.

4. S. Shermatova va M. Odiljonova "Tarjimada uchraydigan asosiy xatolar"//, CyberLeninka ilmiy maqolalar to‘plami, 2023-yil.

5. S. Atabayev"Tarjima jarayonida uchraydigan leksik va grammatik muammolar"// Nauchniy Impuls, 2023-yil.

6. D. Nodirjonovna "Adabiy nasrni tarjima qilishdagi muammolar va ularning yechimlari "//Web-Journal, 2023-y

UO'K 821.512.1:801.8

O‘ZBEK ADABIYOTIDA MIF TUSHUNCHASI TARIXIY TADRIJI

Sh. Botirova, prof., DSc, Alfraganus universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotida mif tushunchasining shakllanishi va tarixiy taraqqiyoti tahlil qilinadi. Tadqiqotda mifning dastlabki folklor qatlamlaridagi ifodalanish shakllari, qadimgi diniy-tasavvufiy qarashlar bilan aloqasi hamda yozma adabiyotga o‘tish jarayonidagi transformatsiyasi o‘rganiladi. Shuningdek, mumtoz adabiyot namunalari va zamonaviy badiiy asarlarda mifologik obrazlar va syujetlarning qayta talqin etilishi masalasi yoritiladi. Mif tushunchasining semantik kengayishi, ramziy ma'no kasb etishi va badiiy tafakkurdagi funksional ahamiyati tarixiy-adabiy kontekstda ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari o‘zbek adabiyotida mifning nafaqat estetik, balki ma'naviy-madaniy identifikatsiya vositasi sifatida shakllanganini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *mif, mifologiya, o‘zbek adabiyoti, folklor, mumtoz adabiyot, ramziylik, badiiy tafakkur, tarixiy taraqqiyot.*

Аннотация. *В статье рассматривается историческая эволюция понятия мифа в узбекской литературе. Анализируется процесс формирования мифологического мышления в фольклорных источниках, его связь с древними религиозно-мистическими представлениями и трансформация в письменной литературной традиции. Особое внимание уделяется функционированию мифологических образов и сюжетов в классической и современной узбекской литературе, а также их символической и философской интерпретации. Исследование показывает, что миф в узбекской литературе выступает не только художественным приёмом, но и важным элементом культурной памяти и национальной идентичности.*

Ключевые слова: *миф, мифология, узбекская литература, фольклор, классическая литература, символизм, художественное мышление, историческая эволюция.*

Abstract. *This article examines the historical development of the concept of myth in Uzbek literature. The study explores the formation of mythological thinking in early folklore traditions, its connection with ancient religious and mystical beliefs, and its transformation within written literary culture. Particular attention is given to the reinterpretation of mythological images and plots in classical and modern Uzbek literature. The semantic expansion and symbolic functions of myth in artistic discourse are analyzed within a historical-literary framework. The findings demonstrate that myth in Uzbek literature functions not only as an aesthetic device but also as a significant element of cultural memory and national identity.*

Keywords: *myth, mythology, Uzbek literature, folklore, classical literature, symbolism, artistic consciousness, historical development.*

Mif insoniyat tafakkurining eng qadimiy va murakkab shakllaridan biri bo‘lib, u borliqni anglash, tabiat va jamiyat hodisalarini tushuntirish, shuningdek, insonning o‘zini o‘zi idrok etish jarayonida muhim o‘rin egallaydi. Mif dastlab og‘zaki ijod mahsuli sifatida shakllanib, keyinchalik badiiy tafakkur, diniy qarashlar va falsafiy tasavvurlar bilan uzviy bog‘langan holda rivojlandi. Shu bois mif tushunchasining tarixiy tadrijini o‘rganish nafaqat adabiy jarayonni, balki xalqning ma’naviy-madaniy tafakkur evolyutsiyasini anglash imkonini beradi.

O‘zbek adabiyoti taraqqiyoti jarayonida mifologik qarashlar turli bosqichlarda turlicha ko‘rinishda namoyon bo‘lgan. Qadimgi turkiy davr yodgorliklarida kosmogonik va antropogonik miflar, qahramonlik eposlarida esa mifologik obrazlar va arxaik tasavvurlar o‘z aksini topgan. Keyinchalik mumtoz adabiyotda mif unsurlari ramziy-falsafiy talqin kasb etib, badiiy ifodaning muhim estetik vositasiga aylangan. Zamonaviy o‘zbek adabiyotida esa mif qayta talqin qilinib, yangi ma’no qatlamlari bilan boyitilgan holda milliy o‘zlik, tarixiy xotira va madaniy identifikatsiya masalalarini yoritishda qo‘llanmoqda.

Adabiyotshunoslikda mif tushunchasiga turlicha yondashuvlar mavjud bo‘lib, u ba’zan ibtidoiy ong mahsuli, ba’zan esa badiiy tafakkurning arxetipik modeli sifatida talqin etiladi. Zamonaviy ilmiy qarashlar mifni statik hodisa emas, balki doimiy ravishda transformatsiyaga uchraydigan, yangi ijtimoiy-madaniy sharoitda qayta ma’nolanadigan dinamik tizim sifatida baholaydi. Shu nuqtai nazardan, o‘zbek adabiyotida mif tushunchasining tarixiy rivojlanishini izchil tahlil qilish dolzarb ilmiy masala hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi — o‘zbek adabiyotida mif tushunchasining shakllanishi va tarixiy tadrijini yoritish, uning folklor bosqichidan boshlab yozma adabiyot va zamonaviy badiiy tafakkurgacha bo‘lgan taraqqiyot jarayonini tizimli tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot davomida mifning semantik kengayishi, ramziy-falsafiy mazmun kasb etishi hamda estetik funksiyasi tarixiy-adabiy kontekstda ko‘rib chiqiladi. Shu tariqa, mif tushunchasining tarixiy evolyutsiyasini o‘rganish o‘zbek adabiyotining ma’naviy ildizlarini chuqurroq anglashga, uning milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashuv jarayonini aniqlashga xizmat qiladi.

Mif tushunchasi va uning adabiyotdagi talqini yuzasidan ilmiy tadqiqotlar jahon va milliy adabiyotshunoslikda keng qamrovli yo‘nalish sifatida shakllangan. Ushbu masalaga oid adabiyotlarni

shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin: umumiy mif nazariyasiga oid tadqiqotlar, mifning badiiy tafakkur va adabiy jarayondagi o‘rnini yorituvchi ishlar hamda o‘zbek adabiyotida mifologik qatlamni o‘rgangan ilmiy manbalar.

Umumiy mif nazariyasi doirasida olib borilgan tadqiqotlarda mif insoniyatning arxaik tafakkur shakli sifatida talqin qilinadi. Xususan, Yevropa mifshunosligida mif kosmogonik tasavvurlar, arxetiplar va kollektiv ong bilan bog‘liq fenomen sifatida o‘rganilgan. Strukturaviy va psixoanalitik yondashuvlar mifni ramziy model, inson ongining chuqur qatlamlarini ifodalovchi kod sifatida baholaydi. Bunday qarashlar keyinchalik adabiyotshunoslikda mifning badiiy matndagi funksiyasini aniqlashga xizmat qildi. Mif nafaqat ibtidoiy ong mahsuli, balki zamonaviy badiiy tafakkurda qayta ishlanuvchi, yangi ma’no kasb etuvchi estetik hodisa sifatida talqin qilina boshladi.

Adabiyotshunoslikda mif va badiiy tafakkur o‘rtasidagi munosabatni o‘rganishda mifopoetika yo‘nalishi alohida o‘rin tutadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, mif adabiy asarda obrazlar tizimi, syujet strukturasini shakllantiruvchi arxetipik asos sifatida namoyon bo‘ladi. Mumtoz va zamonaviy adabiyotda mifologik motivlarning qayta talqini, ramziy ma’no kasb etishi va falsafiy chuqurlik bilan boyishi ilmiy izlanishlarda keng yoritilgan. Bu tadqiqotlar mifni tarixiy o‘zgarishlarga moslashuvchan, dinamik tizim sifatida ko‘rsatadi.

O‘zbek adabiyotshunosligida mif tushunchasining o‘rganilishi asosan folklor, epos va mumtoz adabiyot namunalari bilan bog‘liq holda olib borilgan. Qahramonlik dostonlari, afsona va rivoyatlar tarkibidagi arxaik mifologik qatlamlar tahlil qilingan bo‘lib, ular orqali qadimgi turkiy dunyoqarashning asosiy unsurlari aniqlangan. Mumtoz adabiyotda esa mif unsurlari ko‘proq ramziy-falsafiy talqin kasb etgan holda o‘rganilgan. Tasavvufiy adabiyotda mifologik obrazlarning ma’naviy-axloqiy g‘oyalarni ifodalashdagi o‘rni alohida ta’kidlangan.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotini tahlil qilgan tadqiqotlarda mifning yangi badiiy shakllarda namoyon bo‘lishi, tarixiy xotira va milliy identitetni ifodalash vositasiga aylanishi qayd etiladi. Mifologik obrazlar modern va postmodern adabiy jarayonda intertekstual aloqa, ramziy qatlam va konseptual ma’no yaratishda faol ishtirok etadi. Biroq ayrim tadqiqotlarda mif tushunchasi ko‘proq folklor doirasida ko‘rib chiqilib, uning yozma adabiyotdagi evolyutsion taraqqiyoti yetarli darajada tizimli yoritilmagan.

Shu jihatdan, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek adabiyotida mif tushunchasining tarixiy tadrijini kompleks, izchil va bosqichma-bosqich yondashuv asosida o‘rganish zarurati mavjud. Mifning folklor bosqichidan mumtoz adabiyotga, undan esa zamonaviy badiiy tafakkurga o‘tish jarayoni alohida ilmiy izlanishni talab etadi. Mazkur maqola aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan bo‘lib, mif tushunchasining tarixiy va estetik rivojlanish yo‘lini tizimli tahlil qilishni maqsad qiladi.

Mazkur tadqiqot doirasida o‘zbek adabiyotida mif tushunchasining tarixiy tadriji bosqichma-bosqich tahlil qilindi. Tahlil jarayonida mifning folklor davridagi arxaik shakllaridan tortib, mumtoz va zamonaviy adabiyotdagi ramziy-falsafiy talqinlarigacha bo‘lgan rivojlanish yo‘li qiyosiy-historik yondashuv asosida o‘rganildi. Tahlil shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek xalq og‘zaki ijodida mif dastlab kosmogonik, antropogonik va qahramonlik xarakteridagi tasavvurlar orqali namoyon bo‘lgan. Qadimgi turkiy epos va afsonalarda tabiat hodisalari, osmon jismlari, yer-suv kultlari, qahramonning g‘ayritabiiy tug‘ilishi yoki kuch-qudrati mifologik tafakkur mahsuli sifatida ifodalangan. Bu bosqichda mif borliqni tushuntirish vositasi, ijtimoiy va axloqiy normalarni asoslovchi tizim vazifasini bajargan. Natijada aniqlanishicha, folklor qatlamida mif syujet va obrazning asosiy konstruktiv unsuri sifatida xizmat qilgan va badiiy tafakkurning dastlabki modeli bo‘lib shakllangan.

Mumtoz o‘zbek adabiyotida mifologik obraz va motivlar bevosita ibtidoiy tasavvur sifatida emas, balki ramziy-falsafiy talqin vositasi sifatida qo‘llanilgan. Tasavvufiy adabiyotda qadimgi mifologik unsurlar ma’naviy kamolot, ruhiy poklanish va ilohiy haqiqatni ifodalashga xizmat qilgan. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, bu davrda mif estetik transformatsiyaga uchragan: u borliqni izohlash vositasidan badiiy-metaforik ifoda vositasiga aylangan. Mifologik syujetlar va obrazlar majoziy ma’noda talqin etilib, inson va olam munosabatining falsafiy modelini yaratishda ishtirok etgan.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida mif yangi mazmun va funksiyalar bilan boyigan. Tahlil qilingan badiiy matnlar mifologik obrazlarning intertekstual va konseptual asosda qo‘llanilayotganini ko‘rsatadi. Mif bu bosqichda milliy o‘zlik, tarixiy xotira, ijtimoiy inqiroz yoki shaxsiy iztirobni ifodalovchi ramziy model sifatida namoyon bo‘ladi. Natijalarga ko‘ra, mif zamonaviy badiiy tafakkurda universal ramziy kodga aylangan bo‘lib, u o‘tmish va bugunni bog‘lovchi estetik ko‘prik vazifasini bajaradi. Shuningdek, mifning funksiyasi faqat syujet darajasida emas, balki konseptual va falsafiy qatlamda ham namoyon bo‘ladi.Olib borilgan tahlil quyidagi xulosalarni beradi:

1. O‘zbek adabiyotida mif tushunchasi arxaik izohlovchi tizimdan estetik va ramziy modelga qadar evolyutsion rivojlanish bosqichini bosib o‘tgan.
2. Folklorda mif badiiy tafakkurning asosiy konstruktiv elementi bo‘lgan bo‘lsa, mumtoz adabiyotda u ramziy-falsafiy talqin vositasiga aylangan.
3. Zamonaviy adabiyotda mif milliy identitet va tarixiy xotirani ifodalovchi konseptual vosita sifatida faol qo‘llanilmoqda.
4. Mif tushunchasi statik hodisa emas, balki ijtimoiy-madaniy sharoitga mos ravishda transformatsiyaga uchraydigan dinamik tizimdir.

Shunday qilib, o‘zbek adabiyotida mif tushunchasining tarixiy tadriji uning funksional va semantik jihatdan kengayib borganini ko‘rsatadi. Bu jarayon mifning badiiy tafakkurdagi doimiy yangilanish va qayta ma’nolanish xususiyatini tasdiqlaydi.

Mazkur tadqiqot o‘zbek adabiyotida mif tushunchasining tarixiy tadrijini bosqichma-bosqich tahlil qilish orqali uning evolyutsion rivojlanish jarayonini aniqlashga qaratildi. Olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatdiki, mif o‘zbek adabiy tafakkurida oddiy arxaik tasavvur yoki ibtidoiy izohlash modeli sifatida emas, balki doimiy ravishda yangilanib boruvchi, estetik va ma’naviy mazmun kasb etuvchi dinamik hodisa sifatida namoyon bo‘lgan.

Folklor bosqichida mif borliqni tushuntirish, tabiat va jamiyat hodisalarini izohlash, ijtimoiy me’yorlarni mustahkamlash vositasi sifatida xizmat qilgan. Bu davrda mif syujet va obraz tizimining asosiy konstruktiv elementi bo‘lib, xalq tafakkurining arxaik qatlamini aks ettirgan. Mumtoz adabiyot bosqichida esa mifologik unsurlar ramziy-falsafiy mazmun kasb etib, tasavvufiy va badiiy tafakkur doirasida yangicha talqin qilingan. Natijada mif estetik ifoda vositasi, ma’naviy-axloqiy g‘oyalarni yorituvchi ramziy model sifatida shakllangan.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida mif tushunchasi yanada keng semantik imkoniyatlarga ega bo‘lib, u milliy o‘zlik, tarixiy xotira, ijtimoiy muammolar va shaxsiy kechinmalarni ifodalashda konseptual vosita sifatida qo‘llanilmoqda. Bu bosqichda mif intertekstual va metaforik qatlamlarda namoyon bo‘lib, badiiy tafakkurning universal kodiga aylangan.

Umuman olganda, o‘zbek adabiyotida mif tushunchasining tarixiy rivojlanishi uning funksional va semantik jihatdan kengayib, yangi ijtimoiy-madaniy sharoitga moslashib borishini ko‘rsatadi. Mif nafaqat estetik hodisa, balki milliy madaniy xotira va ma’naviy merosning muhim tarkibiy qismi sifatida adabiy jarayonda barqaror o‘rin egallaydi.

Shu tariqa, mif tushunchasining tarixiy tadrijini o‘rganish o‘zbek adabiyotining ma’naviy ildizlarini chuqurroq anglash, uning taraqqiyot qonuniyatlarini aniqlash va milliy badiiy tafakkurning evolyutsion jarayonini yoritishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Аверинцев С. С. Поэтика ранневизантийской литературы. — М.: Наука, 1977. — 320 с.
2. Барт Р. Мифологии. — М.: Академический проект, 2000. — 351 с.
3. Бахтин М. М. Эстетика словесного творчества. — М.: Искусство, 1979. — 424 с.
4. Лосев А. Ф. Диалектика мифа. — М.: Мысль, 1991. — 525 с.
5. Мелетинский Е. М. Поэтика мифа. — М.: Восточная литература, 1995. — 407 с.
6. Пропп В. Я. Исторические корни волшебной сказки. — М.: Лабиринт, 2000. — 336 с.
7. Топоров В. Н. Миф. Ритуал. Символ. — М.: Прогресс, 1995. — 624 с.
8. Элиаде М. Аспекты мифа. — М.: Академический проект, 2001. — 224 с.
9. Жирмунский В. М. Эпос народов Востока. — М.: Наука, 1974. — 432 с.

UDK: 81'373.7

THE THEORETICAL FOUNDATIONS OF PHRASEOLOGY. THE GENERAL CHARACTERISTICS OF PHRASEOLOGY AND ITS SIGNIFICANCE IN THE LANGUAGE SYSTEM

Y.B.Burkhonova, Master student, Ferghana State University, Ferghana
I.M.Jurayev, Senior teacher, Ferghana State University, Ferghana

Annotatsiya*. Ushbu maqola frazeologiyaning tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatidagi nazariy asoslarini tahlil qiladi. Unda frazeologik birliklarni o'rganishning asosiy yondashuvlari ko'rib chiqilib, ularning semantik yaxlitlik, strukturaviy barqarorlik, ifodaviylik, emotsionallik va nutqda qayta ishlab qo'llanish kabi asosiy xususiyatlari yoritiladi.*

Kalit so'zlar*: frazeologiya, frazeologik birliklar, nazariy asoslar, semantik yaxlitlik, strukturaviy barqarorlik, til tizimi.*

Аннотация*. В статье рассматриваются теоретические основы фразеологии как самостоятельной отрасли языкознания. Анализируются основные подходы к изучению фразеологических единиц, выделяются их ключевые признаки: семантическая целостность, структурная устойчивость, экспрессивность, эмоциональность и воспроизводимость в речи.*

Ключевые слова: *фразеология, фразеологические единицы, теоретические основы, семантическая целостность, структурная устойчивость, языковая система****.***

Abstract*. This paper examines the theoretical foundations of phraseology as an independent branch of linguistics. It explores the main approaches to the study of phraseological units, highlighting their defining features such as semantic integrity, structural stability, expressiveness and emotionality and reproducibility in speech.*

Key words: *phraseology, phraseological units, theoretical foundations, semantic integrity, structural stability, language system.*

Introduction. Language is a fundamental product and reflection of human cognition, serving not only as the primary means of communication but also as a carrier of culture and collective experience. Through language, individuals transmit information, express emotions, and construct social relationships. In modern linguistics, increasing attention has been paid to the expressive and cultural dimensions of language, particularly within the framework of anthropocentric approaches, which emphasize the role of human consciousness, thinking, and perception in shaping linguistic structures.

One of the most vivid manifestations of linguistic expressiveness is found in phraseological units. The lexical wealth of a language is not limited to individual words; it is also revealed through stable word combinations that function as ready-made units in speech. These units, commonly referred to as phraseological units, play a crucial role in enhancing the emotional and expressive potential of language. They reflect national mentality, cultural values, and historical experience, making them an essential component of the language system.

Despite extensive research in general linguistics, the theoretical foundations of phraseology and its place within the language system remain a subject of ongoing scholarly discussion. Linguists differ in their interpretations of phraseological units, their defining features, and their boundaries in relation to free word combinations and lexical items. This diversity of viewpoints highlights the need for a systematic analysis of phraseology as an independent linguistic discipline.

Methods. The present study employs a qualitative, descriptive, and analytical research design. The methodological framework is based on theoretical linguistics and focuses on the systematic analysis of phraseological units as components of the language system. Since the research is theoretical in nature, no experimental or statistical methods are applied.

The primary method used in the study is theoretical analysis, which involves the examination and interpretation of existing linguistic theories related to phraseology. Scholarly works by prominent linguists in the field of phraseology are analyzed in order to identify key concepts, definitions, and theoretical approaches to phraseological units.

In addition, the study applies the descriptive method to outline the general characteristics of phraseological units, including their semantic integrity, structural stability, and reproducibility in speech. This method allows for a clear presentation of the essential features that distinguish phraseological units from free word combinations. The comparative method is also employed to contrast different scholarly interpretations of phraseological units proposed by various linguists. By comparing these viewpoints, the study highlights both common and divergent aspects in the understanding of phraseology as an independent linguistic discipline.

Furthermore, elements of semantic and contextual analysis are used to examine the figurative meaning and expressive potential of phraseological units within the language system. This approach helps to reveal their functional role in enhancing emotionality, expressiveness, and cultural representation.

Overall, the combination of these methods ensures a comprehensive and systematic investigation of the theoretical foundations, general characteristics, and linguistic significance of phraseology.

Results. The analysis of theoretical sources and linguistic material demonstrates that not all stable word combinations qualify as phraseological units. Only those combinations that meet a set of clearly defined linguistic criteria are recognized as phraseological units within the language system. The results of the study confirm that semantic integrity, stability, and reproducibility are the core features that distinguish phraseological units from free word combinations.

First, the analysis reveals that semantic integrity (idiomaticity) is the primary criterion for identifying phraseological units. The meaning of a phraseological unit is perceived as a whole and cannot be derived from the direct lexical meanings of its individual components. Both English and Uzbek examples illustrate that the constituent words often lose their literal meanings and function together to express a generalized figurative sense. This finding supports the view that phraseological units operate as indivisible semantic units within the lexical system of language.

Second, the study confirms that structural stability is an essential characteristic of phraseological units. The examined data show that phraseological units display a fixed lexical and grammatical structure, and any modification of their components usually leads to semantic distortion or complete loss of meaning. The comparative analysis of English and Uzbek phraseological units indicates that stability is a universal feature, regardless of language-specific differences. This stability ensures the recognizability and conventionality of phraseological units in discourse.

Third, the results demonstrate that reproducibility plays a crucial role in the functioning of phraseological units. Phraseological units exist in the language as ready-made expressions and are introduced into speech as complete forms rather than being created a new in each communicative situation.

Overall, the results indicate that phraseological units occupy a distinct position within the language system. Their semantic unity, structural stability, and reproducibility enable them to perform expressive, emotional, and cultural functions that cannot be fully achieved by free word combinations.

Discussion. The results obtained in this study confirm that phraseological units cannot be identified solely on the basis of structural stability. Instead, they must be analyzed through a combination of semantic, structural, and functional criteria. This finding aligns with the views expressed by many linguists, who emphasize that phraseology represents a distinct level of the language system rather than a simple collection of fixed expressions.

The criterion of semantic integrity supports Sh. Rahmatullayev's position that the meaning of a phraseological unit is not equal to the sum of the lexical meanings of its components but emerges as a generalized and figurative meaning. This interpretation corresponds with A. V. Kunin's definition of phraseological units as fully or partially reinterpreted stable combinations. Thus, despite differences in terminology, both scholars underline the decisive role of idiomatic meaning in distinguishing phraseological units from free word combinations.

The discussion of structural stability demonstrates that fixedness is a universal feature of phraseological units across languages. The analyzed English and Uzbek examples confirm Kunin's

view that phraseological units function as stable lexical entities whose internal structure is resistant to change. At the same time, Rahmatullayev's approach highlights that stability alone is insufficient without figurative meaning, which narrows the scope of phraseology and prevents the inclusion of all stable word combinations. The feature of reproducibility further supports the understanding of phraseological units as ready-made elements of the language system. This characteristic emphasizes their cognitive and cultural nature, as such units are stored in speakers' memory and reproduced in discourse according to communicative needs. From this perspective, phraseological units serve as a bridge between language, thought, and culture, reinforcing the anthropocentric orientation of modern linguistic studies.

XX-asr boshlarida madaniy hayot jonlanishi, Rus va G'arb namunalarining hayotimizga kirib kela boshlanishi va buning ta'sirida dunyoviy adabiyotning jonlana boshladi. Shunday bir paytda ya'ni 1922-yil birinchi o'zbek romani - "O'tgan kunlar" vaqtli matbuot sahifalarida e'lon qilina boshlaydi. Birinchi o'zbek romani… "O'tgan kunlar"ning paydo bo'lishi bu qoidadan istisno edi. Abdulla Qodiriy bu romanida Sharq adabiyotiga xos romantik tafakkur, Yevropa adabiyotiga xos realistik uslubni bir nuqtaga yig'ib bera oladi. Bir tomchi suvda olam aks etganidek, romanda butun bir xalq hayoti aks etdi. Romandagi fojia orqali adib muhim inqilobiy fikrni o'rtaga tashladi. Asrlar davomida mudrab yotgan dillarni uyg'otdi.

Milliy adabiy jamoatchilik "O'tgan kunlar" xususida sukut saqlab turgan bir paytda, 1928-yilga kelib rus adabiyoti vakillaridan M.Sheverdin "O'tgan kunlar" haqida maxsus va jiddiy maqola e'lon qiladi. U o'z maqolasida shunday deb yozadi: "Ajablanarli joyi shundaki, "Maorif va o'qitg'uvchi" jurnalida boshqa milliy matbuot organlari roman haqida biror nima demadi. Kundalik matbuot romanni ko'rib ko'rmaganga soldi". Bu gaplarda jon bor edi. Biroq M.Sheverdin boshqacha xulosaga kelganini aytadi. Bu asar kitobxonlar tomonidan qizg'in kutib olingani tez tarqalgani va tez shuhrat qozonganini gapirib yuksak badiiy qimmatini tan oladi[3].

"O'tgan kunlar", "Merobdan chayon" va hatto "Obid ketmon" jadid adabiyotiga mansub asarlar degan xulosaga kelish mumkin edi. Ammo Sho'ro zamonida bunday xulosaga kelinsa ham uni aytib bo'lmas edi. Sho'rolar zamonida hamma narsa kommunistik ko'z bilan qaralardi[4].

Abdulla Qodiriy 1926-yilda "Mushtum" jurnalida chiqqan "Yig'indi gaplar" maqolasidagi "yuqori rabarlarga tegadigan qaltis gaplari" uchun, ayrim muttaham hamkasblarining chaquvlari oqibatida adib 1926-yili 8-mart kuni qamoqqa olinadi. Abdulla Qodiriy – Julqunboyning 1926-yil 15-17-iyunda bo'lib o'tgan sudda so'zlagan nutqi"da o'sha maqolasining mohiyati, satirik janr tabiati tahlil qilinib, undagi mulohazalar "Ovsar" tilidan faqat ishchi – dehqon manfaati kuzatilib aytilgani"ga, "hukumat kishilariga bo'lgan gaplar, o'rtoqlik hazili" ekaniga urg'u beradi.

1936-yil iyul oyida Qozon shahrida bo'lib, Tatariston yozuvchilarining "I-Quriltoyida ishtirok etdi. Kolxoz hayotidan olib yozmoqchi bo'lgan yangi asariga manbalar to'plash uchun Toshkent atrofidagi qishloqlarni kezadi. Garchand adib o'z xalqining ma'naviy dunyosini o'zining asarlari bilan bo'lsa ham, mustabid tuzum uning qadriga yetmadi. Qayta dushmanga chiqardi. Abdulla Qodiriy 1937-yil 31-dekabr kuni hibsga olindi. Qodiriyning yozishicha, o'shanda tergov mahali ham: "Menga qo'yilgan ayblarni boshdan-oyoq rad etaman. Haqiqat yo'lida har qanday, hech qanday jazodan qiynoqdan qo'rqmayman. Agar otmoqchi bo'lsalaring, ko'kragimni kerib turaman…" deb mardona turadi. U cho'zilgan tergovlardan keyin hech bir aybi isbotlanmagan holda 1938-yil 4-oktabrida xalq dushmani sifatida qatl etiladi. Abdulla Qodiriy oqlangandan keyin 1958-yildan boshlab, uning qutlug' nomi, asarlari xalqqa qaytarila boshlandi.

1991-yil O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi e'lon qilingandan so'nggina Abdulla Qodiriyga yuksak hurmat va ehtirom ko'rsatila boshlandi. Abdulla Qodiriy Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti va "Mustaqillik" ordeni bilan taqdirlandi[5].

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Qodiriy o'zbek milliy adabiyotining shakllanishi va taraqqiyotida beqiyos o'rin tutgan ulug' adibdir. U o'z ijodi orqali xalqning tarixiy taqdiri, ma'naviy dunyosi, orzu-intilishlari va ijtimoiy muammolarini badiiy jihatdan yuksak darajada ifodalab berdi. "O'tgan kunlar", "Mehrobdan chayon" kabi romanlari nafaqat o'zbek romanchiligining poydevorini qo'ydi, balki milliy ong va o'zlikni anglash jarayonida muhim ma'naviy manbaga aylandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Yoqubov O., Karimov N. va b.- Abdulla Qodiriy to'la asarlar to'plami. – T.: 1995. – B6.
2. Karimov B. Abdulla Qodiriy. – T.: 2022. –B.6.
3. Qo'shjonov M. Qodiriy erksizlik qurboni. – Toskent, 1992. –B4-6.
4. Sharafiddinov O. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. – T.: 1999. –B188.
5. Karimov B. Abdulla Qodiriy. – T.: 2022. –B.15.

UO'K 811.512.1:81'373.72:82-2

FRAZEOLOGIZMLARNING MA'NO VA IFODA XUSUSIYATLARI "ABULFAYZXON" DRAMASI MISOLIDA

I.S.Imomova, mustaqil tadqiqotchi, Toshkent davlat o'zbek tili adabiyoti universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Fitratning "Abulfayzxon " dramasida qo'llanilgan iboralar va ularning turlari, o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritilgan. Dramatik matnni to'g'ri tushunishi va matnning asl mazmun-mohiyatini anglab yetishda iboralarning o'rni beqiyos. Tadqiqot ishimizda aynan iboralar to'grisida ma'lumotlar keltirilgan va dramatik matnda ushbu vositalarning ishlatilishi qahramonning o'ziga xos xarakterini ochib bergan.*

Kalit so'zlar: *Aforizmlar, frazeologik birliklar, xususiyatlar, funksiyalar, dramatik asar, frazeologiya, emotsional-ekspressivlik,*

Аннотация. *В данной статье рассматривается драма Фитрат "Абулфайзхона". В статье обсуждаются используемые выражения, их типы и спицифические характеристики. Важность выражений для правильного понимания драматического текста и его истинного смысла несравнима. Наша исследовательская работа посвящена именно выражениях предоставляет информацию и раскрывает. Использование этих приемов в тексте уникальный характер драматического героя.*

Ключевые слово: *афоризмы, фразеологические единицы, свойства, функции, драматическое произведение, фразеология, эмоционально-выразительность.*

Abstract. *This article discusses the expressions used in Fitrat's "Abulfayzkhan", their types and specific characteristics. The use of idioms is essential for the correct understanding of a dramatic text and for understanding its true meaning. Our research paper presents information about idioms, and the use of these devices in the dramatic text reveals the unique character of the hero.*

Keywords: *Aphorisms, phraseological units, properties, functions dramatic work, proverb, phraseology, emotional-expressiveness*

Kirish. Ko'pchilik til o'rganuvchi yoshlar tilning juda ko'p yashirin tomonlari, o'ziga xos jihatlari borligidan, ayniqsa, so'zlarning ilmiy, badiiy, publitsistik va 134ermini134134 jihatlari bir-biriga to'g'ri kelmasligidan shikoyat qilishadi, tilni yakuni yo'q bilimlar 134ermin deb ta'riflashadi. Har qanday tilning lug'at boyligi faqatgina o'sha tilning tub so'zlari, boshqa tillardan kirib kelgan olinma so'zlar, tilning ichki semantic qurilishida paydo bo'ladigan yangi so'zlar yasalishigagina emas, balki iboralar, turg'un so'z birikmalari hisobiga ham son jihatidan, ham sifat jihatidan boyib boradi. Ular til birligi sifatida nutqqacha tayyor holda mavjud boladi. Tildagi ana shunday turg'un birikmalar "dunyosi" bilan shug'ullanuvchi fan frazeologiya fanidir.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. G'arb tilshunoslari orasida Sh.Balli birinchilardan bo'lib, 1905-yilda frazeologiya terminini qo'llagan. U frazeologizmlarni stilistik nuqtai nazardan tilning ifoda birligi sifatida talqin qilgan. Xxasrda frazeologizmlarni tadqiq qilgan olimlar orasida

V.V.Vinogradovning 135 ermini 135 klassifikatsiyasini ta'kidlab o'tish lozim. Olim rus tili frazeologiyasini 135 ermini 135 klassifikatsiya qildi va mazkur klassifikatsiya ko'plab tillar frazeologizmlarni jadal o'rganishga turtki bo'ldi. Ushbu o'rinda ingliz tili frazeologiyasi tadqiqotchilar N.N.Amosova, A.V.Kunin, nemis tili frazeologiyasi tadqiqotchilaridan I.I.Chernishyova, A.D.Rayxshtayn, frantsuz tili frazeologiyasi tadqiqotchilaridan M.I.Retsker kabi olimlarning nazariy va amaliy izlanishlarini alohida tilga olish lozim. Shuningdek, bu 135ermini 1928 yilda Ye.D.Polivanov o'z ilmiy ishlarida qo'llay turib, quyidagi jumlalarni aytgan edi: "Men morfologiyaga nisbatan sintaksis qanday aloqada bo'lsa, leksikaga nisbatan xuddi shunday munosabatga kirishuvchi maxsus fanni "frazeologiya" degan 135ermini qo'llashni lozim topdim". Darhaqiqat, 20-asrning 50-yillaridan beri frazeologiya jahon tilshunosligining diqqat markazida bo'lib kelmoqda. U bo'yicha bir qator monografik ilmiy izlanishlar natijasida uning ob'ekti aniqlandi, tadqiqot metodlari ishlab chiqildi va bu fan tilshunoslikning boshqa sohalari qatorida o'z o'rnini shakllantirdi. So'nggi yillarda ko'plab tillar materiallari asosida olib borilgan keng ko'lamli frazeologik tadqiqotlar natijasida frazeologizmlar quyidagicha ta'riflanmoqda. Ikki yoki undan ortiq komponentdan tashkil topgan, yaxlit frazeologik ma'no anglatuvchi turg'un til birligi frazeologizm yoki frazeologik birikma (ibora) deyiladi. Birdan ortiq mustaqil leksema ko'rinishining birikuvidan tashkil topib, obrazli ma'noviy tabiatga ega bo'lgan lisoniy birlik frazeologizm deyiladi…". (Sayfullayeva R., B.128.) Frazeologiya muammolariga qiziqish dastlab rus tilshunoslari qiziqa boshlagan bo'lsada, u alohida termin sifatida ilk bor g'arb tilshunosi Sh.Balli tomonidan qo'llanilgan. U o'zining "Stilistikadan ocherklar" va "Fransuz tili stilistikasi" asarlarida so'z birikmalariga yaxlit bir tizim sifatida qarab, ularning grammatik va leksik xususiyatlari, sintaktik strukturasi va atash ma'nolarining o'ziga xosligidan kelib chiqadigan, yaxlit qo'llanila oladigan birlik ekanligini isbotlashga harakat qildi. O'zbek tilining frazeologizmlari besh jildlik "O'zbek tilining izohli lug'ati"da (2006-2008) va bir jildlik "O'zbekcha-ruscha lug'at"da (1988) birmuncha to'laroq aks etgan bo'lsa-da, bu lug'atlarda ham o'zbek tilidagi barcha iboralar qamrab olingan deb bo'lmaydi. Frazeologizmlarning o'rganilish tarixi haqida gapirilganda, "frazeologiya" atamasi "fraza" so'zidan olingan bo'lsa-da, turkiyshunoslikda dastlab bu atama turli ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qilgan. XIX asrda yashagan turkiyshunos olim Mirza Kozimbek (1802-1870) o'sha davr an'analaridan kelib chiqib, rus tilida yozilgan boshqa tasviriy grammatikalarda bo'lgani singari o'z asarida "fraza" so'zini jumla, gap ma'nosida qo'llagan.

Tahlil va natijalar. Badiiy matnlarda yozuvchi uslubiga oid frazeologik birliklarni o'rganish bilan bog'liq tadqiqotlar olib borish bugungi kundagi muhim ishlardan biridir. Fitrat ham o'zining asarlarida turli xil frazemalardan oqilona foydalanib, asarning ta'sirchanligini oshirgan. Uning ayniqsa "Abulfayzxon" dramasida frazemalardan unumli foydalangan. Tildagi ko'pgina frazemalar uchun ekspressiv-emotsional bo'yoqdorlik ajralmas xususiyat hisoblanadi. Frazeologik birliklar qo'rquv, shodlik, ajablanish, qayg'u, hayrat, taajjub kabilarni ifodalash imkoniyatiga ega. Masalan, *Kuchli bir qayg'u ostinda ezilib turg'ani ko'runadir*. **Ezilib turmoq** iborasi ushbu asarda xonning barcha ishlardan siqilganini, ko'ngli xira yoki dardi borligi yuz-ko'zidan, holatidan bilinib turganini va xafa bo'lmoq emotsional buyog'ini ifodalaydi. *O'yunchilar singirlanib, taxtag'a qaraylar.* **Singirlanib qaramoq** iborasining ma'nosi ushbu gapda norozilik, nafrat va g'azab va sovuq, yoqimsiz tarzda qaramoq ma'nolarini bildiradi. Mir Vafo nutqidan aytilgan ushbu ibora shaxmat o'ynayotganlarning yuz tuzilishidagi qiyofalarini ochib berish uchun ishlatilgan. Ayrim iboralar so'zlovchining kishilarga nisbatan ijobiy tavsifi, ijobiy bahosini ifodalasa, "yuragida kiri yo'q", "ko'ngli toza" boshqalar esa salbiy tavsif, salbiy baho bo'yog'ini ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan, "beti qattiq", "pixini yorgan", "tili achchiq" kabi iboralar salbiy ekspressivlikni keltirib chiqaradi. Yozuvchi dramalarida ham bunday iboralardan keng foydalanilgan. *Abulfayzxon ichkari uylaridan juda og'ir bosib chiqar, o'tirg'anlarg'a qarab yurar, hammalari turub qo'l qovushturarlar*. **Qo'l qovushtirmoq** iborasi hech narsa qilmay, harakatsiz qolmoq, loqayd bo'lib tomoshabin bo'lib turmoq degan ma'nolarni bildiradi. Xonning barcha ishlarni qilayotgan bir damda uning odamlari bunday holatda hech narsa qilmayotganligi tasvirlangan**. Juda og'ir bosib chiqmoq** iborasidan ham ko'rishimiz mumkin-ki xonning o'ta ehtiyotkorlik bilan harakat qilayotganligi, o'ylab ish tutayotganligi asarda ushbu iboralardan ochib berilgan. *Otaliq qulingiz bilan uzun so'ylashdim,*

hazratim buyursalar, hammasini arz qilayin. Qozi Nizom tomonidan aytilgan **uzun so‘ylashdim** iborasi uzoq vaqt gaplashmoq, suhbatni cho‘zmoq, batafsil gaplashmoq ma’nolarida keladi. *Siz xoqonimizning eng ishonchli qullari bo‘lasiz. Qozi Nizom otaliq bilan bo‘lgan suhbatda* otaliqqa kinoyali tarzda **ishonchli qullari bo‘lmoq** iborasini qo‘llagan. Ushbu ibora orqali yozuvchi otaliqning mustaqil fikrsiz, ko‘r-ko‘rona bo‘ysunuvchi shaxs ekanligi asarda keltirilgan. *Hakimbiy inoq ham ko‘b tirishdilar*. **Ko‘b tirishmoq** iborasi orqali Hakimbiyning ham ko‘p harakat qilgani, astoydil urunib ko‘rganligi, maqsadiga erishish yo‘lida qattiq harakat qilganligi ochib berilgan. *Eronning yangi to‘p, miltiqlar bilan yaroqlang‘an qo‘shuni bizning qo‘shunimizni buza olg‘an bo‘lsa ham, o‘zbakning boturlig‘ini bilg‘ani uchun hurkub tura edi.* **Qo‘shunimizni buzmoq** iborasi bizning kuchimiz, guruhimiz yoki rejamizni buzishga muvaffaq bo‘lgan, qarshilik qilgan degan ma’noni bildiradi. Otaliq nutqida aytilgan bo‘lib, Eron qo‘shini kuchli chiqib, bizning qo‘shinni yenganligiga ishora qilingan. **Hurkub turmoq** iborasi orqali esa o‘zbekning botirligini ko‘rgan uning raqiblari unga hech qanday harakat qilmay, jim turayotganligi tasvirlangan. *Bizga yordam uxhun Xiva qo‘shunining ham Buxorog‘acha kelganini eshitg‘ach, butun qo‘rqdi, ustaliq bilan urushni yotquzdi-da, qaytib ketdi.* **Urushni yotquzmoq** iborasi raqiblari urushni to‘xtatib tinchlik o‘rnatdi ma’nosida keladi. Davlatlarning o‘zaro nizolarni yakunlanganligi tushuniladi. **Urushni uzatib turmoq** urushni ataylab davom ettirmoq, tinchlikka yo‘l qo‘ymay, mojaroni cho‘zib yubormoq ma’nosida qo‘llaniladi. *Molimizni, jonimizni xoqoni olamning muborak oyoqlarinda qurbon qilmoq hammamizg‘a lozimdir.* **Oyoqlarida qurbon qilmoq**- samimiy hurmat va xonga Qozi Nizomning sodiq bilan xizmat qilayotganligi ta’kidlangan. **Qizini tortuq qilmoq**- hozircha, vaqtincha bermay turayotganligi keltirilgan. Ya’ni xon Farhod otaliqning qizini berishi uchun Qozi Nizomni elchilikka jo‘natadi. Shunday ekan dramada ham o‘ziga xos frazeologik birliklar qo‘llanilgan.

Xulosa. Darhaqiqat, xulosa qiladigan bo’lsak, tilda mavjud bo’lgan turg’un so’z birikmalari (frazeologizmlar, maqollar, matallar) shu xalqning butun tarixini, hayot yo’lini aks ettiradi, shuning uchun ham insonlar har qanday vaziyatda ularga tez-tez murojaat etadilar. Turg’un so’z birikmalari har qanday nutqdagi birlikning shirali va ta’sirchan bo’lishida muqobil uslubiy vosita rolini bajaradi. Obrazli qilib aytganda, uzukka ko’z qanday bezak bo’lsa, turg’un birikma ham so’zlovchining nutqiga, tasviriga ana shunday kuch hayotiylik bag’ishlaydi. Frazeologiya nutqda, asarlarda ularning mazmuniy va ma’naviy shaklini kengaytirishga hamda boyitishga xizmat qilishini biz ushbu maqolamiz orqali ifoda etdik. Shu maqsadda muloqotda nutq o‘stiruvchi vositalarni, ulardan foydalanish usullarini, iboralar va tasviriy ifodalarni o‘rganish muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdug‘aniyeva N. “The most used English idioms”.-Toshkent: “Davr express” 2014.-255b.
2. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари. –Тошкент, 1966.
3. Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционалуслубий хусусиятлари. –Тошкент, 1993.
4. Маматов А. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиш масалалари. –Тошкент, 1999.
5. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. –Тошкент, 1992.
6. Абдуллаев Ш. Таржима асарларда фразеологизмлар семантикаси. Филол.фан номзоди....дисс. автореферати. –Тошкент, 2006
7. Sayfullayeva R. (2009) .”Hozirgi o‘zbek adabiy tili”.−Toshkent
8. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar: 1-jild. She’rlar, nasriy asarlar, dramalar. – T.: “Ma’naviyat”, 2000. 219b.

UO’K 811.111:811.512.133’367.622

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA MODALLIK KATEGORIYASINING FUNKSIONAL ASOSLARI

M.M. Iskandarova, magistrant, Urganch Ranch universiteti, Urganch

Annatatsiya. *Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillarida modallik kategoriyasining funksional asoslari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda modallikning semantik va pragmatik xususiyatlari, uning nutq jarayonida so‘zlovchining munosabati, ehtimollik, majburiyat va imkoniyat kabi ma’nolarni ifodalashdagi o‘rni yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *modallik kategoriyasi, ingliz tili, o‘zbek tili, funksional yondashuv, modal fe’llar, pragmatika, nutq akti.*

Аннотация. *В данной статье проводится сопоставительный анализ функциональных основ категории модальности в английском и узбекском языках. В исследовании рассматриваются семантические и прагматические особенности модальности, а также её роль в выражении отношения говорящего, вероятности, обязательности и возможности в речевой деятельности.*

Ключевые слова. *категория модальности, английский язык, узбекский язык, функциональный подход, модальные глаголы, прагматика, речевой акт*

Abstract. *This article provides a comparative analysis of the functional foundations of the category of modality in English and Uzbek. The study examines the semantic and pragmatic features of modality, focusing on its role in expressing the speaker’s attitude, probability, obligation, and possibility in speech.*

Keywords: *modality category, English language, Uzbek language, functional approach, modal verbs, pragmatics, speech act.*

Kirish: Tildagi ma’lum kategoriyalarni morfologik, leksik va sintaktik yaruslar birligi ishtirokida o‘rganish masalasi tipologik qiyosiy metod uchun juda zarur masalalardan biri hisoblanadi.

Biror kategoriyani ifodalashda tilda maxsus so‘zlar va konstruksiyalarning bo‘lmasligi ham mumkin. Bunday hollarda ular qo‘shimcha vazifalar bajaradigan boshqa ifodalar orqali amalga oshiriladi.

Chunonchi, hozirgi ingliz tilida aniqlik noaniqlik kategoriyasi aniq va noaniq artikl ishtirokida ifoda etiladi. Hozir o‘zbek tilida aniqlik va noaniqlik maxsus marker vositasida ifodalanmaydi. Bu tilda ifoda planining eng rang-barang turlaridan foydalaniladi. Bunga yana modallik kategoriyasi va hokazo kategoriyalarni kiritish mumkin. Ikki va undan ortiq tillarni qiyoslash tipologik kategoriyalardan foydalanamiz

Tipologik kategoriyalar, tipologik ma’no va tipologik formalar bilan ifoda etiladi. Tipologik forma tipologik ma’noni ifodalovchi chog`ishtirilayotgan tillarning turli yarus birliklaridir. Ingliz va o‘zbek tillarida na’muna sifatida quyidagi tipologik kategoriyalarni ko‘rsatish mumkin:

1) tipologik ko‘plik kategoriyasi
2) tipolik rod kategoriyasi
3) zamon kategoriyasi
4) modallik kategoriyasi
5) aniqlik va noaniqlik kategoriyasi va boshqalar.

Nechta tipologik kategoriya borligi hozircha to‘la aniqlangani yo‘q. Ularga yana bir qancha umumtipologik kategoriyalarni qo‘shish mumkin deb qaraydi J. Bo‘ranov. Har bir yarusdagi tipologik forma uchun uning asosiy markeri bo‘ladi. Bunday markerlar turli tillardagi yaruslarda turlicha ifodalanadi. [1.193]

Ingliz va o‘zbek tillaridagi modallik kategoriyasini ifodalovchi shakllar haqida qisqacha to‘xtalamiz.

N.Yu.Shvedovaning fikricha, modallik vositalariga mayl, gapning alohida konstruksiyalari, intonatsiya, so'z tarkibi, takror, yuklama, undov, kirish (modal) so'zlar va gaplar mansubdir. Turkiy tillar materiallari asosida, asosan, quyidagi modallik vositalari ajratiladi: mayl, zamon va shaxs qo'shimchalari, gapning alohida qurilmalari, yuklamalar, so'z tartibi, intonatsiya, yuklama vazifasidagi so'roq olmoshlari, undalmalar, kirish so'z va gaplar. Ko'rinib turibdiki, bu kategoriya ostida xilma-xil vositalar: morfologik (mayl, zamon, shaxs affikslari), leksik (so'zlarning turli guruhlari), sintaktik (alohida gap qurilmalari, so'z tartibi, takror va fonetik vositalar (intonatsiya) kiritiladi. Bir kategoriya ostiga bunday xilma-xil vositalarning birlashtirilishi tilshunoslar o'rtasida, tabiiy ravishda, ayrim e'tirozlarning tug'ilishiga sababchi bo'ldi. Shuning uchun ham bu vositalarni birlashtiradigan bir umumiy belgi topishga harakat qilinadi. Bu vositalarning hammasi o'z funksiyasini gap ichida (gap sathida) ko'rsatadi. Ana shu belgi, ya'ni sintaktik belgisi yuqoridagi vositalarni birlashtirishga ma'lum darajada asos bo'ldi. Shunga ko'ra modallik vositalarini ham: 1) konstruktiv-sintaktik; 2) morfologik- sintaktik; 3) intonatsion-sintaktik guruhlarga ajratish mumkin .

Barcha modal ma'nodagi vositalarga sintaktik maqom berilishi bu vositalarning tuzilishi umumiyligini ko'rsatish uchun asos bo'ladigandek tuyuladi. Ammo, ma'lum bir o'rinda birlashtirishga asos bo'lsa" bu sintaktik belgisi modal vositalar farqlanishida o'z quvvatini yo'qotadi. [2. 411]

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Modallikni ifodalovchi vositalarni nutqda o‘z o‘rnida qo‘llash nuqtning jozibadorligini va tasirchanligini oshirgan holda tinglovchi va o‘quvchining muallifga nisbatan e‘tiborini kuchaytiradi. Dialogik nutqdagi subyektiv modallikni reallashtirishda fonetik, morfologik, sintaktik va leksik vositalar muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, subyektiv modallikning yuzaga chiqishida iboralar ham o‘ziga xos o‘rin egallaydi.

Modallik kategoriyasi funksional-semantik kategoriya va uni kommunikatsiya (nutqiy aloqa) orqali tahlil qilish o‘ta muhim hisoblanadi.

Dialogik nutq, subyektiv modallikning barcha jihatlarini keng va atroflicha qamrab oladi. Subyektiv modallik, birinchi galda, har bir tilning tovushlar sistemasida namoyon bo‘ladi. Uning voqe bo‘lishida unli va undosh tovushlarning faoliyati muhim hisoblanadi. Dialogik nutqdagi subyektiv modallikning fonetik usul bilan ifodalanishida intonatsiya tarkibiy qismlari, ya’ni pauza, melodika, urg‘u muhim o‘rin egallaydi. Dialogik nutqqa oid materiallarni kuzatishlar natijasida subyektiv modallikning fonetik vositalar asosida ro‘yobga

chiqarilishi o‘ziga xos xususiyatga ega ekanligi ma‘lum bo‘ldi.

Dialogik nutqdagi subyektiv modallikning reallashuvida ohang, vaziyat,

ovozning kuchi hamda balandligi muxim ahamiyatga ega.

Quyida har ikkala tilda modallik kategoriyasining ifodalovchi vositalari bilan qisqacha tanishamiz.[3. 267]

Tahlil natijalari. Modal fe’llar anglatgan ma'nosiga ko‘ra majburiylik, mumkinlik, zarurlik, ishonch, xohish, ruxsat, taxmin, faraz qilish va shunga o‘xshash boshqa ma’nolarni ifodalaydi (J. Bo‘ranov, U. Hoshimov, X. Ismatullaev 1974). Modal fe’llar harakatni ko‘rsatmasligi tufayli boshqa fe’llardan semantik jihatdan farq qiladi. Modal fe’llar asosiy fe’llar bilan birga ishlatilib, asosiy fe’llarga modallik ma’nosini qo‘shadi. Modal fe’llar quyidagilar: can, could, may, might, must, have to, need, should, ought to, to be able to. Modal fe’llarning o‘tgan zamon shakllari, so‘roq va inkor shakllari mavjud. Dissertatsiyamizning uchinchi bobida modal fe’llar xususida bafurcha to‘xtalib o‘tamiz.

Ingliz tili grammatikasida modallikni ifodalash uchun modal so‘zlar ham qo‘llaniladi. Tilshunoslik atamalari lug‘atidagi (1969) modal so‘z “o‘ziga xos leksik ma’no yo‘qotgan va modallikni tavsiflovchi ifoda vositasi vazifasini bajargan so‘z” deb talqin etiladi. Ingliz tili grammatikasi Belyayeva M.A. quyidagi ta’rifni beradi: “modal so‘zlar – bu so‘zlovchining gapda ifodalangan fikrga subyektiv munosabatini ifodallovchi so‘zlar”. [4. 301]

Professor L.S. Barxudarovning aytishicha, gapda modal so‘zlar har

doim gapning kirish so‘zi rolini o‘ynaydi. Shuningdek, L.S. Barxudarov modal so‘zlar butun bir xabar qilinayotgan fikrga so‘zlovchining munosabatini ifodalaydigan so‘zlardir deb ta’riflaydi.

Modal so‘zlar nutqning alohida qismidir, kirish so‘z va birikma vazifalarini bajarishi mumkin.

Ma’nosi bo‘yicha modal so‘zlarni ikki guruhga bo‘lish mumkin:

1. So‘zning mantiqiy bahosini, so‘zlovchining xabar haqiqatiga bo‘lgan ishonchini, kategorik ishonchliligini ifodalovchi ijobiy ma’noga ega modal so‘zlar: albatta, haqiqatan ham, shubhasiz va h.k. Masalan: Bir kuni, shubhasiz, bu ko‘l quriydi.

2. Taxminiy, ehtimoliy ma’noga ega bo‘lgan modal so‘zlar.

Ingliz tili grammatikasidagi modallikni ifodalovchi tushunchalarni aytganimizda, albatta, mayl kategoriyasi xususida so‘z yuritishimiz kerak. Mayl kategoriyasi ko‘pincha so‘zlovchining holat va haqiqat o‘rtasidagi munosabatlarni ifodalovchi fe’l kategoriyasi sifatida qaraladi.[5. 550]

Grammatik kategoriyaning qabul qilingan ta’rifidan kelib chiqadigan bo‘lsak, mayl kategoriyasi modallikni grammatik vositalar ifodalaydigan qarama-

qarshi shakl sinflarining to‘plamidir.

Grammatika fanidan bizga ma’lumki ingliz tili grammatikasida maylning uch turi mavjud:

1. Aniqlik mayli (The Indicative Mood)

2. Buyruq mayli (The Imperative Mood)

3. Istak-xohish mayli (The Subjunctive Mood)

Aniqlik mayli real borliqqa mos keladigan harakat va holatni ifodalash uchun xizmat qiladi. Bu mayl fe'llarining barcha zamon turlarini o'z ichiga oladi. Bu zamon turlari sodir bo'layotgan, sodir bo'lgan va sodir bo'ladigan harakat yoki holatdan iboratdir. Gapiruvchi aniqlik mayli shakllaridan foydalangan holda real harakatni nazarda tutib xabar beradi. Shu bilan bir qatorda fe'l shakllari orqali harakatning borliqqa bo'lgan munosabatini ifodalaydi.

Buyruq mayli bu biror bir harakatni bajarishga undash ma'nosini ifodalaydi va bu ma'lum bir harakatni amalga oshirish, undash ma'nosi buyurish, taqiqlash, iltimos kabilardan iborat bo'lishi mumkin.[6. 170]

Istak-xohish mayli faraz qilinadigan, mumkin bo'ladigan, xohlanadigan harakatni ya'ni real borliqdagi harakatlarga zid keladigan harakatni ifodalash uchun xizmat qiladi. Istak-xohish mayli hozirgi zamon ingliz tilida sintetik va analitik shakllarda o'z ifodasini topadi.

Xulosa. Modal so'zlar fikrning voqelikka munosabatini aniq, tasdiq va taxmin yo'li bilan bildiradi. O'zbek tilidagi modal so'zlar ingliz tilidagi modal so'zlarga ko'p ma'nolik, sinonimiya xususiyatlari bilan mos keladi. O'zbek tilida modal so'zlar o'z ma'nolari jihatidan xilma-xil bo'ladi. Shunga ko'ra bu modal so'zlar anglatgan ma'nosiga qarab bir-biridan farq qiladi. Har ikkala tilda ham modal so'zlar gapning boshida ham, o'rtasida ham kelishi mumkin. Modal so'zlarning o'rnini o'zgarishi gapning ma'nosiga ta'sir qilamaydi, chunki bu so'zlar boshqa so'zlar bilan grammatik aloqaga kirishmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mills A.D. Dictionary of English Place-names. – Oxford : OU P, 1991. – 193 p.
2. Mills A. Dictionary of English place names. – Oxford: Oxford University Press, 1998. – 411 p.
3. The Oxford Dictionary of English idioms / ed. J.Speake. – Oxford: Oxford University Press, 2004.–267 p.
4. Watts V.E. The Cambridge Dictionary of English place-names. – Cambridge: CU P, 2004. – 301 p.
5. Stewart G. American place names. – Oxford: Oxford University Press, 1985. – 550 p.
6. Taylor S., Markus G. Place-Names of Fife. – Donnington: Shaun Tyas, 2006. – 170 p

UDC 81'255.2:81'25

CONCEPTS OF EQUIVALENCE AND ADEQUACY IN THE TRANSLATION OF POLITICAL TEXTS

O.O.Islomova, PhD student, Samarkand State Institute of Foreign Languages, Samarkand
ORCID: https://orcid.org/0009-0003-1275-6972

Annotatsiya. *Maqolada ingliz–o'zbek siyosiy diskursida siyosiy matnlarni tarjima qilish jarayonida ekvivalentlik va adekvatlik tushunchalarining o'zaro munosabati tahlil qilinadi. Qiyosiy, semantik, pragmatik va diskursiv tahlil asosida ekvivalentlik leksik va strukturaviy moslikni, adekvatlik esa maqsadli ijtimoiy-siyosiy kontekstda funksional va mafkuraviy moslikni ta'minlashi aniqlanadi. Tadqiqot siyosiy tarjimada adekvatlik yetakchi, kontekstga bog'liq mezon ekanini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *siyosiy tarjima, siyosiy diskurs, ekvivalentlik, adekvatlik, pragmatika*

Аннотация. *В статье анализируется соотношение эквивалентности и адекватности в переводе политических текстов англо-узбекского дискурса. На основе сравнительного, семантического, прагматического и дискурсивного анализа установлено, что эквивалентность связана с лексико-структурным соответствием, тогда как адекватность обеспечивает функциональную и идеологическую уместность перевода. Делается вывод о ведущей роли адекватности как контекстуально обусловленного критерия политического перевода.*

Ключевые слова: *политический перевод, политический дискурс, эквивалентность, адекватность, прагматика*

Abstract. *This article explores the distinction and interaction between equivalence and adequacy in the translation of political texts within English–Uzbek discourse. Using comparative, semantic, pragmatic, and discourse-analytical methods, the study shows that equivalence focuses on lexical and structural correspondence, while adequacy ensures functional, ideological, and communicative appropriateness in the target context. The findings indicate that political translation*

often requires deliberate deviation from formal equivalence to preserve persuasive intent and pragmatic impact. The study concludes that adequacy is the dominant, context-dependent criterion guiding political translation strategies.
Key words: *political translation, political discourse, equivalence, adequacy, pragmatics*

Introduction. In contemporary international relations, political texts function not merely as neutral channels of information, but as strategic instruments of power, ideology, and persuasion. Political speeches, diplomatic agreements, policy papers, resolutions, and official statements are carefully constructed to legitimize authority, influence public opinion, and shape both domestic and international political realities. Consequently, the translation of political texts represents a highly responsible and ideologically sensitive task that extends far beyond simple linguistic transfer.

Political translation operates within a multidimensional framework shaped by ideological constraints, institutional conventions, and socio-cultural expectations. As Schäffner [8.215 p.] notes, political texts are embedded in specific power structures, and their translation inevitably involves ideological mediation. A strictly literal or formally equivalent translation may fail to convey implicit meanings, pragmatic intentions, or persuasive force, and in some cases may even distort the original political message. For instance, the English term *"regime change"* carries strong ideological and evaluative connotations in Western political discourse, whereas its literal Uzbek equivalent *"rejimni almashtirish"* may sound overly neutral or descriptive, thus weakening the intended political stance.

This demonstrates that translation adequacy, rather than formal equivalence alone, plays a crucial role in political translation. Adequacy presupposes the preservation of communicative intent, pragmatic function, and ideological orientation of the source text within the target political and cultural context. According to Komissarov [4.253 p.], an adequate translation is one that ensures functional correspondence between the source and target texts, even if structural or lexical deviations are required. In political discourse, such deviations are often unavoidable due to differences in political systems, institutional realities, and culturally specific concepts.

This article seeks to systematize the concepts of equivalence and adequacy within the framework of political translation and to demonstrate their practical application through an analysis of English–Uzbek political texts. By examining real examples drawn from speeches, policy documents, and official statements, the study aims to show how translators balance semantic accuracy with pragmatic and ideological considerations. The findings contribute to a deeper understanding of political translation as a form of discursive and ideological mediation, rather than a purely linguistic operation.

Literature review and theoretical framework. The concept of equivalence has long been central to translation theory and has been interpreted within different theoretical frameworks. Nida's distinction between formal and dynamic equivalence is particularly influential, with dynamic equivalence emphasizing the communicative effect on the target audience rather than strict formal similarity [1, 332 p.]. This approach is especially relevant in political translation, where texts aim to persuade and influence.

Newmark's distinction between semantic and communicative translation further supports this functional orientation. While semantic translation prioritizes closeness to the source text, communicative translation seeks to achieve an equivalent effect on the target reader [6, 292 p.]. Given the rhetorical and ideological nature of political texts, communicative strategies are often required to preserve their persuasive force.

Russian and Soviet scholars also contributed significantly to equivalence theory. Komissarov's multi-level model identifies lexical, grammatical, semantic, and pragmatic levels of equivalence [4, 253 p.], while Barkhudarov stresses the role of structural and semantic transformations [12, 240 p.]. Both scholars argue that absolute equivalence is unattainable and that translation should aim for functional correspondence, particularly in ideologically marked political discourse.

In contrast, the concept of adequacy is rooted in functionalist approaches, most notably Skopos theory, which evaluates translation quality based on purpose in the target culture [10, 173 p.]. Schäffner [8, 234 p.] highlights the ideological and institutional nature of political translation, while

Hatim and Mason [11, 250 p.] emphasize discourse and pragmatic mediation. Consequently, while equivalence focuses on linguistic correspondence, adequacy incorporates pragmatic, ideological, and cultural factors, making it a more comprehensive criterion for political translation.

Methodology. The present study employs a qualitative research design combining comparative textual analysis, discourse analysis, and pragmatic interpretation. The corpus consists of selected English political texts, including speeches by political leaders, policy documents, and official statements issued by international organizations, along with their Uzbek translations.

Comparative textual analysis is used to identify shifts between equivalent and adequate translation strategies at lexical, semantic, and pragmatic levels. Discourse analysis focuses on ideological markers, evaluative language, and institutional framing, following the model proposed by Hatim and Mason. Pragmatic interpretation examines how translation choices affect communicative intent and persuasive impact in the target context.

This multi-method approach allows for a comprehensive evaluation of translation strategies and their effectiveness in preserving political meaning.

Scientific novelty. The scientific novelty of this study lies in:

1. Systematizing the relationship between equivalence and adequacy specifically within English–Uzbek political translation.
2. Demonstrating the practical applicability of functionalist theories to post-Soviet translation contexts.
3. Providing a comparative analytical framework that integrates terminological, pragmatic, and ideological dimensions of political discourse.

Results and discussion. The analysis indicates that equivalence at the lexical level is often insufficient in political translation. For example, the English term 'governance' is commonly translated into Uzbek as 'boshqaruv'. While this choice is lexically equivalent, it fails to fully represent the concept's institutional and ideological dimensions, which include transparency, accountability, and civic participation.

Similarly, political metaphors and slogans require adaptive strategies. Barack Obama's statement 'We are the change that we seek' illustrates how a formally equivalent translation may lose its motivational force. An adequate translation prioritizes pragmatic resonance and emotional appeal.

Another challenge arises in the translation of ideologically loaded terms such as 'democracy', 'freedom', and 'reform'. These concepts possess culture-specific connotations and historical associations. Adequate translation requires contextual reinterpretation rather than mechanical equivalence.

The findings confirm that translation shifts, including additions, omissions, and reformulations, are not translation errors but deliberate strategies aimed at achieving adequacy in political communication.

Conclusion. The analysis demonstrates that political translation cannot be adequately evaluated through equivalence alone. While equivalence remains a valuable analytical tool for identifying linguistic correspondences, adequacy provides a broader functional framework that accounts for ideological, pragmatic, and institutional factors. In English–Uzbek political translation, adequacy often requires departures from formal equivalence in order to preserve communicative intent and political significance.

The study confirms that political translation functions as a form of discursive mediation, where translators actively negotiate meaning between source and target political cultures.

REFERENCES:

1.Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. – London; New York: Routledge, 2018. – 332 p.

2. Chesterman A. Memes of Translation: The Spread of Ideas in Translation Theory. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 2016. – 245 p.

3. House J. Translation Quality Assessment: Past and Present. – London; New York: Routledge, 2015. – 200 p.

4. Комиссаров В. Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). – М.: Высшая школа, 1991. – 253 с.

5. Munday J. Introducing Translation Studies: Theories and Applications. – 5th ed. – London; New York: Routledge, 2022. – 366 p.

6. Newmark P. A Textbook of Translation. – New York; London: Prentice Hall, 1988. – 292 p.

7. Nida E. A. Language and Culture: Contexts in Translating. – London: Routledge, 2001. – 191 p.

8. Schäffner C. Political Discourse Analysis and Translation // Journal of Language and Politics. – 2020. – Vol. 19, No. 2. – P. 215–234.

9. Islomova O. BMT, NATO va YEI hujjatlarini tarjima qilishda uchraydigan leksik-semantik muammolar. – Samarqand: Samarqand davlat chet tillar instituti, 2025. – 227 b.

10. Vermeer H. J. Skopos and Commission in Translational Action // Readings in Translation Theory / Ed. by A. Chesterman. – Helsinki: Oy Finn Lectura Ab, 1989. – P. 173–187.

11. Hatim B., Mason I. Discourse and the Translator. – London: Longman, 1990. – 250 p.

12. Бархударов Л. С. Язык и перевод. – М.: Международные отношения, 1975. – 240 с.

UO'K 821.512.133.09

"FIRDAVSU-L-IQBOL" MUQADDIMASIDA BAROATI ISTEHLOL POETIKASI VA LINGVOFALSAFIY TALQIN

I.O.Ismailov, prof.v.v.b, f.f.d., Urganch davlat universiteti, Urganch
G.U.Sapayeva, o'qituvchi, Urganch davlat pedagogika instituti, Urganch

Annotatsiya. *Ushbu maqolada baroati istehlol (husn-i maqta' yoki chiroyli boshlash) nomi bilan yuritiluvchi san'at asarning qaysi mavzuga, qanday g'oyaviy maqsadga yo'naltirilganini ilk satrlardayoq badiiy ishoralar vositasida oldindan ma'lum qilishga asoslangan mushtarak badiiy usuli ekanligini ko'rishimiz mumkin.*

Kalit so'zlar: *Husn-i maqta', hamd, na't, baroat, tazod, saj', tanosub sintez.*

Аннотация. *В этой статье мы видим, что искусство, известное как baroati istehlol (husn-i maqta' или красивое начало), - это общий художественный метод, основанный на предварительном информировании с помощью художественных намеков с самых первых строк о теме и идейной цели произведения.*

Ключевые слова: *Хусн-и макта, хамд, нат, бараат, тазад, садж, пропорциональный синтез.*

Abstract. *In this article, we can see that the art known as baroati istehlol (husn-i maqta' or beautiful beginning) is a common artistic method based on predicting the theme and ideological purpose of the work through artistic signs from the very first lines.*

Key words: *Husn-i maqta', hamd, na't, baroat, tazod, saj', tanosub synthesis.*

Sharq mumtoz poetikasi va matnshunosligida asarning muqaddima qismi (prolog) nafaqat kompozitsion element, balki muallifning ijodiy kredosi va asar konsepsiyasini namoyon etuvchi strategik nuqta hisoblanadi. Ilmiy muomalada baroati istehlol (husn-i maqta' yoki chiroyli boshlash) nomi bilan yuritiluvchi ushbu san'at asarning qaysi mavzuga, qanday g'oyaviy maqsadga yo'naltirilganini ilk satrlardayoq badiiy ishoralar vositasida oldindan ma'lum qilishga asoslangan mushtarak badiiy usuldir. Bunda ijodkor asar debochasi, qasida yoki doston muqaddimasi, hatto ilmiy risolalarning hamd va na't qismlarida shunday so'z va iboralarni tanlaydiki, o'quvchi ular orqali matnning "genetik kodi"ni – mavzusi, janri va yo'nalishini anglab olish imkoniga ega bo'ladi.

Etimologik jihatdan tahlil qilinganda, ushbu istiloh ikki komponentdan iborat murakkab semantik tuzilma ekani oydinlashadi. "Baroat" – arab tilidan olingan bo'lib, mahorat, fasohat, balog'at, fazilat va biror sohada yaqqol ustunlik qilish ma'nolarini ifodalasa; "istehlol" – (hilol – yangi oy o'zagidan) yangi oyni ko'rishga intilish yoki talab qilish mazmunini beradi. Mumtoz leksikografiya, xususan, "G'iyos ul-lug'ot"da "Munshaot"ga tayanib berilgan izohlarga ko'ra, istehlolning majoziy qatlamlari g'oyat keng: u chaqaloq tug'ilganda ilk bor chiqargan yig'i ovozi bo'lib, qadimda doyalar shu ovozning tembriga qarab go'dakning jinsini (o'g'il yoki qiz ekanini) aniqlaganlar. Matnshunoslik nuqtayi nazaridan bu o'xshatish chuqur mantiqqa ega: asarning muqaddimasi ham yangi tug'ilgan matnning ilk "ovozi" bo'lib, u asarning "jinsi"ni (janri va xarakterini) belgilab beradi. Shuningdek, istehlol so'zining "hojining haj safarida 'labbayka' aytib ovozini ko'tarishi" yoki "jangda qilichni qinidan sug'urish" kabi semantik qirralari ham mavjud bo'lib, bularning barchasi biror muhim ishga kirishish oldidan qilinadigan dastlabki dadil harakatni ifodalaydi. [1,68-b]

Ushbu nazariy mezonlar asosida Xiva xoni va tarixchisi Abulg'ozi Bahodirxon asarlari tahlil qilinganda, muallifning baroati istehloldan foydalanishda o'ziga xos uslubga ega ekani kuzatiladi.

Xususan, uning "Shajarayi turk" asari muqaddimasida an'anaviy baroati istehlolning yaqqol namunasini topish mushkul. Asar quyidagi jumlalar bilan boshlanadi: "Ibtidosiz va intihosiz va sheriksiz, yetti qat osmon va yetti qat yerni va o'n sakkiz ming olamni bo'l deganda bo'ldurg'an Tangrining hamdidin so'ng..." Ushbu matn tahlili shuni ko'rsatadiki, bu debocha universal xarakterga ega bo'lib, u har qanday diniy, ilmiy yoki badiiy asar uchun umumiy kirish vazifasini o'tashi mumkin. Unda bevosita tarixga yoki shajaraga ishora qiluvchi maxsus terminlar sezilmaydi. Bu holat Abulg'ozining mazkur asarda tarixga "ilohiy nizomning bir ko'rinishi" sifatida yondashib, voqealar bayonidan avval sof teologik muqaddimani ustun qo'ygani bilan izohlanadi. Lekin muarrixning ikkinchi mashhur asari "Shajarayi tarokima" da vaziyat o'zgaradi va biz baroati istehlolning ixcham, ammo mazmundor namunasiga guvoh bo'lamiz. Muqaddimadagi quyidagi satrlarga e'tibor qaratilik: "Sipos-u sitoyish ul Egagakim... gadoydin to podshohg'acha va qumrsqadin to pilg'acha va chibindin to Semrug'gacha barchasining ahvolig'a loyiq berur". Ushbu matndagi baroati istehlol quyidagi lingvopoetik vositalar orqali amalga oshirilgan:

1. Davlatchilik terminologiyasining integratsiyasi: Matnda Allohga nisbatan qo'llangan "Ega" so'zi (arabcha "Robb" yoki "Malik" o'rnida) turkiy davlatchilik tafakkurida "Yurt egasi", "Mulk egasi" tushunchalari bilan assotsiatsiya qilinadi. Bu esa asarning siyosiy hokimiyat va boshqaruv tarixiga oid ekaniga dastlabki ishoradir.
2. Ijtimoiy va biologik ierarxiya tasviri: *"Gadoydin to podshohg'acha"* antitezasi (tazod) jamiyatning ijtimoiy qatlamlanishini ko'rsatsa, *"chibindin to Semrug'gacha"* tashbehi jonzotlar orasidagi kuch va maqom farqini ifodalaydi. Tarixnavislikda, xususan, "shajara" janridagi asarlarda shohlar (Semrug', podshoh) va fuqaro (chibin, gadoy) munosabatlari markaziy o'rin tutishini inobatga olsak, Abulg'ozi ushbu qiyoslar orqali kitobxonni asarda bayon qilinadigan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ruhan tayyorlaydi.

Demak, Abulg'ozi Bahodirxon "Shajarayi tarokima"da Tangrini shunchaki Yaratuvchi emas, balki "Buyuk Taqsimlovchi" va "Mutlaq Hukmdor" sifatida tavsiflash orqali, yerdagi hukmdorlar (xonlar) tarixi bayoni uchun g'oyaviy poydevor – baroati istehlol yarata olgan.

Mumtoz tarixnavislik an'anasiga ko'ra, Shermuhammad Munis "Firdavsu-l-iqbol" asarini ham hamdala (Allohga hamd) qismi bilan boshlaydilar. Biroq ushbu muqaddima shunchaki an'anaviy maqtov emas, balki borliq (vujud), yo'qlik (adam), yaralish va abadiyat tushunchalarini qamrab oluvchi yuksak falsafiy mushohadalar silsilasidir.

Matnning semantik qatlami murakkab tasavvufiy istilohlarga boyligi bois, uning mazmunini quyidagicha akademik talqin qilish maqsadga muvofiq: "Oliymakon sultonlarning dabdabai hashamati va garduntavon xoqonlarning kavkabayi davlati ul podshohi alalitloqning qullug'i bilan intizom toparkim, olami nosut aning borgohi saltanati ollida bir qazoyi muhaqqardur va fazoyi malakut dargohi azamatidin bir sahni muqassar. Hudus-u qidam ikki gavhari nosuftadur irodati ummonidin, vujud-u adam ikki g'unchai navshukufta san'ati gulistonidin. Ma'murayi kavnu makon zobitayi qudratidin mazbut, olami arvoh va abdon robitayi hikmatidin marbut...", ya'ni "Oliymaqom sultonlarning hashamatli dabdabasi va falak qadar qudratli (garduntavon) xoqonlarning saltanat yulduzi – Ul Mutlaq Podshoh (Alloh)ga bandalik izhor etish orqaligina o'z intizomini topadi. Zero, insoniyat olami (olami nosut) Uning saltanati ostonasi oldida bir arzimas hukm (qazoi muhaqqar) va farishtalar olami (olami malakut) Uning buyuklik dargohi qoshida tor bir maydon (sahni muqassar) kabidir. Dunyoning yaralishi (hudus) va azaliylik (qidam) – Uning irodasi ummonidagi ikki teshilmagan gavhar (gavhari nosufta), borliq (vujud) va yo'qlik (adam) – Uning san'ati gulistonidagi endigina ochilgan ikki g'unchadir. Borliq va makon binosi (ma'murai kavn-u makon) Uning qudrat qonuni bilan chegaralangan (mazdud), ruhlar va tanlar olami esa Uning hikmat rishtasi bilan o'zaro bog'langandir (marbut)".

Ushbu mikromatn tahlili shuni ko'rsatadiki, muallif so'z tanlashda tazod, saj' va tanosub san'atlarining mukammal sintezini yaratgan.

Birinchidan, matndagi ontologik (borliqqa oid) qarashlar tazod (antonimiya) san'ati vositasida ochib berilgan. Jumladan, *hudus* (yangi paydo bo'lish, zamonga egalik) – *qidam* (azaliylik, boshlanishi yo'qlik); *vujud* (borliq) – *adam* (yo'qlik); *olami nosut* (insoniy/moddiy olam) – *fazoyi malakut* (ruhiy/farishtalar olami); *dabdabayi hashmat* (dunyoviy ulug'vorlik) – *qulluq* (abdiyat,

kamtarlik). Ushbu zidlantirishlar orqali muallif vojibul-vujud (Alloh)ning mutlaqligi va *mumkinul-vujud* (yaralmishlar)ning ojizligini badiiy ifodalaganlar.

Ikkinchidan, matn ritmik jihatdan saj'i mutavoziy va saj'i mutarraf namunalari asosida qurilgan bo'lib, bu tarixiy nasrning ohangdorligini ta'minlagan: *muhaqqardur – muqassar(dur)*; *nosuftadur – navshigufta(dur)*; *mazdud – marbut*. Bu o'rindagi qofiyadosh so'zlar nafaqat shakliy, balki mazmuniy jihatdan ham bir-birini to'ldiruvchi (komplementar) semantikaga ega.

Uchinchidan, matnda mavhum falsafiy tushunchalarni muayyanlashtirish uchun istiora va tashbehlardan unumli foydalanilgan. Jumladan, *hudus va qidam* – ikki gavhari nosufta" birikmasidagi *gavhari nosufta* (teshilmagan, qo'l tegmagan dur) iborasi ilohiy irodaning sirliligi va inson aqli idrok etolmasligiga ishora qiladi. Shuningdek, "Vujud-u adam – ikki g'unchayi navshigufta" tashbehida hayot va o'limning Yaratganning san'ati oldida teng qiymatli go'zallik (hikmat) ekani urg'ulanadi.

Vojibul vujud istilohi matnda kalit so'z vazifasini o'taydi. Islom falsafasida Vojibul vujud (vujudi shart bo'lgan zot) – bu Allohdir, chunki Undan boshqa barcha narsalar mumkinul vujud (bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin bo'lgan) kategoriyasiga kiradi.[2,67-b]

"Javohiri vujudkim, iborati mavjudotdindur" jumlasida mualliflar "adam sahrosi" (yo'qlik cho'li)dan borliq karvonini vujudga keltirish jarayonini tasvirlab, tasavvufdagi *a'yoni sobita* (narsalarning azaliy mohiyati) tushunchasiga ishora qilinmoq.[3,112-115]

Odatda, kitoblar Allohga hamd (hamdala) bilan boshlanadi. Ammo hamd aytishning ko'plab xil usullarii bor. Jumladan, agar kitob ishqiy doston bo'lsa, muqaddimada *ko'ngil, savdo, husn* so'zlari ko'p ishlatiladi. Masalan, Masalan, Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostoni

Jon qushi chun mantiqi roz aylagay,
Tengri hamdi birla og'oz aylagay –

deb boshlanadi. Ko'rinib turibdiki, Hazrat Navoiy "Lison ut-tayr" (Qush tili) asarining ilk misrasidayoq *jon qushi, mantiq, roz* kabi kalit so'zlarni qo'llash orqali o'quvchini darhol tasavvufiy-falsafiy sayohatga va majoziy qushlar olamiga olib kiradi. Bu o'rinda baroati istehlol asarning janri (falsafiy doston) va g'oyasiga (ilohiy ishq yo'lidagi sayr) to'liq xizmat qilmoqda.

"Firdavsu-l-iqbol" asarining janri va maqsadi butunlay o'zgacha. Bu asar – ishqiy yoki sof falsafiy doston emas, balki tarixiy-siyosiy xronika, davlat boshqaruvi va hukmdorlar shajarasi bayonidir. Shu bois, Munis va Ogahiy (keyingi besh mustaqil asarida ham) an'anaviy hamdni saqlagan holda, uning leksik-semantik tarkibini asarning shu ruha moslashtiradilar. Shu sababli muarrix Allohga hamd aytish jarayonidayoq siyosiy-ijtimoiy va harbiy terminlarni mohirlik bilan qo'llagan.

Matndagi quyidagi so'zlar kitobxonni ruhiy yoki ishqiy olamga emas, balki aynan davlat boshqaruvi va tarix qa'riga yetaklaydi:

Oliymakon sultonlar va *garduntavon xoqonlar* – muqaddimaning ilk so'zlaridanoq shohlar va hukmdorlar tilga olinmoqda. Bu kitob shohlar haqida ekaniga ochiq ishoradir.

Dabdabai hashmati va *kavkabai davlati* – bu birikmalar saroy hayoti, tantanalar va davlat qudratini ifodalaydi.

Podshohi ala-l-itloq (Mutlaq podshoh) – muallif Allohni *Yaratgan* yoki *Rahmon* deb emas, balki aynan *Podshoh* sifatida tanishtirmoqda. Bu orqali yerdagi podshohlar (xonlar) va ko'kdagi Mutlaq Podshoh (Alloh) o'rtasida qiyosiy parallel o'tkaziladi.

Intizom va *zobita* so'zlar tartib-qoida, qonun-qoida ma'nosini beradi. Tarix va davlatchilik esa aynan qat'iy intizomga asoslanadi.

Muqaddimaning boshida *sulton* va *xoqon* kabi dunyoviy hokimiyat timsollari ko'rsatilgan bo'lsa, davomida muallif borliqning asl egasi — *Vojibu-l-vujud* (Alloh) tavsifiga o'tadi. Bu o'tish shunchaki diniy rasmiyatchilik emas, balki tarixiy voqelikning o'tkinchi ekanini anglatuvchi g'oyaviy *baroati istehlol*dir.

Mumtoz nasriy asarlar muqaddimasidagi badiiy san'atlar shunchaki so'z o'yini bo'lmay, balki butun asarning mazmun-mohiyatini oldindan ko'rsatib beruvchi darakchi hisoblanadi. Fikrimizcha, baroati istehlol san'ati qo'llangan o'rinlarda kitobxon asar mutolaasiga ruhan tayyorlanadi, voqealar rivoji haqida dastlabki tasavvurga ega bo'ladi. Matndagi *mavjudot karvoni* va *sohili zuhur* (paydo

bo‘lish qirg‘og‘i) iboralari — butun kitob davomida bayon qilinadigan sulolalarning kelishi va ketishi (tarix karvoni) haqida oldindan berilgan ishoradir.

Keltirilgan parchada tazod va tanosub san’atlari orqali tarix falsafasi ochib berilgan. Matnda Allohning *“bidoyat va nihoyat libosidin muarro”* (boshi va oxiri yo‘q) ekanligi ta’kidlanadi. Bu tarixchining nuqtayi nazari, ya’ni tarixdagi barcha xonlar va voqealar vaqtinchalik (bidoyati va nihoyati bor), faqat ilohiy iroda manguligini chiroyli ifodalagan.

Ogahiy insoniyatning yaralishini dengizdan gavhar chiqarish jarayoniga qiyoslaydi. *Adam – daryoi bekaron,* cheksiz yo‘qlik ummoni; *sohili zuhur* — hayot qirg‘og‘i (dunyo). Nasriy bayonlardagi bunday tasvirlar asarning yetakchi g‘oyasini (konsepsiyasini) belgilab berishga xizmat qiladi. Muarrix mushohadasia “tarix — bu yo‘qlik dengizidan chiqib, yana o‘sha dengizga qaytib ketayotgan karvonlar (avlodlar) yo‘lidir”. Matndagi *mavjudot karvoni* birikmasi tarixiy asar uchun eng mukammal *baroati istehlol* namunasidir. Chunki kitob sahifalarini varaqlagan sayin o‘quvchi xuddi shu karvon kabi bir hukmdorning kelib, ikkinchisining ketishiga guvoh bo‘ladi.

“Zoti bemisoli naziru shirkat isnodidin mubarro” jumlasi *tavhid* aqidasini ifodalash bilan birga, dunyoviy hukmdorlarning hokimiyati cheklangan va sheriklikka (nizolarga) mahkum ekanligiga yashirin qiyosdir.

Munis asarning nasriy muqaddimasida boshlangan ijtimoiy-siyosiy g‘oyalar silsilasini nazmiy parchada (g‘azalda) mantiqiy davom ettirib, baroati istehlol san’atini yangi – falsafiy-estetik bosqichga ko‘taradi. Agar nasriy qismda davlatchilikka oid terminologiya (“sulton”, “dabdaba”, “intizom”) ustuvorlik qilgan bo‘lsa, nazmiy qismda muallif kosmogonik (olamning yaralishi) va ontologik (borliq mohiyati) tasvirlar vositasida tarixning fundamental qonuniyatlarini badiiy tadqiq etadilar.

Ushbu she’riy matn tahlili shuni ko‘rsatadiki, undagi har bir bayt o‘zaro mustahkam tanosub (proporsionallik) va tazod (kontrast) san’atlari zanjiri asosiga qurilgan bo‘lib, butun asarning mazmun qamroviga ishora qiluvchi quyidagi g‘oyaviy qatlamlarni tashkil etadi:

Birinchidan, tabiiy unsurlar va yaralishi tarixi. G‘azalning dastlabki baytlarida “zulol” (suv), “tuproq” va “tosh” kabi leksik birliklarning o‘zaro tanosubi orqali olamning ibtidosi tasvirlanadi. Shoir “zuloli xushguvor” (hayot manbai) va “tiyra tuproq” (moddiyat) o‘rtasidagi tazodni qo‘llash orqali yo‘qlik va zulmatdan hayot bulog‘ining otilib chiqishini ifodalaydi. Bu tasvir tarixiy asar kontekstida oddiy insoniy muhitdan buyuk shaxslarning yetishib chiqishiga ishora sifatida ham talqin qilinishi mumkin. Shuningdek, dunyoning “binoyi sust” (suv ustiga qurilgan bo‘sh bino) deya ta’riflanishi mualliflarning dunyoviy saltanatlarning o‘tkinchi va omonat ekanligi haqidagi tarixshunoslik konsepsiyasini aks ettiradi.

Ikkinchidan, *sulton* fenomeni va baroati istehlol markazi. G‘azalning uchinchi bayti asar maqsadini ochib beruvchi kulminatsion nuqta hisoblanadi. “Tug‘durub farzand gardun mahdi tufroq batnidin” misrasidagi farzand – mahd (beshik) – batn (qorin) tanosubi biologik yaralishni ifodalasa, keyingi misradagi sulton leksemasi asarning bosh mavzusiga — xonlar shajarasi va hukmdorlar tarixiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishora qiladi. Bu o‘rinda baroati istehlol san’ati orqali insonning “ashrafi maxluqot” (yaralmishlar sultoni) ekanligi hamda “Firdavsu-l-iqbol” asari aynan shunday sultonlar tarixiga bag‘ishlangani ta’kidlanadi.

Uchinchidan, davriylik qonuniyati va siyosiy metafora. To‘rtinchi baytda qo‘llangan “quyosh”, “sipehr” (osmon) va “ayvon” (saroy) tanosubi tarix falsafasidagi davriylik (sikllik) qonuniyatini ifodalaydi. Quyoshning “jilvagar” bo‘lib chiqishi va “pinhon” bo‘lib botishi – tarixiy sulolalarning hokimiyat tepasiga kelishi va tarix sahnasidan ketishining mumtoz badiiy modelidir. Munis “sipehr ayvoni” istiorasi ostida hokimiyat taxtini nazarda tutib, siyosiy jarayonlarning o‘zgaruvchanligini tabiat hodisalariga qiyoslaydilar.

To‘rtinchidan, ruhiy-psixologik holatlar uyg‘unligi. Tarix nafaqat faktologiya, balki insoniy kechinmalar silsilasidir. Beshinchi baytdagi shabnam – ashk (ko‘z yoshi) va g‘uncha – xandon (kulgi) muqoyasasi orqali tarixiy voqelikdagi fojia va g‘alaba, motam va bayramning yonma-yon kelishi tasvirlanadi. Bu esa asarning voqealar rivojida uchraydigan dramatik holatlarga kitobxonni ruhiy tayyorlash vazifasini o‘taydi.

Beshinchidan, mualliflik imzosi va iyhom san'ati. She'riy parchaning yakuniy baytida (maqta') azdod (zidlar) va anosir (unsurlar)ning birlashuvidan inson vujudga kelishi bayon qilinadi. "Munisi jon" birikmasida qo'llangan iyhom san'ati ikki xil mazmuniy qatlamni hosil qiladi: birinchidan, jonning yaqin hamrohi (lug'aviy ma'no); ikkinchidan, asar muallifi – Munis (ismi xos). Bu bilan ijodkor asarning kim tomonidan bitilayotganini va bu kitob o'quvchi uchun ma'naviy hamroh bo'lishini nafis san'at vositasida muhrlaydi.

Demak, "Firdavsu-l-iqbol" muqaddimasidagi ushbu nazmiy parcha shunchaki lirik chekinish emas, balki asarning konseptual poydevoridir. Muallif baroati istehlol san'ati doirasini kengaytirib, kosmogonik, antropologik va siyosiy-falsafiy qatlamlarni yagona markazga – tarixning ilohiy va dunyoviy mohiyatini ochib berishga yo'naltirganlar. Bu esa o'zbek mumtoz tarixnavisligida badiiy muqaddimaning ilmiy-estetik funksiyasini yuksak darajada bajarganidan dalolat beradi.

Munis maktabining eng munosib va peshqadam vakili Muhammad Rizo Ogahiyning tarixiy asarlari nafaqat faktologik aniqligi, balki yuksak badiiy uslubi bilan ham ajralib turadi. Agar "Riyozu-d-davla" muqaddimasida muallifning ilk tajribalariga xos an'anaviylik kuzatilsa uning ikkinchi mustaqil tarixiy asari "Zubdatu-t-tavorix"da musajja' (qofiyadosh) nasrning mukammal namunasiga guvoh bo'lamiz. [4, 3-15-b]

Asar muqaddimasi (hamdala qismi) quyidagicha boshlanadi: "Siposi vofir tuhfasi ul sultoni azamatnishon ostonig'a nisordurkim, ma'murai kavnu makon aning xittai mamlakatig'a doxil va sitoyishi mutakosir hadyasi ul podshohi vahdatdastgoh dargohig'a iysordurkim, asnofi insu jon aning doirai ubudiyyatig'a vosil..." (ZT, 386b).

Ogahiy ham baroati istehlol san'atini qo'llashda davlatchilik leksikasii ilohiy hamd matniga integratsiya qilish usulidan mohirona foydalangan. Birinchi jumlaning o'zidayoq *sipos, tuhfa, sulton, azamatnishon, oston, nisor, ma'mura, xittai mamlakat, hadya, podshoh, dargoh, iysor, doirai ubudiyyat, salotin, gado, xavoqin, maydon, qudrat* kabi 20 ga yaqin ijtimoiy-siyosiy terminlarning qo'llanishi kitobxonni asarning tarixiy-siyosiy mohiyatiga tayyorlaydi.

Bu o'rindagi eng muhim stilistik hodisa – ritmik-sintaktik parallelizmdir. Ogahiy nasriy matnni xuddi she'r kabi "ohang to'lqinlari"ga bo'lib, har bir bo'lakni o'zaro simmetrik holatda joylashtiradi. Bu esa nasrdagi saj'i mutavoziy (so'zlarning vazni va qofiyasi teng kelishi) san'atining yorqin ko'rinishidir.

Matndagi ohang "to'lqin"lari quyidagi qat'iy tartibga bo'ysunadi:

1-to'lqin (hamd va bag'ishlov):

A qism: Siposi vofir tuhfasi ul sultoni azamatnishon ostonig'a nisordurkim...

B qism: Sitoyishi mutakosir hadyasi ul podshohi vahdatdastgoh dargohig'a iysordurkim...

2-to'lqin (qamrov va bo'ysunish):

A qism: Ma'murai kavnu makon aning xittai mamlakatig'a doxil...

B qism: Asnofi insu jon aning doirai ubudiyyatig'a vosil...

3-to'lqin (ijtimoiy tazod):

A qism: Salotini sohibiqtidor aning ko'chai karamining gadoyi xoksori...

B qism: Xavoqini karamshior aning moidai ni'amining soyili luqmaxo'ri...

4-to'lqin (kosmogonik tashbeh):

A qism: Sipehri axzar bir xaymai hazrodur maydoni qudratida...

B qism: Xurshidi anvar bir shamsai adnodur ayvoni hikmatida...

Ushbu parchada faqat ohang emas, balki semantik mutanosiblik (ma'noviy simmetriya) ham qat'iy qoida asosida qurilgan. Ogahiy har bir sintagmatik bo'lakda qo'llagan so'ziga keyingi bo'lakda uning ma'doshini (sinonim) yoki mantiqiy juftini keltiradi. Buni quyidagi qiyosiy jadvalda yaqqol ko'rish mumkin:

Birinchi komponent (teza)	**Ikkinchi komponent (antiteza/variatsiya)**	**Tahlil (ilmiy izoh)**
Siposi vofir tuhfasi (Ko'pdan-ko'p maqtovlar tuhfasi)	*Sitoyishi mutakosir hadyasi* (Ko'plab alqovlar hadiyasi)	To'liq leksik sinonimiya va fonetik uyg'unlik (*sipos – sitoyish*)
Ul sultoni azamatnishon (Ulug'vorlik belgisi bo'lgan sulton)	*Ul podshohi vahdatdastgoh* (Yagonalik taxtidagi podshoh)	Sulton va podshoh – siyosiy terminlarning teologik ko'chimi

Ostonig‘a nisordur (Ostonasiga sochiqdir)	*Dargohig‘a iysordur* (Dargohiga qurbondir)	Nisor va iysor – saj’i mutarraf (qofiyadosh) va mazmunan yaqin
Ma’murayi kavn-u makon (Borliq va makon binosi)	*Asnofi ins-u jon* (Insonlar va jonzotlar sinfi)	Makon (joy) va jon (zot) o‘rtasidagi mantiqiy qamrov (muhit va uning ichidagilar)j
Salotini sohibiqtidor (Qudratli sultonlar)	*Xavoqini karamshior* (Saxovatli xoqonlar)	Salotin (sultonlar) va xavoqin (xoqonlar) – jamlik shaklidagi sinonimlar
Gadoyi xoksor (Xoksor gado)	*Soyili luqmaxo‘ri* (Luqma yeyuvchi tilanchi)	Dunyoviy hukmdorlarning ilohiy zot oldidagi ojizligi tasviri

“Zubdatu-t-tavorix” muqaddimasidagi ushbu badiiy qurilma shundan dalolat beradiki, Ogahiy tarixiy voqelikni bayon qilishdan avval, so‘zning musiqiy va ma’noviy imkoniyatlaridan foydalanib, mukammal siyosiy-teologik manzara yaratgan. Bunda *sipos – sitoyish, sulton – podshoh, oston – dargoh* kabi juftliklar nafaqat matn ziynati, balki muallifning dunyoqarashini ifodalovchi konseptual vositalardir.

Yuqoridagi tahliliy kuzatishlar asosida quyidagi ilmiy xulosalarga kelish mumkin:

1. Mumtoz matnshunoslikda baroati istehlol shunchaki badiiy bezak yoki an’anaviy rasmiyatchilik emas, balki asarning «genetik kodi»ni ochib beruvchi strategik lingvopoetik vositadir. U kitobxonni matnning janri, mavzusi va g‘oyaviy yo‘nalishiga (tarixiy, falsafiy yoki badiiy) ruhiy va aqliy jihatdan tayyorlash vazifasini bajaradi.
2. Xiva tarixnavislik maktabi vakillari ijodida ushbu san’atning evolyusion rivojlanishi kuzatiladi. Agar Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarayi tarokima” asarida baroati istehlolning ilk, ixcham ko‘rinishlari (davlatchilik terminlarining ilohiy hamdga integratsiyasi) namoyon bo‘lgan bo‘lsa, Munis va Ogahiy asarlarida bu usul yuksak badiiy-falsafiy konsepsiya darajasiga ko‘tarilgan.
3. Munis va Ogahiy tarixiy asarlar muqaddimasida siyosiy teologiya usulini qo‘llaganlar. Ya’ni, Allohga hamd aytish jarayonida *sulton, xoqon, davlat, intizom, sarboz* kabi ijtimoiy-siyosiy leksikadan foydalanib, dunyoviy hokimiyatning ilohiy nizomga qiyosiy modelini yaratganlar. Bu esa asarning tarixiy xronika ekanini badiiy ishoralar orqali anglatishga xizmat qilgan.
4. Ogahiyning “Zubdatu-t-tavorix” asaridagi muqaddima tahlili shuni ko‘rsatadiki, muarrix nasriy matnda ritmik-sintaktik parallelizm (ohang to‘lqinlari) va semantik mutanosiblikdan foydalanib, tarixiy voqelikning murakkab manzarasini musiqiy va mantiqiy jihatdan mukammal ifodalagan. Bu o‘zbek mumtoz tarixiy nasrining navoiyona an’analar asosida yuksak badiiy darajaga yetganidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Муҳаммад Ғ. Ғиёс ул-луғот. Ж. 1. – Душанбе: Адиб, 1987. – Б. 68.; Dehxudo A.A. Lug‘atnomai Dehxudo. // Elektronnaya biblioteka. URL: http://www.loghatnaameh.org/ (murojaat sanasi: 20.01.2024).
2. *Ислом. Энциклопедия.* – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2004. – Б. 67.
3.Комилов Н. *Тасаввуф.* – Тошкент: Movarounnahr, 2009. – Б. 112-115.
4.Muhammad Rizo Ogahiy. Riyozu-d-davla. Nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi va izohlar muallifi A.O‘rozboyev. – Urganch: Quvanchbek-Mashxura, 2021. – B. 3-15.

UO’K 808.3

MEDITSINAGA OID MATNLARDA TERMINOLOGIK LEKSIKANING O‘RNI

S.T. Ismailova, o‘qituvchi, Central Asian Medical University, Farg’ona

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tibbiyotga oid matnlarda terminologik leksikaning tutgan o‘rni, uning lingvistik xususiyatlari va funksional-uslubiy ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida termin tushunchasining nazariy talqinlari, “termin” va “atama” munosabati, shuningdek, tibbiy matnlarning turli janrlarida terminologik birliklarning qo‘llanish xususiyatlari yoritiladi. Ilmiy, ilmiy-ommabop, oddiy va reklama xarakteridagi tibbiy matnlar misolida terminologik leksikaning miqdoriy va sifat jihatlari aniqlanadi. Tadqiqot natijalari tibbiy matnlarning lingvistik o‘ziga xosligini belgilashda terminologik leksikaning hal qiluvchi rol o‘ynashini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *tibbiy matn, terminologik leksika, tibbiy terminlar, matn lingvistikasi, funksional-uslubiy xususiyatlar, tibbiy diskurs.*

Аннотация. *В данной статье анализируется роль терминологической лексики в медицинских текстах, а также её лингвистические особенности и функционально-*

стилистическое значение. В ходе исследования рассматриваются теоретические интерпретации понятия термина, соотношение понятий «термин», а также особенности употребления терминологических единиц в медицинских текстах различных жанров. На примере научных, научно-популярных, общедоступных и рекламных медицинских текстов выявляются количественные и качественные характеристики терминологической лексики. Результаты исследования показывают, что терминологическая лексика играет решающую роль в формировании лингвистической специфики медицинских текстов.
Ключевые слова: *медицинский текст, терминологическая лексика, медицинские термины, лингвистика текста, функционально-стилистические особенности, медицинский дискурс.*
Abstract. *This article analyzes the role of terminological lexis in medical texts, as well as its linguistic features and functional-stylistic significance. The study examines theoretical interpretations of the concept of a term, the relationship between the notions of "term" and "designation," and the characteristics of the use of terminological units across different genres of medical texts. Based on scientific, popular-scientific, general informational, and advertising medical texts, the quantitative and qualitative aspects of terminological lexis are identified. The results of the study demonstrate that terminological lexis plays a decisive role in shaping the linguistic specificity of medical texts.*
Keywords: *medical text, terminological lexis, medical terminology, text linguistics, functional-stylistic features, medical discourse.*

Matn lingvistik tadqiqotlarning eng murakkab, serqatlam va ko‘p qirrali obyektlaridan biri hisoblanadi. U til tizimining barcha sathlarini — fonetik, leksik, morfologik va sintaktik birliklarni yagona kommunikativ va semantik butunlik doirasida birlashtiradi. Matn nafaqat alohida til birliklarining yig‘indisi, balki muayyan maqsadga yo‘naltirilgan, mazmuniy jihatdan izchil va struktur jihatdan mukammal tashkil topgan murakkab kommunikativ tizimdir. Shu bois matn lingvistikasida u sintaktik sathning eng yuqori, ya’ni maksimal birligi sifatida talqin qilinadi.

Matnning asosiy xususiyatlari sifatida uning struktur jihatdan tugallanganligi, semantik yaxlitligi, kommunikativ maqsadga yo‘naltirilganligi va muayyan funksional-uslubiy doiraga mansubligi e’tirof etiladi. Har qanday matn muayyan ijtimoiy ehtiyoj, kommunikativ vazifa va adresatga mos holda yaratiladi. Shu sababli matn tarkibidagi til birliklarining, xususan leksik vositalarning tanlovi bevosita uning mavzusi, sohaga mansubligi hamda funksional yo‘nalishi bilan belgilanadi.

Muayyan fan sohasiga oid matnlarda umumiste’mol leksika bilan bir qatorda aynan shu soha uchun xos bo‘lgan maxsus terminologik birliklar hamda umumilmiy leksik qatlamga mansub so‘zlar faol qo‘llanadi. Bu holat, ayniqsa, ilmiy va ilmiy-texnik matnlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Tibbiyotga oid matnlar ham bu jihatdan alohida o‘rin egallaydi. Aksincha, tibbiy matnlarda terminologik leksika mazmuniy jihatdan yetakchi mavqega ega bo‘lib, axborotning aniqligi, izchilligi, mantiqiy asoslanganligi va ilmiy ishonchliligini ta’minlovchi asosiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois tibbiyotga oid matnlarni terminologik birliklarsiz tasavvur etish deyarli imkonsizdir.

Termin tushunchasi lingvistik va terminologik adabiyotlarda fan, texnika va san’at sohalarida qo‘llaniladigan, muayyan ilmiy tushunchani aniq, lo‘nda va barqaror tarzda ifodalovchi so‘z yoki so‘z birikmasi sifatida talqin qilinadi. Terminlarning asosiy belgilari sifatida ularning bir ma’noliligi (monosemantikligi), emotsional-ekspressiv bo‘yoqdan xoli bo‘lishi, kontekstdan nisbatan mustaqil holda ma’no anglatishi hamda muayyan terminologik tizimga mansubligi ko‘rsatib o‘tiladi. Aynan mana shu xususiyatlar terminologik birliklarni umumiste’mol leksik birliklardan farqlab turadi va ularning ilmiy nutqdagi muhim rolini belgilaydi.

Ilmiy adabiyotlarda “termin” va “atama” tushunchalarining o‘zaro munosabati ham alohida muhokama qilinadi. Ayrim manbalarda ushbu ikki tushuncha sinonim sifatida qo‘llanilishiga qaramay, ularning semantik qamrovi va funksional vazifalari bir xil emas. Atama tushunchasi kengroq bo‘lib, u nafaqat ilmiy, balki ijtimoiy, madaniy va kundalik hayotga oid nomlash birliklarini

ham o‘z ichiga olishi mumkin. Termin esa faqat ilmiy tushuncha bilan bog‘liq bo‘lib, aniqlik, barqarorlik va tizimlilik kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Shu sababli tibbiyotga oid ilmiy matnlarda aynan “termin” tushunchasidan foydalanish ilmiy aniqlik va metodologik izchillik nuqtayi nazaridan maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Terminlarning paydo bo‘lishi va faol qo‘llanish muhiti, avvalo, ilmiy nutq bilan chambarchas bog‘liq. Yangi terminlar dastlab ilmiy maqolalar, monografiyalar, klinik tadqiqotlar va dissertatsiyalarda qo‘llanadi. Vaqt o‘tishi bilan ularning ayrimlari ilmiy-ommabop matnlarga, publitsistik nutqqa va hatto kundalik so‘zlashuv tiliga ham kirib boradi. Biroq terminologik birliklar qaysi nutq turida qo‘llanmasin, tibbiyotga oid matnlarda ular har doim muhim axborot yukini o‘z zimmasiga olib, asosiy mazmunni shakllantiruvchi tayanch vosita sifatida xizmat qiladi.

Tibbiyotga oid matnlar funksional-uslubiy jihatdan bir xil emasligi bilan ajralib turadi. Oddiy, ya’ni ommabop tibbiy matnlar keng o‘quvchilar ommasiga mo‘ljallangan bo‘lib, ularda terminologik birliklar nisbatan kam qo‘llanadi va ko‘pincha izohlar, ta’riflar yoki sodda sinonimlar bilan birga beriladi. Bunday matnlarning asosiy vazifasi tibbiy bilimlarni keng jamoatchilikka sodda, tushunarli va qulay shaklda yetkazishdan iborat. Masalan:

Surma. Avvalo, metaldir. Qazib olinadigan bu noyob elementning tabiatida 100 dan ortiq birikmalari mavjud. Shundan faqat bittasi – oltingugurtli birikmasi – antimonitgina pardoz buyumi sifatida ishlatishga yaroqlidir. (M.Zokirov, N.Ishnazarov “Qiziqarli geologiya” 68)

Berilgan matnda 25 ta so‘z ishlatilgan bo‘lsa, shundan 2 tasi (element, antimonit) sof terminologik ma’nosini saqlagan. Bu so‘zlar umumiy matnda ishlatilgan so‘zlarning 8%ini tashkil etadi. Ulardan birining (element) terminologik ma’nosi ham izohlarsiz oddiy o‘quvchiga tushunarlidir.

Ilmiy-ommabop tibbiy matnlarda esa terminologik leksikaning ulushi sezilarli darajada ortadi. Ushbu turdagi matnlarda “infarkt”, “gipertoniya”, “ateroskleroz”, “tromboz” kabi terminlar markaziy o‘rin egallab, o‘quvchidan muayyan darajadagi tibbiy savodxonlikni talab etadi. Shu bilan birga, bunday matnlarda terminlarning kontekst orqali ochib berilishi, izohlanishi yoki misollar yordamida tushuntirilishi kuzatiladi. Bu holat ilmiylik va tushunarlilik o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlaydi.

Tibbiyotga oid sof ilmiy matnlarda esa terminologik leksika maksimal darajada namoyon bo‘ladi. Ilmiy maqolalar, klinik protokollar, tadqiqot hisobotlari va dissertatsiyalarda terminlar ko‘pincha xalqaro standartlarga muvofiq holda, lotin yoki ingliz tilidagi shakllarda qo‘llanadi. Terminologik birikmalar, qisqartmalar, indekslar va formulalar matnning asosiy mazmuniy tayanchini tashkil etib, ilmiy axborotning aniqligi va ixchamligini ta’minlaydi. Ushbu turdagi matnlarni to‘liq anglash uchun esa maxsus professional bilim va tayyorgarlik zarur bo‘ladi.

Shuningdek, tibbiyotga oid reklama matnlarida ham terminologik leksika muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday matnlarda terminlar bir tomondan mahsulot yoki xizmatning ilmiy asoslanganligini ko‘rsatish vazifasini bajarsa, ikkinchi tomondan iste’molchiga tushunarli bo‘lish talabi bilan cheklanadi. Shu sababli reklama matnlarida terminologik birliklar selektiv, ya’ni ehtiyotkorlik bilan tanlab qo‘llanadi va ko‘pincha soddalashtirilgan shaklda taqdim etiladi.

Xulosa qilib aytganda, tibbiyotga oid matnlarda terminologik leksika ularning janri, kommunikativ maqsadi, funksional-uslubiy yo‘nalishi hamda adresatiga bog‘liq holda turli darajada qo‘llanadi. Ilmiy va maxsus matnlarda terminlar asosiy axborot tashuvchi vosita bo‘lsa, ilmiy-ommabop va oddiy matnlarda ular tushunarlilik tamoyiliga bo‘ysundiriladi. Aynan terminologik leksikaning ushbu funksional moslashuvchanligi tibbiy matnlarning lingvistik va uslubiy o‘ziga xosligini belgilaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, terminologik leksika tibbiyotga oid matnlarning mazmuniy, struktur va funksional asosini tashkil etadi. Terminlar nafaqat ilmiy axborotni aniq va izchil yetkazish vositasi, balki tibbiy matnlarning uslubiy belgilovchi omili sifatida ham namoyon bo‘ladi. Terminologik birliklarning matn turlariga mos holda qo‘llanishi tibbiy diskursning kommunikativ samaradorligini oshiradi hamda ilmiy bilimlarning to‘g‘ri va aniq uzatilishini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Ахманова О.С. *Словарь лингвистических терминов*. — М.: Советская энциклопедия, 1966.
2. Қосимов Б. *Лингвистика асослари*. — Тошкент: Фан, 2005.

3. Раҳматуллаев Ш. *Ҳозирги ўзбек адабий тили*. — Тошкент: Университет, 2006.
4. Ergash Sh. *Yuz dardga yuz davo*. — Toshkent, 2010.
5. Ziyayeva M. *Terapiya (ichki kasalliklar)*. — Toshkent: Ilm Ziyo, 2007.
6. Babskiy E.B., Zubkov A.A., Kositskiy G.I., Xodorov B.I. *Odam fiziologiyasi*. — Toshkent: Meditsina, 1972.
7. "Shifo-info" gazetasi, №20 (2020), №30 (2024).

UO'K 808.5

BARDOSHLILIK KONSEPTINING LINGVISTIK, MADANIY VA DISKURS TAHLILI

O'.I.Isroilova, PhD, Qarshi davlar universiteti talabasi, Qarshi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bardoshlilik konsepti lingvistik va madaniy nuqtai nazardan o'rganilib, uning semantik rivojlanishi, ijtimoiy-madaniy talqinlari va turli diskurs turlaridagi funksiyalari tahlil qilinadi. Bardoshlilik tinchlik va madaniyatlararo tomonlama muloqotni rivojlantirish uchun asosiy qadriyat sifatida dunyo miqyosida tan olingan bo'lib, uning ma'nosi madaniy va tarixiy kontekstlarga qarab farqlanadi.*

Kalit so'zlar: *bardoshlilik, diskurs, madaniy qadriyatlar, pragmatika, madaniyatlararo muloqot, lingvokulturologik kontsept.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается концепт толерантности с лингвистической и культурной точек зрения, анализируются её семантическое развитие, социально-культурные интерпретации и функции в различных типах дискурса. Толерантность признана во всём мире как фундаментальная ценность для продвижения мира и межкультурного диалога, при этом её значение варьируется в зависимости от культурного и исторического контекста.*

Ключевые слова: *толерантность, дискурс, культурные ценности, прагматика,межкультурная коммуникация.*

Abstract. *This article explores the concept of tolerance from linguistic and cultural perspectives, analyzing its semantic development, socio-cultural interpretations, and functions in various types of discourse. Tolerance is globally recognized as a fundamental value for promoting peace and intercultural dialogue, with its meaning varying according to cultural and historical contexts.*

Key words: *tolerance, discourse, cultural values, pragmatics, intercultural communication, linguocultural concept*

Kirish. Bugungi kunda dunyo tobora bog'langanligi sababli bardoshlilik tushunchasi ko'p madaniyatlilik, inson huquqlari va ijtimoiy uyg'unlik muhokamalarining markaziga aylangan. Bardoshlilik keng ijobiy qadriyat sifatida qabul qilingan bo'lsa-da, uning ma'nosi va ta'siri madaniy muhit va muloqot kontekstlariga qarab farq qiladi[1:8]. Bardoshlilik oddiygina passiv qabul qilish emas, balki individual dunyoqarash va jamiyat me'yorlarini aks ettiruvchi murakkab lingvokulturologik konstruktdir. Ushbu tadqiqotda bardoshlilik tushunchasining 150 oda 150 ogi tuzilishi, diskursdagi ifodalanishi va madaniy talqinlari tahlil qilinadi. Tadqiqot bardoshlilikning turli diskurslarda qanday talqin qilinishi va ishlatilishida madaniy kontekstning qanday ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi [1:12].

Metodologiya. Maqolada bardoshlilik kontseptsiyasi lingvistik, madaniy va diskursiv yondashuvlar orqali hamda so'zning 150oda150ogi va 150oda150ogic qirralari tahlil qilinishi orqali chuqur o'rganiladi. Ushbu tahlil bardoshlilik so'zining ma'nosi, uning turli diskurslardagi funktsiyalari va kommunikativ roli haqida keng tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Shuningdek, madaniy taqqoslash usullaridan foydalangan holda, bardoshlilik tushunchasining turli madaniy muhitlarda qanday talqin qilinishi, ularning ijtimoiy va madaniy farqlari ochib beriladi. Bu yondashuvlar bardoshlilik kontseptsiyasining zamonaviy til va madaniyat ichidagi murakkabligiga yanada yaxlit va kontekstga mos tushuncha berishga yordam beradi[[2:56]].

Natijalar. Bardoshlilik atamasi lotincha "tolerare" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "bardosh berish", "chidash" ma'nolarini anglatadi. Zamonaviy ingliz tilida bardoshlilik – belli bir darajada yoqimsiz yoki rozi bo'lmagan fikr va harakatlarni qabul qilish istagi sifatida ta'riflanadi [2:58].

Falsafa olimi W.Brown bardoshlilik beradigan ijtimoiy hokimiyat munosabatlarini tanqidiy tahlil qilgan va uning ortida yashirin ijtimoiy tengsizliklar bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatgan [1:62].

Tilshunos J.Vershyuren bardoshlilik diskursining 151oda151ogic mazmunlarga boy ekanini va jamiyatdagi hokimiyat tuzilmalariga bog‘liqligini ta’kidlagan [2:62].

Madaniy talqinlarda bardoshlilik G‘arbiy madaniyatlarda asosan individual erkinlik va xilma-xillikni qabul qilish bilan bog‘langan, g‘arbiy bo‘lmagan madaniyatlarda esa ijtimoiy totuvlik va jamoaviy farovonlikka urg‘u berilgan [3:10].Siyosiy, media va ta’lim diskurslarida bardoshlik milliy birdamlik va inklyuzivlikni targ‘ib qilishda faol qo‘llaniladi. Shaxslararo muloqotda esa u kelishmovchilikni qabul qilish va hamdardlikni ifodalash yo‘llari bilan namoyon bo‘ladi [3:23]. Lingvokulturologik nuqtai nazardan, bardoshlilik til, madaniyat va kognitiv jarayonlarning qarama-qarshi uchrashuvidir, bunda uning asosiy ma’nosi qabul qilish va ochiqlikdan iborat, periferik talqinlari esa chidamlilikdan tortib xilma-xillikni qadrlashgacha o‘zgaradi [[1:12]].

Social Indicators Research (2019) tadqiqoti bardoshlilikni qabul qilish, hurmat qilish va farqni qadrlash uch o‘lchamli kontsepti sifatida ko‘rsatib, uning nafratni kamaytirishga yordam berishini ta’kidlaydi.

Muhokama. Bardoshlilik konsepti til, madaniyat va jamiyat tuzilmalari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u turli madaniyatlarda turlicha ma’no oladi. G‘arbiy diskurslarda bardoshlilik ko‘proq individual huquq va erkinliklarga urg‘u beruvchi tushuncha sifatida shakllansa, boshqa ko‘plab madaniyatlarda ijtimoiy totuvlik, hamjihatlik va jamoaviy mas’uliyat tamoyillari asosida rivojlanadi. Vendi Braunning tanqidiy yondashuvi bardoshlilik tushunchasining hokimiyat munosabatlari va ijtimoiy tengsizliklar bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi, Vershyuren esa uning lingvistik diskursida yashirin 151 oda 151 ogic mazmunlarni ochib beradi. Ushbu yondashuvlar bardoshlilik tushunchasining murakkab ijtimoiy-siyosiy kontekstlarini yaxlit anglashga yordam beradi va natijada global muloqotlarda bardoshlikni yanada chuqur, empatik va madaniy kontekstga mos ravishda tushunish zarurligini ta’kidlaydi [4:112]. Shu bilan birga, bardoshlilik konsepti zamonaviy dunyoda turli madaniyatlar orasidagi muloqotni rivojlantirish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash uchun muhim vosita vazifasini o‘taydi.

Xulosa. Bardoshlilik lingvokulturologik kontsept sifatida xalqaro kommunikatsiyada muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u faqat 151 oda qabul qilish bilan cheklanmaydi; balki turli madaniy kontekstlarda o‘ziga xos talqin va amaliyotini talab qiladi. Bu kontsept til, madaniyat va jamiyat tuzilmalarining o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladi va uning anglash shakllari hamda ijtimoiy rollari madaniyatlar va tarixiy sharoitlarga qarab farqlanadi. Bardoshlilik turli madaniyatlarda nafaqat ijtimoiy tolerantlik yoki sabr-toqat sifatida, balki kengroq madaniy qadriyat va kommunikativ xatti-harakatlar tizimi sifatida qabul qilinadi, bu esa uning xalqaro muloqotda aniq va kontekstga mos ravishda tushunilishini talab qiladi. Bu esa o‘z navbatida ilmiy soha, ta’lim va siyosiy jarayonlarda bardoshlikni chuqurroq va yanada kompleks tarzda tushunish va targ‘ib qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Ilmiy tadqiqotlar bardoshlilikning lingvistik, madaniy va diskursiv jihatlarini yoritib, uni faqat bir o‘lchovli yoki universal tushuncha emas, balki madaniy nozikliklar va ijtimoiy-siyosiy kontekstlarga qarab o‘zgaruvchi dinamik kontsept sifatida ko‘radi.

Shu sababdan, bardoshlilik lingvokulturologik kontsept sifatida nafaqat madaniy anglashuvni oshirish, balki global darajada tinchlik, hamjihatlik va o‘zaro hurmatni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Turli madaniyatlar bilan muloqotda bardoshlilik konseptining murakkabligi va ko‘p qirraliligini hisobga olish, uni yanada samarali kommunikatsiya va siyosiy-ijtimoiy jarayonlarda qo‘llashga imkon yaratadi. Natijada, bardoshlilik nafaqat so‘zda, balki amalda ham undan ortiqcha qadriyat sifatida jahon jamiyatlarida mustahkam asosga ega bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Brown, W. (2006). Regulating Aversion: Tolerance in the Age of Identity and Empire. Princeton University Press.

2.Verschueren, J., & Blommaert, J. (1998). Debating Diversity: Analysing the Discourse of Tolerance. Routledge.

3.Vala, J., & Costa-Lopes, R. (2020). Tolerance and intolerance: Cultural meanings and discursive usage. European Journal of Social Psychology, 50(6), 1101–1111.

4.Social Indicators Research. (2019). A New Approach to the Study of Tolerance: Conceptualizing and Measuring Acceptance, Respect, and Appreciation of Difference. Social Indicators Research, 147(3), 897–932.

5.Oxford English Dictionary. (2023). Tolerance. Retrieved from https://www.oed.com

UO'K 811.111:811.512.133'367.654

HOZIRGI ZAMON INGLIZ TILI QO'SHMA GAPLARINING O'ZBEK TILIDA TARJIMASI VA ULAR SINTAKTIK SEMANTIK MOSLASHUVI

R.O'. Jumanazarova, magistrant, Urganch Ranch universiteti, Urganch

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz tilidagi qo'shma gaplarning o'zbek tiliga tarjima jarayoni hamda tarjimada yuzaga keladigan sintaktik va semantik moslashuv masalalari tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *ingliz tili, o'zbek tili, qo'shma gap, sintaktik moslashuv, semantik moslashuv*

Аннотация. *В данной статье анализируется процесс перевода сложных предложений с английского языка на узбекский, а также рассматриваются проблемы синтаксической и семантической адаптации, возникающие в ходе перевода.*

Ключевые слова: *английский язык, узбекский язык, сложное предложение, перевод, синтаксическая адаптация, семантическая адаптация.*

Abstract. *In this article, the process of translating compound sentences from English into Uzbek, as well as the issues of syntactic and semantic adaptation that arise in the course of translation, are analyzed.*

Keywords: *English language, Uzbek language, compound sentence, translation, syntactic adaptation, semantic adaptation.*

Kirish. Ingliz tilidagi qo'shma gap nazariyasi XIX asrning ikkinchi yarmida ingliz normativ grammatikasida to'la shakllangan va hozirgi davrgacha hech o'zgarishsiz saqlanib kelmoqda. Turli oilalarga mansub bo'lgan tillar grammatikalarida o'xshash nazariyalar ko'p. Nazariyalardan kelib chiqib grammatikaning quyidagi qo'shma gap xususiyatlari haqida fikr yuritsak. Qo'shma gap - to'liq gap tuzish uchun bosh gapga tayanadigan gap turi. O'z-o'zidan ma'lumki, bo'ysunuvchi ya'ni ergash gap murakkab jumla qila olmaydi. Ushbu turdagi gapda fe'l va sub'ekt bor, xuddi boshqa har qanday gapda bo'lgani kabi, u qaram gap sifatida ham tanilgan. Ingliz tili va o'zbek tili qo'shma gaplarining bir-biriga o'xshash va farqli tomonlari, ular o'rtasidagi mazmun munosabat va ikki oilaga mansub tillarda, gaplarda so'z tartibi kabi masalalarni quyidagi misollarda ko'zdan kechiramiz:

1. «The town was very nice and our house was very fine.»

«Shahar juda ajoyib, bizning sohil esa juda chiroyli edi.»

Ingliz tilida bog'langan qo'shma gap o'zbek tiliga bog'lovchisiz qo'shma gap tarzida tarjima qilingan. Ingliz tili qo'shma gapida « The town» birinchi gapning egasi «was very nice» esa kesimi bo'lib kelgan «and» ikki sod- da gapni bir-biriga bog'lab kelgan teng bog'lovchi, «our» ega- ning aniqlovchisi, «shore» ikkinchi gapning egasi, «was very fine» ikkinchi gap kesimidir.[1.203-229]

O'zbek tili variantida I. G'ofurov bu gapni bog'lovchisiz qo'shma gap tarzida tarjima qilganlar, unda «shahar» ega «juda ajoyib» ot kesim (nomustaqil), «biz turgan» sifatlovchi aniqlovchi «uy» ikkinchi gap egasi, «chiroiyli edi» esa kesim. Agar biz bu gapni grammatik jihatdan yondashib tarjima qilsak quyidagi natijaga erishamiz:

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. «Shahar juda ajoyib edi va biz turgan sohil juda chiroyli edi» Ibrohim G'ofurov gap mazmunidan kelib chiqib ingliz tilidagi «was» bog'lamasi hamda «and» bog'lovchisini tashlab ketganlar, shu bilan birga «our house» (bizning uy) so'z qo'shilmasini , «biz turgan sohil» tarzida ifodalagan. Bu tarjimada birinchidan sohilga egalik yo'qolsa, ikkinchidan engliz tilidagi qaratqich aniqlovchi (our) o'zbek tiliga «biz turgan» sifatlovchi aniqlovchi tarzida berilgan. -

2. «While I was looking at them they opened their eyes»

«Men qarab turganimni sezib, ular ko'zini ochdilar» (A.Q Bill 17 b) Ingliz tilidagi payt ergash gap o'zbek tiliga holat ergash gap tarzida tarjima qilingan. Ingliz tilida qo'shma gapda «While» bog'lovchi, «I» ergash gap egasi, «was looking» ergash gap kesimi, «at them» esa to'ldiruvchi, «they» bosh gap egasi , «opened» bosh gap kesimi, «their» aniqlovchi, «eyes» esa vositasiz to'ldiruvchi bo'lib kelgan.

Tarjimada ingliz tilidagi ergash gap bir tarkibli sodda gap tarzida tarjima qilingan. Bunda: «sezib» nomustaqil kesim, «qarab turganimni» to'ldiruvchi, «mening» aniqlovchi , bosh gapda «ular»

ega , «ko'zini» to'ldiruvchi, «ochdilar» kesim. Ingliz tilidagi «their» egalik olmoshi o'zbek tilida «ilar» egalik qo'shimchasi yordamida tarjima qilingan. [2. 69-75]

Bu gapni grammatik jihatdan yondashib quyidagicha tarjima qilish mumkin: «Men ularga qarctyotgan edim, ular ko'zini ochdilar» Shu tarzda tarjima qilsak ham mazmun jihatdan, ham grammatik jihatdan bir xillikka erishamiz.

3. «I did not care what I was getting into»

«Men buning oqibati qanday bo'lishini o'ylab o'tirmasdim».

Inglizcha variantda «I» bosh gap egasi «did not care «kesim, «what» to'ldiruvchi ergash gap bog'lovchisi, «I» ergash gap egasi «was getting into» ergash gap kesimi.

Tahlil natijalari. I. G'ofurov ingliz tilidagi to'ldiruvchi ergash gapni yoyiq sodda gap tarzida o'zbek tiliga tarjima qilganlar. «Men» ega, «buning oqibati qanday bo'lishini» ergash gap murakkab to'ldiruvchi bo'lib «o'ylab o'tirmasdim» kesim tarzida tarjima qilingan.

Aslida: «Men qayg'urmasdim, men nima qilayotganim haqida».

I think it best to call first »

«Menimcha, birinchi navbatda qo`ng`iroq qilish kerak»

Ingliz tilida to'ldiruvchi ergash gap tarzida berilgan gap o'zbek tiliga sodda gap tarzida tarjima qilingan.[3. 4-9]

«I» bosh gap egasi, «think» kesim, «it» ergash gap egasi, «best to call» kesimi , first- hol. O'zbekchada «menimcha» ega , «qo'ng'iroq qilish kerak» kesim, «birinchi navbatda» hoi, «I think» tarzida ifodalangan gap ishtirok etmagan.

Aslida tarjima: «Men o'ylaymanki, u(urush) tez orada tugaydi» tarzida qilinsa maqsadga muvofiq bo'lardi.

«I wonder where he gets these strange ideas»

« hayronman, u bu g'alati g'oyalarni qayerdan oladi»

Ingliz tilida «I» ega bo'lib, «wonter» kesim bo'lib kelgan , «where» o'rin ergash gapli qo'shma gap bog'lovchisi, «I» ergash gap egasi «gets» ergash gap kesimi.[4. 233-248]

G'ofurov tarjimasida o'rin ergash gap soda gapga aylangan.

«oladi»- kesim, «g'alati» aniqlovchi, «g'oyalarni» to'ldiruvchi

«qayerdan» hoi va «hayronman» ega vazifasida kelgan.

Grammatik to'g'ri tarjima : «Men hayronman, u qayerdan oladi bunday g'alati g`oyalarni.

«I wrote a letter, but it was not to Catherine»

«Maktub yozdim, biroq u Ketringa emasdi»

Ingliz tilida bog'langan qo'shma gap «I» ega, «wrote» kesim, «but « teng bog'lovchi, «it» ega «was not to Catherine» kesim.

O'zbek tilida bir tarkibli qismli qo'shma gap. «maktub»ega «yozdim» kesim «men» ega ishtirok etmagan , biroq teng bog'lovchi, «u» ega «Ketringa emasdi» kesim.[5. 146–159]

Bu gapni grammatik jihatdan tarjima qilsak quyidagiga erishamiz: «Men maktub yozdim, lekin u Katringa emas edi» tarzida tarjima qilinsa ham mazmun jihatdan, ham Grammatik jihatdan bir xillikka erishiladi.

«I hope it's not rain»

«Hoynahoy yomg`ir yog`maydi» Ingliz tilida»! hope she's not ill» maqsad ergash gap. O'zbek tiliga soda so'roq gapda matn asosida tarjima qilingan.

«I « bosh gap egasi « hope» kesim , it ega , «isn't rain « kesim

«Hoynahoy» kirish so'z «yomg'ir yog'maydi» esa kesim

Grammatik jihatdan Ingliz tilidagi gap o'zbek tilidagi gapga tarkib jihatidan ham tuzilish jihatidan ham o'xshamaydi. Bu gapni quyidagicha tarjima qilish mumkin: «Men umid qilamanki, u yomg'ir yog'maydi»

«I hear she talked on the phone»

«Men u telefonda suhbatlashayotganini eshitdim».

«I» bosh gap egasi «hear» kesim «she» ega «talked» kesim, «on the phone» to'ldiruvchi. «Men» ega, «u telefonda gaplashayotganini» murakkab to'ldiruvchi, «eshitdim» kesim.[6. 27–41]

Ingliz tilida to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap o'zbek tiliga murakkab to'ldiruvchili sodda gap tarzida tarjima qilingan. Aslida u quyidagicha tarjima qilinishi kerak. «Men eshitdim, u telefonfa gaplashayotgan edi».

Bunday tarjima ikki oilaga mansub tillarni bir-biri bilan moslashtirib ham grammatik, ham mazmun jihatdan to'g'ri tarjima qilishga yordam beradi.

Qo'shma gaplarning o'ziga xos xususiyatlari kabi yirik muammo g'arb va ingliz tilshunoslari, turkologlar, xususan, o'zbek tilshunoslarining diqqatini tortgan va ularning tadqiq manbai bo'lgan. Qo'shma gaplarning tadqiqida, ya'ni ularning shakllanishi va farqlanishida sintaktik birliklar muhim mavqega ega. Bugungi kungacha deyarli hamma tadqiqotchilarda u yoki bu qo'shma gapning leksik-semantik va sintaktik xususiyatlari tahlil etilgan, xolos. Aniqki, mavjud barcha

sintaktik birliklar (kategoriyalar) funksional uslublar uchun umumiydir. Qo'shma gap turlarida sodda gaplarning qo'llanish doirasi va imkoniyati bir-biridan farq qiladi. Sintaktik birliklarning biri bo'lmish qo'shma gaplar nutq uslublarida keng qo'llanishi haqida olimlarimiz fikr bildirishgan. Ingliz tilshunosligida qo'shma gap stilistikasi, ya'ni uning ayrim turlari ba'zi funksional uslublarda o'rganilgan. O'zbek tilshunosligida bu masala A.Mamajonov asarlarida chuqur va keng tahlil qilingan. Publisistik nutqda qo'llanuvchi qo'shma gaplarni tadqiq etgan olim ularning, asosan, informativ xususiyatga egaligi, davrning dolzarb masalalarini qamrab olishi, xabarni tez va atroflicha yetkazish uchun qulay imkoniyat yaratishga diqqatini qaratgan.

A.Mamajonovning fikricha, qo'shma gaplarning qiyoslash-zidlash munosabatini if ifodalovchi qo'shma gap tiplari publisistik nutqda eng mahsuldor stilistik qatlamni tashkil qiladi.

Bitiruv malakaviy ish ob'yektimiz - ingliz tilda, xususan, Ernest Xemigueyning «Alvido qurol» asaridagi qo'shma gaplarning o'zbek tilidagi talqini va ular tarjimasidagi o'zgarishlardir. Bu masala tilshunoslik ilmida maxsus tadqiq etilmagan bo'lsada, ayrim asarlarda ma'lum darajada ko'rilgan.

Ingliz va o'zbek tilidagi qo'shma gaplarni qiyoslab tadqiq etishda biz ingliz romanchiligining shoh asarlaridan biri Ernest Xemingueyning «A Farewell To Arms» va uning I.G'afurov tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan «Alvido qurol» asarini ob'yekt qilib oldik.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytamizki, Biz tanlagan manba ingliz tilida bir tarkibli qismi mavjud bo'lgan qo'shma gaplarning qo'llanishini tahlil qilar ekanmiz, ularning o'zbek tilidagi tarjimasiga ham imkoni boricha ahamiyat berdik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Coates R. A New Explanation of the Name of London Volume 96, Issue 2 November 1998. – Pp.203-229.

2. Flanagan D. A Summary Guideto the more common lyattested Ecclesiastical Elementsin Place-names // Bulletin of the Ulster Place-name Society. – Belfast: UPNS, 1981-1982. - Ser. 2 Vol. 4. – Pp.69-75.

3. Gelling M. The Word church in English Place-names // Bulletine of the Council for British Archaeology Churches committee. – Dee, 1981.Vol. 15. – Pp.4-9.

4. Leighly J. Town names of colonial New England in the West. // published by: Taylor & Francis Ltd., Association of American Geographers. vol.68, no.2. – Pp.233-248, 1978. Stable URL: http://www.jstore.org/stable/2562216 (accessed: 26.11.2014)

5. Nicolaisen W.F.H. Place-name legends: An onomastic mythology // Folklore. 1976. Vol. 87/2. – Pp.146–159.

6. Smith C. The survival of British toponomy. // Nomina, Journal of the English Place-name Society, 1980. – Pp.27–41.

UO'K 821.512.3:316.722:008

GLOBALLASHUV JARAYONIDA TURK HIKOYACHILIGIDA INSON ICHKI OLAMI VA IJTIMOIY O'ZGARISHLAR UYG'UNLIGI

N.K.Jumaeva, tayanch doktorant, Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Maqolada globallashuvning zamonaviy turk hikoyachiligiga ta'siri tahlil qilinadi. Migratsiya va Yevropaga yaqinlik adabiyotda identitet, begonalashuv va madaniyatlararo ziddiyat mavzularini dolzarblashtiradi. Ichki monolog va ramziy ifoda kabi yangi badiiy shakllar globallashuv bilan bog'liqligi ko'rsatiladi.*

Kalit so'zlar: *Globallashuv, turk hikoyachiligi, migratsiya, identitet, begonalashuv, madaniyatlararo ziddiyat, yangi badiiy shakllar.*

Аннотация. *В статье анализируется влияние глобализации на современное турецкое повествование. Миграция и близость к Европе усилили актуальность тем идентичности, отчуждения и межкультурного конфликта. Новые художественные формы, такие как внутренний монолог и символическое выражение, тесно связаны с глобализацией.*

Ключевые слова: *Глобализация, турецкое повествование, миграция, идентичность, отчуждение, межкультурный конфликт, новые художественные формы.*

Abstract. *The article analyzes the impact of globalization on contemporary Turkish storytelling. Migration and proximity to Europe have made themes of identity, alienation, and intercultural conflict more relevant. New artistic forms such as inner monologue and symbolic expression are shown to be closely linked to globalization.*

Key words: *Globalization, Turkish storytelling, migration, identity, alienation, intercultural conflict, new artistic forms.*

Kirish XX–XXI asrlarda globallashuv adabiyotning mazmunini va shaklini tubdan o‘zgartirdi. Turk adabiyoti ham bu jarayondan chetda qolmadi: turk hikoyachiligi bevosita jamiyat ichidagi madaniy ziddiyatlar, migratsiya, identitet izlanishlari, madaniyatlararo aloqalar singari global muammolarni badiiy tarzda yoritmoqda. Globallashuv adabiy tanqidchilar tomonidan adabiyotning ko‘p qirrali interpretatsiya maydoniga aylangan — u nafaqat milliy voqelikni aks ettiradi, balki universal insoniy tajriba bilan bog‘lanadi.

Zamonaviy turk hikoyachiligi shaxs va jamiyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni inson ruhiyati, individual kechinmalar va ijtimoiy transformatsiyalar orqali tasvirlaydi. Bu jarayon global madaniyat ta’siri bilan boyib, yangi badiiy talaffuz, ichki monologlar, identitet izlanishlari va modern hayotning paradokslarini ochib beradi. Maqola asosiy ilmiy savollar: *globallashuv turk hikoyachiligiga qanday ta’sir qilmoqda? inson ichki olami va ijtimoiy o‘zgarishlar qanday uyg‘un ifodalanmoqda? hamda bu jarayon hikoya janrining badiiy strukturasida qanday aks etadi?* kabi masalalarni tadqiq etadi.

Metodologiya Tadqiqot quyidagi uslubiy yondashuvlar orqali amalga oshirildi:*Adabiy tahlil metodi* – turk hikoyachiligi asarlaridagi mavzu, qahramon ruhiyati va global muammolarni badiiy tahlil qilish; *Komparativ tahlil* – turli mualliflar ijodida globallashuv tasvirining farqlari va umumiyliklarini taqqoslash; *Psixologik uslubiy yondashuv* – qahramon ichki olami va bu olamning ijtimoiy kontekst bilan bog‘lanishini ochib berish.

Ushbu metodlar turk hikoyalarining badiiy vositalarida identitet, migratsiya, yolg‘izlik, qadriyatlar ziddiyati kabi elementlarning qanday strukturaviy ifodalanganligini aniqlashga yordam berdi. Tadqiqotda zamonaviy ilmiy maqolalar, adabiy izohlar hamda janrshunoslik nazariyalari tahlil qilindi.

Globallashuv va inson ichki olami Globallashuv jarayoni insonning ichki ya’ni botiniy olamida identitet izlanishlarini kuchaytirishi bilan bir qatorda, turk hikoyachiligi qahramonlarini ko‘pincha o‘z manzili, qadriyatlari va jamiyatdagi o‘z o‘rnini izlash holatlari yuqori sifatda tasvirlana boshlandi. Bu holatlar ruhiy kechinmalar, begonalashuv, izolyatsiya va o‘zlik izlanishiga olib keladi. Masalan, Turkiya geografik va madaniy jihatdan juda ham qulay va noyob bo’lgan Yevropav hamda Osiyo o’rtasida joylashganligi va “ko’prik davlat” maqomini yana bir bor mustahkamlaganligi sababli turk jamiyatida modernizatsiya, urbanizatsiya va migratsiyaning tezlashuviga asos bo’lgan omillardan biridir. Shu sababli migratsiyaning uzi faqatgina demografik o’zgarish bo’libgina qolmay balki jamiyatning ruhiyati va madaniy qadriyatlariga juda kuchli ta’sir etishiga sabab bo’lgan va turk jamiyati va adabiyotida yangicha ichki tuyg’ularning badiiy jihatdan quydagi muammolar tasvirlana boshlandi: begonalashuv (alienation); madaniyatlararo ziddiyat; ikki identitet orasida qolish; til muammosi; vatanga sog‘inch (gurbet) kabi globallashuning tasiri ostidagi bu muammolar turk adabiyotida yangi mavzularning qaror topishiga sabab boldi.

Turk migrantlarining hikoyalari identitet va til muammolarini boy badiiy ifoda bilan ko‘rsatadi — bu esa adabiyotda migratsiya masalalarini global kontekstda ko‘rishga imkon beradi.

Ijtimoiy o‘zgarishlar va hikoya janri Zamonaviy turk hikoyachiligi ijtimoiy o‘zgarishlarni qadimgi milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirib tasvirlaydi. Shahar hayoti, urbanizatsiya, texnologik

taraqqiyot va madaniyatlararo bosim qahramon hayotida murakkab ruhiy elenlarni yuzaga keltiradi. Bu turk hikoyalarida yangi badiiy shakllar, stilistika va strukturalarni vujudga keltirdi. **Badiiy uslub va yangicha ifoda yo‘sinlari**: Globallashuv adabiy ifoda vositalarini ham boyitdi. Turli hikoyachilar postmodern elementlar, ichki monologlar, metafora va ramziy tillardan foydalanadi. Bu uslubiy yondashuv qahramon bedenining ichki olami bilan jasadlanadi, shuningdek ijtimoiy stereotiplar, madaniy ziddiyatlar refleksiyasini kuchaytiradi.

Muhokama Zamonaviy turk hikoyachiligi globallashuv sharoitida inson ichki olami va ijtimoiy o‘zgarishlar o‘rtasidagi murakkab aloqalarni uyg‘un tasvirlab beradi. Qahramon ichki olami endilikda milliy yoki mintaqaviy chegaralarda qolmaydi; u universal globallashuv jarayonlarining psixologik va ijtimoiy oqibatlarini boshdan kechiradi. Bu esa adabiyot tadqiqotchilari uchun yangi bahs maydonlarini ochadi.

Adabiyotda global mavzular — migratsiya, madaniy begonalashuv, identitet izlanishlari va til muammolari — o‘zaro bog‘liq tizimda talqin qilinmoqda. Masalan, turk migrant hikoyalari turk tilida yozilgan asarlarda identitetning ikki tilda, ikki madaniyat oralig‘ida shakllanishini ko‘rsatadi, bu esa adabiyotda transmilliy tajribani ko‘rsatadi. Badiiy tahlilda qahramonlarning ichki olami va atrof-muhit o‘zgarishlari uyg‘unligi ko‘pincha ichki monolog, ramziy obrazlar va narrativ fragmentlar yordamida ifodalanadi. Bu texnikalar global jarayonning murakkab ruhiy hayotga ta’sirini dramatik ravishda ko‘rsatadi.

Migratsiya mavzusi zamonaviy turk adabiyotining hikoyachilik janrida juda muhim bir asosiy mavzu va vositaga aylandi ya’ni insonning ichki olamini ochishda va badiiy jihatdan yoritadigan asosi qurol vosita boldi desak mubolog’a bo’lmaydi. Ko’pchilik turk zamonaviy hikoyalarda qahramonlar o’zligini yoqotgan shaxs; jamiyatga moslasha olmayaotgan inson; ikki madaniyat orasida qolgan ruhiy subyekt sifatida tasvirlanadi. Bu esa turk zamonaviy hikoyachilikda psixologik realism va postmodernism ifoda usullari va badiiy yo’sinlarning paydo bo’lishiga sabab bo’ladi.

Kirish. "... Adabiyot chin ma'nosi ila o'lgan, so'ngan, qoralangan, o'chgan, majruh, yarador ko'ngilga ruh bermak uchun faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qarab singishgan qora balchiqlarni tozalaydirg'on, o'tkir yurak kirlarini yuvadurg'on toza ma'rifat suvi, xiralagan oynalarimizni yorug' va ravshan qiladirg'on buloq suvi bo'lg'onlig'idan bizga g'oyat kerakdir..." [1].

O'zbek jadidi Cho'lponning adabiyot to'g'risidagi fikr-mulohazalari aynan shu maqola mavzusini hamda uning maqsadini ochib berishga yordam beradi. "O'tkan kunlar" romanining asl maqsadi sevgi-muhabbat kuyini ijro etish emas, balki zamon voqeliklarini to'liq anglab yeta olmagan, o'chgan xalq uchun ogoh etuvchi manba bo'lib xizmat qilish edi. A.Qodiriy davr qaltisligini hisobga olgan holda o'zining qarashlarini parda ortiga olib o'tadi. O'quvchilarga faqat tasvirni ko'rsatadi. Tasvirga yashiringan haqiqatlarni anglashni esa ularning o'ziga va saviyasiga havola etadi. Adabiyotshunos hamda tarixchi olimlarning bergan ma'lumotlari yordamida devona obrazini o'rganib chiqish yana-da osonlashadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Asar ko'plab tilshunoslar, adabiyotshunoslar tomonidan tahlil qilingan. Undagi qahramonlar, ularning nutqi, shuningdek voqealar ham nazariiy tarafdan o'rganilgan. Umumiy tarzda xulosa qiladigan bo'lsak, "roman orqali adib xalqning milliy ongini uyg'otmoqchi, "tariximizning eng kir, qora kunlari" yurtni mustamlaka balosiga yo'liqtirgan keyingi noahil "xon zamonlari"dan so'z ochib, bu ayanchli haqiqatdan xalqqa saboq bermoqchi bo'ldi" [2].

Obrazlarga analitik jihatdan yondashadigan bo'lsak, "*Qodiriy Otabek timsolida milliy uyg'onish mafkurasini shakllantirgan. U o'z davridan bir necha pog'ona yuqori turadigan shaxs sifatida yaratilgan*" [3]. Shuningdek, "*Kumushning fojiasi – ijtimoiy an'analar halokati natijasi*" qodiriyshunos olim L.Qayumov [4] asarning bosh qahramoni to'g'risida shunday yozadi. Romanning asosiy obrazlari haqida bir nechta tahlillarni va olimlar mulohazalarini topish mumkin. Lekin undagi ikkinchi darajali qahramonlarga berilgan izohlarni kamdan kam uchratamiz. Bu maqolada esa xuddi

shunday o‘quvchi anglamay, bir nafasda o‘qilib o‘tib ketadigan Qovoq devona badiiy qiyofasi haqida so‘z yuritiladi.

Natijalar va muhokama. A.Qodiriy o‘zbek adabiyotida ilk romanchilikni boshlab bergan va kelgusi o‘zbek adiblari uchun yangi janr eskizini yaratib bergan mahorat egasidir. A.Qodiriy asarlarida ortiqcha jumla tugul, hattoki keraksiz va ortiqcha so‘zni ham topib bo‘lmaydi. Adib yozgan har bir voqelik, tanlagan obrazlar va faktlar bejiz uning asarlaridan joy olmagan. Ishonchli va samarali asar yaratish uchun yozuvchi kitob yozishdan avval materiallarni yig‘gan, ularni qayta-qayta tekshirgan va oddiy detallarni ham e’tiboridan chetda qoldirmagan. Detallarning hamda qahramonlarning o‘z o‘rni va mohiyati mavjud. Birortasini olib tashlash orqali asar shakli va mazmuniga putur yetkazish mumkin. So‘zni isboti bilan keltiradigan bo‘lsak, yozuvchining o‘zi shunday deydi: “O‘tkan kunlar”ni yozish chog‘ida Marg‘ilonga borganimda, bir ko‘chadan o‘ta turib, namozshom mahalida, dog‘ qilinayotgan zig‘iryog‘ning hidi burnimga urildi, men buni esda tutib qolishga tirishdim. “O‘tkan kunlar”ning bir joyiga shu kichkina detalni kirgizilganida, berilayotgan tasvirning yana ham odam ishonarli bo‘lib chiqqani esimda...”.

“O‘tgan kunlar”ning poydevori Otabek bilan Kumushning muhabbati. Men bu asarni shimoliy ummondagi bahaybat muz tog‘iga – aysbergga o‘xshataman. Ma’lumki, bu tog‘ning faqat cho‘qqilari ko‘zga tashlanadi, asosiy qismi esa ko‘rinmaydi – suv ostida bo‘ladi. Har bir ulug‘ asarning ulug‘vorligini, umrini ana shu ko‘zga ko‘rinmas qismi ta’min etadi, deb o‘ylayman. A.Qodiriy qo‘lga qalam olganlarida ikki yoshning olovli muhabbatinigina bayon qilmoqchi bo‘lganmikinlar? Agar maqsad shugina bo‘lsa asar bu qadar ulug‘vorlik kasb eta olarmidi? Axir tariximizda ishqiy qissalar kam edimi? Eslaylik: A.Qodiriy adabiyotga muhabbat kuychisi bo‘lib kirib kelmaganlar.

A.Qodiriy “O‘tkan kunlar” asarini dastlab yaxlit bir kitob holida chiqarmagan. Asar boblari birin-ketin gazetada nashr etilgan. Shuning uchun ham har bir bob raqamli emas, aksincha ularga nom berilgan. O‘quvchi e’tiboridan ko‘p chetda qoladigan va yuzaki qaraladigan sahifalar bu uchinchi fasldagi devona to‘g‘risidagi bob bo‘lsa kerak. tasvirlashga harakat qilgan. “Qovoq devona” uchun butun boshli bir bobni ajratish, albatta, ajablanarli. Demak, bu qahramonni, shuningdek uning nutqini chuqur tahlil qilish lozim. A.Qodiriy bu telba obrazi orqali o‘quvchiga nimalarni yoritib berishni maqsad qilgan va qanday haqiqatlar yashirishga harakat qilgan. Quyida “Qovoq devona” epizodik obrazning va uning nutqining tahlili beriladi.

Nega aynan “qovoq”? Adib devonani qovoq osilgan belbog‘da tasvirlaydi. Birinchi navbatda nima sababdan “qovoq” detalidan foydalanilganligini tahlil qilib olish zarur. Chunki tashqi ma’no orqali ichki ma’noni topish osonlashadi. O‘zbek so‘zlashuv tilida (norasmiy tilda) so‘zlashuvchilar orasida “qovoq kalla” yoki “qovoq” degan so‘z va jumlalar yordamida bir insonning aqlsizligi va kaltafahmligi nazarda tutiladi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida ham “qovoq kalla (yoki bosh)” frazeologik birligi “miyasi yo‘q, aqlsiz, ahmoq” degan ma’nolarda izohlangan. Demak, yozuvchi ham “qovoq” so‘zi orqali aynan shu ma’nolarni o‘quvchiga yetkizib bermoqchi bo‘lgan. Asardagi Qovoq devona o‘z nomidan anglashinib turibdiki, u telba va aqli noqis. Ammo shu devona tilidan yozuvchi o‘z fikr va mulohazalarini yetkazib berishga harakat qilgan, ya’ni “qog‘ozga o‘rab” o‘sha davrdagi jamiyat hayotini tasvirlashga uringan.

Yashirin ma’no. Yuqorida til birligining izoh va ma’nolari keltirib o‘tildi. Endi esa aynan “O‘tkan kunlar” kitobidagi Qovoq devonaning monologini keltirilib, undagi yashirin ma’noni ochishga va asarda keltirilgan davr bilan taqqoslashga harakat qilinadi. “Qovoq devona belidagi qovoqlardan bitta egri maymog‘ini ko‘rsatib: Manov – Musulmon cho‘loq, – dedi, uning yonidag‘i kichkina tomosha qovoqni turtib: bunov, Xudoybachcha (Xudoyorbachcha), – dedi, suv qovog‘ini erkalab «Nor kalla» (Normuhammad qushbegi), – dedi. Qolg‘an ikkita silliq qovoqchalarni «nosqovoq, yupqa tomoq», deb qo‘ydi. Ermakchilar kulishdilar. Bu qovoq o‘g‘rilari ichidan tezroq qochib qutulish uchun ketishka intilgan edi, biravi ushlab qoldi”. Bu nutqida devona Qo‘qon xoni va uning davlat xizmatchilarini qovoqqa taqqoslamoqda, ya’ni ularni aqlsiz va kaltafahm deya tasvir etyapti. Ayni haqiqatni majoz va ramzlar bilan ochiq aytayotgan devona o‘z atrofidagi “aql raso” jamoa tomonidan kalaka qilinadi, ta’qib ostiga olinadi. Bu jumlalarni chuqurroq tushunish uchun tarixga yuzlanish va XIX asrning ikkinchi yarmida Qo‘qon xonligining siyosiy ahvolini o‘rganib chiqish zarur. “Xudoyorxon davri – 1845-1875-yillar oralig‘ida (tanaffuslar bilan) hukmronlik qilgan

Qo‘qon xoni Xudoyorxon nomi bilan bog‘liq bo‘lgan tarixiy davr. Uning hukmronligi Qo‘qon xonligi uchun iqtisodiy va siyosiy inqirozlar davri bo‘ldi, buning natijasida 1876-yilda Rossiya imperiyasi tomonidan istilo qilingan”.

Ichki ziddiyatlarga o‘ralashib qolgan xon tashqi siyosatni unutadi. Buning natijasida xonlik mustamlakaga aylanadi. Aslida personaj Qovoq devona o‘zining nutqi orqali kulgili haqiqatni aytib o‘tadi. Ammo bu shunday holda qolmay, asarning keying o‘rinlarida bu hangoma ostidagi haqiqat Yusufbek hoji nuqti yordamida oydinlashadi: “Hoji o‘zini tutolmay ko‘z yoshisini oq soqolig‘a quyib davom etti: Mana, burodarlar! Siz o‘z qipchog‘ingiz uchun qabr qazig‘an fursatda, sizga ikkinchilar tobut chopadir. Biz qipchoqqa qilich ko‘targanda, o‘rus bizga to‘p o‘qlaydir. Siz dunyoda o‘zingizning yagona dushmaningiz qilib qipchoqni ko‘rsangiz, men boshqa yovni har zamon o‘z yaqinimg‘a yetkan ko‘raman! – dedi va ro‘ymoli bilan ko‘z yoshisini artib o‘rnidan turdi”. Mana nima sababdan A.Qodiriy buyuk yozuvchi deya ta’rif etilgan. Adibning har bir badiiy obrazi ham falsafiy, ham tarixiy jihatdan go‘zal tarzda yoritib berilgan.

Xulosa. A.Qodiriy shaxsiyati va ijodi to‘g‘risida ko‘p bilimlarni xulosalay olishimiz mumkin. Adib asarlaridan madaniyat, tarix, urf-odat, din, shuningdek, insoniy fazilatlarni ham o‘rgana olamiz. Maqoladagi birgina epizodik personaj Qovoq devona orqali qanchadan qancha ma’no-mohiyatlarni chiqarishimiz mumkin ekan. Demak, butun boshli roman qahramonlari tahlil qilinsa, birgina kitobdan olam-olam foyda olamiz. Shuning uchun ham tarixda, ham o‘zbek adabiyotida o‘chmas iz qoldirgan qahramonlarimiz merosini qunt bilan o‘rganmog‘imiz darkor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/hikmatlar/yozuvchilar-adabiyot-to-g-risida
2. Raxmatullayeva Rozagul Abdulaziz qizi. “O‘tkan kunlar” asari haqida, https://wordlyknowledge.uz/index.php/PIUY/article/view/1787/2574
3. Ibrohim G‘afurov. Qodiriy dahosi. – Toshkent: Sharq, 1999.
4. Laziz Qayumov. Qodiriy va uning asarlari, T.: Universitet, 1994.

UO’K 81’25:811.512.133+811.112.2

O‘ZBEK VA NEMIS TILLARIDAGI TARJIMA JARAYONINING LINGVISTIK MUAMMOLARI

Z.H. Masodikova, katta o‘qituvchi, Qo‘qon davlat universiteti, Qo‘qon
M.T. Eshonqulova, o‘qituvchi, Qo‘qon davlat universiteti, Qo‘qon

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek va nemis tillari o‘rtasidagi tarjima jarayonida yuzaga keladigan grammatik, leksik-semantik hamda lingvokulturologik muammolar qiyosiy-lingvistik tahlil asosida o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tarjima jarayonidagi asosiy qiyinchiliklar til tizimlarining strukturaviy tafovuti, semantik nomuvofiqliklar va madaniy konseptlar farqi bilan bog‘liq. Tarjima adekvatligini ta’minlashda kontekstual yondashuv, funksional ekvivalentlik hamda pragmatik moslashtirish muhim ahamiyat kasb etishi asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *tarjima jarayoni, ekvivalentlik, semantika, lingvokulturologiya, o‘zbek tili, nemis tili.*

Аннотация. *В данной статье на основе сравнительного лингвистического анализа изучаются грамматические, лексико-семантические и лингвокультурологические проблемы, возникающие в процессе перевода между узбекским и немецким языками. Результаты исследования показывают, что основные трудности в процессе перевода связаны со структурными различиями языковых систем, семантическими несоответствиями и различиями в культурных концепциях. Утверждается, что контекстуальный подход, функциональная эквивалентность и прагматическая адаптация играют важную роль в обеспечении адекватности перевода.*

Ключевые слова: *процесс перевода, эквивалентность, семантика, лингвокультурология, узбекский язык, немецкий язык.*

Abstract. *This article studies the grammatical, lexical-semantic and linguoculturological problems that arise in the translation process between Uzbek and German languages on the basis of comparative linguistic analysis. The results of the study show that the main difficulties in the*

translation process are associated with the structural differences of language systems, semantic inconsistencies and differences in cultural concepts. It is argued that the contextual approach, functional equivalence and pragmatic adaptation play an important role in ensuring the adequacy of translation.

Keywords: *translation process, equivalence, semantics, linguoculturology, Uzbek language, German language.*

Tarjima jarayoni tilshunoslikning eng murakkab va ko‘p qirrali sohalaridan biri bo‘lib, u turli til tizimlari o‘rtasida ma’no, axborot hamda madaniy mazmunni uzatish mexanizmlarini o‘z ichiga oladi. Zamonaviy globallashuv sharoitida turli tipologik tizimlarga mansub tillar o‘rtasidagi tarjima masalalari ilmiy jihatdan alohida dolzarblik kasb etmoqda. Ayniqsa, strukturaviy va semantik jihatdan sezilarli tafovutlarga ega bo‘lgan o‘zbek va nemis tillari o‘rtasidagi tarjima jarayoni murakkab lingvistik hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbek tili agglutinativ til sifatida grammatik ma’nolarni qo‘shimchalar orqali ifodalashga asoslangan bo‘lsa, nemis tili flektiv til sifatida morfologik o‘zgarishlar hamda sintaktik qat’iylik bilan tavsiflanadi. Ushbu tipologik tafovutlar tarjima jarayonida formal moslik, grammatik ekvivalentlik hamda semantik adekvatlik masalalarini yuzaga keltiradi. Tarjima faqat til birliklarini almashtirish emas, balki ma’no konstruksiyasi, kommunikativ vazifa hamda madaniy kontekst bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan interpretativ jarayondir. Shu bois tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolarni faqat grammatik yoki leksik darajada emas, balki semantik, pragmatik hamda lingvokulturologik jihatdan ham o‘rganish zarur. Maqolaning asosiy maqsadi o‘zbek va nemis tillari o‘rtasidagi tarjima jarayonida uchraydigan muammolarni aniqlash hamda ularning lingvistik tabiatini ilmiy asosda izohlashdan iborat. Mazkur maqola interpretativ-lingvistik paradigma doirasida amalga oshirilgan, shuningdek tarjima jarayonidagi muammolar misollar yordamida tahlil qilingan. Tarjima jarayonidagi asosiy muammolar quidagilar:

1. Grammatik tafovutlar bilan bog‘liq muammolar

2. Leksik-semantik nomuvofiqliklar

3. Frazeologik birliklar tarjimasidagi muammolar

4. Lingvokulturologik birliklar bilan bog‘liq muammolar

O‘zbek va nemis tillari tipologik jihatdan turli til tizimlariga mansub bo‘lgani sabab tarjima jarayonida grammatik nomuvofiqliklar muhim qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Nemis tilida artikl kategoriyasi grammatik tizimning ajralmas qismi hisoblanadi, o‘zbek tilida esa bunday kategoriya mavjud emas.

Misol:

Nemis tilida: *Der Student liest ein Buch.* Talaba kitob o‘qiyapti.

Bu yerda *der* va *ein* artikllari o‘zbek tilida alohida ifodalanmaydi. Natijada formal grammatik moslik buziladi, lekin semantik mazmun saqlanib qoladi. Mazkur hodisa tarjimada strukturaviy transformatsiya zarurligini ko‘rsatadi.

Tarjima jarayonida leksik birliklarning ma’no hajmi va semantik chegaralari tillar o‘rtasida doimo ham mos kelavermaydi. Ayrim tushunchalar bir tilda keng konseptual mazmunga ega bo‘lsa, boshqa tilda ular torroq yoki differensial shaklda ifodalanadi.

Misol:

Nemis tilidagi *Heimat* tushunchasi o‘zbek tiliga bir nechta variant orqali tarjima qilinadi: *vatan, ona yurt, tug‘ilib o‘sgan joy*. Bu birlik yagona leksik ekvivalentga ega emas. Tarjimon kontekstga qarab interpretativ qaror qabul qiladi. Bu esa semantik adekvatlik muammosining mavjudligini ko‘rsatadi.

Frazeologizmlar tarjimada eng murakkab qatlamlardan biri hisoblanadi, chunki ular ko‘pincha to‘g‘ridan-to‘g‘ri semantik moslikka ega emas. Idiomatik ifodalar madaniy va obrazli tafakkur mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi.

Misol:

Nemis tilida: *Tomaten auf den Augen haben.* Ko‘zida pomidor bor.

Semantik tarjima: *Hech narsani sezmaslik / ko‘rmaslik.*

Bu misol frazeologik birliklarda literal tarjima ma’no buzilishiga olib kelishini ko‘rsatadi. Tarjimon funksional ekvivalentdan foydalanishi zarur.

Madaniy jihatdan belgilangan birliklar tarjimada alohida yondashuvni talab qiladi. Milliy mentalitet, urf-odat va ijtimoiy qadriyatlar bilan bog‘liq tushunchalar tillar o‘rtasida to‘liq ekvivalentga ega bo‘lmasligi mumkin.

Misol:

O‘zbek tilidagi *mahalla* tushunchasi nemis tiliga oddiygina *Gemeinde* yoki *Nachbarschaft* sifatida tarjima qilinadi.

Biroq ushbu birlik o‘zbek madaniyatida keng ijtimoiy, ma’naviy va institutsional mazmunga ega. Nemis tilidagi ekvivalentlar esa bu konseptning barcha pragmatik komponentlarini qamrab olmaydi. Bu esa lingvokulturologik adekvatlik muammosini yuzaga keltiradi.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari o‘zbek va nemis tillari o‘rtasidagi tarjima jarayonining murakkab, ko‘p qatlamli lingvistik hodisa ekanligini tasdiqlaydi. Aniqlangan muammolar grammatik tafovutlar, leksik-semantik nomuvofiqliklar, frazeologik birliklar hamda lingvokulturologik elementlar bilan bog‘liq bo‘lib, ular tarjima adekvatligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari zamonaviy tarjima nazariyasidagi ekvivalentlik tushunchasining nisbiy xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi. Formal ekvivalentlik har doim ham semantik adekvatlikni ta’minlay olmaydi. Ushbu holat dinamik ekvivalentlik tamoyili bilan izohlanadi, unga ko‘ra tarjima jarayonida asosiy e’tibor grammatik moslikka emas, balki kommunikativ mazmun va funksional adekvatlikka qaratiladi. Grammatik tafovutlar bilan bog‘liq muammolar tillarning tipologik farqi bilan bevosita bog‘liq. Agglutinativ va flektiv tizimlar o‘rtasidagi strukturaviy tafovutlar tarjimada transformatsiyalarni muqarrar qiladi. Bu jarayon tarjima nazariyasida strukturaviy moslashtirish strategiyalari orqali hal etilishi ta’kidlanadi. Tadqiqot natijalari ushbu nazariy qarashlarning amaliy jihatdan asosli ekanligini ko‘rsatdi. Semantik nomuvofiqliklar tarjima jarayonining interpretativ xarakterini ochib beradi. Polisemiya, konseptual tafovutlar hamda konnotativ ma’no o‘zgarishlari tarjimon tomonidan kontekstual qarorlar qabul qilinishini talab qiladi. Bu esa tarjima jarayonini mexanik almashtirish emas, balki ma’no rekonstruksiyasi sifatida talqin etish zarurligini ko‘rsatadi. Frazeologik birliklar tarjimasi esa funksional ekvivalentlik nazariyasining dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi. Literal tarjima ko‘pincha semantik deformatsiyaga olib keladi. Tadqiqot davomida aniqlangan misollar frazeologizmlar tarjimasida madaniy va pragmatik adekvatlik ustuvor ahamiyat kasb etishini ko‘rsatdi. Lingvokulturologik muammolar tarjima jarayonining madaniy komponentini namoyon etadi. Milliy konseptlar, realiyalar hamda madaniy birliklar tarjimada oddiy leksik almashtirish bilan cheklanmaydi. Ushbu birliklar tarjimasida semantik kompensatsiya, tushuntiruvchi tarjima hamda pragmatik moslashtirish strategiyalaridan foydalanish zarur bo‘ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tarjima adekvatligi ko‘p omilli hodisa bo‘lib, u grammatik moslik, semantik aniqlik, pragmatik muvofiqlik hamda madaniy ekvivalentlik uyg‘unligida ta’minlanadi. Tarjimon faoliyati esa lingvistik bilim bilan bir qatorda kognitiv va madaniy kompetensiyani ham talab qiladi.

Mazkur tadqiqot natijalari o‘zbek va nemis tillari o‘rtasidagi tarjima jarayonining murakkab hamda ko‘p qatlamli lingvistik hodisa ekanligini yana bir bor ko‘rsatdi. Tahlillar shuni tasdiqladiki, tarjima jarayonida uchraydigan qiyinchiliklar tasodifiy emas, balki tillarning tipologik, semantik va lingvokulturologik xususiyatlari bilan uzviy bog‘liqdir. Tadqiqot davomida aniqlangan grammatik tafovutlar o‘zbek va nemis tillarining strukturaviy farqlari tarjimada formal moslikni ta’minlash jarayonini murakkablashtirishini namoyon etdi. Shu bilan birga, ko‘plab hollarda semantik adekvatlik strukturaviy transformatsiyalar orqali muvaffaqiyatli saqlanishi mumkinligi kuzatildi. Bu holat tarjimada formal ekvivalentlikdan ko‘ra kommunikativ mazmun ustuvor ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Semantik tahlil natijalari esa leksik birliklarning ma’no hajmi hamda konseptual yuklamasi tillar o‘rtasida har doim ham to‘liq mos kelmasligini aniqladi. Polisemiya hodisalari, konnotativ tafovutlar hamda konseptual farqlar tarjima jarayonining interpretativ tabiatini belgilaydi. Shu bois tarjima jarayoni oddiy til birliklarini almashtirish emas, balki ma’no rekonstruksiyasi sifatida qaralishi zarurligi ayon bo‘ldi. Frazeologik birliklar va lingvokulturologik elementlar tarjimasida kuzatilgan muammolar tarjimaning nafaqat lingvistik, balki madaniy hamda kognitiv

jihatlarini ham ochib berdi. Tadqiqot natijalari milliy-madaniy birliklarni adekvat tarjima qilishda funksional ekvivalentlik, semantik kompensatsiya hamda pragmatik moslashtirish strategiyalarining muhimligini tasdiqladi.

Umuman olganda, o‘zbek va nemis tillari o‘rtasidagi tarjima jarayoni yuqori darajadagi lingvistik, semantik hamda madaniy kompetensiyani talab qiluvchi murakkab kommunikativ faoliyat ekanligi tadqiqot natijalari asosida ilmiy jihatdan asoslandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Nida E. A. *Toward a Science of Translating*. – Leiden: E. J. Brill, 1964. – 331 p.
2. Newmark P. *A Textbook of Translation*. – London: Prentice Hall International (UK) Ltd., 1988. – 292 p.
3. Baker M. *In Other Words: A Coursebook on Translation*. – 3rd ed. – London: Routledge, 2018. – 409 p.
4. Komilov N. *Tarjima nazariyasi asoslari*. – Toshkent, 2021.
5. Schäffner C. Translation Research and Interpreting Research // *Translation Research and Interpreting Research: Traditions, Gaps and Synergies* / ed. by C. Schäffner. – Clevedon: Multilingual Matters Ltd., 2004. – P. 1–10.
6. Venuti L. *The Translator's Invisibility: A History of Translation*. – 2nd ed. – London: Routledge, 2012.– 353 p.
7. Nord C. *Translating as a Purposeful Activity: Functionalist Approaches Explained*. – Manchester: St. Jerome Publishing, 1997. – 154 p.

UO'K 811.581'38:808.5

XITOY TILSHUNOSLARINING ASARLARIDA XITOY TILI RITORIK SAVOLLARI HAQIDA

N.M. Matkarimova, mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada xitoy tilshunoslarning ritorik savollari haqidagi fikrlari, ritorik savollarni xususiyatlari haqida bayon etilgan. Bunda xitoyshunos olimlar 天昱 Tianyuning 现代汉语反问句研究 "Zamonaviy xitoy tilida ritorik so‘roq gaplar", 刘松江 Liu Songjiang 反问句的交际作用 "Ritorik savollarni murojaatdagi ahamiyati", 郭继懋 Guo Jimaoning 反问句的语义语用特点 "Ritorik so‘roq gaplarning semantik ma'nolari va ularning qo‘llanilishi" va boshqalarning ritorikaga oid o‘hshash va tafovutli jihatlari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *ohang, urg‘u, soda gap, murakkab gap, ritorika, ritorik savollar.*

Аннотация. *В данной статье раскрываются точки зрения различных китаеведов по теме риторики и риторических вопросов. Для раскрытия темы были проанализированы научные работы таких ученых как 天昱 Тиен Юан 现代汉语反问句研究 "Риторические вопросы в современном китайском языке", 刘松江 Лиё Сонгдзянг 反问句的交际作用 "Значение риторических вопросов в общении", 郭继懋 Гуо Дзимао 反问句的语义语用特点 "Семантические значения риторических вопросов и их значения" и др.*

Ключевые слова: *тон, ударение, простое предложение, сложное предложение, риторика, риторические вопросы.*

Abstract. *This article reveals the points of view of various Sinologists on the topic of rhetoric and rhetorical questions. To explore this topic, we analyzed the works of scholars such as Tien Yuan 现代汉语反问句研究 "Rhetorical Questions in Modern Chinese," Liu Songjiang 反问句的交际作用, "The Significance of Rhetorical Questions in Communication," and Guo Jimao 郭继懋 "Semantic Meanings of Rhetorical Questions and Their Meanings" and others.*

Keywords: *tone, stress, simple sentence, complex sentence, rhetoric, rhetorical questions.*

Ritorika deyilganda, ikki ma'no nazarda tutiladi. Birinchisi — notiqlik san'atining asoslarini o‘rganuvchi fan, ikkinchisi esa, har qanday ifodali va ta'sirchan nutqni ilmiy jihatdan o‘rganuvchi soha.

Har bir tilda bo‘lganidek xitoy tilining grammatik unsurlarida ham ritorika atamasi mavjud bo‘lib, xitoy olimlarining fikricha, ritorika atamasi va ritorik so‘roq turidagi gaplar notiqlik san'atida yorqin usul namoyishi uchun keng qo‘llanilgan. Umuman olganda, xitoy tili grammatikasida "ritorik saavollar" tushunchasi 1980-yillarga kelib "ritorik so‘roq gaplar" tushunchasi paydo bo‘lishiga zamin yaratib berdi. Ritorik so‘roq gaplar o‘zida ritorik savollarni mujassam etib, shuningdek, o‘z ichida

tasdiqni yashirib, javob talab qilmagan holda shakllanadi. Ritorik savollar adabiy tilning his-hayajonli holatini bildirish uchun stilistik vosita sifatida qo‘llaniladi.

Filologiya fanlari doktori 天昱 Tianyuning 现代汉语反问句研究 “Zamonaviy xitoy tilida ritorik so‘roq gaplar” nomli doktorlik dissertatsiyasida, ritorika aynan katta ommaning qiziqishlariga sabab bo‘lgan savol turi, shu bilan birga barcha olimlar o‘z izlanishlarida har xil ixtilofli fikrlar bildirishiga qaramay, “ritorika bu savol formasining eng noyob tuzilish birligidir”, — deb ta’kidlab o‘tadi. Ichki strukturaviy jihatdan qaralganda, ritorika so‘roq gaplarda aks etib, inkor turdagi holatni bildirsa-da, aksincha, inkor holatdagi so‘roq gaplar tizimida u tasdiqni bildirib kelsa, tashqi strukturaviy jihatdan o‘rganilganda, ritorika davomsiz gaplarda ishtiroki bilan ajralib turishi hamda savol berayotgan shaxs ikkinchi tomonning javob manzarasini maqsad qilganligi va butun bir yagonalik tizimini bildirishi ta’kidlab o‘tiladi. Yana aytib o‘tilishicha, xitoy tilida ritorikaning statistika bo‘yicha til formasi hamda funksionallik nuqtai nazaridan miqdoriy ko‘rsatkichlarini ham berib o‘tadi.

Olim 刘松江 Liu Songjiang 反问句的交际作用 [2] “Ritorik savollarni murojaatdagi ahamiyati” nomli maqolasida, asosan, ritorikaning chet el talabalari o‘rganish jarayonida yo‘l qo‘yadigan kamchiliklarining bartaraf qilish yo‘llari borasida fikr bildiradi. Uning fikriga binoan, til o‘rganayotgan shaxs so‘roq gaplar tizimidagi ritorikaning tub mohiyatiga hamda strukturaviy jihatiga yetib bormas ekan, uning til o‘rganish va tahlil etish jarayonida nuqsonlar ko‘zga tashlanaverishi — bu mavzuning naqadar muhim ekanini ko‘rsatadi. “So‘zlovchi tomonidan ritorika gaplar tizimida qo‘llanilar ekan, mazkur unsur so‘zlovchining his-tuyg‘ularini batamom ifoda etib kelishi, shuningdek, bu holat xitoy tili adabiyot asarlarida ham keng yoritilgan” ligi ta’kidlab o‘tilgan.

Olim 吕明臣 Lu Mingchen, 张玥 Zhang Yuening 反问句的功能和意义[3] “Ritorik gaplar funksiyasi va uning ma’nolari” nomli maqolasida ritorikaning funksiyasi, emotsional ma’nolari, shuning bilan birgalikda boshqa turdagi ma’nolari, strukturaviy jihatlarini ommaga qanday tadbiq etish va ularning keyingi rivojlanishidagi o‘z qarashlarini berib o‘tgan.

郭继懋 Guo Jimaoning 反问句的语义语用特点 [4] “Ritorik so‘roq gaplarning semantik ma’nolari va ularning qo‘llanilishi” ilmiy ishga murojaat etganizmizda, olim mavzu doirasida ritorika mohiyatini yetkazib beruvchi so‘zlar ma’nolarini tahlilga tortadi va ritorik gapda qo‘llanilayotgan sifat so‘z turkumiga mansub so‘zlar darajalarini qo‘llash borasida tavsiyalar berib o‘tadi. Shuningdek, olim tomonidan ushbu monografiyada oddiy savol gaplar bilan ritorikaning bog‘liqlik hamda farqli tomonlari chuqur yoritilgan.

朱姝 Zhu Shuning 反问句的句法结构及意义 – 语用分析 [5] “Ritorik so‘roq gaplarning sintaktik qurilishi va ma’nolari, pragmatik tahlili” deb nomlangan ilmiy ishida ham e’tibor ritorikaga qaratilar ekan, uning gapdagi strukturaviy jihatlari, semantikasi, til tahlillari ustida o‘z izlanishlarini olib borilgan. Shuning bilan birgalikda, ritorika hamda oddiy so‘roq gaplarni umuman bir butun so‘roq gap tizimi deya qarashlarga qat’iy qarshiliklar bildiriladi hamda, ritorikada qo‘llaniluvchi savol formalariga birma-bir izoh beriladi. 朱姝 Zhu Shu o‘z izlanishlarida biz yuqorida keltirgan 郭继懋 Guo Jimaoning 反问句的语义语用特点 “Ritorik so‘roq gaplarning semantik ma’nolari va ularning qo‘llanilishi ” mavzu doirasidagi ishni o‘rganib chiqqan holatda, o‘zining qarshi fikrlarini bildiradi. Uning ta’kidlashicha ritorikadan gapda foydalanishda, uning barcha unsurlariga e’tibor qaratish joizdir, hattoki bir unsur tushib qolishi ham gapning strukturaviy tartibliligi buzilishiga olib keladi.

于根元 Yu Genyuanning 反问句的性质和作用 [6] “Ritorik so‘roq gaplar xususiyati va uning qo‘llanilishi” nomli maqolasida olim ritorikaning qanday usullar bilan gapda qo‘llanilishi, uning javob tarzi qanday bo‘lishi kerak yoki umuman javob berilmaslik holatlari qanday bo‘lishi kerakligi ta’kidlab o‘tilgan.

郭锐 Guo Ruining “吗”反问句的确信度和回答方式 [7] “Ritorik savollarning tasdiq (ishonchlilik) darajasini 吗-mi? yuklamasi orqali ifodalanishi va unga javob qaytarish usullari” nomli izlanishida olim o‘zining ritorikada qo‘llaniluvchi 吗“-mi?” so‘roq yuklamasi hususidagi o‘z fikrlarini bildirib o‘tadi. Bu ishda olim o‘zining 吗 “-mi?” yuklamasi orqali bildiriladigan har bir misollarda o‘z fikrini berib o‘tib, har bir vaziyatning bir-biridan farqli jihatlarini o‘rganib chiqqan.

Shuningdek, oddiy so‘roq gap tizimida mazkur qo‘shimchaning roli ritorikada foydalanilgan jihatdan qanday farqli tomonlar mavjudligini isbotlab bergan.

史金生 Shi Jinshengning 表反问的“不是” [8] “Ritorik savolni anglatuvchi 不是(inkorni anglatuvchi “yo‘q” so‘zi) inorasini qo‘llanishi haqida” deb nomlangan maqolasida oddiy so‘roq gaplar tarkibida 不是 (inkorni anglatuvchi “yo‘q” so‘zi) ishlatilmasligi, ishlatilishi bilan oddiy so‘roq gap darhol ritorikaga aylanishi barchani e’tiborini tortishi shubhasizligi haqida bayon etadi. Shu bilan birga inkorni ifodalovchi 不是 (inkorni anglatuvchi “yo‘q” so‘zi) esa, ritorikaga aylanishi bilanoq, o‘z hususiyatini o‘zgartirib, ta’kidga aylanishini ham olim ta’kidlab o‘tgan.

沈开木 Shen Kaimuning 反问语气怎样起否定作用 [9] “Inkor gaplarda ritorik savol ohangining qo‘llanilishi” maqolasida olim xitoy tilida inkorning nimaligi hamda uning ritorikada qo‘llanilish bosqichlari, ritorikada inkorlar qanday holatlarni kashf etishi borasida fikrlar bildirgan. Shuning bilan birga, inkor - ritorikaning ajralmas bir qismi ekani ham ta’kidlanib o‘tilgan.

Yuqoridagi fikrlar yuzasidan quyidagi xulosalarga keldik:

1) Ritorik so‘roq gap usullari besh turni o‘z ichiga qamrab oladi: 1. His-hayajon ifodasidagi ritorik so‘roq gaplar; 2. Oddiy turdagi bahs ma’nosidagi ritorik so‘roq gap usullari; 3. Xohish- iroda ifodasidagi ritorik so‘roq gaplar; 4. O‘tgan zamon ish-harakatini ifodalovchi usul; 5. Boshqa turdagi kasb, holat, hissiyotni ifoda etuvchi usullar.

2) Ritorik savollar so‘nggida keluvchi modal qo‘shimchalarning asosiylari quyidagilardir: 吗 ma –mi?; 呢 ne– orqali so‘zlovchi holatini yetkazib beruvchi modal yuklama”; 啊 a – a? so‘zlovchining taajjubli yoki hayratli holatini bildiradi.

3) Ritorikaning ifoda jarayoni va uning tub mohiyati batamom ikki turdagi tafovutni aks ettiradi. Shuningdek, gap uslubiyatini kuchaytirib, har bir ifodadagi holat, yanada aniqlik va qat’iylik tarzida kechadi.

4) So‘roq gaplar sintaktik konstruksiyalari ikki katta guruhga bo‘linadi: a)Javob talab qilinadigan yoki soda so‘roq turidagi gaplar; b)Javob talab qilinmaydigan yoki ritorik so‘roq turidagi gaplar.

5) Ritorik so‘roq gaplar ham ikki guruhga bo‘linadi: buyruq maylini ifodalovchi ritorik turdagi so‘roq gaplar; aniqlik maylini ifodalovchi ritorik turdagi so‘roq gaplar;

6) Ritorik so‘roq gaplar quyidagi til vositalari orqali namoyon bo‘ladi: so‘roq olmoshlari, so‘roq yuklamalari va mahsus ohanglar orqali.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. 天昱. 现代汉语反问句研究. 博士学位论文, 2007. – 139 页.
2. 刘松江.反问句的交际作用. 语言教学与研究, 1993.– 189 页.
3. 吕明臣，张玥. 反问句的功能和意义. 华夏文化论坛, 2011. – 211 页.
4. 郭继懋.反问句的语义语用特点. 中国语文, 1997. –167 页.
5. 朱姝. 反问句的句法结构及意义 – 语用分析. 硕士学位论文, 2004. – 80 页.
6.于根元. 反问句的性质和作用. – 中国语文, 1984. – 6-7 页.
7. 郭锐. “吗”反问句的确信度和回答方式. – 世界汉语教学, 2000. 页 33-34.
8. 史金生.表反问的 “不是”. – 北京.: 中国语文, 1997. 78-79 页.
9. 沈开木. 反问语气怎样起否定作用. –中国语文通讯, 198 页.

UO’K 808.5

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA “DASTURXON” GA OID FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR

Z.R.Mirzatillayeva, magistrant, Farg‘ona davlat universiteti, Farg‘ona
N.X.Aliyeva, PhD, Farg‘ona davlat universiteti, Farg‘ona

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillarida “dasturxon” konsepti bilan bog‘liq frazeologik birliklar lingvistik hamda lingvomadaniy jihatdan qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda frazeologizmlarning semantik tuzilishi, madaniy asoslari va xalq mentalitetidagi o‘rni aniqlash maqsad qilingan. Deskriptiv, qiyosiy-tahliliy, semantik hamda lingvomadaniy tahlil usullaridan foydalanildi*

Kalit so'zlar: *frazeologik birliklar, dasturxon konsepti, lingvomadaniyatshunoslik, qiyosiy tahlil, ingliz va o'zbek tillari, milliy mentalitet, madaniy ramzlar, semantika*

Аннотацияю *В данной статье фразеологические единицы, связанные с концептом «дастурхон» в английском и узбекском языках, анализируются в сравнительно-лингвистическом и лингвокультурологическом аспектах. Цель исследования заключается в выявлении семантической структуры фразеологизмов, их культурных основ и роли в национальном менталитете. В работе использованы описательный, сравнительно-аналитический, семантический и лингвокультурологический методы анализа.*

Ключевые слова: *фразеологические единицы, концепт дастурхон, лингвокультурология, сравнительный анализ, английский и узбекский языки, национальный менталитет, культурные символы, семантика.*

Abstract. *This article provides a comparative linguistic and linguocultural analysis of phraseological units related to the concept of "dasturxon" in English and Uzbek. The study aims to identify the semantic structure of phraseological expressions, their cultural foundations, and their role in shaping national mentality. Descriptive, comparative-analytical, semantic, and linguocultural research methods were employed.*

Key words: *phraseological units, the concept of dasturxon, linguocultural studies, comparative analysis, English and Uzbek languages, national mentality, cultural symbols, semantics.*

KIRISH. Til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlar murakkab bo'lib, dunyo tillari va madaniyatlarini bir-biridan ajratib turuvchi ham mos, ham mos kelmaydigan elementlar mavjud. Madaniyatning tarkibiy qismlari sifatida til bir qator mos kelmaydigan elementlarni, xususan, ekvivalent bo'lmagan leksika va realiyani ifodalash jarayonida namoyon bo'ladi. Bu tavofutlarning ma'no -mazmunini tushunish tilni chog'ishtiruv va tarjima qilish kontekstida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Til va madaniyatdagi mos keluvchi elementlar til va madaniy chegaralar bo'ylab o'xshashlik va umumiy tushunish sohalarini namoyon ettiradi. Biroq, alohida tillarning o'ziga xos xususiyatlari va ularning madaniy kichik farqlarini o'rganayotganda, bir-biriga mos kelmaydigan unsurlar ko'proq namoyon bo'ladi.

Frazeologik birliklar esa tilning obrazlilik va milliylik jihatini eng yorqin aks ettiruvchi unsurlaridan bo'lib, ular xalqning turmush tajribasi, urf-odatlari hamda qadriyatlar tizimi bilan bevosita bog'liq holda shakllanadi. O'zbek tilida "dasturxon yozmoq", "dasturxon atrofida jam bo'lmoq", "dasturxon haqqi", "dasturxon barakasi" kabi iboralar insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi chuqur semantik mazmunga ega. Bu birliklar nafaqat ovqatlanish jarayonini, balki o'zaro hurmat, saxovat va totuvlikni ham aks ettiradi.

Ingliz tilida esa dasturxon tushunchasi bevosita bir so'z orqali ifodalanmasada, "table", "bread", "meal" kabi leksik birliklar asosida shakllangan frazeologizmlar xalqning hayot tarzi va madaniy qarashlarini yoritadi. Masalan, "to bring home the bread", "to lay the table", "to sit at the same table", "bread and butter" kabi iboralar tirikchilik, oila birligi, mehnat va barqarorlik g'oyalarini ifodalaydi. Ushbu frazeologizmlar ingliz jamiyatida ovqatlanish bilan bog'liq jarayonlarning ijtimoiy ahamiyatini ochib beradi.

Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillarida "dasturxon" konsepti bilan bog'liq frazeologik birliklar qiyosiy-lingvomadaniy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ushbu iboralarning semantik tuzilishi, madaniy asoslari va xalq mentalitetidagi o'rni aniqlanadi. Qiyosiy tahlil orqali har ikki til egalarining kundalik hayotda ovqatlanish jarayoniga munosabati, ijtimoiy aloqalarni shakllantirishdagi roli hamda madaniy qadriyatlarning frazeologiya orqali qanday aks etishi yoritib beriladi.

Tadqiqot natijalari nafaqat frazeologiya sohasidagi ilmiy izlanishlarni boyitadi, balki madaniyatlararo muloqot jarayonida til birliklarini to'g'ri talqin qilishga xizmat qiladi. Shuningdek, ushbu ish tarjimashunoslik, lingvomadaniyatshunoslik hamda xorijiy tillarni o'qitish jarayonida amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mashhur tilshunos A.V. Kunin esa frazeologiyani mustaqil tilshunoslik sohasi sifatida rivojlantirib, frazeologik birliklarning emotsional-ekspressiv xususiyatlariga alohida e'tibor qaratadi.

Olim frazeologizmlar orqali jamiyatning axloqiy me’yorlari va madaniy qadriyatlari namoyon bo‘lishini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Lingvomadaniyatshunoslik yo‘nalishida faoliyat olib borgan V.A. Maslova frazeologik birliklarni milliy mentalitetni aks ettiruvchi madaniy belgilar sifatida talqin qiladi. Unga ko‘ra, “ovqat”, “non”, “dasturxon” kabi tushunchalar asosida shakllangan iboralar xalqning hayotiy falsafasi va qadriyatlar tizimini ifodalaydi.

O‘zbek tilshunosligida ham frazeologiya masalalari keng tadqiq etilgan. Xususan, Sh. Rahmatullayev o‘zbek frazeologizmlarining semantik va uslubiy xususiyatlarini chuqur o‘rganib, ularni xalq og‘zaki ijodi bilan uzviy bog‘liq hodisa sifatida baholaydi. Olimning ta’kidlashicha, o‘zbek tilidagi dasturxon bilan bog‘liq iboralar mehmondo‘stlik va barakaga bo‘lgan milliy qarashlarni aks ettiradi.

Shuningdek, N. Mahmudov va A. Nurmonovlar frazeologik birliklarni madaniyat ko‘zgusi sifatida talqin qilib, ularning shakllanishida ijtimoiy muhit va tarixiy sharoit muhim rol o‘ynashini qayd etadilar. Ularning ilmiy qarashlari frazeologizmlarni lingvomadaniy tahlil qilishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur tadqiqotda ingliz va o‘zbek tillarida “dasturxon” konsepti bilan bog‘liq frazeologik birliklarni har tomonlama tahlil qilish maqsadida bir qator zamonaviy lingvistik usullardan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy va amaliy asosini frazeologiya hamda lingvomadaniyatshunoslik sohalariga oid ilmiy manbalar tashkil etadi.

Tadqiqot jarayonida ingliz va o‘zbek tillarida “dasturxon” konsepti bilan bog‘liq frazeologik birliklar tizimli ravishda tahlil qilindi va ularning lingvistik hamda lingvomadaniy xususiyatlari aniqlab berildi. Tadqiqot natijalari har ikki til frazeologiyasida ovqatlanish jarayoni bilan bog‘liq obrazlar xalqning madaniy qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlarini aks ettirishini ko‘rsatdi.

Tahlil natijasida o‘zbek tilida dasturxon bilan bog‘liq frazeologizmlar asosan mehmondo‘stlik, baraka, birlik va hurmat tushunchalarini ifodalashi aniqlandi. “Dasturxon yozmoq”, “dasturxon atrofida jam bo‘lmoq”, “dasturxon haqqini bilmoq” kabi iboralar ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlovchi axloqiy me’yorlarni ifodalaydi. Ushbu birliklarda dasturxon muqaddaslik va saxovat ramzi sifatida talqin qilinadi.

Ingliz va o‘zbek tillarida “dasturxon” konsepti bilan bog‘liq frazeologik birliklar xalqning ijtimoiy va madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim vosita hisoblanadi. O‘zbek tilida **“dasturxon yozmoq”** iborasi mehmon kutish, hurmat bilan taom tortish va mehmondo‘stlik ko‘rsatishni anglatadi. Bu frazeologizm xalq turmushida dasturxonni nafaqat ovqatlanish vositasi, balki ijtimoiy va madaniy ramz sifatida talqin qilinishini namoyon etadi.

Ingliz tilida esa dasturxon bilan bevosita bog‘liq frazeologik birliklar o‘z ma’nosida pragmatik va iqtisodiy yo‘nalishga ega. Masalan, **“bread and butter”** iborasi tirikchilik manbai, asosiy daromad yoki hayot uchun zarur narsani anglatadi.

Shunday qilib, har ikki tildagi frazeologik birliklar bir-biriga o‘xshash jihatlarga ega bo‘lsa-da, ularning semantik yo‘nalishi va madaniy asoslari turlicha: o‘zbek tilida ma’naviy va ijtimoiy qadriyatlar, mehmondo‘stlik va birlik kuchi ustuvor bo‘lsa, ingliz tilida pragmatik hayotiy vazifalar, tirikchilik va moddiy barqarorlikga urg‘u beriladi. Ushbu frazeologik birliklar tadqiqotda tilning lingvomadaniy jihatlarini tushunish va xalq mentalitetini o‘rganish uchun muhim material sifatida xizmat qiladi.

Frazeologik birliklarga misollar bor: At the onbirth hour –so’nggi daqiqada, eng so’ggi damda. Beat swords into plough-shares –qilichlarni bo‘lg‘alab, omoch yasamoq, tinch mehnatga o‘tmoq, tinch kunlarga yetib kelmoq.The breath of the nostrils –hayotiy zarurat, suv va havodek zarur. Leopard dog'larini o'zgartira oladimi? –nahot leopard o‘z terisini boshqasiga o‘zgartira bo‘lsa? – bukrini go‘r tuzatadi. Suvga non uloqtirmoq; oqibatini o‘ylamay biror ish qilmoq.

Xulosa qilib aytganda, milliy va madaniy iboralarning aksariyati xalqning kundalik hayoti, urf-odatlari va an’analari bilan bog‘liqligini ta’kidlash kerak. Madaniyatlarning o‘zaro ta’siri asosida frazeologik birliklarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, iboralar o‘xshashdir. Yuqoridagi misollarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, joy nomlarini o‘z ichiga olgan frazeologiyalarning aksariyati milliy-madaniy kontekstda uchraydi va frazeologik qatlamni boyitadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari frazeologik birliklar orqali har bir xalqning madaniy dunyoqarashi, ijtimoiy munosabatlari va qadriyatlar tizimi namoyon bo‘lishini ilmiy jihatdan tasdiqladi hamda ingliz va o‘zbek tillari frazeologiyasining o‘ziga xos jihatlarini aniqlashga xizmat qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Kurbonova M. S. *Linguocultural Study of Phraseological Units in English and Uzbek Languages.* JournalNX – A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, 9(9), 27–36. (2023).

2. Pazilova N. M. *Linguocultural Characteristics of Phraseological Units in Modern English and Uzbek. International Journal of Social Science & Interdisciplinary Research*, 11(01), 144–145. (2022).

3. Mamatov A. *Linguocultural Study of Phraseological Units. Журнал иностранных языков и лингвистики* (2021).

4. Saydamatov I.N., Abdulloyeva M. *O‘zbek tilshunosligi frazeologiyasi va uning grammatik xususiyatlari. Modern Education and Development*, 13(1), 307–311. (2024).

UDC 808.3

STYLISTIC AND LINGUISTIC FEATURES OF SIMILES IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES

D.I.Mirzayeva, PhD,docent, Fergana State University, Fergana
Sh.Shodmonova, Master student, Fergana State University, Fergana

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi o‘xshatishlarning (simile) stilistik va lingvistik xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. O‘xshatishlar badiiy nutqda tasviriylik, emotsionallik va ifodaviylikni kuchaytiruvchi eng muhim stilistik vositalardan biri sifatida qaraladi. Tadqiqotda o‘xshatishlarning strukturaviy, semantik va funksional xususiyatlari, shuningdek, har ikki tilga xos bo‘lgan madaniy va lingvokognitiv jihatlari o‘rganiladi. Tahlil natijalari o‘zbek va ingliz tillarida o‘xshatishlarning qo‘llanishida qiyoslovchi ko‘rsatkichlar, obraz manbalari va stilistik funksiyalar nuqtayi nazaridan o‘xshashliklar va farqlar mavjudligini ko‘rsatadi.*

Kalit so'zlar: *o‘xshatish, stilistik vosita, qiyosiy stilistika, obrazlilik, lingvokultura, o‘zbek tili, ingliz tili.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются стилистические и лингвистические особенности сравнений (simile) в узбекском и английском языках в сопоставительном аспекте. Сравнения анализируются как одно из наиболее выразительных стилистических средств, усиливающих образность, эмоциональность и экспрессивность художественного дискурса. Исследование сосредоточено на структурных, семантических и функциональных характеристиках сравнений, а также на их культурной и лингвокогнитивной специфике в обоих языках. Анализ выявляет сходства и различия в использовании сравнительных маркеров, источников образности и стилистических функций сравнений в узбекском и английском языках.*

Ключевые слова*: сравнение, стилистическое средство, сопоставительная стилистика, образность, лингвокультура, узбекский язык, английский язык.*

Abstract. *This article examines the stylistic and linguistic features of similes in the Uzbek and English languages from a comparative perspective. Similes are considered one of the most expressive stylistic devices that enhance imagery, emotionality, and expressiveness in literary discourse. The study focuses on the structural, semantic, and functional characteristics of similes, as well as their cultural and linguocognitive specificity in both languages. The analysis reveals similarities and differences in the use of comparative markers, imagery sources, and stylistic functions of similes in Uzbek and English.*

Key words*: simile, stylistic device, comparative stylistics, imagery, linguoculture, Uzbek language, English language.*

Introduction. Stylistics as a branch of linguistics focuses on the expressive potential of language units and their functional use in discourse. Among various stylistic devices, similes occupy a special place due to their vivid imagery and evaluative power. Similes allow speakers and writers to describe objects, emotions, and phenomena through explicit comparison. In both Uzbek and

English, similes are widely used in literary works, folklore, and everyday speech. According to I. R. Galperin, A simile is a figure of speech in which an explicit comparison is made between two essentially different objects belonging to different classes.

A simile consists of three main elements:

1. Tenor – the object being described
2. Vehicle – the object used for comparison
3. Ground – the common feature that forms the basis of comparison

The research employs descriptive, comparative, and contextual analysis methods. Examples of similes were selected from Uzbek and English literary texts, proverbs, and spoken discourse. Structural analysis focuses on grammatical markers of comparison, while semantic analysis examines the conceptual domains involved. A cultural-stylistic approach is applied to interpret the symbolic meaning of similes within their socio-cultural context. Uzbek linguistics also provides extensive research on similes (o'xshatish). Scholars such as A. Madvaliyev and N. Mahmudov emphasize that similes are deeply rooted in folk creativity, proverbs, and classical literature. Uzbek similes often reflect everyday life, nature, and national traditions.

From a linguocognitive perspective, similes serve as a means of conceptualization, helping speakers structure and interpret reality through familiar images. Thus, similes function not only as stylistic ornaments but also as cognitive tools.

The analysis demonstrates that English similes are predominantly constructed using the markers 'like' and 'as'. For example, expressions such as 'as brave as a lion' or 'like a ray of sunshine' are common in English discourse. In contrast, Uzbek similes are typically formed using suffixes and postpositions such as '-dek', '-day', and 'kabi', as in 'arslondek jasur' or 'gulday nozik'.Semantically, similes in both languages describe human character, emotional states, and natural phenomena. However, Uzbek similes frequently draw on images related to nature, agriculture, and collective social values, while English similes often emphasize individual traits and everyday objects.

Similes perform several stylistic functions in both languages:

1. Descriptive function – creating vivid images
2. Emotional-expressive function – conveying feelings and attitudes
3. Evaluative function – expressing approval or disapproval
4. Characterization function – revealing personality traits

In literary texts, similes contribute to character portrayal and narrative dynamics. In Uzbek classical poetry, similes often serve symbolic and philosophical purposes, whereas English similes tend to emphasize realism and psychological depth.

The identified differences in simile usage can be explained by cultural and cognitive factors. Uzbek similes reflect traditional worldviews, community-oriented values, and close interaction with nature. English similes, on the other hand, reveal a tendency toward individual perception and pragmatic evaluation.

From a stylistic perspective, similes in both languages perform evaluative, emotive, and imagery-enhancing functions. Their frequent use in literary discourse confirms their importance as expressive means. These findings support the idea that stylistic devices function as carriers of cultural meaning.

Conclusion: The comparative stylistic analysis shows that similes in Uzbek and English share common functional features while differing in form and cultural content. Understanding these similarities and differences is essential for translation studies, language teaching, and intercultural communication. Future research may focus on corpus-based analysis or the study of similes in modern media discourse. The comparative analysis of similes in Uzbek and English reveals both universal and language-specific features. Structurally, the two languages employ different grammatical mechanisms to express comparison. Semantically and stylistically, similes reflect national culture, cognitive patterns, and aesthetic traditions.

REFERENCES.

1. Galperin, I. R. *Stylistics*. Moscow: Higher School, 2010.
2. Leech, G. *A Linguistic Guide to English Poetry*. London: Longman, 2014.
3. Lakoff, G., Johnson, M. *Metaphors We Live By*. Chicago: University of Chicago Press, 2003.
4. Mahmudov, N. *O'zbek tilining stilistikasi*. Toshkent: Fan, 2015.

5. Madvaliyev, A. *O'zbek tilida badiiy tasvir vositalari*. Toshkent, 2018.
6. Crystal, D. *The Cambridge Encyclopedia of the English Language.* Cambridge, 2019.
7. Kövecses, Z. *Language, Mind, and Culture*. Oxford: Oxford University Press, 2020.
8. Simpson, P. *Stylistics*. London: Routledge, 2014.
9. Karimov, B. *Badiiy nutq va uslub.* Toshkent, 2017.
10.Turner, M. *The Literary Mind*. Oxford University Press, 2018.

UDC 81'22:811.111:811.512

PRAGMATIC FUNCTIONS OF IMPERATIVE CONSTRUCTIONS IN ENGLISH AND UZBEK

D.Sh. Mirzayeva, magistrant, Qarshi Davlat Universiteti, Nukus

The translation of medical terminology involves a complex interplay between adaptation and standardization. While standardization ensures precision, consistency, and international compatibility, adaptation enhances accessibility and cultural relevance. An effective medical translation strategy does not prioritize one approach at the expense of the other but seeks to balance both according to the communicative context. This study demonstrates that successful medical terminology translation requires linguistic expertise, terminological competence, and cultural awareness. By harmonizing adaptation and standardization, translators can contribute to safer, clearer, and more effective medical communication. Future research may focus on the development of integrated terminological frameworks that support this balanced approach in multilingual healthcare environments.

REFERENCES:

1. Cabré, M. T. *Terminology: Theory, Methods and Applications.* Amsterdam: John Benjamins, 1999.
2. Newmark, P. *A Textbook of Translation.* London: Prentice Hall, 1988.
3. World Health Organization. *International Classification of Diseases (ICD).* Geneva, 2019.
4. ISO. *Terminology Work — Principles and Methods.* ISO 704, 2009.
5. Byrne, J. *Scientific and Technical Translation Explained.* Manchester: St. Jerome, 2012.
6. Montalt, V., & González Davies, M. *Medical Translation Step by Step.* London: Routledge, 2014.

UO'K: 81'373.7:398.91

FITONIM KOMPONENTLI MAQOLLARNING TIPOLOGIK XUSUSIYATLARI

R.Z.Nekboyeva, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada fitonim komponentli maqollarning tipologik xususiyatlari nazariy va amaliy jihatlardan o'rganilib, ularning semantik va strukturaviy tahlili amalga oshirildi. Tadqiqotda o'zbek va turk tillaridan namunalar olingan, fitonimlarning maqolalardagi funksiyasi tahlil qilindi hamda ularning madaniyatdagi aks etishi ko'rsatildi. Tadqiqot natijalari fitonimlarning til va tafakkurda tutgan o'rni, shuningdek, maqolalar tipologiyasidagi ahamiyatini yoritadi.*

Kalit so'zlar: *fitonim, maqol, tipologiya, semantika, metafora, folklor*

Аннотация. *В статье проведен теоретический и практический анализ типологических особенностей пословиц с фитонимическими компонентами. На основе примеров из узбекского и турецкого языков исследована семантика и структура таких пословиц, а также их культурное отражение. Результаты показывают роль фитонимов в языке и мышлении, а также их значение в типологии пословиц.*

Ключевые слова: *фитонимы, пословицы, типология, семантика, метафора, фольклор*

Abstract. *The article presents both theoretical and practical analyses of the typological features of proverbs containing phytonym components. Using examples from Uzbek and Turkish languages, the semantics and structures of such proverbs were examined, along with their cultural reflection. The findings highlight the role of phytonyms in language and cognition and their importance in the typology of proverbs.*

Key words: *phytonym, proverb, typology, semantics, metaphor, folklore.*

Kirish. Maqollar inson hayotining barcha jabhalarini yorituvchi, xalqning dunyoqarashi, badiiy didi va ma'naviy qadriyatlarini aks ettiruvchi og'zaki ijod namunalaridir[1:23]. Ular ko'pincha fitonim komponentlari orqali tabiiy olam bilan bog'lanadi, shundan kelib chiqib, fitonim komponentli maqollar til va madaniyatshunoslikda muhim tadqiqot obyekti hisoblanadi. Fitonimlarning maqollarda ishlatilishi nafaqat badiiy bezak bo'lib, balki metaforaga asoslangan semantik qatlamni yaratadi[1:34]. Ushbu maqolada fitonim komponentli maqollarning tipologik xususiyatlari, ularning morfo-semantik va madaniy kontekstdagi o'rni ko'rib chiqiladi.

Maqola uchun o‘zbek va turk tillaridan jami 150 dan ortiq fitonim komponentli maqollar to‘plandi. Ushbu maqollar tanlash jarayonida xalq og‘zaki ijodining turli janrlari – maqollar, maqollashgan ifodalar va aforizmlar hisobga olindi[2:65]. Maqollar bibliografik manbaalar, xalq ijodlari to‘plamlari, adabiy asarlar, shuningdek, onlayn resurslar va lug‘atlardan yig‘ildi. To‘plangan materiallar asosida maqollarning morfologik tuzilishi, semantik mazmuni va madaniy konteksti chuqur tahlil qilindi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tahlil metodologiyasi sifatida morfologik, semantik va tipologik analizlarning birgalikda qo‘llanilishi maqollardagi fitonim komponentlarning turli qatlamlardagi o‘zaro aloqalari va funksiyalarini aniqlash imkonini berdi. Maqollardagi fitonimlar metaforik (masalan, o‘simlik orqali inson xarakteri yoki vaziyatni ifodalash), metonimik (o‘simlikning tabiiy yoki funktsional xususiyatidan foydalanish), shuningdek bevosita ifodalanuvchi (o‘simlik nomining aniq bir hodisa yoki holatni ifodasi) turlariga ajratildi[2:92]. Bundan tashqari, solishtirma usul yordamida fitonimlarning ikki til va madaniyatdagi roli, ularning ishlatilishidagi o‘xshashlik va farqlar o‘rganildi, bu esa o‘z navbatida turkiy xalqlarning dunyoqarashi hamda til tafakkuri haqidagi tushunchalarni chuqurlashtirdi[3:234].

Fitonimlarning maqoldagi struktura turlari. Fitonim komponentli maqollar uch asosiy struktura typiga bo‘linadi:

- Metaforik maqollar: Bu turdagi maqollarda fitonim o‘simlik orqali inson xulqi yoki voqea-hodisalar ifodalanadi. Masalan, "Chorvoq singari bepoyon" (o‘zbek) yoki "Ağaç gibi dimdik" (turk) — bu yerda fitonim insonning mustahkamligini bildiradi.
- Metonimik maqollar: Fitonim o‘zining tabiiy xususiyati orqali bilvosita ma'noni ifodalaydi. Misol uchun, "Arpa singari oqqina" (o‘zbek) — tozalik, soddalik ma'nosida[3:87].
- To‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalanuvchi maqollar: Fitonim atrof-muhit hodisasini, voqeani yoki hadisani bevosita ifodalaydi. Masalan, "Olma pishib yetganda" — voqea vaqti ifodasi sifatida.

Fitonim komponentli maqollarda o‘simliklar ko‘pincha hayot, sog‘lomlik, kuch-quvvat, sabr-toqat kabi abstrakt va ijobiy ma’nolarni ifodalaydi. Ularning semantik kengligi asosan metafora va simvolizm tamoyillari asosida shakllanadi. Masalan, o‘simlikning o‘sish jarayoni, chidamliligi, o‘ziga xos xususiyatlari maqollarga chuqur ma’no yuklash imkonini beradi. Shu tarzda, “Butun o‘rmon bir chinor emas” maqolida chinor o‘simligi tafovut sifatida keltirilmaydi, balki uning kuchi, mustahkamligi va balandligi insonning ko‘p jihatdan taqlid qilishga arzigulik fazilatlari – jasorat, iroda va sabr-toqat ramzi sifatida ishlatiladi. Bu misol fitonimlarning maqoldagi metaforik funksiyasini aniq ko‘rsatib beradi. Shuningdek, boshqa o‘simliklar ham o‘ziga xos simvolik o‘ringa ega bo‘lib, masalan, bodom daraxti sabr-toqatni, qovun esa baxt va obro‘ ramzini ifodalaydi. Shunday qilib, fitonim komponentlari orqali tabiiy olamning elementlari odamlar hayotidagi ijtimoiy va ma’naviy qadriyatlarni chuqur – til va tafakkur darajasida aks ettiradi.

Fitonimlar ko‘pincha tabiiy hududiy o‘ziga xosliklarni aks ettiruvchi lingvistik birliklardir. O‘zbek tilidagi maqollarda mahalliy geografik sharoit va iqlimga mos keluvchi o‘simlik nomlari ko‘proq uchraydi, masalan, chinor, bodom, qovun, anjir kabi. Ushbu o‘simliklar xalq hayoti, an’analari va kundalik tajribalariga yaqinligi sababli maqollarda keng qo‘llaniladi[4:45]. Bunga qarshi, turk tilida esa o‘simliklarning yayilish hududi va tabiiy sharoiti boshqacha bo‘lgani uchun, maqollarda ko‘proq shunga mos keluvchi o‘simlik nomlari – masalan, sedir, zeytun, aka-mera o‘simliklari ko‘zga tashlanadi. Shu tarzda, fitonimlar tildagi hududiy xususiyatlarni, tabiiy-madaniy muhitni aks ettirib, xalqning o‘z o‘simlik olamiga bo‘lgan munosabatini ochib beradi[4:48].

Bundan tashqari, o‘simliklarning ma’naviy va folklor qiymati tilda chuqur aks etadi. Masalan, chinor baxt, kuch-quvvat, bardoshlik timsoli sifatida qadrlanadi, shunisi kabi, qovun esa farovonlik va mehnat mevasi ramzi hisoblanadi. Fitonimlar folklor elementlari sifatida hamda til orqali an’anaviy qadriyatlar va dunyoqarashni ifodalash vositasi sifatida xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar.Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, fitonim komponentli maqollar nafaqat badiiy va tarixiy ahamiyatga ega bo‘lib, balki tilning semantik rivojlanish jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Fitonimlar yordamida maqollar mavzulari yanada boyitilib, ularga chuqur simvolik va figurativ ma’no yuklanadi. Bu komponentlar orqali tabiiy olam elementlari ijtimoiy hayotiy tajriba va ma’naviy qadriyatlarning ramzi sifatida tilga tushadi. Shu bilan birga, turli tillarda fitonimlarning

o‘rni va ularning ta'siri farq qilishi madaniy muhitlar, tarixiy rivojlanish va xalqning an’analariga bog‘liq[5:89]. Masalan, o‘zbek va turk tillaridagi maqollarda bir xil fitonim komponentlar ba’zida turlicha ma'nolarga ega bo‘lishi mumkin, bu esa til va madaniyat o‘rtasidagi chuqur o‘zaro bog‘liqlikni ochib beradi. Natijada, fitonim komponentli maqollar tilshunoslik va madaniyatshunoslik sohalarida interdisciplinar tadqiqot uchun boy material sifatida xizmat qiladi.

Xulosa. Fitonim komponentli maqollar lingvistik va madaniy jihatdan juda boy va qiziqarli tadqiqot obyekti hisoblanadi. Ularning tipologik tahlili maqollarning strukturaviy tuzilishini, semantik qatlamlarini aniqlashga yordam berishi bilan birga, ularning til va madaniyatdagi o‘rni hamda ahamiyatini yanada teranroq anglashi mumkinligini ko‘rsatadi. Fitonimlar orqali ifodalangan metaforalar va simvolik elementlar xalqning dunyoqarashi, tarixiy-tarbiya qadriyatlari va axloqiy me'yorlarini til darajasida hamda madaniy kontekstda o‘rganishga zamin yaratadi.

Shuningdek, fitonimlarning boshqa tillar va madaniyatlarda qanday o‘zgarishlar va o‘xshashliklarga ega ekanligi haqida kengaytirilgan solishtirma tahlillar olib borish tilshunoslik, etnolingvistika va folklorshunoslik sohalariga katta hissa qo‘shadi. Kelajakda, ayniqsa, fitonimlarning metaforik va pragmatik funksiyalarini chuqurroq tadqiq qilish, ularning ma'no qurilishidagi o‘rni va til ichidagi almashinuv jarayonlarini aniqlash tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Abdullayeva, G. (2015). O‘zbek maqollarining semantik tahlili. Toshkent: Fan va texnologiya.

2.Aliyev, R. (2018). Türk Dili ve Kültüründe Bitki Adlarının Alegorik Kullanımı. Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları.

3.Barthes, R. (1977). Image-Music-Text. New York: Hill and Wang.

4.G’anieva, M. (2019). Fitonimlarning lingvistik xususiyatlari va folklorda o‘rni. Toshkent, “Til va adabiyot” jurnali, 4(27), 56-63.

5.Jandarov, B. (2016). O‘zbekiston xalq maqollari tahlili va tizimlashtirilishi. Toshkent: O‘zbekiston davlat nashriyoti.

UO’K 81’367.626

INGLIZ VA O’ZBEK TILLARIDA QO’SHMA GAPLARNING FUNKSIONAL-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

F. Nematilloyeva, tayanch doktorant, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek tili gap qurilishi talqinida Hind–Yevropa tillariga, xususan, rus va ingliz tillariga xos bo‘lgan sintaktik andozalarning ustuvor qo‘llanib kelganligi tanqidiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda flektiv tillarga xos [ega+kesim] qolipining mantiqiy hukmga asoslanganligi hamda ushbu modelning o‘zbek tilshunosligida minimal gap qurilmasi sifatida qabul qilinish sabablari yoritiladi. Muallif turkiy tillarga xos bo‘lgan tobelikning “o‘ngdan chapga” yo‘nalishi yetarli darajada inobatga olinmaganligini asoslaydi. Maqolada gap ta’limotida mantiqiy oqim ta’siri va sub’ekt–predikat modelining tilshunoslikka ko‘chirilishi natijasida yuzaga kelgan nazariy nomuvofiqliklar ochib beriladi. Tadqiqot natijasida o‘zbek tili sintaksisini talqin etishda tilning ichki qonuniyatlariga tayangan yondashuv zarurligi asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *gap qurilishi, sintaktik talqin, ega va kesim, tobelik yo‘nalishi, turkiy tillar sintaksisi, mantiqiy model, minimal gap.*

Аннотация. *В статье критически анализируется интерпретация структуры предложения в узбекском языкознании, основанная на синтаксических моделях индоевропейских языков, прежде всего русского и английского. Рассматривается логическая природа модели [подлежащее + сказуемое], характерной для флективных языков, а также причины её принятия в узбекском языкознании в качестве минимальной структуры предложения. Обосновывается положение о том, что специфическое для тюркских языков направление подчинения «справа налево» в теории предложения не получило должного отражения. Анализируется влияние логического учения и переноса модели «субъект–предикат» в лингвистику, что привело к ряду теоретических несоответствий. Делается вывод о необходимости интерпретации синтаксической системы узбекского языка на основе его собственных типологических и структурных закономерностей.*

Ключевые слова: *построение предложения, синтаксическая интерпретация, притяжательные и причастные падежи, направление подчинения, синтаксис тюркских языков, логическая модель, минимальное предложение.*

Abstract. *The article provides a critical analysis of sentence structure interpretation in Uzbek linguistics, which has long been influenced by syntactic models of Indo-European languages, particularly Russian and English. The study examines the logical nature of the [subject + predicate] pattern typical of inflectional languages and explains the reasons for its adoption as a minimal sentence model in Uzbek linguistics. The author argues that the right-to-left dependency direction inherent in Turkic languages has not been adequately considered in sentence theory. The paper also analyzes the impact of logical approaches and the transfer of the subject–predicate model into linguistics, resulting in certain theoretical inconsistencies. The study concludes that Uzbek syntax should be interpreted on the basis of its internal structural and typological principles.*

Keywords: *sentence construction, syntactic interpretation, possessive and participial, direction of subordination, syntax of Turkic languages, logical model, minimal sentence.*

Kirish. Gap ma'no tomondan o'zaro bog'langan so'zlarning birikuvidan hosil bo'ladi va tugal fikrni anglatadi. Qo'shma gaplar esa (Compound sentence) ikki va undan ortiq gaplarning mazmun va ohangga ko'ra birikuvidan tashkil topgan gaplar qo'shma gap deyiladi. Qo'shma gap tarkibiy qismlarining mazmunan o'zaro munosabati, tuzilishi va birikishiga ko'ra uch turli bo'ladi: bog'langan qo'shma gaplar, ergash gapli qo'shma gap, bog'lovchisiz qo'shma gaplar.

Ergash gapli qo'shma gaplar (Complex sentence).

Ergashgan qo'shma gaplar teng huquqli bo'lmagan sodda gaplardan tashkil topadi. Bu gapning birinchi qismi ergash gap, ikkinchi qismi esa bosh gapdir. Ergash gapli qo'shma gapning turlari quyidagicha: 1. Subject clause / Ega ergash gapli qo'shma gap; 2. Predicate clause / Kesim ergash gapli qo'shma gap. 3. Attributive clause / Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap. 4. Objective clause / To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap. 5. Adverbial clauses / Hol ergash gapli qo'shma gap. Ega ergash gap bosh gapdagi egani, kesim ergash gap bosh gapdagi kesimni, aniqlovchi ergash gap bosh gapdagi aniqlovchini, to'ldiruvchi ergash gap bosh gapdagi to'ldiruvchini, hol ergash gap bosh gapdagi holni izohlaydi. Qo'shma gap qismlarining bir-biriga ergashish vositalari har xildir.

Bog'langan va bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gaplar.

Bog'langan qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar bir-biri bilan biriktiruvchi, zidlovchi, ayiruvchi va inkor munosabatlarini ifodalovchi teng bog'lovchili vazifasida ingliz tilida even though, though, despite the fact that, in spite of the fact that, even if, o'zbek tilida keluvchi -da, -u, (-yu) yuklamalari vositasida bog'lanadi. Bog'langan qo'shma gaplarda biriktiruv, zidlov, ayiruv va inkor munosabatlari ifodalangan bo'ladi. Biriktiruvchi bog'lovchili bog'langan qo'shma gaplar-va, ham, (hamda), bog'lovchilari bog'lovchi vazifasida keluvchi -da, -u, (-yu), yuklamalari qo'shma gap qismlarini biriktirib bog'laydi. Masalan: *Despite the fact that he is desperately in needof money, he makes no effort to economize. I won't go to his party even if he invites me. Bugun yertalab sovuq bo'ldi va yomg'ir yog'di. O'zbekiston Respublikasi mustaqilikka erishdi-yu, o'zbek tiliga Davlat maqomi berildi.* Zidlov bog'lovchili bog'langan qo'shma gaplarda sodda gaplar mazmunan bir-biriga zid bo'ladi yoki voqea va hodisalar qiyoslanadi. Bunday bog'langan qo'shma gap qismlari ammo, lekin, biroq kabi bog'lovchilar va shu bog'lovchilar o'rnida qo'llaniladigan -u, (-yu), -da yuklamalari orqali bog'lanadi. Masalan: *Seeing that she is legally old enough to get married, I don't see how you can stop her. The football match was cancelled due to / owing to / on the account of the fact there was a terrible storm. Havo bulut bo'ldi, biroq yomg'ir yog'madi. Talaba berilgan vazifani bajardi-yu, o'qituvchi qanoatlanmadi*. Ayiruv boglovchili bog'langan qo'shma gaplar ketma-ket yuzaga keladigan yoki almashinib turadigan ikki va undan ortiq voqea-hodisa, harakatni ifodalaydi. Goh, ba'zan, dam, yo, xoh, bir kabi bog'lovchilar qo'shma gap qismlarini ayirib, bog'lash uchun ishlatiladi. Ular takrorlanib qo'llaniladi. Ayiruv bog'lovchilar har bir qism boshida takrorlanib qo'llanadi, takrorlangan keyingi bog'lovchidan oldin vergul qo'yiladi. Inkor bog'lovchili qo'shma gaplar inkor bog'lovchisi inkor mazmunini ifodalovchi ikki va undan ortiq sodda gaplarni bog'lab keladi. Bu bog'lovchi, ayiruvchi bog'lovchilar kabi har bir qism boshida takrorlanib qo'llanadi. Takrorlangan

bog‘lovchidan oldin vergul qo‘yiladi. Masalan: ***The more*** *you study hard,* ***the more*** *knowledge you get. U goh kulardi, goh jahli chiqardi. Kuzda goh kunlar isib ketadi, goh yomgir yog‘adi*.

Funksional grammatikaning nazariy asoslarini yaratish yo‘lidagi izlanishlari bilan mashhur bo‘lgan niderlandiyalik olim Simon Dik (Dik 1997: 12-15) ushbu grammatikaning quyidagi talablarga javob berishi lozimligini qayd etgan edi:

- u pragmatik maqsadni qo‘llashi kerak (it would be capable of being integrated into model of natural language user – u tabiiy til tizimidan foydalanuvchi modeliga singishi lozim);
- u psixologik ko‘rinishga ega bo‘lishi lozim (it must relate as closely as possible to psychological models of linguistic competence and linguistic behaviour – u psixologik xususiyatli lisoniy qobiliyat va lisoniy faollik modellariga imkon boricha mos kelishi kerak);
- u tipologik xususiyatli bo‘lishi lozim (it should be capable of providing grammars for language of any type).

Tilshunoslikda funksional grammatika tipologik xarakterda bo‘lishi haqidagi fikri hozircha hech kim tomonidan inkor qilganicha yo‘q, zero til tizimi birliklarining vazifaviy xususiyatlarining yoritilishi va tavsiflanishi har qanday turdagi grammatik tahlilning asosiy maqsadlaridan biridir.

Funksional-semantik kategoriya tahlilida quyidagilar farqlanishi muhum hisoblanadi: a) til sistemasidagi funksional-semantik kategoriya strukturasi (“markaz va periferiya”, periferiya va yadro komponentlar o‘rtasidagi differensial semantik belgilarning taqsimlanishi, guruhlash, umumiy mikropolya, ularning qurulish prinsiplari; b) tilning funksional jarayonida funksional-semantik kategoriyani aniqlash (mazkur kategoriya komponentlarining nutqdagi o‘zaro ta’siri: kontekstdagi grammatik va grammatik bo‘lmagan vositalar kombinatsiyasi, semantik komplekslarni yaratish, konkret iborada funksional semantik mikromaydonni yaratish.

Gap qurilishini o‘ziga xos sintaktik tizim sifatida talqin qilinishi lisoniy semantikani alohida tadqiqot sohasi ko‘rinishida ajralishiga sabab bo‘ldi va bu sohaning shakllantirilishi uchun til tizimining ba’zi jihatlari, funksional xususiyatlari, uning turli siymodagi ichki va tashqi aloqalari, munosabatlarini inobatga olish talab qilindi.

Ma’lumki, flektiv tillarda, xususan, rus tilida ham, gap qurilishi ko‘pincha mantiqiy hukmga monand bo‘lganligi tufayli, sub’ekt va predikat asosida olingan ega va kesim yaxlitligi minimal gapni tashkil etadi:

I am old –men qariyaman (yoshim o‘tgan).
You are old- sen qariyasan (yoshing o‘tgan).
He is old –u qariya.

Mazkur gaplardagi kishilik olmoshi bilan ifodalangan ega bo‘lmasa, gapning kommunikativ mohiyati yo‘qoladi. Demak, bu tillarda [ega+kesim] kombinatsiyasidan hosil bo‘luvchi gaplar ko‘pchilikni tashkil etadi va gapning substansial mohiyati [ega+kesim] qolipidan keltirib chiqariladi. O‘zbek tilshunosligida ham gap talqinida ushbu nazariyaga asoslanildi va gapning minimal ko‘rinishi sifatida [ega+kesim] tartibli qurilma olindi. Ingliz tili uchun minimal gap “ega+kesim” qurilmasi bo‘lganligi bois, u sodda yig‘iq gap sifatida qaraldi. Mazkur tillarga xos hodisa o‘zbek tilshunosligida ham aks etdi. O‘zbek tilshunosligida [ega+kesim] qurilmali gaplarning yig‘iq gap sifatida baholanishiga ikkinchi sabab - gap ta’limotida mantiqiy asoslarga tayanilganligidir. Mantiq fanida [sub’ekt-predikat] qolipi har qanday hukmning zarurat sharti bo‘lib, bu atamalarning tilshunoslikda yashab kelayotganligi ham mantiq ta’sirida ekanligidan dalolat beradi. Demak, o‘zbek tilshunosligi Hind-Yevropa tillari andozaliligi va tilshunoslikdagi mantiqiy oqim ta’siridan holi etilsa, yuqorida zikr etilgan holat bartaraf etiladi.

Xulosa. Mazkur maqolada gap qurilishi va qo‘shma gaplarning funksional-semantik xususiyatlari o‘zbek, ingliz hamda rus tillari materiallari asosida tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida o‘zbek tilshunosligida gap talqinining uzoq vaqt davomida Hind–Yevropa tillariga xos mantiqiy-struktur andozalar ta’sirida shakllangani aniqlandi. Xususan, flektiv tillarga xos bo‘lgan sub’ekt–predikat modeli va [ega + kesim] qolipining universal deb qabul qilinishi o‘zbek tilining agglutinativ tabiati va kesim markazligiga asoslangan sintaktik tizimini to‘liq aks ettira olmagan.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, flektiv tillarda ega va kesimning birligi kommunikativ zarurat bo‘lsa, o‘zbek tilida gapning semantik va kommunikativ yadrosi, avvalo, kesim orqali namoyon

bo‘ladi. Shunga qaramay, o‘zbek tilshunosligida minimal gap modeli sifatida [ega + kesim] qurilmasining ustuvor talqin qilinishi mantiq fanining tilshunoslikka ko‘rsatgan ta’siri bilan izohlanadi. Bu holat gap bo‘laklari o‘rtasidagi tobelik munosabatlarini turkiy tillarga xos “o‘ngdan chapga” yo‘nalishida emas, balki Hind–Yevropa tillari andozasida talqin etilishiga olib kelgan.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tili gap qurilishini talqin etishda Hind–Yevropa tillari modeli va mantiqiy yondashuvdan voz kechib, tilning ichki struktur va funksional xususiyatlariga tayangan holda yondashish zarur. Bunday yondashuv o‘zbek tilshunosligida gap va qo‘shma gaplar nazariyasini takomillashtirishga, shuningdek, funksional-semantik asoslangan zamonaviy sintaktik tadqiqotlar rivojiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Оглоблин А.К. Храковский В.С. Петербургская типологическая школа // Медународная конференция посвященная 50-летию петербургской типологической школы: Материалы и тезисы докладов. СП. Б. Нестор-История. 2011. –С 9-17.19;112
2. Падучева Е. В. Семантические исследования: Семантика времени и вида в русском языке. Семантика нарратива. М.: Языки славянской культуры, 1996. – 464 с. 20;15
3. Abdurahmonov G‘. O‘zbek tili grammatikasi. Sintaksis. – Toshkent: Fan, 1996.
4. Mahmudov N. Til va tafakkur. – Toshkent: O‘zbekiston, 2007.
5. Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligining nazariy masalalari. – Toshkent: Fan, 2008.
6. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Universitet, 2006.
7. Lyons J. Introduction to Theoretical Linguistics. – Cambridge: CUP, 1968.
8. Comrie B. Language Universals and Linguistic Typology. – Chicago: University of Chicago Press, 1989.
9. Vinogradov V. V. Russkiy yazyk. Grammaticheskoye ucheniye o slove. – Moskva: Nauka, 1986.
10. Tesnière L. Éléments de syntaxe structurale. – Paris: Klincksieck, 1959.
11. Humboldt W. von. On Language: The Diversity of Human Language-Structure. – Cambridge: CUP, 1999.
12. Tener L. Osnovы strukturnogo sintaksisa / L.Tener: Per.fransuzskogo. – M.: «Progress», 1988. – 654 s.

UO’K 81’25:81’37:82

ASAR MOHIYATINI OCHIB BERISHDA MILLIY-AXLOQIY MUNOSABATLARNI IFODALOVCHI LISONIY BIRLIKLAR TARJIMASINING O‘RNI VA AHAMIYATI (A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani misolida)

O‘.M. Nortoyeva, doktorant, Andijon davlat chet tillari instituti, Andijon

Annotatsiya. *Ushbu maqolada badiiy asar tarjimasida milliy-axloqiy munosabatlarni ifodalovchi lisoniy birliklarning o‘rni va ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot materiali sifatida Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani hamda uning ingliz tiliga qilingan tarjimalari tanlangan. Maqolada madaniy realiyalar, milliy-madaniy kodlar va ularning tarjimada aks ettirilish muammolari madaniy asimmetriya nuqtai nazaridan tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *badiiy tarjima, Abdulla Qodiriy, madaniy realiyalar, milliylik, madaniy asimmetriya, milliy kolorit.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются роль и значение перевода лингвокультурных единиц, выражающих национальные и моральные отношения в художественных текстах. Используя роман Абдуллы Кадыри "O'tkan kunlar" и его английские переводы в качестве примеров, в исследовании анализируется, как культурные коды и национальные реалии передаются в переводе. Исследование сосредоточено на вопросах культурной асимметрии и стратегиях, применяемых переводчиками для сохранения национального колорита при обеспечении понятности для целевой аудитории.*

Ключевые слова: *художественный перевод, Абдулла Кадыри, культурная реалия, национальный колорит, культурная асимметрия, национальный колорит.*

Abstract. *This article examines the role and significance of translating linguocultural units that express national and moral relations in literary texts. Using Abdulla Qodiriy’s novel O‘tkan kunlar and its English translations as a case study, the research analyzes how cultural codes and national realia are rendered in translation. The study focuses on issues of cultural asymmetry and the strategies applied by translators to preserve national color while ensuring comprehensibility for the target audience.*

Key words: *literary translation, Abdulla Kadiri, cultural realia, national color, cultural asymmetry, national color.*

Kirish. Badiiy asarlar tarjimasining dolzarbligi shundaki, o‘quvchi uchun notanish bo‘lgan adabiy matn aynan tarjimon vositasida idrok etiladi. Shu bois kitobxon asarning g‘oyaviy-badiiy va ma’naviy mazmunini to‘laqonli anglay olishi tarjimada qayta yaratilgan matnning asliyatga maksimal darajada mos kelishi bilan bevosita bog‘liqdir. Ayniqsa, milliy-madaniy mazmunga ega lisoniy birliklarning tarjimasi ushbu jarayonda muhim o‘rin tutadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ushbu tadqiqotning nazariy asoslari tarjimashunoslik va lingvomadaniyatshunoslik sohasida olib borilgan yetakchi ilmiy tadqiqotlarga tayangan holda shakllantirildi. Xususan, I. G‘afurovning tarjima nazariyasi va tarjimon kompetensiyasiga oid qarashlari badiiy tarjimada madaniy realiyalarni talqin qilish masalalarini yoritishda muhim metodologik manba bo‘lib xizmat qildi. A.A. Papikyanning realiyani tarjima faoliyatining mustaqil ob’ekti sifatida talqin qilishi ushbu birliklarning ekvivalentlik va adekvatlik muammolarini tahlil qilishda nazariy asos bo‘ldi.

Shuningdek, M.Sh. Omonova hamda Z. Sodiqovlarning tarjima nazariyasi va amaliyotiga bag‘ishlangan ishlarida ilgari surilgan yondashuvlar badiiy matndagi milliylikni saqlash va uni boshqa madaniyat vakillariga yetkazish masalalarini metodik jihatdan yoritishga yordam berdi. N.F. Qosimovaning psixolingvistik va kognitiv mexanizmlar haqidagi tadqiqotlari esa madaniy kodlarning idrok etilishi va tarjimada qayta modellashtirilishi jarayonini tushuntirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Natijalar. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, asarda uchraydigan madaniy realiyalar tarjimada turli strategiyalar asosida berilgan. Ekvivalenti mavjud birliklar to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilingan bo‘lsa, milliy xos birliklar transliteratsiya, transkripsiya, tasviriy yoki tahminiy tarjima orqali ifodalangan. Ushbu yondashuvlar tarjimada mazmunning tushunarliligini ta’minlashga xizmat qilgan.

Muxokama. Darhaqiqat, har bir xalq va millatga xos milliy-madaniy muhit, turmush tarzi, urf-odatlar, kundalik amaliyot hamda dunyoqarash til orqali namoyon bo‘ladi. Shu jarayonda tarjima uchun eng muhim vazifa muayyan xalqka xos bo‘lgan leksik birliklar, tushunchalar, ayrim hollarda esa vaziyat va holatlarning mazmunini o‘quvchiga adekvat tarzda yetkazib berishdan iboratdir. Chunki tarjimon asarni qanday idrok etsa va uni qanday talqin qilsa, aynan shu tasavvur tarjima matnini o‘qiyotgan kitobxon ongida ham shakllanadi. Natijada tarjimon va o‘quvchi tomonidan asardan chiqariladigan xulosalar mohiyatan bir-biriga mos keladi.

Shaklan va ifoda jihatidan o‘ziga xos bo‘lishiga qaramay, “O‘tkan kunlar” romanida tasvirlangan ayrim axloqiy munosabatlar va qadriyatlar boshqa millat vakillariga ham xos bo‘lishi yoki aksincha, ayrim jihatlari bilan farqlanishi mumkin. Aslida esa axloq me’yorlari, odob-axloq qoidalari, insonlar o‘rtasidagi mehr-oqibat va hurmat kabi tushunchalar barcha xalqlarga xos umumiy hodisalardir. Farq faqat ularning namoyon bo‘lish shakli va ifoda usullarida kuzatiladi.

Mazkur holat roman qahramoni Yusufbek Xoji obrazi misolida yaqqol ko‘rinadi. U Toshkentda zulm bilan tanilgan hokim Azizxon huzurida maslahatchi sifatida tasvirlangan bo‘lsa-da, asar davomida uning farosatli, andishali va oqibatli shaxs ekani namoyon bo‘ladi. Yusufbek Xoji hokimning barcha zolimona xatti-harakatlariga to‘liq to‘sqinlik qila olmagan taqdirda ham, imkon darajasida uni xalq ustidan zulm o‘tkazishdan qaytarishga intiladi. U tunu kun oddiy xalq taqdiri, ularning og‘ir ahvoli va ularni jabr-zulmdan asrash yo‘llari haqida mulohaza yuritib, ichki ruhiy iztirob kechiradi. Bu jihatlar asarda Otabekning Yusufbek Xoji shaxsi haqidagi mulohazalari orqali ham ochib beriladi:

“- Kechiringiz, amak, - deb Otabek kulimsiradi, - siz otamning mushovirlig‘ini boshqacharoq onglag‘ang‘a o‘xshadingiz... Bizning beklarga hukm vaqtida ham mushovir bo‘lmoq imkonsiz narsadir. Otam Azizbekning mushoviri va yaqin musohibi sanalsa ham va lekin bu juz’iy ishlardaginadir...” [2]

“Alas, Amak,” said Otabek smiling. “you seem to have misjudged the importance of my father’s rank. As for our laws, it is impossible to enact them when the leadership undetermines them by

passing extralegal, cruel judgments. Even if my father is considered Azizbek's closest confidant and adviser, his is just a title with no power; Azizbek only needs my father's advice on superficial matters." [2]

"I beg you pardon, my dear", - smiled Otabek, - *"Evidently you do not have sufficient clarity about the status of my father... To perform the role of an advisor to our Beks and have them take any decision – is an impossible task. Although my father is an advisor to Azizbek; moreover, he is still his closest companion, but he listens to the advice of my father only on issues that have special meaning." [3]*

Shuningdek, romanda boshqa qahramonlarning "xotinboz" sifatida tasvirlangan Xomid shaxsiga bo'lgan munosabati oddiy kishilarning axloqsizlik, noinsoflik, ochko'zlik, beburdlik va manmanlik kabi salbiy illatlarga nisbatan keskin munosabatini aks ettiradi. Asarda mazkur personaj ishtirok etgan epizodlardan ayon bo'lishicha, uning ayollar va ro'zg'or masalalariga doir qarashlari suhbatdoshlarida norozilik uyg'otadi, u so'zlagan paytda esa ular majburan va befarq tarzda tinglashga majbur bo'ladilar. Shu tariqa qahramonlarning Xomidga nisbatan munosabati orqali bag'rikeng, mard va samimiy o'zbek xalqiga xos axloqiy qarashlar badiiy vositalar yordamida ifodalanadi.

Abdulla Qodiriy nasriga xos bo'lgan badiiy joziba shundaki, u kitobxon e'tiborini beixtiyor o'ziga tortib, o'quvchini asar voqealari, jarayonlari va dialoglariga chuqur darajada jalb etadi. Bu holat asarni ilk bor mutolaa qilayotgan kitobxon tomonidan ham yaqqol seziladi. Shu sababli Kumushbibi vafoti tasvirlangan sahna asarni qayta-qayta o'qigan taqdirda ham o'quvchini befarq qoldirmay, kuchli hissiy ta'sir uyg'otadi. Manbalarda qayd etilishicha, ushbu epizodni yaratish jarayonida adibning o'zi ham chuqur hayajonga berilgan.

Shu bilan birga, Abdulla Qodiriy asarning har bir bobini va epizodini yaratishda milliylik masalasiga alohida e'tibor qaratgan. Qahramonlarning fe'l-atvori, kiyinish madaniyati, ijtimoiy munosabatlari, nutq uslubi, shuningdek, makon tasviri, binolar va xonalar ichki ko'rinishi, voqealar rivoji hamda marosimlar bayoni o'zbek milliy koloritiga xos belgilarni o'zida mujassam etadi. Shu asosda xulosa qilish mumkinki, adib o'zining milliy-madaniy dunyoqarashini asar matniga chuqur singdirgan va uni badiiy vositalar orqali mustahkam ifodalagan.

Abdulla Qodiriyning romanchilik faoliyati o'zbek adabiy tilining shakllanishi va taraqqiyotida yangi bosqich yuzaga kelgan davr bilan chambarchas bog'liqdir. Adib ushbu jarayonda tilning adabiy maqomini mustahkamlashga munosib hissa qo'shgan ijodkorlardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois uning romanlarida, jumladan, qahramonlar nutqida ham o'zbek adabiy tilining me'yoriy shakllari ustuvorlik qiladi. Qahramonlar nutqini individuallashtirish jarayonida yozuvchi mahalliy shevalardan ko'ra xalqona iboralar, maqol va matallar kabi milliy til boyligiga mansub birliklardan samarali foydalanadi. Natijada asar tilida qo'llanilgan xalq iboralari va matallardagi ohangdorlik, sa'j va badiiy latiflik qahramonlar nutqining ta'sirchanligini oshirib, badiiy ifodaning jozibasini kuchaytiradi.

Badiiy asar tarjimoni matnda aks etgan har bir unsurni, jumladan madaniy jihatdan kodlangan birliklarni, ularning kontekst doirasidagi bevosita va ko'chma ma'nolarini hamda badiiy-estetik ahamiyatini chuqur tahlil qila olishi lozim. Shuningdek, u matnda ochiq ifodalangan ma'lumotlargina emas, balki yashirin, bilvosita berilgan mazmun qatlamlarini ham anglash va ajrata olish salohiyatiga ega bo'lishi talab etiladi. Aynan shu kompetensiya tarjimonga asardagi diskursiv va nodiskursiv axborotni aniqlash imkonini berib, tarjima jarayonida yuzaga keladigan madaniy asimmetriya muammolarini bartaraf etishga xizmat qiladi:

"Kecha sizni kuta-kuta oshlarimiz sovib qoldi, bek aka." [4]

"Yesterday we waited for you so long, our plov turned cold, Bek Aka." [5]

We waited for you long yesterday, and pilaf got cold, bek-aka!" [6]

Yuqoridagi misolda usta Alimning Andijondagi hovlisida Otabek va Sayfi o'rtasida kechgan suhbatdan parcha keltirildi. Mazkur epizod orqali muallif kitobxonga muhim madaniy-axloqiy mazmunni yetkazadi, ya'ni so'zlovchining Otabek shaxsiga bo'lgan yuksak hurmati uning kundalik xatti-harakatida namoyon bo'ladi: u mehmonni kutib, bir kun avval tayyorlangan taomni iste'mol qilmaydi va palov sovib qolgan bo'lsa-da, unga qo'l urmaydi. Agar tarjima tili vakillarida ushbu

holatga mos yoki yaqin madaniy kod mavjud bo‘lmasa, tarjimon mazkur ma’noni qo‘shimcha izohlar yoki kontekst ichidagi aniqlashtiruvchi unsurlar orqali ochib berishi maqsadga muvofiqdir. Yuqorida keltirilgan tarjima variantlarini umumiy jihatdan maqbul va tushunarli deb baholagan holda, biz mazkur epizod uchun quyidagi tarjima variantini taklif etamiz:

“We waited for you, hoping to have dinner together yesterday, even after the pilaf had cooled down, Bek.”

Ushbu tarjima so‘zlovchining Otabekka bo‘lgan hurmati va samimiy munosabatini, shuningdek, u bilan birga taomlanish istagini aniqroq aks ettiradi. Shu bilan birga, o‘zbek tilidagi hurmat ramzi sifatida ishlatiladigan “aka” undalmasining tarjimada to‘liq tushirib yuborilishi matn mazmuniga sezilarli zarar yetkazmaydi. Shunga qaramay, “aka” so‘zini “a word used when addressing a relatively older man or to express respect for him”, ya’ni “nisbatan yoshi kattaroq erkak shaxsga murojaat qilish yoki unga nisbatan hurmatni ifodalash uchun ishlatiladigan so‘z” kabi izohlar yordamida aniqlashtirish tarjima jarayonida maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shuningdek, “palov” gastronomik realiyasini “plov” yoki “pilaf” shaklida tarjima qilish har ikkala ko‘rinishda ham mazmun va yaxlitlikni saqlash nuqtai nazaridan to‘g‘ri hisoblanadi.

Shuningdek, romanda marosimlar, uy-joy va ro‘zg‘or hayoti, xalq hunarmandchiligi va san’ati, kiyim-kechak kabi turli madaniy realiyalar ham qayd etilgan bo‘lib, bu jihatlar asarning milliy-madaniy manzarasini yanada boyitadi va kitobxonning tasavvurida aniqroq, vizual chizgilarni shakllantirishga yordam beradi. Shu nuqtai nazardan, ushbu realiyalarni tarjimada to‘g‘ri aks ettirish badiiy tarjimon zimmasiga alohida mas’uliyat yuklaydi.

1-jadval:

A.Qodiriyning “O ‘tkan kunlar” romanida keltirilgan madaniy realiyalar va ularning I.To ‘xtasinov va M.Riz tarjimalarida berilishi		
Romanda	**M.Riz tarjimasida**	**I.To‘xtasinov tarjimasida**
Ipak	Silk	Silk
Movut kamzul va movut shim	Cloth tunic with matching trousers	Vest with broadcloth pants
Non	Bread	A loaf of bread
Palov	Plov	Pilaf
Karvonsaroy, saroy	Karavanserai	Caravanserai
Ustun	Doorway	Pillar
Toshkand	Tashkent	Tashkent
Eron	Iran	Persia
Turkiston	Turkistan	Turkistan
Qutidor	Tax collector	Paymaster
Ashrof (e’tiborli kishi)	Elite	Honorable people
Hokim	Bek	Ruler
To‘y, qizlar majlisi	Toi, kizlar majlisi	Feast, the girls’ party
Ko‘rpa, ko‘rpacha	Quilt	Korpacha – adraass matters
Qora charog‘	Blackened lamp	Kerosene lamp
Miqroz	A pair of scissors	Scissors for trimming

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, milliy xos so‘zlarning tarjimasida turli tarjima strategiyalaridan foydalanilgan: transliteratsiya, transkripsiya, tasviriy tarjima, so‘zma-so‘z tarjima, tahminiy tarjima va kalkalash. Har ikki tilda ekvivalenti mavjud bo‘lgan birliklar, masalan, “qozon” yoki “choynak”, to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilingan. Geografik nomlar esa transkripsiya (“Bukhara”, “Shamai”) yoki transliteratsiya (“Samarkand”, “Margilon”) orqali berilgan. Ba’zi lavozim nomlari va uy-ro‘zg‘or buyumlari esa ekvivalent tarjima, tahminiy tarjima yoki kalkalash usullari yordamida o‘girilgan. Shu bilan birga, ingliz tilida to‘liq ekvivalenti mavjud bo‘lmagan, yoki mavjud bo‘lganida ham asl ma’noga to‘liq mos kelmaydigan so‘zlar badiiy tarjimonda sezilarli qiyinchiliklar tug‘diradi. Biroq, ushbu holatlar to‘liq izohlar yoki kontekst ichidagi aniqlashtiruvchi iboralar yordamida samarali hal etilishi mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, badiiy asarda milliy-axloqiy munosabatlarni ifodalovchi lisoniy birliklarning tarjimasi murakkab va ko‘p qirrali jarayon hisoblanadi. Tarjimonning madaniy kompetensiyasi ushbu birliklarni adekvat yetkazishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanini tarjima qilish tajribasi bu borada muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Гафуров И. Таржима назарияси ва таржимонлик мутахассислигига кириш. — Тошкент Tafakkur-bo'stoni,2007. — 216 b.
2. Папикян А.А. Реалия как объект переводческой деятельности. Язык и культура. - Новосибирск, 2013. № 6. – С. 88-95.
3. Қодирий А. Ўткан кунлар. – Тошкент: Адабиёт учқунлари, 2018. – 16-bet.
4. Kodiriy A. Bygone Days. Translated by Mark Reese. – USA: Nashville TN, 2018. – P. 31.
5. Omonova, M. Sh. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: "Zebo Prints", 2023. – 184-b.
6. Qodiriy, A. The Days Gone By: Novel. I.M.Tukhtasinov, O.M.Muminov, A.A.Khamidov. – Tashkent: Mashhur-press, 2017. – P. 16.
7. Qosimova N. F. Tarjima kognitiv mexanizmlarida psixolingvistik qoliplar ishtirokining lingvomadaniy shartlanishi. Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Buxoro, 2024. – 23-bet
8. Sodiqov Z. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. Darslik. – Toshkent: Bookmany Print, 2023. – 132 b.
9. Umarxo'jayev M. Olmon tili leksikologiyasi va frazeologiyasi. Andijon, 2010. - 44 b.
10. https://xs.uz/uz/post/otkan-kunlar-ibrati, 18.03.2025.

UO'K 811.512.133'27:81'42

NUTQ ETIKETI VA PRAGMALINGVISTIK JIHATLARI

O.N.Nuraliyeva, PhD, v.b. dots., Kimyo Xalqaro Universiteti Toshkent Samarqand filiali, Samarqand

Annotatsiya. *Ushbu maqolada nutq etiketi va uning pragmalingvistik xususiyatlari zamonaviy lingvistik yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Mavzuning dolzarbligi shundaki, globallashuv jarayonida madaniyatlararo muloqotning kuchayishi nutq etiketi birliklarining mazmuni, qo'llanilish doirasi va kommunikativ funksiyalarini qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda pragmalingvistika nuqtai nazaridan nutq etiketining o'rganilishi til birliklarining yashirin pragmatik ma'nosini, so'zlovchi strategiyasi va nutqiy ta'sir mexanizmlarini aniqlashda yangi ilmiy imkoniyatlar yaratmoqda. Maqola yangiligi shundaki, unda nutq etiketi birliklari milliy-madaniy kontekstda pragmalingvistik tahlil bilan uyg'unlashtirilgan holda, ularning kommunikativ niyatni shakllantirishdagi o'rni va muloqot strategiyasi bilan bog'liqligi tizimli yoritiladi.*

Kalit so'zlar*: nutq etiketi, pragmalingvistika, kommunikativ niyat, muloqot strategiyasi, lingvokulturologiya.*

Аннотация. *В данной статье анализируются речевой этикет и его прагмалингвистические характеристики с позиций современной лингвистики. Актуальность темы обусловлена усилением межкультурной коммуникации в условиях глобализации, что требует переосмысления содержания, функций и сфер употребления единиц речевого этикета. Новизна исследования заключается в комплексном рассмотрении речевого этикета в национально-культурном контексте с привлечением прагмалингвистических методов анализа, что позволяет выявить скрытое прагматическое содержание, коммуникативные намерения говорящего и стратегию речевого взаимодействия. В статье системно освещена роль речевого этикета в формировании коммуникативной цели и выборе тактики речевого поведения.*

Ключевые слова: *речевой этикет, прагмалингвистика, коммуникативное намерение, стратегия общения, лингвокультурология.*

Abstract. *This article examines speech etiquette and its pragmalinguistic features within the framework of contemporary linguistic research. The relevance of the topic stems from the increasing intensity of intercultural communication in the era of globalization, which requires a reinterpretation of the functions, use, and communicative value of speech etiquette units. The novelty of the study lies in its integrated approach, combining pragmalinguistic analysis with national-cultural context, thereby revealing implicit pragmatic meanings, speaker intentions, and communicative strategies. The paper provides a systematic explanation of the role of speech etiquette in shaping communicative intent and managing interactional strategies.*

Keywords: *speech etiquette, pragmalinguistics, communicative intent, communication strategy, linguoculturology.*

Til – insoniyatning eng muhim ijtimoiy-madaniy hodisalaridan biri bo‘lib, u nafaqat axborot uzatish vositasi, balki insonlar o‘rtasidagi muloqotni tashkil etuvchi murakkab ijtimoiy mexanizm sifatida ham namoyon bo‘ladi. Muloqot jarayonining samaradorligi esa ko‘p jihatdan nutqda qo‘llaniladigan etik me’yorlarga, ya’ni nutq etiketiga bog‘liqdir. Nutq etiketi muayyan jamiyatning tarixiy tajribasi, urf-odatlari, madaniy qadriyatlari, psixologik tamoyillari va ijtimoiy tuzilishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan lingvokulturologik hodisa sifatida e’tirof etiladi. So‘nggi yillarda kommunikativ lingvistika, pragmalingvistika va lingvokulturologiya sohalarida olib borilayotgan tadqiqotlar nutq etiketining nafaqat til tizimidagi o‘rni, balki uning yashirin ma’no qatlamlari, kommunikativ niyatni shakllantiruvchi o‘ziga xos vazifalarini kengroq o‘rganishni taqozo etmoqda. Zero, nutq etiketi birliklari faqatgina rasmiy salomlashuv yoki murojaat formulalari emas, balki muloqot strategiyasi va taktikasini belgilovchi, so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi ijtimoiy masofani boshqaruvchi hamda muloqotning psixologik muvozanatini ta’minlovchi kuchli pragmatik vositalardir. Mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi globallashuv sharoitida turli madaniyat va tillar vakillari o‘rtasidagi muloqot keskin faollashmoqda. Har bir madaniyatda nutq etiketi o‘ziga xos tarzda shakllangani bois, ularni noto‘g‘ri qo‘llash tushunmovchilik, kommunikativ nosamaradorlik va hatto ijtimoiy ziddiyatlarga sabab bo‘lishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, nutq etiketining pragmalingvistik jihatlarini chuqur tahlil qilish zamonaviy tilshunoslikning muhim vazifalaridan biridir. Mazkur tadqiqotning yangiligi shundaki, unda nutq etiketi birliklari an’anaviy semantik-uslubiy talqindan tashqari, ularning kommunikativ niyat, strategiya, ijtimoiy rol, kontekst, muloqot vaziyati va madaniy kod bilan o‘zaro aloqasi asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada nutq etiketining milliy-spesifik xususiyatlari bilan bir qatorda, uning universallikka oid umumiy belgilarini aniqlashga ham e’tibor qaratiladi. O‘zbek nutq etiketi namunalarining pragmalingvistik tahlili muloqotning psixologik va ijtimoiy asoslarini yanada aniqroq yoritishga yordam beradi. Shu asosda ushbu maqola nutq etiketi va uning pragmalingvistik mohiyatini tizimli ravishda tadqiq etishni, ularning milliy va universal xususiyatlarini aniqlashni, shuningdek, muloqot jarayonida nutq etiketi birliklarining kommunikativ ahamiyatini ilmiy asosda tahlil qilishni maqsad qiladi. Nutq etiketi tilshunoslikning turli yo‘nalishlarida — pragmalingvistika, sotsiolingvistika, psixolingvistika va lingvokulturologiya — kesishgan joyda o‘rganiladigan murakkab hodisadir. Uning markazida insoniy munosabatlarning til orqali tartibga solinishi, ijtimoiy me’yorlarning nutqiy shakllar orqali ifodalanishi turadi. Ko‘plab tadqiqotchilar nutq etiketini “muomala odobi”, “kommunikativ normalar tizimi”, “madaniy kodning verbal modeli” sifatida izohlaydi. Ushbu yondashuvlar nutq etiketi birliklarining faqat lingvistik emas, balki ijtimoiy, madaniy va psixologik jihatlar bilan ham bog‘liq ekanini ko‘rsatadi.

Nutq etiketi birliklari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- salomlashuv formulalari (Assalomu alaykum, Hayrli tong);
- murojaat shakllari (ustoz, opa, aka, janoblar);
- iltifot va hurmat ifodalovchi birliklar (marhamat, rahmat, iltimos);
- kechirim, minnatdorchilik ifodalari (uzr so‘rayman, katta rahmat);
- vidolashuv birliklari (xayr, omon bo‘ling).

Bu birliklarning barchasi muloqot madaniyatining ajralmas qismi bo‘lib, har bir til va madaniyatda o‘ziga xos ko‘rinishga ega. Lingvokulturologik nuqtai nazardan, nutq etiketi milliy mentalitetning og‘zaki namoyoni bo‘lib, xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari, ijtimoiy qadami va odob me’yorlarini yoritadi. Pragmalingvistika so‘zlovchining maqsadi, nutqiy niyat, kommunikativ strategiyalar, kontekst va ijtimoiy vaziyatni o‘rganadi. Shu sababli nutq etiketi birliklarini pragmalingvistik nuqtai nazardan tahlil qilish ularning chuqur ma’no yukini ochib beradi. Nutq etiketi birliklari so‘zlovchining muloqotdan ko‘zlagan maqsadini yumshoq, ehtiromli shaklda yetkazishga xizmat qiladi.

Masalan:

- ✓ “Iltimos, bir daqiqa kutib turing” — iltimos va yumshatish strategiyasi;
- ✓ “Marhamat, o‘tiring” — taklif va hurmat;
- ✓ “Uzr, xalaqit berdim” — kechirim, ijtimoiy masofani kamaytirish.

Bu birliklar bevosita pragmatik ta'sir kuchiga ega bo‘lib, muloqot ishtirokchilari o‘rtasidagi psixologik muvozanatni ta'minlaydi. Pragmalingvistika nazariyasiga ko‘ra, har bir muloqot jarayoni strategiya va taktikalarga asoslanadi.

Nutq etiketi quyidagi strategiyalarda faol qo‘llaniladi:

- Yumshatish strategiyasi (politeness strategy) — “Agar iloji bo‘lsa…”, “Xafa bo‘lmang lekin…”
- Ijobiy e'tibor strategiyasi — “Sizning fikringiz juda muhim”, “Rahmat sizga, juda yordam bo‘ldi”
- Masofa saqlash strategiyasi — “Janoblar”, “Hurmatli ustoz”
- Ziddiyatdan qochish taktikasi — murakkab gap qurilishi va diplomatik iboralar orqali.

Shu bilan nutq etiketi muloqotning silliq, madaniyatli, konfliktlarsiz kechishiga sharoit yaratadi. Nutq etiketi insonlar o‘rtasidagi muloqotning faqat til jihatini emas, balki ijtimoiy, madaniy, psixologik va pragmatik qatlamlarini ham o‘z ichiga oladi. Zamonaviy tilshunoslikda nutq etiketi til birliklarining kommunikativ vaziyatga mos holda qo‘llanishini belgilovchi sistema sifatida qaraladi.

Har bir millat nutq etiketi orqali o‘zining milliy qadriyatlari, odob me'yorlari va mentalitetini namoyon qiladi. Masalan, o‘zbek tilida yuqori hurmat shakllari, tashakkur va iltifot ifodalari keng tarqalgan bo‘lsa, ingliz tilida "politeness strategy"lar ko‘proq bilvosita shakllar orqali beriladi. Bugungi globallashuv davrida nutq etiketi madaniyatlararo muloqotning muhim unsuri sifatida o‘rganilmoqda. Har bir tilning o‘ziga xos nutq etiketi bo‘lgani sababli, tarjima jarayonida ham pragmatik xatolar ko‘p uchraydi.

Masalan:

Ingliz tilidagi “Could you please…” o‘zbekchada har doim “Iltimos…” sifatida emas, balki vaziyatga qarab “Aytavering”, “Bemalol” kabi shakllarda ifodalanadi. Bu esa nutq etiketi va pragmalingvistika o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ko‘rsatadi.

Nutq etiketi insonlar o‘rtasidagi muloqotni tartibga soluvchi ijtimoiy-lisoniy hodisa sifatida til tizimining ham, madaniy qadriyatlar tizimining ham ajralmas qismidir. Tadqiqot davomida aniqlanganki, nutq etiketi birliklari nafaqat tilning tashqi shakli yoki rasmiy etik normalariga asoslangan tayyor qoliplar, balki kommunikativ jarayonni muvofiqlashtiruvchi pragmatik vositalar sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ular so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi ijtimoiy masofa, hurmat, mehr, ehtiyotkorlik, iltifot kabi munosabatlarni belgilab, muloqotning madaniy me'yorlarga muvofiq kechishiga xizmat qiladi. Pragmalingvistik tahlil shuni ko‘rsatdiki, nutq etiketi birliklarining asosiy vazifalari so‘zlovchining kommunikativ niyatini yumshoq, muloyim va ijtimoiy maqbul shaklda yetkazish, ziddiyatli vaziyatlarni bartaraf etish, muloqotni ijobiy psixologik fon asosida davom ettirishdan iborat. Nutq etiketi strategiya va taktikalarning tanlanishiga bevosita ta'sir ko‘rsatib, muloqotning samaradorligini oshiradi. Ayniqsa, salomlashuv, murojaat, iltimos, minnatdorchilik, kechirim va vidolashuv kabi nutq etiketi formulalari muloqotning boshlanishi va yakuniy bosqichlarida muloqot ishtirokchilarining psixologik yaqinlashuvi yoki masofalanishini boshqaradi. Tadqiqot jarayonida nutq etiketining milliy-spesifik xususiyatlari ham alohida tasdiqlandi. O‘zbek nutq etiketi birliklarida yoshi kattalarga hurmat ko‘rsatish, kamtarlik, mehmondo‘stlik, muloyimlik va muomala chiroyiga alohida urg‘u berilgan bo‘lib, bu jihatlar xalq mentaliteti, qadriyatlari va tarixiy-madaniy merosiga tayangan holda shakllangan. Shu bilan birga, nutq etiketi tizimida salomlashuv, minnatdorchilik, kechirim kabi universal elementlar ham mavjud bo‘lib, ular turli tillarda farqli shaklda bo‘lsa-da, bir xil kommunikativ vazifani bajaradi. Yakun qilib aytganda, nutq etiketi va uning pragmalingvistik xususiyatlarini o‘rganish nafaqat tilshunoslikning dolzarb muammolaridan biri, balki jamiyatning madaniy rivojlanishi, madaniyatlararo muloqot samaradorligi va insonlar o‘rtasidagi munosabatlar uyg‘unligini ta'minlashga qaratilgan amaliy ahamiyatga ega jarayondir. Nutq etiketi birliklarini chuqur ilmiy tahlil qilish tilning yashirin pragmatik qatlamlarini yoritadi, kommunikativ kompetensiyani oshiradi va zamonaviy lingvistik tadqiqotlar uchun mustahkam nazariy hamda amaliy asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Arutyunova, N. D. Pragmatika i lingvistika teksta. — Moskva: Nauka, 1999.
2. Austin, J. L. How to Do Things with Words. — Oxford: Oxford University Press, 1962.
3. Brown, P., Levinson, S. Politeness: Some Universals in Language Usage. — Cambridge University Press, 1987.

4. Crystal, D. The Cambridge Encyclopedia of Language. — Cambridge: Cambridge University Press, 2003.
5. Grice, H. P. Logic and Conversation. — Harvard University Press, 1975.

UO’K 821.512.133.09-311.6:396

TARIXIY ROMANLARDA AYOL TIMSOLI VA MILLIY MA’NAVIYAT IFODASI

A. Nurjonova, magistrant, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotidagi tarixiy romanlar misolida ayol obrazining badiiy-falsafiy, ma’naviy-estetik talqini tadqiq etiladi. Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Pirimqul Qodirov, Shahodat Isaxonova, Isajon Sulton kabi ijodkorlaning romanlari asosida ayol obrazining genezisi, funksional yuklamasi hamda tarixiy tafakkur bilan uzviy aloqasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda ayol obrazi milliy tafakkur, davr fojiasi va ma’naviy qadriyatlar ifodachisi sifatida talqin etiladi.*

Kalit so‘zlar: *tarixiy asar, ayol obrazi, badiiy tafakkur, tarix va shaxs, milliy qadriyat, ma’naviyat, estetik ideal.*

Аннотация. *В данной статье на примере исторических романов узбекской литературы исследуется художественно-философская, духовно-эстетическая интерпретация образа женщины. На основе романов таких авторов, как Абдулла Кадыри, Чолпон, Пиримкул Кадыров, Шахадат Исаханова, Исаджон Султан, анализируются генезис образа женщины, его функциональная нагрузка и неразрывная связь с историческим мышлением. В исследовании образ женщины трактуется как выразитель национального мышления, трагедии эпохи и духовных ценностей.*

Ключевые слова: *исторический роман, женский образ, художественное мышление, история и личность, духовные ценности.*

Abstract. *This article examines the artistic, philosophical, spiritual, and aesthetic interpretation of women's imagery using historical novels from Uzbek literature as an example. Drawing on novels by authors such as Abdulla Kadiri, Cholpon, Pirimkul Kadyrov, Shahadat Isakhanova, and Isajon Sultan, it analyzes the genesis of the image of women, their functional implications, and their inextricable connection with historical thinking. The study interprets women as an expression of national thought, the tragedy of the era, and spiritual values.*

Keywords: *historical novel, female image, artistic thinking, history and personality, spiritual values.*

Adabiyot jamiyat ma’naviy tafakkurining muhim ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, unda inson va uning ijtimoiy-madaniy mohiyati markaziy o‘rin tutadi. Shu jihatdan qaraganda, xotin-qizlar obrazi badiiy tafakkurda nafaqat estetik, balki ijtimoiy-axloqiy mazmunga ega bo‘lgan muhim fenomen sifatida namoyon bo‘ladi.

Adabiyotshunos I.Sulton ta’kidlaganidek, “Badiiy obraz – hayotning san’atkorona umumlashtirilgan ko‘rinishidir” [1]. Badiiy obraz orqali muayyan davr jamiyatining ayolga bo‘lgan munosabati, uning ijtimoiy mavqei va ma’naviy qadriyatlari badiiy jihatdan aks ettiriladi. Ayniqsa, tarixiy-badiiy romanlarda ayol obrazi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bu janr tarixni keng epik ko‘lamda tasvirlar ekan, jamiyatning ma’naviy tayanchi bo‘lgan ayol siymosini chetlab o‘ta olmaydi. Shu bois mazkur maqolada o‘zbek adabiyoti misolida xotin-qizlar obrazining genezisi va badiiy-evolyutsion taraqqiyoti tahlil qilinadi.

Ayollar nafaqat oilaning, qolaversa, jamiyatning muhim bo‘lagi hisoblanadi. Ayol jisman ojiz bo‘lsa ham, qalban va ruhan kuchli yaratilgan. Shuning uchun ayol jasorati, fidoyiligi, oilasiga va farzandlariga mehr-muhabbati, sadoqati ko‘plab lirik va epik asarlarda shoir va yozuvchilar tomonidan tasvirlab kelinadi. Buyuk nemis faylasufi I.Kantning fikricha, ayol kishi har qanday taraqqiyot shakli mavjudligining mezoni va asosidir. Yer yuzida jamiyat shakllanib, adabiyot deb atalgan hodisa vujudga kelgandan beri uning negizida boqiy mavzu – muhabbat va u bilan bog‘liq holda ayol obrazi markaziy o‘rinlardan birida turadi [3].

Adabiyotshunos Z.Isomiddinov “Ikki ayol” maqolasida: “Insonshunoslik bo‘lmish adabiyot birinchi navbatda, ayolshunoslik, ya’ni ayolni o‘rganish, inkishof etish ilmidir. Kuzatsak, eng

qadimgi asarlar ham ayolga bag‘ishlangan, ular konfliktni ayol va unga aloqador narsalar tashkil etadi. Hatto aytish mumkinki, adabiyot taraqqiyoti ayol mavzuining badiiy tadqiqi, uning teranlasha borishi bilan chambarchas bog‘liq” [4], deb ta’kidlagan. Ayni shu jihatlarga ko‘ra, ayol adabiyotning doimiy qahramoni bo‘lib kelgan. O‘zbek adabiyotini Kumush, Zaynab, Ra’no, O‘zbekoyim, Oftoboyim kabi obrazlar ziynatlab kelayotgan bo‘lsa, “Dunyo adabiyotida XX asrning II yarmida yaratilgan asarlarda ayol obraziga alohida e’tibor qaratilgan. Ayol siymosini asarning birinchi sathida tasvirlash, uning shaxs sifatida ijtimoiy maqomini ochib berish muammosi hech qachon o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan”. Ayni shu jihatlarga ko‘ra, o‘zbek adabiyotida ayollar obrazlarining tahlil va talqini alohida muhim masalalardan biridir. Ayniqsa, tarixiy romanlarda ayollar obrazining to‘laqonli tasvirlanishi, qolaversa, tarixda yashab o‘tgan ayollar xususida asarlar yaratish bugunning muhim talablaridan biridir.

Tarixiy-badiiy roman janri xalqning o‘tmishi, ijtimoiy hayoti, madaniyati va ma’naviy dunyosini badiiy tafakkur orqali aks ettirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda xotin-qizlar obrazi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ayol obrazi nafaqat oilaviy-maishiy munosabatlarni, balki jamiyatning axloqiy, siyosiy va madaniy darajasini ko‘rsatuvchi muhim mezon sifatida namoyon bo‘ladi. Xotin-qizlar obrazining **genezisi** (ya’ni shakllanishi va rivoji) tarixiy-badiiy adabiyotda jamiyat taraqqiyoti, dunyoqarash va ijtimoiy munosabatlar bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlanib kelgan.

Xotin-qizlar obrazining adabiy-tarixiy ildizlariga nazar tashlasak, Sharq mumtoz adabiyotida ayol obrazi dastlab ko‘proq sadoqatli yor, vafodor rafiqa, fidoiy ona va go‘zallik timsoli sifatida talqin qilingan. Masalan, “Alpomish” dostonidagi Barchin obrazi nafaqat go‘zallik, balki aql-zakovat, qat’iyat va vatanparvarlik fazilatlarini o‘zida mujassam etgan mukammal ayol siymosidir. Bu obraz orqali xalqning ayolga bo‘lgan yuksak ehtiromi va ishonchi ifodalangan. M.Saidov Barchinni “o‘zbek xalq eposidagi eng mukammal ayol timsollaridan biri” [2] deb baholaydi. Demak, o‘zbek adabiy tafakkurida ayol obrazi dastlab estetik ideal timsol sifatida shakllangan bo‘lsa-da, unda ijtimoiy faollik unsurlari ham mavjud bo‘lgan.

O‘zbek adabiyotining ilk davrlarida, jumladan, Navoiy va Bobur kabi buyuk daholar ijodida ayol obrazi oliy timsol sifatida yuksak baholangan. Ammo adabiyotimizda ayol obrazi orqali davr va zamon muhitini ko‘rsatib berish, asosan, XX asrda rivojlandi. Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asaridagi Zebi, Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanidagi Kumushbibi, Abdulla Qahhorning “Dahshat” hikoyasidagi Unsin kabi qahramonlar davr zulmiga uchragan ayollar qiyofasini aks ettiradi.

Keyingi davr adabiyotida, xususan, yozma adabiyot taraqqiyoti jarayonida ayol obrazi asta-sekinlik bilan ijtimoiy mazmun bilan boyib boradi. U endi faqat sevgi obyekti emas, balki jamiyatning ma’naviy muammolarini o‘zida namoyon qiluvchi badiiy vositaga aylanadi. O‘zbek tarixiy romanlari taraqqiyotida Abdulla Qodiriy alohida o‘rin tutadi. Uning “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlari xotin-qizlar obrazining yangi bosqichga ko‘tarilganini ko‘rsatadi.

“O‘tkan kunlar” romanidagi Kumush obrazi o‘zbek adabiyotidagi eng mukammal ayol siymolaridan biridir. Kumush – sadoqatli rafiqa, mehribon ona, ma’naviy pok va sabr-toqatli ayol timsolidir. Shu bilan birga, uning taqdiri orqali yozuvchi eski jamiyatdagi ayolning huquqsizligi, ijtimoiy adolatsizlik va ko‘pxotinlilik fojialarini ochib beradi. Kumushning fojiali o‘limi butun bir tuzumning axloqiy inqirozini fosh etuvchi kuchli badiiy hukm sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu asar tiniq ko‘zgu singari o‘zida o‘zbek millatining muayyan tarixiy sharoiti, turmushi, urf-odatlari, ruhiy-ma’naviy dunyosi, bo‘y-basti, qiyofasini keng ko‘lamda aniq-ravshan aks ettiradi. Shu bilan birga asarda tasvirlangan ayollar, ya’ni Kumush, Zaynab Xushro‘y, O‘zbekoyim, Oftoboyim obrazlari o‘ta ta’sirchan ifodalangan. Bu obrazlar bir ijtimoiy muhit va bir jinsga mansubligiga qaramasdan bir-biridan keskin farq qiladi. Yozuvchi o‘zgacha muhabbat va samimiyat bilan Otabekka nisbatan sof sevgisi tufayli hayot sinovlarini yengib o‘tuvchi Kumush obrazini yaratadi. Abdulla Qodiriy uni erkalab chizgilar keltiradi. Uning har bir xatti-harakatida muallif nazokat-u latofat kuzatadi.

“Mehrobdan chayon” romanidagi Ra’no obrazi esa ayol obrazining yangi, faol tipini ifodalaydi. Ra’no endi faqat taqdirga bo‘ysunuvchi emas, balki o‘z baxti va sha’ni uchun kurasha oladigan, ijtimoiy adolatsizlikka qarshi chiqqan obraz sifatida tasvirlanadi. Bu obraz orqali o‘zbek adabiyotida ayolning ijtimoiy faolligi masalasi badiiy ifoda etiladi.

XX asrning iste'dodli adiblaridan biri Pirimqul Qodirov ijodida ham turli ayollar qiyofasi uchraydi. Tarixiy mavzuda yozilgan "Yulduzli tunlar", "Avlodlar dovoni", "Ona lochin vidosi" (yoki "Shohruh va Gavsharshod") kabi romanlardagi Qutlug' Nigorxonim, Xonzoda begim, Gavharshod begim, Mohim begim kabi obrazlar muallif tomonidan o'z davrining ideallari sifatida tasvirlangan.

Amir Temurning kelini, Ulug'bekning onasi Gavharshodbegim haqida ko'plab badiiy, tarixiy asarlar yaratilgan. Biroq, Pirimqul Qodirov ilk o'zbekoyimlardan biri bo'lgan Gavharshodbegim haqida o'z badiiy-estetik qarashini aks ettiruvchi "Ona lochin vidosi" romanini yozdi. Asarda xonzoda ayollarning murakkab tabiati, farzand-u nabiralariga munosabati yangicha rakursda yoritildi. Abdullatif padarkushlik qilib, Gavharshod begimni suyukli o'g'li Ulug'bekdan ayirdi, momosi qalbini jarohatladi. Iste'dodli adib Pirimqul Qodirov bir onaning iztiroblarini nozik his-tuyg'ular bilan tasvirlaydi: "Samarqandga, Amir Temur maqbarasiga yetib borganlarida Gavharshodbegim Ulug'bek qabrini xuddi beshik kabi quchoqlab, yelkalari silkina-silkina uzoq yig'ladi. Ulug'bek go'daklik paytida begim kechalari uning beshigiga bag'rini berib, bola emizganlari yodiga tushdi. Shundan keyingi ellik besh yillik hayot ko'z oldidan yashin tezligida o'tdi. Lekin xayoli o'ziga kelganda go'dakning iliq nafasi keladigan beshikni emas, qirralari ko'kragiga botib turgan sovuq qabr toshini quchoqlab yig'layotganini ko'rdi…". Muallif Gavharshod begim siymosini asarga bosh obraz qilib olish orqali o'sha davrda ayollarga bo'lgan munosabat, ularning saltanat hayotida tutgan o'rnini yuksak mahorat bilan tasvirlab bera olgan.

Tarixni jonlantirgan ayol adibalarimizdan biri Shahodat Isaxonovaning "Bibixonim", "Nodirai davron", "Gavharshod begim" va "Sulton Jaloliddin Manguberdi yoxud Chingizxon tuzog'iga tushgan malika" romanlarida ham tarixiy ayollar obrazi markaziy o'rin egallaydi. Adiba tarixni "erkaklar qilichi" bilangina emas, balki ayollarning matonati, sabri va zakovati orqali ham yaratilishini badiiy asoslaydi. Shahodat Isaxonovaning yuqorida keltirilgan romanlarida ayol obrazi tarixiy jarayonlarning faol subyekti, milliy tafakkur va ma'naviyat timsoli, davr fojiasining eng ta'sirchan ifodachisi sifatida talqin qilinadi. Birgina "Gavharshod begim" romanini oladigan bo'lsak, undagi Gavharshod begim obrazi hukmdorning rafiqasi bo'lish bilan cheklanmay, balki davlat siyosatiga ta'sir ko'rsatuvchi, ilm-fan va madaniyat homiysi, sulola barqarorligini ta'minlovchi tarixiy shaxs sifatida gavdalanadi. Bu obraz orqali adiba ayolning tarixiy tafakkurdagi faol subyektligini badiiy jihatdan isbotlaydi. Adiba ayol obrazini tarixning chekkasiga emas, balki uning markaziga olib chiqadi. Bu jihat uning ijodini zamonaviy o'zbek tarixiy romanchiligida alohida hodisaga aylantiradi.

Yana bir yozuvchi Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romanida ayollar obrazi ko'p bo'lmasa-da, bir necha ayol qahramonlar yozuvchi tomonidan alohida ahamiyatga molik xarakterlar sifatida shakllantirilgan. Ayollar obrazi kompozitsion butunlikda, syujet chizig'ining izchilligida, badiiy betakrorlikda katta ahamiyatga ega. Muallif ayollar obrazini tarixiy asarda bejiz qo'llamaydi, ularga ma'lum estetik, badiiy funksiyalarni yuklaydi. Romandagi Qutb, Gavharshod begim, Xadicha begim, Volida beka kabi kam sonli ayollar obrazi, ularning ruhiy olami, xarakteri va yashash sharoiti tasviri muhim badiiy funksiyalarni aks ettirishga yo'naltirilgan va ijodkorning badiiy niyatini ochib berishga xizmat qilgan. Yozuvchi tarixda yashab o'tgan ayollar obrazini yaratishda, ularning ruhiyatini ochib berishda konkret tarixiy manbalarga tayanadi. Ortiqcha pafosga berilmaydi, bu kabi ayollar ruhiyatidagi kuchli jihatlarga, ularning aql-u zakosiga alohida e'tibor qaratadi. To'qima obrazlarga esa jamiyatning ma'lum jihatlarini, xususiyat va o'ziga xosliklarini ochib berish funksiyasini yuklaydi. Ular orqali millat onalarining qiyofasini, urf-odat va an'analarini yorqin tarzda namoyon etadi. Shu ma'noda ularning badiiy yuki anchayin zalvorli. Isajon Sulton bu kabi ayollar qiyofasini tasvirlar ekan, ayol qalbining eng nozik jihatlariga, ayol tuyg'usining betakror evrilishlariga ahamiyat qaratadi. Shu jihatdan badiiy to'qimalik xususiyatiga ega ayollar obrazini yaratishda odatda pafosning anchayin yuqori ekaniga guvoh bo'lamiz

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, tarixiy-badiiy asarlarda ayol obrazi tasviri adabiy jarayonning tasodifiy unsuri emas, balki muayyan davrning ijtimoiy, ma'naviy va tarixiy tafakkurini ifoda etuvchi yetakchi estetik kategoriya hisoblanadi. Mumtoz adabiyot va xalq og'zaki ijodida ayol timsoli ko'proq go'zallik, sadoqat, vafodorlik va ona timsoli sifatida namoyon bo'lgan bo'lsa, XX asr va undan keyingi davr tarixiy romanlarida u faol ijtimoiy subyekt, tarixiy jarayonlarga ta'sir

ko‘rsatuvchi shaxs sifatida talqin etiladi. Ayniqsa, Abdulla Qodiriy asarlarida Kumush va Ra’no obrazlari orqali ayol taqdiri jamiyatdagi ijtimoiy adolatsizlik, ma’naviy inqiroz va davr fojiasini ochib beruvchi markaziy badiiy vositaga aylanadi. Pirimqul Qodirov romanlarida esa tarixiy ayollar – Gavharshod begim, Xonzoda begim, Qutlug‘ Nigorxonim kabi obrazlar davlatchilik, ma’naviyat va millat taqdiri bilan bog‘liq holda keng epik ko‘lamda yoritiladi. Shahodat Isaxanova ijodida ayol obrazi tarixning faol yaratuvchisi sifatida markazga chiqarilib, ayolning matonati, aql-zakovati va ma’naviy qudrati tarixiy voqelikni belgilashda hal qiluvchi omil ekani badiiy jihatdan asoslab beriladi. Isajon Sulton asarlarida esa ayol obrazlari kompozitsion va estetik funksiyalarni bajarib, tarixiy romanning g‘oyaviy-badiiy yaxlitligini ta’minlaydi.

Xulosa sifatida ta’kidlash joizki, tarixiy-badiiy asarlarda ayol obrazi orqali nafaqat shaxsiy taqdir, balki butun bir davrning ma’naviy qiyofasi, milliy tafakkuri va ijtimoiy muhiti yoritiladi. Ayol timsoli o‘zbek tarixiy romanchligida davr fojiasini, millat taqdirini va ma’naviy qadriyatlarni mujassam etuvchi muhim badiiy-falsafiy fenomen sifatida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Sulton I. *Adabiyot nazariyasi.* – Toshkent: O‘qituvchi, 1980. B. 56.
2. Saidov M. *O‘zbek xalq og‘zaki ijodi*. – Toshkent: Fan, 1974. B. 27.
3. Xoliqova N. Jadid adabiyotida xotin-qizlar obrazi. – Toshkent. Bookmany print, 2024. B. 11.
4. Isomiddinov Z. Ikki ayol // Tafakkur, 2007. 4-son. B. 47.

UDC 808.3

THEORETICAL PRINCIPLES OF WORD FORMATION AND SOCIOLINGUISTICS

Sh.Obloyorova, master student, Fergana State University, Fergana
Sh.Usmonova, PhD, Fergana State University, Fergana

Annotatsiya. *Ushbu maqola so‘z yasalishining nazariy tamoyillarini sotsiolingvistik nuqtai nazardan tahlil qiladi. An’anaviy ravishda so‘z yasalishi morfologiya doirasida o‘rganilgan bo‘lsada, zamonaviy lingvistik tadqiqotlar uning ijtimoiy omillarga bog‘liqligini ta’kidlaydi. Tadqiqotning maqsadi sotsiolingvistik o‘zgaruvchilar so‘z yasalish jarayonlari va leksik yangiliklarga qanday ta’sir ko‘rsatishini aniqlashdan iborat. Maqolada klassik va zamonaviy lingvistik nazariyalarni tahlil qilishga asoslangan sifatli, nazariy metodologiya qo‘llanilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, so‘z yasalishi nafaqat lingvistik tuzilma jarayoni, balki madaniy, kommunikativ va ijtimoiy ehtiyojlar bilan shakllanadigan ijtimoiy motivatsiyalangan hodisadir.*

Kalit so’zlar: *so’z yasalishi, sotsiolingvistika, morfologiya, ijtimoiy omillar, til o’zgarishi*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются теоретические принципы словообразования с социолингвистической точки зрения. Хотя традиционно словообразование изучается в рамках морфологии, современные лингвистические исследования подчёркивают его зависимость от социальных факторов. Целью исследования является анализ того, как социолингвистические переменные влияют на процессы словообразования и лексические инновации. В работе применяется качественная теоретическая методология, включающая анализ классических и современных лингвистических теорий. Результаты показывают, что словообразование является не только структурным лингвистическим процессом, но и социально мотивированным явлением, формируемым культурными, коммуникативными и социальными потребностями.*

Ключевые слова: *словообразование, социолингвистика, морфология, социальные факторы, языковые изменения*

Abstract. *This article examines the theoretical principles of word formation from a sociolinguistic perspective. While word formation is traditionally studied within morphology, modern linguistic research emphasizes its dependence on social factors. The purpose of the study is to analyze how sociolinguistic variables influence word-formation processes and lexical innovation. A qualitative theoretical methodology is employed, including the analysis of classical and contemporary linguistic theories. The results show that word formation is not only a structural*

linguistic process but also a socially motivated phenomenon shaped by cultural, communicative, and social needs.

Keywords: *word formation, sociolinguistics, morphology, social factors, language change*

Introduction. Language develops in close connection with society, reflecting social changes, cultural values, and communicative demands. One of the most significant ways in which languages expand and adapt is through word formation. New words emerge to name new objects, concepts, technologies, and social phenomena. Traditionally, word formation has been studied within morphology, focusing on formal processes such as derivation, compounding, conversion, and borrowing.

However, purely structural approaches do not fully explain why certain word-formation patterns become productive in specific social contexts. Sociolinguistics offers a broader perspective by examining how social factors such as age, gender, profession, social class, and globalization influence linguistic behavior. From this point of view, word formation is closely connected with social identity and language variation. William Labov's variationist theory demonstrated that language change and lexical innovation often begin within specific social groups. New words frequently emerge in youth language, professional jargon, slang, or subcultural speech before entering the standard language. Thus, word formation becomes a marker of social identity and group membership. The aim of this study is to analyze the theoretical principles of word formation from a sociolinguistic perspective. The article seeks to demonstrate that word-formation processes are socially conditioned and that sociolinguistic theory plays a crucial role in explaining lexical change and innovation.

Methods. This research employs a qualitative theoretical methodology based on descriptive and analytical approaches. The study does not rely on experimental data but instead examines existing linguistic theories and scholarly works related to word formation and sociolinguistics.

The methodological framework includes:

- a review of classical and modern theories of word formation;
- analysis of sociolinguistic models explaining language variation and change;
- comparative interpretation of morphological processes within social contexts.

Key works by prominent linguists such as Aronoff, Bauer, Labov, and Trudgill were analyzed to identify the intersection between morphological structures and sociolinguistic factors. Theoretical generalization was used to synthesize findings and draw conclusions regarding the social motivation of word formation.

Results. The analysis reveals several significant results. The theoretical analysis reveals several important findings. First, word formation operates not only according to linguistic rules but also in response to social needs. New words often emerge as a result of social change, technological progress, and cultural interaction. Second, sociolinguistic variables significantly influence the productivity of word-formation processes. For instance, abbreviations, blends, and clipped forms are highly productive in youth language and digital communication. Borrowing and hybrid word formation increase in contexts of globalization and language contact. Third, the acceptance and standardization of newly formed words depend on sociolinguistic prestige. Lexical items used by socially influential groups are more likely to enter standard language, while others remain restricted to informal or non-standard varieties. These results confirm that word formation is closely connected with social identity, group membership, and communicative efficiency.

Discussion. The findings confirm that word formation should be viewed as a socially embedded linguistic process. The findings support the view that word formation should be studied as a socially embedded linguistic phenomenon. While traditional morphological theories explain how words are formed, sociolinguistics explains why certain forms emerge, spread, or disappear. The interaction between word formation and sociolinguistics highlights the dynamic nature of language. Lexical innovation reflects speakers' creativity and their adaptation to changing social realities. From a theoretical perspective, integrating sociolinguistic principles into word-formation studies leads to a more comprehensive model of language change. These insights have practical implications for

applied linguistics, lexicography, and language teaching. Understanding the social motivations behind word formation can help learners and researchers better interpret modern vocabulary development.

Conclusion. The study demonstrates that word formation and sociolinguistics are theoretically interconnected. The theoretical principles of word formation and sociolinguistics are closely interconnected. While traditional linguistic theories provide valuable insights into the structural mechanisms of word formation, sociolinguistics explains why and how these mechanisms operate in real social contexts. The theoretical study of word formation within a sociolinguistic framework highlights that language is a dynamic and socially embedded system. Word formation does not operate in isolation; it responds to social change, communicative needs, and cultural values. Therefore, an integrated theoretical approach combining morphology and sociolinguistics provides a more comprehensive understanding of lexical development. Word formation is not merely a grammatical process but a reflection of social interaction, cultural change, and human creativity. Understanding word formation from a sociolinguistic perspective allows researchers to better explain language variation, innovation, and change. This integrated approach enriches linguistic theory and has practical implications for language teaching, lexicography, and intercultural communication. Future research may further explore comparative and corpus-based studies to deepen our understanding of socially conditioned word-formation processes.

REFERENCES:

1. Labov, W. Principles of Linguistic Change: Social Factors. Blackwell, 2001.
2. Rahmatullayev, Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, 2006.
3. Bauer, L. Introducing Linguistic Morphology. Edinburgh University Press, 2003.
4. Hojiyev, A. O‘zbek tilining izohli lug‘ati va leksik taraqqiyoti. Toshkent, 2002.
5. G‘aniyev, B. O‘zbek tilida so‘z yasalishi masalalari. Toshkent, 1994.

UO'K 81'243

TIL KO‘NIKMALARI TIZIMI VA ULARNING SHAKLLANISH NAZARIYASI

V. Ochilova, PhD, dots., O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Mazkur maqola til ko‘nikmalari tizimi va ularning shakllanish nazariyasini keng tahlil qiladi. Nutq faoliyati turlari (tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozish) integrativ ko‘nikmalar sifatida ko‘rib chiqilib, ularning kognitiv va sotsiokulturniy asoslari ochib beriladi. Kommunikativ kompetensiya tarkibi zamonaviy talqinlarda (Canale va Swain modeli, CEFR yangilanishlari) izohlanadi. Shuningdek, til ko‘nikmalarini rivojlantirish bosqichlari (diagnostik, shakllantiruvchi, integrativ va refleksiv bosqichlar) empirik tadqiqotlar asosida tizimlashtiriladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ko‘nikmalarni rivojlantirish samaradorligi interaktiv, kompetensiyaviy va konstruktivistik yondashuvlar bilan uzviy bog‘liq.*

Kalit so‘zlar: *til ko‘nikmalari, nutq faoliyati, kommunikativ kompetensiya, CEFR, konstruktivizm, kompetensiyaviy ta'lim.*

Аннотация. *В данной статье проводится всесторонний анализ системы языковых навыков и теории их формирования. Виды речевой деятельности (аудирование, говорение, чтение, письмо) рассматриваются как интегративные навыки, раскрываются их когнитивные и социокультурные основания. Структура коммуникативной компетенции интерпретируется в современных теоретических моделях (модель Канале и Суэйн, обновления CEFR). Кроме того, этапы развития языковых навыков (диагностический, формирующий, интегративный и рефлексивный этапы) систематизируются на основе эмпирических исследований. Результаты показывают, что эффективность развития навыков тесно связана с интерактивным, компетентностным и конструктивистским подходами.*

Ключевые слова: *языковые навыки, речевая деятельность, коммуникативная компетенция, CEFR, конструктивизм, компетентностное обучение.*

Abstract. *This article provides a comprehensive analysis of the system of language skills and the theory of their development. The types of speech activity (listening, speaking, reading, and*

writing) are examined as integrative skills, and their cognitive and sociocultural foundations are explored. The structure of communicative competence is interpreted through contemporary theoretical models (the Canale and Swain model and the updated CEFR framework). Furthermore, the stages of language skill development (diagnostic, formative, integrative, and reflective stages) are systematized based on empirical research. The findings indicate that the effectiveness of skill development is closely associated with interactive, competency-based, and constructivist approaches.

Keywords: *language skills, speech activity, communicative competence, CEFR, constructivism, competency-based education.*

Kirish. Zamonaviy lingvodidaktikada tilni o‘rganish jarayoni reproduktiv bilim egallashdan kommunikativ faoliyatga yo‘naltirilgan kompetensiyalarni shakllantirishga o‘tmoqda. XX asr oxirida ishlab chiqilgan kommunikativ kompetensiya nazariyasi XXI asr boshlarida yangi metodologik asoslar bilan boyidi. Xususan, Council of Europe tomonidan ishlab chiqilgan *Common European Framework of Reference for Languages (CEFR)* va uning 2018 yilgi Companion Volume yangilanishi til ko‘nikmalarini funksional-kommunikativ faoliyat sifatida talqin qiladi.

Shuningdek, Michael Canale va Merrill Swain tomonidan ilgari surilgan kommunikativ kompetensiya modeli keyingi tadqiqotlarda kengaytirildi va qayta talqin qilindi.

Tadqiqot nazariy-analitik dizaynda olib borildi.

- lingvodidaktika va psixolingvistika bo‘yicha monografiyalar;
- CEFR (2018) va zamonaviy kompetensiyaviy hujjatlar;
- empirik tadqiqotlar va meta-tahlillar (Nation, 2001; Vandergrift & Goh, 2012; Hyland, 2019; Ellis, 2008 va boshqalar) tahlil qilindi.

Ma’lumotlar konseptual sintez va qiyosiy tahlil asosida umumlashtirildi.

Til ko‘nikmalari tizimi an’anaviy ravishda to‘rt asosiy nutq faoliyati turidan iborat:

1. Tinglab tushunish (listening)
2. Gapirish (speaking)
3. O‘qish (reading)
4. Yozish (writing)

Zamonaviy yondashuvlarda ushbu ko‘nikmalar o‘zaro integratsiyalashgan tizim sifatida qaraladi. Rod Ellis (2008) til o‘rganishni interlanguage rivojlanish jarayoni sifatida talqin qilib, ko‘nikmalar o‘zaro ta’sirda shakllanishini ta’kidlaydi.

Paul Nation (2001) esa til o‘rganish jarayonini “to‘rt ipli model” (meaning-focused input, meaning-focused output, language-focused learning, fluency development) orqali tushuntiradi. Bu model ko‘nikmalarning muvozanatli rivojlanishini talab qiladi.

Tinglab tushunish

Larry Vandergrift va Christine Goh (2012) tinglab tushunishni metakognitiv strategiyalar bilan bog‘laydi. Ularning tadqiqotlariga ko‘ra, samarali tinglovchi:

- taxmin qiladi;
- monitoring qiladi;
- tushunishni tekshiradi;
- refleksiya qiladi.

Tinglab tushunish jarayoni pastdan yuqoriga (bottom-up) va yuqoridan pastga (top-down) ishlov berish mexanizmlarini o‘z ichiga oladi.

Gapirish

Gapirish produktiv ko‘nikma bo‘lib, real vaqt rejimida tilni ishlab chiqarishni talab qiladi. Scott Thornbury (2005) og‘zaki nutqni “improvizatsion konstruksiya” sifatida tavsiflaydi. Gapirish jarayonida leksik tezkorlik, grammatik avtomatlashtirish va diskurs kompetensiyasi muhim ahamiyatga ega.

O‘qish

O‘qish kognitiv jarayon bo‘lib, matnni dekodlash va ma’no konstruksiyasini o‘z ichiga oladi. William Grabe (2009) akademik o‘qishni murakkab ko‘nikma sifatida tavsiflaydi va unda inferensiya, tezkor skanerlash va analitik tafakkur rolini ko‘rsatadi.

Yozish

Ken Hyland (2019) yozishni ijtimoiy-interaktiv jarayon sifatida talqin qiladi. Yozish jarayoni rejalashtirish, matn tuzish va tahrirlash bosqichlaridan iborat. Zamonaviy tadqiqotlar yozishni kollaborativ jarayon sifatida ko‘rib chiqadi.

Canale va Swain modeli kommunikativ kompetensiyani quyidagi tarkibiy qismlarga ajratgan:

1. Grammatik kompetensiya
2. Sotsiolingvistik kompetensiya
3. Diskurs kompetensiya
4. Strategik kompetensiya

CEFR (2018) esa kommunikativ kompetensiyani uch asosiy blokka ajratadi:

- lingvistik kompetensiya;
- sotsiolingvistik kompetensiya;
- pragmatik kompetensiya.

Bu yondashuvda til foydalanuvchisi “ijtimoiy agent” sifatida qaraladi.

Zamonaviy tadqiqotlar kommunikativ kompetensiyani ko‘p modal (multimodal) kompetensiya sifatida talqin qilmoqda (digital communication kontekstida).

Ilmiy ishlarda til ko‘nikmalarini rivojlantirish quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

1. **Diagnostik bosqich** – boshlang‘ich darajani aniqlash (placement, needs analysis).
2. **Shakllantiruvchi bosqich** – asosiy lingvistik va kommunikativ elementlarni o‘zlashtirish.
3. **Integrativ bosqich** – ko‘nikmalarni real kommunikativ vaziyatlarda qo‘llash.
4. **Refleksiv bosqich** – metakognitiv monitoring va baholash.

David Nunan (2004) vazifa asosida o‘qitish (Task-Based Language Teaching) modeli aynan integrativ bosqichni samarali amalga oshirishini ta’kidlaydi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, til ko‘nikmalari alohida emas, balki kompleks tizim sifatida shakllanadi. Ularning samarali rivojlanishi:

- konstruktivistik ta’lim muhitiga;
- interaktiv metodlarga;
- kompetensiyaviy baholashga;
- metakognitiv strategiyalarni o‘rgatishga bog‘liq.

Zamonaviy lingvodidaktik tadqiqotlar tilni “ijtimoiy amaliyot” sifatida talqin qiladi. Bu esa kommunikativ kompetensiyani kengroq ijtimoiy kontekstda shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ilmiy manbalar asosida quyidagilar aniqlandi:

1. Til ko‘nikmalari tizimi integrativ xarakterga ega.
2. Nutq faoliyati turlari psixolingvistik mexanizmlar asosida shakllanadi.
3. Kommunikativ kompetensiya ko‘p komponentli tizimdir.
4. Rivojlantirish bosqichlari tizimli va bosqichma-bosqich tashkil etilishi zarur.

Til ta’limida kompetensiyaviy va konstruktivistik yondashuvlar ko‘nikmalarni chuqur va barqaror shakllantirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Council of Europe (2018). *CEFR Companion Volume*.
2. Rod Ellis (2008). *The Study of Second Language Acquisition*.
3. Paul Nation (2001). *Learning Vocabulary in Another Language*.
4. Larry Vandergrift & Christine Goh (2012). *Teaching and Learning Second Language Listening*.
5. William Grabe (2009). *Reading in a Second Language*.
6. Ken Hyland (2019). *Second Language Writing*.
7. David Nunan (2004). *Task-Based Language Teaching*.

UO'K 808.3

ATOQLI OTLARNING KONNOTATIV O'ZGARISHLARI VA DISKURSDAGI FUNKSIYASI

X.V.Olimova, katta o'qituvchi, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, Qarshi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada atoqli otlarning konnotativ o'zgarishlari tahlil qilinib, ular diskursdagi funksiyalari batafsil o'rganiladi. Atoqli otlar nafaqat shaxs, joy yoki buyum nomlari sifatida xizmat qiladi, balki ular ijtimoiy-madaniy ma'no va emotsiyalarni o'zida aks ettiradi. Tadqiqot davomida atoqli otlarning konnotativ qatlamlari qanday hosil bo'lishi, ular qanday omillar ta'sirida o'zgarishi va til ichidagi kommunikativ jarayondagi ahamiyati o'rganildi.*

Kalit so'zlar:*Atoqli otlar, konnotativ o'zgarish, diskurs, semantika, madaniy kontekst, kommunikativ funksiyalar, o'zbek tili.*

Аннотация. *В данной статье анализируются коннотативные изменения известных существительных и подробно рассматриваются их функции в дискурсе. Известные существительные служат не только именами людей, мест или предметов, но и отражают социально-культурные значения и эмоции. В исследовании изучается, как формируются коннотативные слои известных существительных, какие факторы влияют на их изменения и какова их роль в коммуникативном процессе внутри языка.*

Ключевые слова: *Известные существительные, коннотативные изменения, дискурс, семантика, культурный контекст, коммуникативные функции, узбекский язык.*

Abstract. *This article analyzes the connotative changes of proper nouns and examines in detail their functions in discourse. Proper nouns serve not only as names of people, places, or objects but also reflect social-cultural meanings and emotions. The study explores how the connotative layers of proper nouns are formed, the factors influencing their changes, and their significance in the communicative process within language.*

Key words: *Proper Nouns, Connotative Change, Discourse, Semantics, Cultural Context, Communicative Functions, Uzbek Language.*

Kirish. Atoqli otlar lingvistik tadqiqotlarda o'ziga xos o'ringa ega bo'lib, ular shaxslar, joylar, tashkilotlar nomlarini belgilashda xizmat qiladi. Shuningdek, atoqli otlar faqat denotativ ma'nolariga ega bo'lib qolmay, balki madaniy, tarixiy va psixologik jihatdan boy konnotativ qatlamlarga ham ega [1:23];[2:15]. Ushbu holat ularning diskurs ichida qanday ishlatilishini va kommunikatsiya jarayonida qanday rol o'ynashini o'rganishni dolzarb qiladi. Atoqli otlarning konnotativ o'zgarishlari tilning zamonaviy kontekstga moslashishida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular ijtimoiy ong, qadriyatlar va urf-odatlarni aks ettiradi. Tadqiqotning maqsadi — atoqli otlarning konnotativ o'zgarishlarini o'zbek tilidagi diskurs namunalarida aniqlash va ularning kommunikativ funksiyalarini tahlil qilish, shuningdek, ularning pragmatik va stilistik xususiyatlarini o'rganish orqali tilimizning madaniy merosini yanada chuqurroq anglashga imkon yaratishdir. Ushbu tadqiqot natijalari tilshunoslik, madaniyatshunoslik va kommunikatsiya sohasida yangi ilmiy qarashlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Usullar (Methods). Tadqiqot sifat-nazariy yondashuv asosida olib borildi. Maqolada konnotativ o'zgarishlarni aniqlash uchun o'zbek tilidagi turli manbalardan, jumladan, badiiy, ommaviy axborot va ilmiy matnlardan namunalar yig'ildi. Diskurs tahlili metodologiyasi yordamida atoqli otlarning konnotativ ma'nolari va kommunikativ funksiyalari tahlil qilindi [6:30]. Konnotatsion qatlamlar va ularning kontekstga bog'liqligi izchil tekshirildi. Har bir tanlangan atoqli ot uchun uning denotativ va konnotativ ma'nolari, shuningdek diskursdagi vazifasi aniqlangan.

Natijalar (Results). Tahlil natijalariga ko'ra, atoqli otlarning denotativ ma'nosi bilan bir qatorda ularning keng konnotativ qiymatlari mavjudligi aniqlandi. Bu degani, atoqli otlar nafaqat o'ziga xos obyekt yoki shaxsni nomlash vazifasini bajaradi, balki an'anaviy ma'nodan tashqari qo'shimcha, emotsional, madaniy va ijtimoiy ma'nolar bilan ham boyitilgan bo'ladi. Masalan, "Navoi" nomi dastlab taniqli shoir Alisher Navoiyning ismini bildirsa-da, o'zbek madaniy hayotida u kengroq ramz sifatida tan olinadi. "Navoi" atamasi o'zbek adabiy merosi, milliy ruh va madaniy

an’ana timsoliga aylangan bo‘lib, u ishlatilgan muayyan matnda tinglovchi yoki o‘quvchida chuqur madaniy va ruhiy hissiyotlarni uyg‘otadi [5:10]. Bu esa “Navoi” nomining konnotativ qatlamining kuchli ekanini ko‘rsatadi. Masalan, badiiy asarlarda yoki xalq nutqida “Navoi she’ri - millatning ruhidir” degan ibora qo‘llansa, bunda faqat shoirning shaxsi emas, balki butun o‘zbek xalqining madaniy merosi ifodalanadi.

Diskursda atoqli otlarning metaforik va metonimiy funksiyalari ham aniq ko‘ringan. Metafora sifatida, atoqli otlar ma’lum bir madaniy yoki ijtimoiy g‘oyani ramziy ifodalash vazifasini bajaradi. Masalan, “Navoi” so‘zi o‘zbek madaniy yuksakligini yoki badiiy salohiyatni bildirishi mumkin, “O‘zbekiston” esa milliy mustaqillik va istiqlol ramzi sifatida ishlatiladi. Metonimiy vazifada esa, atoqli otlar biror obyekt yoki hodisaning bir qismi yoki unga yaqin tizmini ifodalash uchun qo‘llanadi. Masalan, siyosiy matnlarda “Toshkent” so‘zi O‘zbekiston hukumati yoki markaziy hokimiyatni ifodalovchi metonimiya sifatida ishlatiladi. Shunday qilib, atoqli otlar lingvistik birlik sifatida ma’no doirasini kengaytiradi va til bilan ifoda imkoniyatlarini oshiradi.

Munozara (Discussion). Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, atoqli otlar lingvistik tadqiqotlarda faqat ularning denotativ, ya’ni asosiy, aniq belgilovchi ma’nosi bilan cheklanib qolmaydi. Aksincha, atoqli otlar madaniy va ijtimoiy kontekstlarda ham mukammal o‘rganilishi kerak. Masalan, “Navoi” so‘zi faqatgina mashhur shoirning ismi emas, balki o‘zbek madaniyatida adabiy meros, milliy g‘urur va ma’naviy yuksaklik ramzi sifatida qabul qilinadi. Bu konnotativ ma’no “Navoi” nomi ishlatilgan matnda tinglovchi yoki o‘quvchida muayyan hissiyot va madaniy obrazlarni uyg‘otadi. [5:12]

Bundan tashqari, “O‘zbekiston” atamasi ham geografik joy nomi bo‘lishidan tashqari, mustaqillik, milliy birlik va o‘zlikni anglatadi. Siyosiy nutqlarda va ommaviy axborot vositalarida “O‘zbekiston” so‘zi bilan bog‘liq ko‘plab madaniy va tarixiy ramzlar mavjud bo‘lib, ular xalq ongida milliy birdamlik va istiqlol tuyg‘usini uyg‘otadi. Bu esa uning konnotativ qatlamining kuchliligidan dalolat beradi [7:03]. Bu konnotativ qatlamlar atoqli otlarning kundalik muloqotda, ommaviy axborot vositalarida yoki mavzuga xos ilmiy diskurslarda qanday boyitilgan ma’noga ega ekanini namoyon qiladi. Masalan, gazetada “Toshkent” deganda faqat shahar nomi emas, balki O‘zbekistonning siyosiy va madaniy markazi sifatidagi o‘rni ham tushuniladi, bu esa mavzuning kontekstiga qarab o‘zgaradi [8:05]. Shu sababli, atoqli otlar nutq va matnlarda nafaqat obyekt yoki shaxsni nomlash vositasi, balki madaniy va ijtimoiy nuqtai nazardan murakkab kommunikativ funksiyalarni bajaruvchi lingvistik birliklar hisoblanadi. Ularning konnotativ jihatlarini o‘rganish tilshunoslikni madaniyatshunoslik va psixolinguistika bilan birlashtirish, integratsiyalashgan yondashuvni talab qiladi. Bu esa o‘z navbatida tilni yanada to‘liq, boy va realistik tahlil qilishga imkon yaratadi.

Xulosa (Conclusion). Mazkur tadqiqotda atoqli otlarning konnotativ o‘zgarishlari va diskursdagi kommunikativ funksiyalari o‘zbek tilida samarali tarzda tahlil qilindi. Atoqli otlar tilning ma’no boyligini oshiradi, ijtimoiy va madaniy qirralarni jamlaydi va diskursda chuqur kommunikativ vazifalarni bajaradi. Shuningdek, atoqli otlarning stilistik va pragmatik xususiyatlari ham tilning nozik ifoda vositalarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Natijalar til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni chuqurroq anglashga imkon beradi. Ushbu tadqiqot lingvokulturologiya sohasida yangi ilmiy qarashlarni ilgari suradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Burke, K. (1969). A Rhetoric of Motives. University of California Press.
2.Crystal, D. (2003). The Cambridge Encyclopedia of the English Language. Cambridge University Press.
3.Langer, S. K. (1942). Philosophy in a New Key. Harvard University Press.
4.Vinogradov, V. V. (1959). Experience in the Study of Word Semantics. Moscow.
5.Karimov, Sh. (2015). O‘zbek Tilining Semantikasida Konnotatsiya Masalalari. Toshkent.
6.Sobirov, A. (2018). “Diskurs Tahlilida Atoqli Otlanning Roli”, Tilshunoslik Jurnali, 3(2), 45-52

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO‘LIMI
XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI

XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI

№2/4 (135)
2026 y., fevral

O‘zbekcha matn muharriri: Ro‘zmetov Dilshod
Ruscha matn muharriri: Hasanov Shodlik
Inglizcha matn muharriri: Xamrayev Nurbek, Lamers Jon
Musahhih: O‘rozboyev Abdulla
Texnik muharrir: Shomurodov Jur’at

“Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi” O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi Xorazm viloyat boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tgan. Guvoxnoma № 13-023

Terishga berildi: 09.02.2026
Bosishga ruxsat etildi: 16.02.2026.
Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8. Adadi 14.
Hajmi 10,0 b.t. Buyurtma: № 2-T

Xorazm Ma’mun akademiyasi noshirlik bo‘limi
220900, Xiva, Markaz-1
Tel/faks: (0 362) 226-20-28
E-mail: mamun-axborotnoma@academy.uz
xma_axborotnomasi@mail.ru
Telegram **(+998) 97-458-28-18**